

**D.I. RO‘ZIYEVA**

# **KORXONA IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**D.I. RO‘ZIYEVA**

# **KORXONA IQTISODIYOTI**

**(Kredit-modul bo‘yicha)**

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi  
tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan**

**TOSHKENT – 2022**

**UO‘K: 334.722(575.1)**

**KBK 65.9**

**R 86**

**D.I.Ro‘ziyeva. Korxonalar iqtisodiyoti. (O‘quv qo‘llanma). - T.:  
“Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022. 268 bet.**

**ISBN 978-9943-8531-1-9**

O‘quv qo‘llanmada «Korxonalar iqtisodiyoti» fanining predmeti va vazifalari, korxonalar iqtisodiyotidagi ahamiyati va o‘rni, yangi korxonani tashkil etish, boshqarish, korxonalar faoliyatini rejalashtirish, korxonalaridagi kadrlar siyosatini yuritish va ish haqini tashkil etish, korxonalar samaradorligini baholash, asosiy vositalari va aylanma mablag‘laridan foydalanish, korxonalar investitsion siyosati, strategiyasi va taktikasini belgilab beruvchi asosiy omillar va shart-sharoitlarni belgilash, korxonalar tijorat siri va iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash borasidagi masalalarini yoritilishiga alohida e‘tibor qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi Oliy o‘quv yurtlarining iqtisodiyot sohasi bo‘yicha ta‘lim olayotgan bakalavr ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etgan.

**UO‘K: 334.722(575.1)**

**KBK 65.9**

**Mas‘ul muharrir:**

**L.F.Amirov** – i.f.n., dot.;

**Taqrizchilar:**

**Z.T.Gayibnazarova** – i.f.d., prof.;

**I.S.Xotamov** – i.f.n., dots.

**ISBN 978-9943-8531-1-9**

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2022.

## **KIRISH**

Mamlakatimiz iqtisodiyotini mutanosib rivojlantirish, uning samarali tarkibiy tuzilmasiga ega bo‘lish va shu orqali barqaror iqtisodiy o‘shish sur‘atlariga erishish vatanimiz taraqqiyoti va xalq farovonligini ta‘minlashning muhim shartlaridan hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun esa, avvalo, ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiyotini jadal rivojlantirish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida olib borilgan islohotlar samarasi sarhisob qilindi. Bunda davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish borasida qator ishlar olib borildi.

Bunda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh qilishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.

Amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida mamlakatda iqtisodiy munosabatlar, eng avvalo, mulkchilikka bo‘lgan munosabatlarda tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Respublikada iqtisodiyotning nodavlat sektori mustahkamlandi va mamlakat iqtisodiyotida faol o‘rin tuta boshladi.

Harakatlar strategiyasining natijalarini sarhisobidan shuni ko‘rish mumkinki, iqtisodiyot bozor qonuniyati orqali boshqarilmoqda. Bu borada tizimli tadbirlarni amalga oshirishning muhim sharti sifatida quyidagilar belgilangan:

- ✓ xususiy mulk huquqini ishonchli himoya qilish ta‘minlandi, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo‘lidagi barcha to‘siqlar bartaraf etilmoqda, unga to‘liq erkinlik berish, “Agar xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va kuchli bo‘ladi” degan tamoyil amal qila boshladi;

- ✓ kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining

faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldi olinmoqda;

✓ davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uni soddallashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish borsida ularga qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda;

✓ mamlakat iqtisodiyotida qulay investitsiya muhiti yaratilib, uni tarmoqlar va hududlarga xorijiy, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish salmog'i oshib bormoqda;

✓ ishlab chiqarish korxonalarini zamonaviy boshqaruvini standart usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning roli kuchaydi;

✓ mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va joylardagi o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish.

Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk dahlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yich ta'sirchan choralar ko'rildi.

Sanoatni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda asosiy e'tibor makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va tarmoqlardagi tarkibiy o'zgarishlarga qaratiladi. 2021-yilda mamlakatimizda YaIM hajmi 734,6 trln so'm yoki 69 mlrd dollarni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2020 - yilga (59,885 mlrd dollar) nisbatan 7,4 foizga o'sgan. Aholi jon boshiga YaIM esa 21 mln so'mdan ortiqroqqa yetdi yoki 1983 dollar ekvivalentiga teng bo'ldi. 2020-yilga nisbatan qaraydigan bo'lsak bu ko'rsatgichni 5,3 foizga o'sganini ko'rishimiz mumkin.

2021-yilda YaIMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sishi qurilish sohasida 6,8%ni, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida bu ko'rsatgich 13%ni tashkil etgan bo'lsa, boshqa

xizmat tarmoqlarida 5,9%ni va mahsulotlarga sof soliqlar esa 6,7%ni tashkil qildi<sup>1</sup>.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish 8,7%ga yetdi va bu o'tgan yilgi ko'rsatgichga nisbatan 0,9%ga o'sganini ko'rsatadi. O'sishning eng jadal sur'atlari elektr ta'minoti, gaz va bug' uzatish, havoni konditsionerlash sohasida kuzatilib, 13%ni tashkil qildi. Qazib olish sektori 2020-yildagi jiddiy pasayishdan so'ng tiklanmoqda, ishlab chiqarish hajmi 10,7% oshdi (undan oldingi yilda qisqarish 22%ni tashkil qilgan edi). Ishlov beruvchi sektor yildan yilga barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etib, 2021-yil yakunlariga ko'ra, o'sish 8,2%ni tashkil qildi (2020-yilda 7,9%). 2021-yilda to'qimachilik mahsulotlari (o'sish 19,1%), kiyim-kechak (18,7%), mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar (18,9%), ichimliklar (17,7%), metallurgiya (8,1%), kimyoviy mahsulotlar (5,7%) ishlab chiqarish sanoat drayverlariga aylandi. Shu o'rinda, avtotransport (5,7%), elektr uskunalari (6,6%), koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini (qariyb 30%) ishlab chiqarishda pasayish qayd etildi<sup>2</sup>.

Mamlakatda hozirgi kunda iqtisodiy sohani rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda va bu borada maqsadga muvofiq tarzda ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. 2030-yilgacha sanoatning tarmoq tuzilmasini takomillashtirish yalpi ichki mahsulotdagi sanoat ulushini 2017-yildagi 33,5 foizdan 2030-yilda 40 foizgacha oshirishga asoslangan bo'lib, bu rivojlangan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotiga xosdir. Aytish joizki, mamlakatimizda bu maqsadni amalga oshirish yo'lida ishlar boshlab yuborilgan. Hozirgi kunda 2020, 2025, 2030-yillarga mo'ljallangan istiqbolli xomashyo va yarim tayyor mahsulotlarning har bir turini chuqur qayta ishlash bo'yicha ishlar mutlaqo yangicha dasturiy yondashuv asosida amalga oshirib kelinmoqda.

So'ngi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur ijtimoiy-iqtisodiy asoslari yaratildi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi. 2021-yil. <https://fstat.uz.uz>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi. 2021-yil. <https://fstat.uz.uz>

“Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili asosida 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonni rivojlantirishning yangi strategiyasi ishlab chiqildi va Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga oid davlat dasturi qabul qilindi.

Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shirish sur‘atlarini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘shirish sur‘atlarini ta‘minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni - 1,6 baravar va 2030 - yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda «daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar» qatoriga kirish uchun zamin yaratish. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash va yillik inflyatsiya darajasini 2023-yilgacha bosqichma-bosqich 5 foizgacha pasaytirish borasida yo‘nalishlar belgilab berilgan.

Strategiyaning 22-maqsadida esa milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish, sanoatning yetakchi tarmoklari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash, to‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko‘paytirish, charm-poyabzal sohasini rivojlantirish orqali ishlab chiqarish hajmini 3 baravarga ko‘paytirish, oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish, yirik sanoat tarmoqlari va hududiy korxonalar urtasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish kabi masalalar o‘rin olgan.

Xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish, hayotimizni tubdan o‘zgartirish maqsadida keyingi yillardagi xalqaro miqyosdagi murakkab jarayonlari va mamlakatimiz taraqqiyoti natijalarini chuqur tahlil qilgan holda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida inson qadr-qimmatini va huquqlarini so‘zsiz himoya qilish, iqtisodiyot va tadbirkorlikni jadal

rivojlantirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

2022-yilda O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti hajmi 839,9 trillion so‘m darajasida bashorat qilinmoqda. YaIM o‘shishi 6% bo‘lishi kutilmoqda. Qurilish hajmini 8,1 foizga, sanoat ishlab chiqarishini 7 foizga, xizmatlar ko‘rsatishni 6,5 foizga, qishloq xo‘jaligini 3,3 foizga oshirish rejalashtirilgan.

Ayni paytda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari salmog‘i ortib, ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi har bir korxonalar, firma yoki tadbirkor raqobat bozorida sifatli mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishda munosib o‘rin egallashga intilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev yangi – 2022-yil munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan tabrigida, “2022-yilda iqtisodiyotimiz tarmoqlari va tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish e’tiborimiz markazida bo‘ladi”, – deb ta’kidlab o‘tgan edi.

“Korxonalar iqtisodiyoti” fani iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat va korxonalaridagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish va uni innovatsion rivojlantirish yechimlarini izlashda hamda bakalavriat ta’limi iqtisodiyot yo‘nalishi talabalarining bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.



## **I BOB. KORXONA IQTISODIYOTI KURSINING MAZMUNI VA VAZIFALARI**

### **1.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasining iqtisodiy ahamiyati**

2020-yil 29-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan bu galgi Murojaatnomada ham ko‘p masalalar, xususan, iqtisodiyot va davlat boshqaruvi rahbarlari, bozor ishtirokchilariga kuchli messej berildi. Quyida murojaatnomada davlat rahbari tomonidan bildirilgan asosiy tezislar keltiriladi.

Kambag‘allikka qarshi kurashish 2021-yilning asosiy iqtisodiy masalasiga aylanadi va 2021-yil 1-martdan boshlab, aholining minimal iste‘mol xarajatlari e‘lon qilinadi. Shuningdek, hukumat ijtimoiy kafolatlarni bir tizimga keltirib, ularni minimal me‘yor darajalarida bosqichma-bosqich ta‘minlash bo‘yicha dastur ishlab chiqildi.

Kambag‘allik muammosi haqida gapirish, uni rasmiy minbardan tan olish bosqichidan o‘tdik. Keyingi marrada kambag‘al aholi kim degan savolga javob berish zarur. Aholining minimal iste‘mol xarajatlari mana shu masalaga oydinlik kiritadi. Bundan tashqari, eng kam iste‘mol xarajatlarini e‘lon qilib borish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 39-moddasining to‘liq ijrosini ta‘minlash uchun ham xizmat qiladi.

Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta‘minot olish huquqiga ega. Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo‘yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo‘lishi mumkin emas. (O‘zbekiston Konstitutsiyasi 39-moddasi).

Bundan tashqari, ijtimoiy reestrning 2022-yildan ishga tushishi va kambag‘allik hisobini aniq yuritish va aholiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yordam berishni osonlashtirmoqda. «Ijtimoiy reestr»da «temir daftar»dagi barcha ma‘lumotlar qamrab olinib, ehtiyojmand oilalarga 30 dan ziyod ijtimoiy xizmatlar elektron shaklda ko‘rsatiladi. Aslida ijtimoiy reestrning joriy etilishi davlat tomonidan ko‘rsatiladigan yordamning

haqiqiy egasiga borishi ham ta'minlanadi, negaki, barcha ro'yxat va xizmatlar elektron, shaffof yuritilishi rejalashtirilgan.

Iqtisodiyotda so'nggi yillarda tub burilish kechayotgan bir vaqtda xususiylashtirish va transformatsiya jarayoni davom etmoqda. Bunda, davlat kompaniyalarini transformatsiyalash jadallashtiriladi. Davlat rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan "Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda davlat kompaniyalarini transformatsiya qilishni jadallashtirish kerak<sup>3</sup>", deb ta'kidlandi. Kelajakda «Navoiy kon-metallurgiya kombinati», «O'zbekneftgaz», «O'zbekgidroenergo», «O'zavtosanoat» aksiyadorlik jamiyatlari xalqaro moliya bozoriga chiqib, davlat kafolatisiz mablag' jalb etish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Global reyting agentliklari tomonidan har bir tarmoq faoliyatini o'rganishning reyting tizimi mavjud. Bunda ishlab chiqarish korxonalarining mavjud muammolar reyting agentliklari tomonidan baholanadi. Bu esa davlat kompaniyalarini yanada samaraliroq va ochiq-oshkora ishlashga undaydi.

Shuning uchun elektr energetikasi, neft-gaz va kimyo sanoati, mashinasozlikdagi yirik korxonalar hamda tijorat banklarini isloh qilishga Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda MacKenzie, Boston Consulting Group, Rothschild kabi xalqaro tan olingan kompaniyalar jalb etildi.

Shu bilan birgalikda, yurtimizda sanoat korxonalarini ishlab chiqarish hajmini oshirish va ularni eksport qilish darajasini ko'paytirishga e'tibor qaratilmoqda. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda nafaqat davlat korxonalarini, balki xususiy sektor vakillari ham o'z o'rniga ega bo'lib boryapti.

O'zbekistondagi eng yirik kompaniyalardan biri – Artel mamlakatimizdagi ishlab chiqarish korxonalarini orasida birinchi bo'lib xalqaro "katta uchlik" reyting agentliklaridan biri – Fitch reytingida «B» barqaror reytingiga ega bo'ldi. Bu haqida Fitch Ratings rasmiy saytida

---

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Олий Мажлисга Мурожаатномаси. "Халқ сўзи", 2020-йил 30 декабрь.

e'lon qilindi. Shunday qilib, Artel O'zbekistonning xalqaro reytingda o'rin olgan birinchi xususiy ishlab chiqarish kompaniyasiga aylandi.

Fitch o'z hisobotida Artel kompaniyasini "mahalliy bozordagi yetakchi mavqega ega", "faoliyatidan olinadigan kutilgan barqaror fondlari" va xalqaro miqyosda taniqli, sifatli maishiy texnika ishlab chiqaruvchilar bilan "muvaffaqiyatli va uzoq muddatli hamkorlikka ega", deb ta'rifladi. Reyting kompaniyaning moliyaviy va tijorat bo'yicha holatini izchil baholashga asoslangan va u kompaniyaning ishonchli qarz oluvchi sifatida mustaqil ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Ta'kidlanishicha, 2021-yilda strategik ahamiyatga ega bo'lgan 32 ta yirik korxonalar va tarmoqni transformatsiya qilish ishlari amalga oshiriladi.

Tarkibiy islohotlarning yana bir yo'nalishi bu – davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirishdir ya'ni davlat ulushlari sotiladi, xususiylashtirish jadallashtiriladi. Kelgusi yilda «Farg'onaaazot» va «Dehqonobod kaliy» zavodlari, «Koka-kola ichimligi» korxonasi, «Bildirsoy» va «Chorvoq» oromgohlari, «Ichan qal'a» va Hyatt Regency mehmonxonalari, «Poytaxt» biznes majmuasi, alkogol, yog'moy kabi tarmoqlardagi 83 ta yirik korxonadagi davlat ulushi sotuvga qo'yilishi fikrimiz isbotidir. Albatta, bu kabi aktivlar ochiq va samarali sotilishi kerak. Bunga esa mamlakat rahbari ta'kidlaganidek, xalqaro moliyaviy va huquqiy maslahatchilar jalb etiladi.

Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlashicha, davlat ulushi bo'lgan korxonalar soni kelgusi ikki yilda kamida 3 barobar qisqartiriladi.

Albatta, davlat ulushi sotilish strategiyasi tanlanadi, ko'p hollarda istiqbolli xaridorga ulushlar sotilishi mumkin. Masalan, davlat banklarini yirik strategik investorlarga sotilishi, avvalo, ularning boshqaruv tizimi, ish uslublari va moliyaviy menejmentini takomillash-tirish imkonini beradi. Ushbu masalada shaffoflik va faqat oshkoralikni yuqori darajada ta'minlash talab etiladi.

Yuqoridagilardan tashqari, bozorlarni monopoliyadan chiqarish ishlari jadallasadi.

2021-yilda davlat va xususiy elektr stansiyalari hamda iste'molchilar o'rtasida elektr energiyasi ulgurji bozorini shakllantirish boshlandi. Tadbirkorlarni bu bozorlarga jalb etgan holda, ular tomonidan energiya mahsulotlarini import qilish orqali yoki mamlakat hududida ishlab chiqarib, erkin sotishi uchun imkoniyatlar yaratilishiga shiroit yaratildi. Bu bilan tez orada energiya resurslari tanqisligi muammosini bartaraf etiladi.

Tabiiy gaz ta'minoti sohasida monopoliya bekor qilinadi, ishlab chiqaruvchi va importyorlar birjada gazni sotish, ulgurji iste'molchilar esa gazni sotib olish huquqiga ega bo'ladi. Suyultirilgan gaz bozorida xususiy sektor ishtiroki kengaytirilib, uning importiga bojlar bekor qilinadi. Ushbu tashabbuslar ham mamlakatdagi energiya tanqisligi muammosi bartaraf etiladi.

2021-yilning 1-martdan boshlab kumushni birja orqali ishlab chiqaruvchilarga erkin sotish tartibi joriy etildi. Hozirgi kunda O'zbekistonda kumush 2 ta korxonasi, ya'ni Navoiy kon metallurgiya korxonasi va Olmaliq kon-metallurgiya kombinati tomonidan ishlab chiqariladi. Ammo, korxonalar ishlab chiqargan kumush mahsulotini jahon bozoridagi narx bo'yicha faqat Markaziy bankka sotishga majbur hisoblanadi. Bu boradagi liberalizatsiya, bir tarafdin kumush buyumlari ishlab chiqarish ichki bozorini rivojlantiradi, ikkinchidan, bu ikkita korxonasi transformatsiyada muhim qadam hisoblanadi.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, pandemiyada biznesni himoya qilish tizimi ishga tushdi. Bunda, turizm, transport va umumiy ovqatlanish sohalariga imtiyozlar bir yilga uzaytiriladi. Xususan, 20 mingta tadbirkorlik subyektining joriy yil yakunigacha kechiktirilgan 400 milliard so'mlik yer va mol-mulk solig'ining to'lash muddati yana bir yilga uzaytiriladi. Pandemiya boshlanishi bilan biznesga berilgan imtiyozlar, ko'maklar yana davom ettirilishi ta'kidlandi. Bundan tashqari, 1 milliard so'mgacha davlat xaridlari doirasida avans miqdori 30 foizga yetkazilib, tadbirkorlar qo'shimcha 1,5 trillion so'mgacha aylanma mablag'larga ega bo'ladi.

Xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash bo'yicha choralar ko'rildi. Xususan, Biznes-ombudsmanga mulkka doir huquqlarni buzgan rahbarlarni ma'muriy javobgarlikka tortish vakolati berilmoqda.

Shu bilan birga, tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq 5 mingga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar qayta ko'rib chiqilib, ularning soni qisqartiriladi hamda Tadbirkorlik kodeksi ishlab chiqilmoqda.

Tadbirkorlarni tekshirishga e'lon qilingan moratoriy yana bir yilga uzaytirildi. Bundan 4 yil oldin tadbirkorlik subyektlarida tekshirishlar o'tkazishga moratoriy e'lon qilgandi. Buning natijasida o'tgan davrda tadbirkorlar soni 2 barobar ko'payib, 400 mingtaga yetdi. Shuning uchun moratoriy muddati yana bir yilga uzaytirilmoqda.

## **1.2. “Harakatlar strategiyasidan–Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyilining mazmuni, mohiyati va fanni o‘rganishdagi ahamiyatli tomonlari**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasining iqtisodiy ahamiyati. 2020-yilda “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish” Davlat dasturiga muvofiq yangi O‘zbekistonni barpo etish bo'yicha barcha sohalarda islohotlar qat'iy davom ettirildi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi va xalqaro reyting agentliklari tahlillariga ko'ra, O‘zbekiston Respublikasi dunyoning sanoqli davlatlari qatorida ijobiy o'sish sur'atlarini saqlab qoldi. Yevropa Ittifoqi tuzilmalari bilan yaqin hamkorlikda mamlakatimizga kengaytirilgan savdo preferensiyalari – “GSP” tizimini tatbiq etish bo'yicha, muhim qadamlar tashlandi. Ushbu tizim kelgusida respublikamizda ishlab chiqariladigan 6 mingdan ziyod turdagi mahsulotlarni Yevropa bozoriga boj to'lamasdan olib kirish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, birgina to'qimachilik mahsulotlarining yillik eksportini 300 million dollarga oshirish uchun sharoit yaratadi.

2020-yilda mamlakatimizning xalqaro moliya bozorlariga chiqish imkoniyatlari yanada yaxshilanib, milliy valyutada 2 trillion so'mlik davlat yevroobligatsiyalari past foizlarda joylashtirildi.

2020-yil respublikamizda 197 ta yirik, minglab kichik va o‘rta korxonalar hamda infratuzilma obyektlari barpo etildi. Jumladan, “Navoiyazot”da ammiak va karbamid ishlab chiqarish kompleksi hamda azot kislotasi zavodi, Muborak, Gazli va Sho‘rtan neft-gaz korxonalarida suyultirilgan gaz ishlab chiqarish qurilmalari, Toshkent metallurgiya zavodi kabi yirik quvvatlar ishga tushirildi.

Birgina energetika sohasida xorijiy investorlar bilan davlat-xususiy sheriklik asosida 6 ta yangi elektr stansiyasini barpo etish ishlari boshlandi. Ularning umumiy qiymati 2 milliard dollar bo‘lib, 2 ming 700 megavatt quvvatga ega.

Qishloq xo‘jaligidagi sohasida olib borilgan islohotlar, yer maydonlari to‘liq xususiy klaster va kooperatsiyalarga berilgani paxtachilikda hosildorlikni bir yilda o‘rtacha 10 foizga oshirish imkonini yaratdi.

Tadbirkorlikni keng qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘plab imtiyoz va yengilliklar berildi. Tadbirkorlik sub'yektlariga 100 trillion so‘m yoki 2016 - yilga nisbatan qariyb 4 barobar ko‘p kreditlar ajratildi.

Bundan tashqari, o‘zini o‘zi band qilgan aholi uchun soliq imtiyozlari berilishi hamda ko‘pgina cheklovlarning bekor qilinishi tufayli 500 ming nafar fuqaro mehnat faoliyatini qonuniy tarzda yo‘lga qo‘ydi.

O‘zbekiston “Ochiq ma’lumotlarni kuzatish” xalqaro indeksida 125 pog‘onaga ko‘tarilib, 44-o‘rinni egalladi. Bunda davlat va jamiyat boshqaruvi sohasidagi 20 ta yo‘nalish bo‘yicha ko‘rsatkichlarni oshkor qilib borish amaliyoti joriy etilgani muhim ahamiyat kasb etdi.

“Iqtisodiy erkinlik” reytingida ham mamlakatimizning 26 pog‘ona ko‘tarilgani islohotlarimizning xalqaro maydondagi yana bir e’tirofi bo‘ldi<sup>4</sup>.

Mamlakat iqtisodiyotida so‘nggi yillarda iqtisodiyotda pozitiv o‘zgarish kuzatildi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar birgina

---


<sup>4</sup> <https://Fuzlidep.uz/FuzFnews-of-uzbekistanF7998>

2021-yil yakunlari bo'yicha 4,2 mlrd. dollarni tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 3,1 milliard dollarga yoki 3,7 barobar o'sdi. Investitsiyalarning YaIMdagi ulushi 37%ga yetdi. Iqtisodiy o'sish 2020-yilda 5,6%ni, 2021-yilda esa 6,9 %ni tashkil etdi, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2020-yilda 6,6%ga 2021-yilda esa,9,0%ni, 2020 - yilda eksport 28%ga, 2021-yilda esa 17, 2 % ko'paydi, oltin-valyuta zaxiralarimiz 2,2 mlrd. dollarga ortib, 28,6 mlrd. dollarga yetdi.

Mamlakatda soliq islohoti bo'yicha ham ijobiy natijalarga erishildi. Yangi soliq siyosati doirasida ish haqiga soliq yuki 1,5 barobar kamaytirildi, natijada rasmiy sektorda ishlayotganlar soni yil davomida 500 mingtaga ko'paydi. QQS stavkasi 20%dan 15%ga tushirildi, buning hisobidan soliq to'lovchilar ixtiyorida 2 trln so'm qoldi, istiqbolda esa bu raqam 11 trln so'mni tashkil etishi kutilmoqda. Islohotlarimiz natijasida 93 mingta yoki 2018-yilga nisbatan qariyb 2 barobar ko'p yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etildi.

YaIM tarkibida tovarlar ishlab chiqarishda 295 482,7 mlrd. so'm, xizmatlar ko'rsatish sohasida – 186 616,8 mlrd. so'm miqdorida yalpi qo'shilgan qiymat yaratildi, mahsulotlarga sof soliqlar esa 37 725,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Joriy davrda o'rtacha almashuv kursi bo'yicha hisoblangan nominal YaIM hajmi 49 200,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi (2020 -yil yanvar –sentabr oyida – 43 068,1 mln. AQSH dollari).

Investitsiya 2022-yilda YaIM 5,9 foizga o'sishi prognoz qilinmoqda. 2022-yilda O'zbekiston iqtisodiy o'sish sur'ati 5,9 foizni tashkil etib, YaIM hajmi qariyb 840 trln. so'mga yetishi ko'zda tutilmoqda. Tashqi savdo aylanmasi 46,3 mlrd. dollarni tashkil etishi prognoz qilingan. Bundan tashqari, inflyatsiya darajasi 2022-yilda 9 foiz atrofida bo'lishi kutilmoqda.



2022-yilda YaIM o‘shish sur‘ati 5,9 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda. 2022-yilda YaIM hajmi qariyb 840 trln so‘mni (74,2 mlrd dollar) tashkil etishi ko‘zda tutilmoqda. Aholi jon boshiga YaIM 23,8 mln so‘m (2,1 ming dollar) miqdorida shakllanishi rejalashtirilgan.

2020-yilda YaIM hajmi 580,2 trln so‘mni tashkil qilgan edi. Joriy yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, YaIM joriy narxlarda 519,8 trln so‘mni tashkil etdi.

2022-yilda YaIM o‘shish sur‘atini 5,9 foizga yetkazish va 2023-yilda 6,2 foiz, 2024-yilda 6,6 foiz o‘shishga erishish rejalashtirilgan. 2021-yil yakuni bo‘yicha esa mamlakat YaIM o‘shishi 6,5–7 foiz atrofida bo‘ldi.


2022-yilda YaIM tarkibida qo‘shilgan qiymat 92,6 foiz hamda mahsulotlar va eksport-

import operatsiyalari hisobidan olingan sof soliqlar tushumi 7,4 foizni tashkil etdi.

2022-yilda asosiy tarmoqlar kesimida YaIM tarkibi quyidagicha shakllandi:

Asosiy tarmoqlarda kutilayotgan real o‘shish miqdori:

- qurilish — 8,1 foiz;
- sanoat — 7,0 foiz;





- xizmatlar sohasi— 6,5 foiz;
- qishloq xo‘jaligi— 3,1 foiz.

Shuningdek, mahsulotlar va eksport-import operatsiyalari hisobidan olingan sof soliqlar tushumi o‘sishi 7,4 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

2022-yilda tashqi savdo aylanmasi 46,3 mlrd dollarni tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Shundan:

- eksport— 20,2 mlrd. dollar;
- import— 26,1 mlrd. dollar.

### **1.3. Korxonalar iqtisodiyoti fanining obyekti, predmeti, o‘rganish usullari va vazifalari**

«Iqtisodiyot» fan sifatida tabiatda hamda inson, jamoa va jamiyat hayotida vujudga keluvchi turli xil iqtisodiy jarayon va hodisalarni prognozlashtirish, tahlil qilish va baholash bo‘yicha bilimlar majmuasini ifoda etadi. U bir inson uchun ham, butun jamiyat uchun ham zarur bo‘lgan moddiy va nomoddiy obyektlarning katta qismini hamda moddiy va ma‘naviy ne‘matlarni tayyorlash va taqsimlash usullari va jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Agar «Iqtisodiyot» fanining me‘yoriy jihatlari korxonalar, firma va davlatning iqtisodiy siyosatini ta‘minlasa, pozitiv jihatlari esa real voqelikni baholaydi va tahlil qiladi hamda uning rivojlanishidagi qonuniyatlarni aniqlaydi.

Shu tariqa «Iqtisodiyot» fani izlanish va uslubiy vazifalarni bajaradi hamda jamiyat hayotining barcha soha va tarmoqlarida qabul qilinuvchi amaliy qarorlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Fan-texnika taraqqiyoti sharoitlarida iqtisodiyot fani jamiyatda bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanib bormoqda. Iqtisodiy asoslab berilgan hisob-kitob va prognozlar «Iqtisodiyot» fanining muhim tarkibiy qismi sifatida xo‘jalik tavakkalchiligini kamaytirishga, ishlab chiqarish va resurslardan foydalanishni optimallashtirishga, shuningdek, yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishda eng to‘g‘ri tanlov olib borishga imkon yaratadi.

Iqtisodiyot – ilmiy kategoriyaga qaraganda ishlab chiqarish kategoriyasiga yaqinroq bo‘lib, fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarining o‘zaro samarali aloqalari, resurslardan oqilona foydalanish va ratsional boshqaruv tufayli faoliyat ko‘rsatmoqda va rivojlanib bormoqda.

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta‘minlashda kelgusi davr uchun puxta o‘ylangan va har tomonlama asoslangan chora-tadbirlar, muhim vazifa va yo‘nalishlar, turli darajalardagi iqtisodiy taraqqiyot dasturlarining ishlab chiqilishi va aniq belgilab olinishi kelajakda mamlakat iqtisodiyotining rivojini muvaffaqiyat garovi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat uchta o‘zaro bog‘liq muammolarga duch keladi. Bunda:

Birinchi, nimani va qancha miqdorda ishlab chiqarish?

Ikkinchi, qanday ishlab chiqarish va qancha harajatlarni zarur bo‘ladi?

Uchinchi, kim uchun ishlab chiqariladi va ular qanday taqsimlanadi?

Bu masalalarni hal qilishda jahon amaliyoti natijalaridan ma‘lumki, ba‘zi salbiy hodisalarga duch kelinmoqda. Masalan, mamlakat iqtisodiyotidagi krizislar, monopolizm, inflyatsiya, ishsizlik, iste‘mol bozoridagi nomutanosiblik, resurslarni, tovar va xizmatlarning defitsitligi, pul muomalasidagi nuqson va kamchiliklar shular jumlasidandir.

Yuqorida keltirilgan uchta muammoni hal qilish uchun mavjud kamchiliklar o‘rganilishi, ularni bartaraf qilish yo‘llarini izlab topish o‘z-o‘zidan hal bo‘lmaydi. Buning uchun ishlab chiqarish korxonalarining faoliyatini to‘liq o‘rganish, baholash va bu boradagi qonuniyatni yanada takomillashtirish kabi masalalarni hal qilish zarurati yuzaga keladi.

Bu masalalarni hal qilish nazariy va amaliy bilimlarni mustahkam egallagan, o‘z bilimini ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy vazifalarni hal etishda ijodiy qo‘llay oluvchi, masalaning mohiyatiga to‘g‘ri yondashuvchi, masalani yechimiga oid qarorlarni qabul qiluvchi mutaxassislariga bog‘liqdir.

Bunday mahoratlarga ega bo'lish sifatli iqtisodiy, ko'proq amaliy iqtisodiy bilim beruvchi adabiyotlar, darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish va chop etishga ham bog'liq.

“Korxonalar iqtisodiyoti” fani iqtisodiyotning birlamchi bo'g'ini muammolari va ishlab chiqarish omillari bilan bog'liq muammolari haqidagi fan bo'lib, aholi va xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatishning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'muriy-xo'jalik mexanizmlarini o'rganuvchi hamda ochib beruvchi fandır. U tabiat va jamiyatning muayyan ishlab chiqarish sharoitlarida rivojlanishining obyektiv qonunlari namoyon bo'lishi va amal qilishiga, shuningdek, korxonalar faoliyatiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi davlat miqyosida qabul qilinuvchi qoida, me'yoriy va qonun hujjatlariga tayanadi.

Mazkur fanning tadqiqotlari obyektı bu turli mulk shakliga ega bo'lgan kichik, o'rta va yirik korxonalar bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasining “Korxonalar to'g'risida”gi Qonuni asosida tashkil qilinadi.

Korxonalar iqtisodiyotning bir bo'g'ini bo'lib, unda eng malakali kadrlar mujassamlangan hamda samarali boshqaruv – menedjment qo'llanib, resurslardan oqilona foydalanish va zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish masalalari hal qilinadi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning yuqori sifat ko'rsatkichlarini saqlagan holda xarajatlarni minimallashtirish va daromad (foyda)ni maksimallashtirish deyarli har bir korxonaning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Fanning predmeti bozor munosabatlari sharoitida korxonalarda resurslardan oqilona foydalanish, ratsional boshqaruv, investitsion va tadbirkorlik faolligi asosida korxonalar faoliyatining nazariy va amaliy asoslarini, oshirish yo'llarini aniqlash bilan ifodalanadi.

Fanning predmetini tashkil qiluvchi eng asosiy muammo va masalalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- \* bozor munosabatlarida korxonaning roli, o'rni va xatti-harakatlari hamda davlat idoralari bilan o'zaro aloqalari;

- \* korxonaning tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv mexanizmi;

- \* ishlab chiqarishni rejalashtirish va prognozlashtirish;
- \* korxonaning innovatsion va investitsion faoliyati;
- \* resurs korxonaning salohiyati va resurslardan foydalanish;
- \* ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini baholash va tahlil qilish;
- \* korxonaning tijorat sirlari va iqtisodiy xavfsizligi.

Fanning maqsadi bo‘lajak mutaxassislarni ishlab chiqarishni tashkil qilish, rejalashtirish va boshqarish vazifalarini malakali tarzda hal qilish, korxonaning xarajat va daromadlari qanday yuzaga kelishi hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyati mavjud bo‘lgan yo‘llarni topish demakdir.

«Korxonalar iqtisodiyoti» fan sifatida boshqa iqtisodiy fanlar bilan, jumladan, «Iqtisodiy nazariya», «Mikroiqtisodiyot», «Makroiqtisodiyot», «Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish», «Korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil qilish», «Xomashyo yetkazib berish va mahsulotni sotishni o‘rganish» fanlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda korxonalarining tashkiliy tuzilmasidan tashqari joriy va istiqboldagi ishlab chiqarishni rejalashtirish, mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi o‘rganiladi hamda mehnatni tashkil qilish va haq to‘lashning asoslari ishlab chiqiladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Korxonalar iqtisodiyoti fani nimani o‘rgatadi?
2. Korxonalar iqtisodiyoti fanining predmetini ayting.
3. Korxonalar iqtisodiyoti fani qanday fanlar bilan bog‘liq?
4. Korxonalar iqtisodiyoti fanining obyekti va uni o‘rganish usullarini ayting.
5. Korxonalar iqtisodiyoti fanining vazifalarini ayting.
6. “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyilining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
7. O‘zbekiston Respublikasining taraqqiyot strategiyasini sanab bering.

### **Test topshiriqlari:**

**1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida keltirilgan asosiy iqtisodiy masala**

### **qanday masala?**

- A) iqtisodiyot va davlat boshqaruvida shaffoflikka erishish;
- B) kambag'allikka qarshi kurashish;
- S) kadrlar sifatiga alohida e'tiborni qaratish;
- D) barcha javoblar to'g'ri.

**2. 2021-yil 1-martdan boshlab, aholining minimal iste'mol xarajatlarini e'lon qilishda "Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega" degan jumla O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida keltirilgan?**

- A) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida keltirilgan;
- B) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 38-moddasida keltirilgan;
- S) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasida keltirilgan;
- D) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40-moddasida keltirilgan.

### **3. Ijtimoiy reestr deganda nimani tushunasiz?**

- A) kambag'allik aniq hisobini yuritish tushuniladi;
- B) ijtimoiy himoyaning shaffofligi tushuniladi;
- S) «temir daftar»dagi barcha ma'lumotlar qamrab olinishi tushuniladi va ularga ijtimoiy yordam ko'rsatilishi tushuniladi;
- D) «temir daftar»dagi barcha ma'lumotlar qamrab olinib, ehtiyojmand oilalarga 30dan ziyod ijtimoiy xizmatlar elektron shaklda ko'rsatiladi.

**4. 2021-yilda bozorlarni monopoliyadan chiqarish ishlarini jadallashtirish jarayoni deganda nimani tushunasiz?**

- A) davlat va xususiy elektr stansiyalari, hamda iste'molchilar

oʻrtasidagi elektr energiyasi ulgurji bozori shakllantiriladi;

B) tabiiy gaz taʼminoti sohasida monopoliya bekor qilinadi;

S) kumushni birja orqali ishlab chiqaruvchilarga erkin sotish tartibi joriy etiladi;

D) barcha javoblar toʻgʻri.

**5. Tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash, pandemiyada biznesni himoya qilish jarayoni deganda nimani tushunasiz?**

A) turizm, transport va umumiy ovqatlanish sohalariga imtiyozlar bir yilga uzaytirilishi;

B) xususiy mulk daxlsizligini taʼminlash boʻyicha choralar koʻriladi;

S) tadbirkorlarni tekshirishga eʼlon qilingan moratoriy yana bir yilga uzaytiriladi;

D) barcha javoblar toʻgʻri.

**6. “Korxonalar iqtisodiyoti” bu ?**

A) aholi va xalq xoʻjaligi uchun zarur boʻlgan mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat koʻrsatishning ijtimoiy-iqtisodiy va maʼmuriy-xoʻjalik mexanizmlarini oʻrganuvchi va ochib beruvchi fandır;

B) turli mulk shakliga ega boʻlgan kichik, oʻrta va yirik korxonalarni oʻrganuvchi va ochib beruvchi fandır;

S) ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning yuqori sifat koʻrsatkichlarini saqlagan holda xarajatlarni minimallashtirish va daromad (foйда)ni maksimallashtirishni oʻrganuvchi va ochib beruvchi fandır;

D) barcha javoblar toʻgʻri.

## **II BOB. KORXONA – MUSTAQIL XO‘JALIK FAOLIYATINI YURITUVCHI BOZOR SUBYEKTI**

### **2.1. Milliy iqtisodiyot rivojlanishida korxonaning o‘rni va roli**

O‘zbekiston Respublikasining “Korxonalar to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq: “Huquqiy shaxs huquqiga ega bo‘lgan, mulkchilik huquqi yoki xo‘jalikni to‘la yuritish bo‘yicha o‘ziga qarashli mol-mulkdan foydalanish asosida mahsulotni ishlab chiqaradigan, sotadigan yoki mahsulotni ayirboshlaydigan, ishlarni bajaradigan, xizmat ko‘rsatadigan, bellashuv hamda mulkchilikning barcha shakllarining huquqliligi sharoitida amaldagi qonunlarga muvofiq o‘z faoliyatini ruyobga chiqaradigan mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyekt **korxon**a deb ataladi”.

**Korxon**a bu – yuridik shaxs maqomiga ega, mustaqil ravishda xo‘jalik faoliyati yurituvchi subyekt bo‘lib, o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulkidan foydalanish asosida iste’molchilar (xaridorlar) talabini qondirish va daromad (foyda) olish maqsadida mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqaradi va sotadi yoki ayirboshlaydi.


Korxonaning faoliyati maqsadlarini ro‘yobga chiqarishga o‘z mahsuloti, ishlari va xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qanoatlantirish hamda ana shu asosda mehnat jamoasi a‘zolarining ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlarini hamda korxon

aning mol-mulki egasining manfaatlarini ta‘minlash yo‘li bilan erishiladi.

O‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sud

## O‘zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoq va sohalarida 2022-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar.

*2022-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*



**1-rasm. Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar.**

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining turli tarmoq va sohalarida faoliyat olib borayotgan turli xil mulkchilik shakliga ega bo‘lgan 495,3 mingta xo‘jalik faoliyati yurituvchi subyekt mavjud bo‘lib<sup>5</sup>, ulardan qariyb 80 foizini kichik korxonalar hamda mikrofirmalar tashkil etadi. Korxonalarining eng katta qismi savdo va umumiy ovqatlanish (34%), qishloq xo‘jaligi (41%), sanoat (9,4%) va qurilish (56%) sohalarida ro‘yxatga olingan. Jami korxonalar miqdorida nodavlat sektorining salmog‘i katta bo‘lib, 82 %ni tashkil qiladi.

Korxonalarining faoliyati milliy iqtisodiyot va uning tarmoqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatadi. Korxonalar qanchalik yaxshi, samarali va rentabelli ishlasa, butun iqtisodiyotning, jumladan, ularning o‘zlarining ham ko‘rsatkichlari yuqori bo‘ladi.

O‘zbekistonda ko‘plab mikrofirmalar, kichik va yirik ishlab chiqarish korxonalari faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, ular iqtisodiyotning

<sup>5</sup> Ўзбекистон Республикасининг 1991 йил 15 февралдаги “Ўзбекистон Республикасидаги корхоналар тўғрисида”ги 229-ХП-сон Қонуни.

Ўзбекистоннинг статистик маълумотлари. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)



deyarli barcha tarmoqlarini – og‘ir sanoatdan yengil sanoatgacha, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlashdan ilmiy ishlab chiqarishgacha qamrab olgan. Ular o‘z faoliyatida ishlab chiqarishning barcha omillaridan – yer, tabiiy va mehnat resurslari, texnika va texnologiyalar, investitsiyalar, hozirgi zamon fani tomonidan ishlab chiqarishning asosi yoki mamlakatning milliy boyligi deb ataluvchi zamonaviy axborot tizimidan foydalanadi.

**Korxonalar faoliyati maqsadlari** o‘z mahsulotlari, ishlari va xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish, shu asosda mehnat jamoasi a‘zolarining ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlarini hamda korxonalar mulk egasi manfaatlarini ta‘minlashdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasining “Mulchilik to‘g‘risida”gi Qonunida belgilab qo‘yilgan mulch shakllariga binoan korxonaning quyidagi turlari farqlanadi:

- jismoniy shaxslarning xususiy mulkiga asoslangan korxonalar;
- shirkat (jamoalar) mulkiga asoslangan jamoalar, oilalar, mahalla korxonalar, ishlab chiqarish kooperativlari, xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlariga, jamoalar tashkilotlariga qarashli korxonalar hamda jamoalar mulkining boshqa shakllariga asoslangan korxonalar;
- aralash mulkka asoslangan davlatlararo va qo‘shma korxonalar hamda mulchilikning turli shakliga mansub to‘liq yoki xissador yo‘sinda ishtirok etishga asoslangan boshqa korxonalar.

Mulchilik shakllaridan qat‘iy nazar, korxonalar ishchilar soniga qarab **kichik yoki o‘rta korxonalar**ga bo‘linadi.

Mulchilikning barcha shakliga mansub korxonalar ixtiyoriylik asosida faoliyatni muvofiqlashtirish, o‘z huquqlarini himoya qilishni ta‘minlash, tegishli davlat idoralari va boshqa idoralarda, shuningdek, xalqaro tashkilotlarda umumiy manfaatlarini idora etish maqsadida xo‘jalik uyushmalariga: konsernlarga, konsorsiumlarga hamda tarmoq tamoyillari, hududiy yoki boshqa tamoyillar asosida o‘zga birlashmalarga uyushishlari mumkin.

Korxonalar o‘z Nizomiga muvofiq boshqariladi. Korxonalar boshqaruv tuzilmasi, shakli va uslublarini mustaqil aniqlaydi, shtatlarini belgilaydi.

Mulkdor yoki xo‘jalikni yuritish huquqi subyekti korxonani bevosita yoxud u vakolat bergan idoralar orqali boshqaradi. Ular bu huquqlarni korxonaga kengashiga yoki korxonaga nizomida ko‘zda tutilgan hamda mulkdor va mehnat jamoasi manfaatlarini idora etadigan boshqa idoraga topshirishi mumkin.

**Korxonaga rahbarini** yollash (tayinlash, saylash) va bo‘shatish korxonaga mol-mulki egasining huquqi bo‘lib, bu huquqni u bevosita, shuningdek, o‘zi vakolat bergan idoralar yoki korxonaga kengashi orqali amalga oshiradi.

## 2.2. Korxonaning belgilari, funksiyalari va vazifalari

Korxonani turli **belgilariga** ko‘ra tavsiflash mumkin:

- *ishlab-chiqarish va texnika munosabatlarida korxonaga* – bu, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va turlari, ularni tayyorlash texnologiyasiga miqdor va sifat jihatidan mos keluvchi mashinalar tizimi;

- *ijtimoiy munosabatlarda korxonaga* – bu, turli kategoriyadagi xodimlar o‘rtasida ularning huquq va majburiyatlari asosida yuzaga keluvchi munosabatlar;

- *tashkiliy-huquqiy munosabatlarda korxonaga* huquqiy shaxs sifatida faoliyat yuritadi;

- *moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarda korxonaga* – bu, tarmoqning mustaqil bo‘g‘ini bo‘lib, o‘z-o‘zini moliya bilan ta‘minlash, o‘z-o‘zini boshqarish, ya‘ni bozor munosabatlari tamoyillarida faoliyat yuritadi.

Korxonaga o‘ziga xos bo‘lgan ma‘lum **xususiyatlarga** ega:

*birinchidan*, korxonaga o‘ziga tegishli va xo‘jalik boshqaruvidagi xususiy mulkka ega bo‘lib, ushbu mulk uning faoliyati moddiy-texnikaviy imkoniyatlarini, iqtisodiy mustaqilligi va ishonchligini ta‘minlaydi;

*ikkinchidan*, korxonaga kreditorlar, jumladan, davlat bilan o‘zaro munosabatlardagi majburiyatlar yuzasidan o‘z mulki bilan javob berish xususiyatiga ega bo‘ladi;

*uchinchidan*, korxonada xo‘jalik aylanmasida o‘z nomidan harakat qilishi mumkin, ya‘ni qonunga asosan xo‘jalik faoliyati yurituvchi hamkorlar, mahsulot (ish, xizmat) iste‘molchilari, xomashyo va asbob-uskuna yetkazib beruvchilar hamda boshqa huquqiy va jismoniy shaxslar bilan shartnoma tuzish huquqiga ega;

*to‘rtinchidan*, korxonada qonunchilikka asosan sudda da‘vogar va javobgar sifatida qatnashish huquqiga ega;

*beshinchidan*, korxonada mustaqil balans yoki smetaga ega bo‘lib, ishlab chiqarish va mahsulot savdosi xarajatlarini hisobga olib boradi hamda davlat organlari tomonidan belgilangan tartibda o‘z vaqtida hisobotlarni taqdim etadi;

*oltinchidan*, korxonada o‘z firma nomiga ega bo‘lib, unda korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli o‘z aksini topadi.

Firma nomlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga ko‘ra, firma nomi yuridik shaxs bo‘lgan tijorat tashkilotining individual nomi bo‘lib, unga doir mutlaq huquq yuridik shaxs davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan vaqtda yuzaga keladi<sup>6</sup>.

Korxonalar quyidagi hollarda firma nomidan foydalanishlari mumkin:

- firma nomini rasmiy blankalarda, muhrlarda, shtamlarda va yuridik shaxsning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa hujjatlarda aks ettirish orqali;

- firma nomini tovarlarda, ularning idishi va o‘rovida, reklamada, peshlavhalarda, bosma ma‘lumotnomalarda, hisobvaraqlarda, bosma nashrlarda, tovarlarni O‘zbekiston Respublikasida o‘tkaziladigan ko‘rgazmalar va yarmarkalarda namoyish etish vaqtida ishlatish orqali.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida korxonalar faoliyatining **asosiy yo‘nalishlari** quyidagilar hisoblanadi:

- bozor va uning rivojlanish istiqbollari kompleks ravishda o‘rganish yordamida, xaridorlarning mahsulot va xizmat turlariga mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan talablarini aniqlash;

---

<sup>6</sup> “Фирма номлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Қонуни // Халқ сўзи. – 2006. - 19 сентябр.

- mahsulotning yangi modellari va namunalarini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil qilish;

- xaridorlar talablariga mos keluvchi tovarlarni ishlab chiqarish;
- ishlab chiqarishni rejalashtirish, dasturlash, muvofiqlashtirish va moliyalashtirish;

- mahsulotni taqsimlash va sotish tizimini tashkil qilish va uni mukammallashtirish;

- korxonaning barcha faoliyatini, jumladan, ishlab chiqarish, sotish, reklama, texnik xizmat ko'rsatish va hokazolarni boshqarish.

Korxonalar faoliyati quyidagi **vazifalarni** bajaradi:

- korxonaga egasining daromad olishi;
- iste'molchilarni ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan ta'minlash;

- xodimlarni ish haqi bilan ta'minlash;
- korxonaga yaqin joylarda yashovchi aholi uchun ish joylari yaratish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- korxonada faoliyatida to'xtab qolishga yo'l qo'ymaslik;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish shakllarini mukammallashtirish;

- ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida tejamkorlikka rioya qilish.

Xo'jalik faoliyatining joriy va istiqboldagi vazifalarini bajarish korxonalardan quyidagi **funksiyalarni** amalga oshirishni talab qiladi:

- ishlab chiqarish va shaxsiy iste'mol uchun mahsulotlarni tayyorlash;

- mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib berish va sotish;
- sotuvdan keyin xizmat ko'rsatish;
- ishlab chiqarishning moddiy-texnika asosini ta'minlash;
- xodimlar mehnatini tashkil qilish va boshqarish;
- soliqlarni to'lash, byudjetga to'lanuvchi ixtiyoriy yoki majburiy badal va to'lovlarni amalga oshirish;

- amaldagi standartlar, normativlar va davlat tomonidan chiqarilgan qonun-qoidalarga rioya qilish.

O‘zbekiston Respublikasida korxonalarining Respublika qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan holda tuzilgan boshqa turlari ham ish olib borishi mumkin.

### **2.3. Korxonalarni tasniflash**

Har bir korxonaning faoliyati ishlab chiqarish, qayta ishlab chiqarish va muomala jarayonlaridan iborat bo‘ladi. Korxonaning ishlab chiqarish sohasidagi faoliyati – yangi mahsulotni ishlab chiqarishga tayyorlash va ishlab chiqarishni tashkillashtirishda namoyon bo‘ladi. Qayta ishlab chiqarish sohasidagi faoliyat – ishchi kuchini yollash, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ishlab chiqarish vositalarini yangilash va kengaytirish jarayonlarida aks etadi. Muomala sohasidagi faoliyat esa ishlab chiqarishning moddiy-texnika ta’minotini tashkillashtirish, mahsulot (ish, xizmat)larni sotish va foydalanilgan ishlab chiqarish vositalarining daromad shaklida qaytib kelishida ko‘zga ko‘rinadi.

Har qanday korxonaga yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lishi lozim. Foyda olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (tijoratchi bo‘lmagan tashkilot) yuridik shaxs bo‘lishi mumkin.

«O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘grisida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilab qo‘yilgan mulk shakllariga muvofiq quyidagi **turdagi** korxonalar ish olib borishi mumkin:

- jismoniy shaxslarning xususiy mulkiga asoslangan korxonalar;
- shirkat (jamoat) mulkiga asoslangan jamoat, oila, mahalla korxonalar, ishlab chiqarish kooperativlari;
- xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlariga jamoat tashkilotlari va diniy tashkilotlarga qarashli korxonalar hamda jamoat mulkining boshqa shakllariga asoslangan korxonalar;
- davlat mulkiga asoslangan korxonalar;

- aralash mulkka asoslangan davlatlararo va qo‘shma korxonalar hamda mulkchilikning turli shakliga mansub, to‘liq yoki hissabay yo‘sinda ishtirok etishga asoslangan boshqa korxonalar.

Mulkchilik shakllaridan qat’i nazar, korxonalar ishlovchilar soniga qarab kichik yoki o‘rta korxonalar jumlasiga kiritilishi mumkin. Bunday korxonalarni barpo etish va ular faoliyatining o‘ziga xos jihatlari, maqomi, ularni ro‘yxatga olish shartlari, shuningdek, korxonalarni bu turga kiritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi tomonidan tartibga solinadi.

Bugungi kunda amalda bo‘lgan korxonalarning turlarini tasniflaymiz:

**Xususiy korxonalar.** O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda qabul qilingan “Xususiy korxonalar to‘g‘risida”gi 558-II-son Qonuniga ko‘ra: “Mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot xususiy korxonalar” deb e‘tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli hisoblanadi.

Xususiy korxonalar deb, mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot e‘tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradi.

Xususiy korxonalar mulkdori korxonaning mol-mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda xususiy korxonaning majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga qarashli mol-mulk bilan javobgar bo‘ladi.

Xususiy korxonalar mulkdori korxonani rahbar sifatida yakka boshqaradi. Uning asosiy **funksiyalari** quyidagilardan iboratdir:

- Nizomni ishlab chiqish va tasdiqlash;
- xususiy korxonalar Nizom jamg‘armasini belgilash va shakllantirish;
- reja va hisobotlarni tayyorlash hamda tasdiqlash;

- xususiy korxonani rivojlantirish rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- xususiy korxonani qayta tashkil etish va tugatish to'g'risida qaror qabul qilish;

- xususiy korxonada olgan foydani o'z ixtiyoriga ko'ra ishlatish;


- xususiy korxonada mulkini tasarruf etish (boshqa shaxsga, ijaraga berish, garovga qo'yish, boshqa korxonalar Nizom jamg'armasiga hissa tariqasida kiritish va hokazolar).

Xususiy korxonada to'liq firma nomiga ega bo'lishi lozim va qisqartirilgan firma nomiga ega bo'lishga haqli. Xususiy korxonaning to'liq firma nomi uning to'liq nomini va «xususiy korxonada» degan so'zlarni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak. Xususiy korxonaning qisqartirilgan firma nomi uning qisqartirilgan nomini va «xususiy korxonada» degan so'zlarni yoki «XK» abbreviaturasini o'z ichiga olishi kerak.

Xususiy korxonani mas'uliyati cheklangan jamiyatga qayta tuzish uni qayta tashkil etishning samarali usuli hisoblanadi. Ya'ni bitta yuridik shaxs tugatiladi va uning negizida yangisi boshqa tashkiliy-huquqiy shaklda barpo etiladi.

Qayta tashkil etish jarayonida yangi ta'sis hujjatlari va ustav shakllantiriladi, biroq bunda yangi MChJ qayta tashkil etilgan XKning barcha majburiyatlarini to'liq qabul qiladi.

Qayta tuzishning qayta tashkil etishning boshqa turlaridan asosiy farqi shundaki, tartib-taomilda faqat bitta yuridik shaxs ishtirok etadi. Va u tugagach yana faqat bitta yuridik shaxs qoladi. Shu bois qayta tuzish jarayonida qayta tashkil etishning boshqa turlarida bo'lgani kabi shartnoma tuzish shart emas. Qo'shib yuborish va birlashtirishda har doim qaysidir bosqichda kamida ikkita ishtirokchi bo'ladi va ular bilan qayta tashkil etishning barcha shartlari kelishib olinadigan shartnoma tuzilishi lozim.



## 2-rasm. Xususiy korxonani mas'uliyati cheklangan jamiyatga qayta tuzish tartibi.

**Mas'uliyati cheklangan jamiyat** O'zbekiston Respublikasining "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonuniga binoan: "Bir yoki bir necha shaxs tomonidan tashkil etilgan, Nizom jamg'armasi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan



belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyati *mas’uliyati cheklangan jamiyat* deb hisoblanadi».

Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun qo‘shgan xissalari qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar.

Qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyat ishtirokchilari esa jamiyat majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga tegishli mol-mulklari bilan hamma uchun bir bo‘lgan va qo‘shgan xissalari qiymatiga nisbatan jamiyatning ta’sis hujjatlarida belgilanadigan karrali miqdorda mustaqil tarzda javobgar bo‘ladilar. **Qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyat** ishtirokchilari javobgarligining eng yuqori miqdori qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatning Nizomida nazarda tutiladi.

Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari yuridik va jismoniy shaxslar bo‘lishi mumkin. Bunday jamiyat bir shaxs tomonidan ham ta’sis etilishi mumkin bo‘lib, u jamiyatning yagona ishtirokchisiga aylanadi. Umuman esa jamiyat ishtirokchilarining soni 50 kishidan oshmasligi lozim. Jamiyat ishtirokchilarining soni belgilangan me’yordan oshib ketsa, jamiyat bir yil ichida ochiq aksiyadorlik jamiyati etib qayta tuzilishi kerak.

Mas’uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig‘ilishi jamiyat boshqaruvining oliy organi hisoblanadi. Jamiyatning joriy faoliyatiga raxbarlik qilish jamiyatning yakka boshchilik asosidagi ijro etuvchi organi tomonidan yoki jamiyatning kollegial organi tomonidan amalga oshiriladi.

**Xo‘jalik shirkati.** O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik shirkatlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq: “Muassislarning (ishtirokchilarning) ulushlariga (hissalariga) bo‘lingan Nizom jamg‘armasiga (ustav kapitaliga) ega bo‘lgan tijorat tashkiloti xo‘jalikshirkati hisoblanadi, bunday shirkatda muassislar (ishtirokchilar) yoki ulardan ayrimlari shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati yuritishda shaxsan ishtirok etadi”.

Xo‘jalik shirkati to‘liq shirkat yoki kommandit shirkat tarzida tuziladi. Ishtirokchilari (to‘liq sheriklari) o‘z o‘rtalarida tuzilgan shartnomaga muvofiq shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadigan holda uning majburiyatlari bo‘yicha o‘zlariga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradigan shirkat **to‘liq shirkat** deb hisoblanadi.

Shirkat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlari qo‘shgan hissalar doirasida javobgar bo‘ladigan hamda shirkat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etmaydigan bir yoki bir necha ishtirokchi (hissa qo‘shuvchi, kommanditchi) mavjud bo‘lsa, bunday shirkat **kommandit shirkat** deb ataladi.

Xo‘jalik shirkatini oliy boshqaruv organi shirkat ishtirokchilarining umumiy yig‘ilishi hisoblanadi. Umumiy yig‘ilish vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- shirkat faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash;
- shirkatni qayta tashkil etish va tugatish;
- ta‘sis shartnomasiga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish;
- shirkat foydasini (zararini) uning ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlash;
- shirkat Nizom jamg‘armasini (ustav kapitalini) ko‘paytirish va kamaytirish;
- yillik hisobotlarni va buxgalteriya balanslarini tasdiqlash;
- shirkatning har bir ishtirokchisi shirkat nomidan ish yuritishga haqlidir. Shirkat ishlari uning ishtirokchilari tomonidan birgalikda yuritilsa har bir bitimni amalga oshirish uchun shirkat barcha ishtirokchilarning roziligi talab etiladi. Shirkat ishlarini yuritish uning ishtirokchilari tomonidan ulardan biri yoki ayrimlariga topshirilsa, qolgan ishtirokchiga shirkat nomidan bitimlarni amalga oshirish uchun shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan ishtirokchi (ishtirokchilar) dan ishonchnoma olinishi kerak.

**Aksiyadorlik jamiyati.** O‘zbekistan Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra: „Nizom jamg‘armasi jamiyatning

aksiyadorlarga nisbatan majburiyatlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan xo‘jalik yurituvchi subyekt **aksiyadorlik jamiyati** deb hisoblanadi».

Aksiyadorlik jamiyatlari ochiq va yopiq aksiyadorlik jamiyatlari turida bo‘lishi mumkin.

Qatnashchilari o‘zlariga tegishli aksiyalarini o‘zga aksiyadorlar roziligisiz boshqa shaxslarga berishi mumkin bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari **ochiq aksiyadorlik jamiyati** deb hisoblanadi.

Aksiyalari faqat o‘z muassislari yoki oldindan belgilangan doiradagi shaxslar orasida taqsimlanadigan aksiyadorlik jamiyati **yopiq aksiyadorlik jamiyati** deb hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatini aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, kuzatuv kengashi va ijroiya organi boshqaradi.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi mutlaq vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- jamiyat Nizomiga qo‘shimchalar kiritish, yangi tahrirdagi Nizomni tasdiqlash;
- jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish;
- jamiyat kuzatuv kengashining tarkibini belgilash, uning a‘zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugallash;
- e‘lon qilingan aksiyalarning eng ko‘p miqdorini belgilash;
- Nizom jamg‘armasini ko‘paytirish va kamaytirish, o‘z aksiyalarini qaytarib sotib olish;
- taftish komissiyasi a‘zolari (taftishchi)ni saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari to‘xtatish;
- yillik biznes rejalarini, hisobotlarni, buxgalteriya balanslarini tasdiqlash, foyda va zararlarni taqsimlash.

Jamiyat kuzatuv kengashi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- jamiyat faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;
- aksiyadorlar umumiy yig‘ilishlarini chaqirish, ular uchun kun tartibini tasdiqlash;
- obligatsiyalar va qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish;

- mol-mulkning bozor qiymatini belgilash;
- jamiyatning sho‘ba va tobe filiallarini tashkil etish, vakolatxonalarini ochish.

Aksiyadorlik jamiyatining kundalik faoliyatiga rahbarlik yakka-boshchilik asosida-ijroiya organ (bosh direktor) yoki kollegial organ (direksiya, boshqaruv) tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida bozor infratuzilmalarini shakllantirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, boshqaruv, shu jumladan, xo‘jalik yurituvchi subyektlar boshqaruvini takomillashtirish jarayonida kompaniya, firma, konsern, korporatsiya, xolding hamda boshqa xo‘jalik birlashma va uyushmalari tashkil topdi.

**Sho‘ba xo‘jalik jamiyati.** Agar bir (asosiy) xo‘jalik jamiyati yoki shirkati ikkinchi xo‘jalik jamiyatining ustav fondida undan ustunlik mavqeiga ega bo‘lgan holda ishtirok etishi tufayli yoxud ular o‘rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq yo bo‘lmasa, boshqacha tarzda ikkinchi xo‘jalik jamiyati tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni belgilab berish imkoniga ega bo‘lsa, ushbu ikkinchi xo‘jalik jamiyati sho‘ba xo‘jalik jamiyati hisoblanadi.

**Qaram xo‘jalik jamiyati.** Xo‘jalik jamiyatida ishtirok etuvchi boshqa jamiyat xo‘jalik jamiyatiga qarashli ovoz beradigan aksiyalarning yigirma foizidan ko‘prog‘iga ega bo‘lsa, bunday xo‘jalik jamiyati qaram jamiyat deb hisoblanadi. Qaram xo‘jalik jamiyati yuridik shaxs hisoblanadi.

Xo‘jalik jamiyatida ishtirok etuvchi boshqa jamiyat qaram jamiyat ustav fondining tegishli qismini qo‘lga kiritib olganligi haqidagi ma’lumotlarni qonunda nazarda tutilgan tartibda darhol e’lon qilishi shart.

**Kompaniya** (fransuzcha „*compagnie*« so‘zidan)—iqtisodiy faoliyat (ishlab chiqarish, savdo, vositachilik, moliya, sug‘urta va boshqalar) olib borish uchun uyushgan yuridik va jismoniy shaxslar, tadbirkorlar birlashmasidir. Kompaniya deyilganda birlashmalar, shirkatlar, xo‘jalik jamiyatlari, firmalar, korporatsiyalar, ya’ni turli tashkiliy-huquqiy shakllarga ega bo‘lgan korxonalar tushuniladi.

**Unitar korxonona.** O‘ziga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkka nisbatan mulkdor tomonidan mulk huquqi berilmagan tijoratchi tashkilot unitar korxonona hisoblanadi. Unitar korxonaning mol-mulki bo‘linmasdir va u qo‘shilgan hissalar (ulushlar, paylar) bo‘yicha, shu jumladan, korxonona xodimlari o‘rtasida ham, taqsimlanishi mumkin emas.

Unitar korxonaning mol-mulki unga xo‘jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida tegishlidir. Unitar korxonaning firma nomida uning mol-mulkining egasi ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. Unitar korxonani boshqarish organi uning rahbari bo‘lib, bu rahbar mulkdor tomonidan yoki mulkdor vakil qilgan organ tomonidan tayinlanadi hamda ularga hisob beradi.

**Xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan unitar korxonona.** Xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan unitar korxonona mulkdorning yoki u vakil qilgan organning qaroriga muvofiq tashkil etiladi.

Xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan korxonaning ta‘sis hujjati uning belgilangan tartibda tasdiqlangan ustavidan iboratdir.

Xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan unitar korxonona o‘z mol-mulkining bir qismini xo‘jalik yuritish uchun belgilangan tartibda topshirish yo‘li bilan yuridik shaxs bo‘lgan boshqa unitar korxonona (sho‘ba korxonona) tashkil etishi mumkin. Muassis sho‘ba korxonaning ustavini tasdiqlaydi va uning rahbarini tayinlaydi.

**Operativ boshqaruv huquqiga asoslangan davlat unitar korxonasi.** Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, davlat organining qaroriga muvofiq davlat mulki bo‘lgan mol-mulk negizida operativ boshqaruv huquqiga asoslangan davlat unitar korxonasi (davlat korxonasi) tashkil etilishi mumkin.

Davlat korxonasining ta‘sis hujjati uning ustavidir. Operativ boshqaruv huquqiga asoslangan davlat korxonasining firma nomi uning davlat korxonasi ekanligini ko‘rsatishi kerak. Davlat korxonasining mol-mulki yetarli bo‘lmaganida davlat uning majburiyatlari bo‘yicha subsidiar javobgar bo‘ladi. Davlat korxonasi uni tuzgan davlat organining qaroriga muvofiq qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi mumkin.

*Qaysi tarmoqqa qarashliligiga ko‘ra* korxonalar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish (mashinasozlik, ko‘mir qazib chiqarish, sug‘urta va hokazo) sohalariga mansub bo‘lishi mumkin.

*Ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi va ko‘rinishiga ko‘ra*, korxonalar sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, moliya-kredit va boshqalarga bo‘linadi.

*Texnologik umumiyligiga ko‘ra*, korxonalar ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz va diskret ravishda, kimyoviy yoki mexanik jarayonlarning ustunligi asosida yurituvchilarga bo‘linadi.

*Tayyor mahsulotning maqsadlariga ko‘ra*, barcha korxonalar ikkita katta guruhga bo‘linadi: ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchilar va iste‘mol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar.

*Foydalaniluvchi xomashyo turiga ko‘ra*, sanoat korxonalari qazib chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxonalariga taqsimlanadi.

*Yil davomida ishlash muddatiga ko‘ra*, korxonalar mavsumiy va yil bo‘yi faoliyat yurituvchilarga bo‘linadi.

*Ishlovchilar soniga ko‘ra* korxonalar yirik, mikrofirma va kichik korxonalariga taqsimlanadi.

**Mikrofirmalar.** O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra<sup>7</sup> ishlab chiqarish tarmog‘ining o‘rtacha yillik xodimlari soni 20 kishigacha bo‘lgan hamda xizmat ko‘rsatish va boshqa noishlab chiqarish sohasidagi o‘rtacha yillik xodimlari soni 10 kishigacha bo‘lgan; ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan korxonalar **mikrofirmalar** qatoriga kiritiladi.

**Kichik korxonalar** hisoblanadi:

- yengil va oziq-ovqat sanoati, metalga ishlov berish va asbobsozlik, yog‘ochni qayta ishlash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoatida 100 kishichagina ishlaydigan;

---

<sup>7</sup> «Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни // Тадбиркорликка оид қонун ҳужжатлари тўплами. 1-том. - Т.: Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, 2002.

- mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg‘i-energetika va kimyo sanoati, qurilish, qishloq xo‘jaligi va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarida 50 kishigacha ishlaydigan;

- fan, ilmiy xizmat ko‘rsatish, transport, aloqa, xizmat ko‘rsatish sohasi (sug‘urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa noishlab chiqarish sohalarida 25 kishigacha ishlaydigan korxonalar.

*Ixtisoslashuv darajasiga ko‘ra*, korxonalar ixtisoslashgan, universal va aralash korxonalariga bo‘linadi. Ixtisoslashgan korxonalar qatoriga nomenklaturasi cheklangan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar, universal korxonalar qatoriga turli xil mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar, aralash korxonalar tarkibiga esa ixtisoslashgan va universal korxonalar o‘rtasidagi oraliq guruhni tashkil qiluvchi korxonalar kiritiladi.

*Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish usullariga ko‘ra*, korxonalar ishlab chiqarishning oqim, partiyali va donalab ishlab chiqarish usullari ustuvor turuvchi korxonalariga bo‘linishi mumkin.

*Ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish darajasiga ko‘ra*, korxonalar to‘liq va qisman avtomatlashtirilgan yoki mexanizatsiyalashtirilgan, qo‘l-mashina va faqat qo‘l mehnatiga asoslangan korxonalariga bo‘linadi.

Firma – korxonalar tushunchasidan kengroq tushunchadir, ya’ni u ma’lum nom bilan biznes olib boruvchi tashkilotdir. Firma - tovar ishlab chiqarish va barcha sohalarda xizmat ko‘rsatish ishlarini bajarish uchun foyda olish maqsadida resurslarni jamlaydigan va undan foydalanadigan tadbirkorlik shaklidir. Faktoring firmasi – begona qarz majburiyatlarini-veksellarni sotib olish bilan shug‘ullanadi.

Lizing firmasi – lizing to‘lovlari bilan shug‘ullanadi.

Injining korxonalar – muhandislik-maslahat xizmatlarni tijoratchilik qoidalariga asoslangan holda amalga oshiradi.

**Konsalting** – bu ishlab chiqarishga ish yuzasidan xizmat ko‘rsatish sohasida ixtisoslashgan firmalarning o‘z mijozlariga maslahat xizmati

ko‘rsatish va texnik loyihalarni ekspertiza qilish bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyatdir.

**Venchur korxonalar** – bu biznes yuritishning bir turi bo‘lib, ular:

- ilmiy muhandislik ishlarini bajarish;
- yangi texnika, texnologiya, tovar namunalarini yaratish;
- ishlab chiqarishni boshqarish;
- tijorat ishini tashkil etish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- yirik firmalar va davlat ijara kontrakti buyurtmalarini bajarish kabi ishlarni amalga oshiradilar.

Korxonalarni vaqtinchalik yoki doimiy ravishda kooperatsiya yoki konsentratsiya asosida birlashtirish amalga oshiriladi.

**Korporatsiya** (lotincha ‘*corporatio*’— ‘birlashma», ‘hamjamiyat» so‘zidan) biron-bir faoliyat uchun uyushgan aksiyadorlar jamiyati. Hozir bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda xo‘jalikning barcha tarmoqlarida asosiy mavqega ega. Korporatsiyalar asosan bir xil mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarni birlashtiradi. Investitsiya kapitalini markazlashuviga yordam beradi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti, mahsulotning raqobatbardoshligini ta‘minlaydi.

Har bir korxonada faoliyatini yurgizish uchun o‘z holicha turli funksiyalarni, ya‘ni:

- xomashyo, materiallar, energiya, uskuna qidirib topish, sotib olish va texnologik takomillashtirish;
- mahsulot sifatini oshirish va ishlab chiqariladigan mahsulotni yangilash;
- tayyor mahsulotni sotish bo‘yicha qator ishlarni bajarishi lozim bo‘ladi.

Korporatsiyalar mulk egaligi ma‘nosiga ko‘ra davlat, xususiy, qo‘shma (aralash); tarmoqlar bo‘yicha esa sanoat, qishloq xo‘jaligi, aloqa va boshqalarga bo‘linadi.

Konsern («concern»— «ishtirok», «manfaat» so‘zidan) manfaatlar, shartnomalar, kapital, hamkorlikdagi faoliyatda ishtirok umumiyligi



asosida birlashgan korxonalarining yirik birlashmasidir. Aksariyat hollarda, korxonalarining bunday guruhlari shu korxonalar aksiyalarining asosiy qismini o'z qo'lida to'plagan bosh korxonalar (xolding) atrofida birlashadi. Konsern tarkibiga turli (sanoat, transport, savdo, bank sohasi) tarmoqlarga tegishli, ayrim hollarda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida joylashgan o'nlab va yuzlab korxonalar ixtiyoriy asoslarda kiradilar. Amalda konsern tarkibidagi korxonalar ilmiy-texnikaviy va ishlab chiqarish taraqqiyoti, shuningdek, investitsiya, moliya, tashqi iqtisodiy faoliyat, korxonalariga xizmat ko'rsatishni tashkil etish sohasidagi vazifalarni moliyalashtirish asosida faoliyat ko'rsatadi. Tarmoq tarmoqlararo konsernlar ham bo'ladi. Bir korxonalar faqat bir konsernga kira oladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida O'zbekistonda moddiy va ishlab chiqarish tarmoq vazirliklari o'rnida yirik konsernlar ("O'z kimyo-sanoat", "O'z davmashkonsern" va boshqalar) tashkil qilindi.

**Konsorsium** – bu aniq iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishni maqsad qilgan korxonalarining umumiy kelishuvlar asosida yuzaga keladigan muvaqqat birlashmasidir. Konsorsium buyurtmachilar oldidagi majburiyatlar uchun javobgar hisoblanadi.

Konsorsium a'zolarining huquq va majburiyatlari konsorsium to'g'risidagi bitimda belgilab qo'yiladi. Qo'yilgan vazifani bajarish uchun konsorsium ishtirokchilari badallari hisobidan yagona moliyaviy va moddiy fondlar barpo etadilar, byudjet mablag'lari va davlat bankidan kreditlar oladilar. Vazifa bajarilgach, konsorsium tarqaladi. Konsorsiumlarga boshqaruv bo'yicha qo'mitalar, direktorlar kengashi kabilar boshchilik qiladi. Konsorsiumlar aviatsiya, kosmos, kompyuterlar, aloqa kabi yuksak texnologik va katta miqdordagi sarmoyali sohalarda keng tarqalgan.

**Xo'jalik assotsiatsiyasi** jismoniy yoki huquqiy shaxslarning o'zaro hamkorlik yuritish maqsadida ko'ngilli ravishda birlashuvini anglatadi va unda birlashuvga kiruvchi subyektlar o'z mustaqilligini saqlab qoladilar.

Korxonalarining konsentratsiya asosida birlashuvi kartel, sindikat, xolding va moliya-sanoat guruhlarini ko‘rinishida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish sohasidagi **kartellar** ishlab chiqarish masalalari, narxlar, tovarlarni sotish, ishchi kuchini yollash va shu kabi masalalar bo‘yicha kelishuvga asoslanib faoliyat yuritadi.

Integratsiyaning bu shaklida korxonalar mustaqillikni saqlab qolgan holda kooperatsiya asosida birlashadilar.

**Sindikat** – tijorat faoliyatini (ta‘minot, buyurtmalarni taqsimlash, xomashyo sotib olish, mahsulot sotish, bahoni shakllantirish) hamkorlikda tashkil qilishga asoslangan birlashmadir. Sindikat tarkibiga kiruvchi korxonalar huquqiy hamda xo‘jalik yuritish mustaqilliklarini saqlab qoladilar.

**Trestlar** yuqori darajada markazlashganligi bilan ajralib turadi. Uning tarkibiga kiruvchi korxonalar ishlab chiqarish, tijorat va huquqiy mustaqilliklarini yo‘qotib, yagona reja asosida faoliyat yuritadi.

O‘z tarkibidagi aksiyadorlik jamiyatlarni nazorat paketlarini egallash bilan korporatsiyalar xolding kompaniyalariga aylanadi. Xolding iborasi inglizcha «holding» so‘zidan olingan bo‘lib, ega ma‘nosini beradi. Xoldinglar ishtirokchilarning moliyaviy imkoniyatlarini birlashtirish va muvofiqlashtirish hamda ishlab chiqarish quvvatlari bilan vaizifalarni tezkor ravishda amalga oshirish imkonini beruvchi boshqaruvning samarali shaklini ifodalaydi.


Aktivlari tarkibiga boshqa korxonalarining aksiyalari nazorat paketlari kiradigan ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati xolding hisoblanadi.

**Xolding** (inglizcha “*holding*” — “egallik” so‘zidan) asosiy faoliyati korxonalar aksiyalarini o‘z tasarrufiga olish orqali ularning ishini nazorat qilish va boshqarishdan iborat bo‘lgan kompaniya, bosh korxonalar. Xolding tarkibida asosiy korxonalar yoki sho‘ba korxonalar, yoxud bir necha sho‘ba korxonalar mavjud bo‘ladi. Xolding kompaniyasining o‘zi ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanmasligi ham mumkin. Lekin ko‘p hollarda xolding kompaniyalar aksiyalarni boshqarish bilan bir qatorda, moliya-kredit, savdo, transport va boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanadilar. Xolding boshqa korxonalar aksiyalarining

paketlariga egalik qilish orqali nazoratidagi korxonalarining direktorlar kengashi boshqaruvi va boshqa rahbar organlariga o‘zi taklif etadigan nomzodlar saylanishini ta’minlash imkoniga ega bo‘ladi. O‘zbekistonda “Fayz” (mebel sanoati), “O‘zqishloqxo‘jalikxolding”, “O‘zmevasabzavotuzumsanoat” kabi xolding kompaniyalar faoliyat ko‘rsatmoqda.

**Firma** (italyancha «*firma*» — «imzo» so‘zidan) korxonalar, kompaniya va tijorat tashkilotlarining umumiy nomi. Xodimlar soni, mulk shakli, huquqiy holat va boshqalarga ko‘ra xilma-xil firmalar mavjud. Firmalarda band bo‘lganlar soni 2-3 kishidan 20-30 mingtagacha bo‘lishi mumkin.

Firmalarning quyidagi turlari farqlanadi:



### 3-rasm. Firmalarning turlari

Firmalarning turlari quyidagicha tasniflanadi:

**affilirlangan** (qo‘shilgan) — filial, sho‘ba korxonalar shaklida yirikroq turdosh bosh korxonalar tarkibida faoliyat ko‘rsatadigan firmalar;

**broker** — tijorat maqsadini ko‘zlaydigan va mijoz topshirig‘iga ko‘ra va uning hisobidan vositachi sifatida faoliyat yuritadigan firmalar;

**venchur** — kichik va oʻrta investitsion firmalar hisoblanib, ilmiy tarkiblar va muhandislik ishlanmalarini amalga oshiradi;

**investitsion** — investitsiyalash va qimmatli qogʻozlar bilan bogʻliq operatsiyalarni oʻtkazadigan firmalar;

**injiniring** — muhandislik maslahati koʻrsatishga ixtisoslashgan firmalar;

**innovatsion** — yangi texnologiyalarni yaratish uchun barpo etiladigan firmalar;

**konsalting** — maslahat xizmati koʻrsatishga ixtisoslashgan firmalar;

**ishlab chiqarish firmalari** — aniq bir mahsulot tayyorlashga ixtisoslashgan boʻladi;

**savdo firmalari** — savdo-sotiq bilan shugʻullanadi;

**rieltor firmalari** — koʻchmas mulk sohasidagi amallarga ixtisoslashgan boʻladi.

Bugungi kunda Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barcha sohalarida 250 mingdan ortiq firmalar faoliyat koʻrsatmoqda.

## 2.4. Korxonalar tuzilmasi va uni belgilovchi omillar

**Korxonalar tashkiliy tuzilmasi** deganda, boshqaruv boʻgʻinlari va bosqichlari miqdori va tarkibi tushuniladi. Korxonalar tashkiliy tuzilmasining oddiy va tushunarli boʻlishi uning ish qobiliyati yuqori boʻlishini kafolatlaydi, yaʼni boshqaruv tashkiliy tuzilmasida bosqich va boʻgʻinlar qancha kam boʻlsa, boshqaruv shunchalik samarali boʻladi.

Boshqaruv boʻgʻinlari – bu bitta yoki bir qancha vazifalarni bajaruvchi mustaqil tarkibiy tuzilmadir. Tuzilma elementlari esa ularning boʻlinmalari va boshqaruv apparatida ishlovchilardir. Boshqaruv bosqichlari – bu boshqarish biror darajasidagi maʼlum boʻgʻinlar yigʻindisidir. Shu belgisiga koʻra boshqaruvning tashkiliy tuzilmalari – koʻp bosqichli (koʻp boʻgʻinli), uch, ikki bosqichli (boʻgʻinli) boʻladi. Bosqichlar va boʻgʻinlar oʻrtasidagi aloqa vertikal va gorizontal boʻlishi mumkin. Vertikal boʻgʻinlar rahbarlarning ularga boʻysunuvchilar oʻrtasidagi munosabatlarni, gorizontal aloqalar boshqaruvning teng

huquqli bo'g'in va unsurlari o'rtasidagi munosabatlarni bildiradi. Iqtisodiyotni boshqaruv tashkilotlari yuqori, quyi, teng huquqli tashkilotlarga bo'linadi. Yuqori tashkilotlar respublika va tarmoq boshqaruv tashkilotlariga ajratiladi. Umumdavlat boshqaruv tashkilotlari ishlab chiqarishning turli tarmoqlarini birlashtiradilar. Umumdavlat boshqaruv tashkilotlari Respublika Konstitutsiyasiga asoslangan holda faoliyat yuritadi.

Sanoat korxonalarining umumiy va ishlab chiqarish tuzilmalari mavjud.

Ishlab chiqarish bo'g'inlari, korxonada boshqaruvi hamda xodimlarga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, ularning miqdori, kattaligi va egallab turgan maydoni, xodimlarining soni va ishlab chiqarish imkoniyatlari *korxonaning umumiy tuzilmasini* ifodalaydi.

Ishlab chiqarish tuzilmasiga asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish jarayonlari amalga oshiriluvchi sex va uchastkalar kiritiladi.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish tuzilmasining uch xil turi mavjud: ***texnologik, predmetli va aralash.***

**Texnologik tuzilmali** korxonalarda sexlar va ishlab chiqarish uchastkalari texnologik jihatdan bir xillik tamoyili asosida tashkil qilinadi (masalan, to'qimachilik kombinatlarida yigiruv va to'quv sexlari).


**Predmetli tuzilmaga** asoslangan korxonalarda har bir sex ma'lum bir mahsulot yoki uning bir qismini ishlab chiqaradi (masalan, avtomobil zavodida motor sexi, shassi sexi va hokazo).

**Aralash (predmetli-texnologik) tuzilma** tayyorlov sexlarini texnologik tamoyilda (temirchilik, cho'yan quyish, po'lat quyish va hokazo), ishlov berish hamda mahsulot chiqarish sexlarini esa predmetli tamoyil asosida tashkil etishni ko'zda tutadi.


Korxonada, firma, aksionerlar jamiyatlari tarkibiy birlikka o'z nomidan shartnoma tuzish va bu shartnoma bo'yicha javobgar bo'lish huquqini beradi. Tashkiliy tuzilmalar juda turli-tuman, lekin ular umumiy izchil bog'liqlikka ega va qonuniyatlarga buysunadi. Boshqarishning tashkiliy

tuzilmasining asosiy turi chiziqli va funksional turlaridir. Ular birikishi asosida turli xil chiziqli-funksional tuzilmalar tarkib topadi<sup>8</sup>.


### Chiziqli




### Chiziqli shtabli



### Funksional



### Chiziqli funksional



**4-rasm. Shartli belgilar: R – rahbar, B – boshliq, U – usta, F – funksional rahbar, Sh – shtab, 1,1; 1,2;1,3 – funksional bo‘limlar.**

**Chiziqli tuzilma** uning quyi boshqaruv bo‘g‘inlari yuqori bosqichdagi rahbarga bevosita bo‘ysunishi bilan tavsiflanadi. Chiziqli tuzilmada har bir xodim bitta rahbarga buysunadi va yuqori tizim bilan faqat u orqali bog‘langan bo‘ladi.

Chiziqli tuzilmaning ijobiy tomonlari uning oddiy, ishonchli, kam xarajat talab qilishligidir. Har bir rahbar butun mehnat jamoasi faoliyati natijalari bo‘yicha javobgar. Bu strategik va joriy qarorlarni qabul qilish huquqi markazlashishiga olib keladi. Chiziqli tuzilmalarni hal etiluvchi masalalar doirasi keng bo‘lmagan, bu masalalar yechilishi oson bo‘lgan

<sup>8</sup> Кадирходжаева Н.Р., Ашрапова И.К. Менеджмент ўқув қўлланма. –Тошкент: ТДИУ, 2010.67 - бет.

hollarda qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Sof holda chiziqli boshqaruv juda kam, asosan, brigada, bo‘lim, shirkat, kichik korxonalarda qo‘llaniladi.

**Funksional tuzilma** – boshqaruv vazifalarining funksional bo‘g‘inlar va rahbarlar o‘rtasida taqsimlanishiga asoslanadi. U boshqaruv murakkablashuvi va ixtisoslashuv rivojlanishi bilan bog‘liq holda vujudga kelgan. Funksional tuzilmada boshqaruvchi ko‘rsatmalar nisbatan malakali bo‘ladi, lekin yakka boshchilik tamoyiliga rioya qilinmaydi. Funksional bo‘g‘inlar soni ortishi bilan har bir bo‘g‘in mustaqil ravishda hal etuvchi masalalar doirasi torayib boradi. Muammoning mohiyati har bir bo‘g‘in o‘z masalasini birinchi navbatda hal qilishdan manfaatdor bo‘lishida emas, balki bitta ham bo‘g‘in bu masalani yetarli darajada asoslangan holda va to‘g‘ri hal qila olmasligi, yechimlar maydalashib, to‘liq bo‘lmay qolishidadir. Bu boshqaruvni marakkablashtirib, uning samaradorligini kamaytiradi. Chiziqli tuzilmani tashkil etish va funksional tuzilmaning kamchiliklari qo‘shma, biriktirilgan tuzilmalar – chiziqli-shtabli, chiziqli funksional va boshqa tuzilmalar vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

**Chiziqli-shtabli** tuzilmada chiziqli tuzilma asos qilib olinadi, lekin boshqaruvning quyi bo‘g‘inga ega har bir bo‘g‘inida ayrim muhim muammolar bo‘yicha shtablar tuziladi. Shtablar malakali qarorlar tayyorlaydilar, lekin chiziqli tuzilma rahbari tasdiqlab, quyi darajaga yuboradi. U shtab tavsiyalarini koordinatsiya qiladi, muvofiqlashadi va natijada boshqaruv sifati yaxshilanadi, lekin vazifalar miqdori ko‘p bo‘lsa, chiziqli tuzilma rahbarining vazifalari ham ortadi. Shu sababli, amaliyotda boshqa qo‘shma tuzilmalar vujudga keldi. Ular orasida eng keng tarqalgani chiziqli-funksional tuzilmadir.

**Chiziqli-funksional** strukturada, funksional zvenolar quyi turgan bo‘linmalarga o‘zlari buyruq bera oladilar, lekin ular kompetensiyasiga taalluqli bo‘lgan aniq belgilangan savollar bo‘yicha. Masalan, rejalashtirish – iqtisodiy bo‘limi sex boshlig‘iga rejalashtirishni rivojlantirish savollari bo‘yicha buyruq berishi mumkin, Zavodning bosh buxgalteri esa sexda hisob va hisobotni yaxshilash bo‘yicha va h.k.

Chiziqli funksional strukturasi ustunligi uning boshqaruv prinsiplarini buyruq berishning yagonaligi prinsipi bilan o'zviyigidadir. Lekin bu ustunlik strukturada aloqalarning murakkab tiplari mavjud:

- loyiha bo'yicha boshqarish;
- matritsali struktura va boshqalar.

Loyiha bo'yicha boshqarish ishlab chiqarish texnologiyasining o'zgarishi bilan bog'liq qayta ko'rishlar va yangi texnologiyalar kiritilishi zarur bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda qo'llaniladi. Bunday qayta ko'rishni amalga oshirish uchun faqatgina shu loyihaga javob beruvchi boshqaruv organi tuziladi. Boshqaruvning loyiha bo'yicha organi vaqtinchalik tashkilot hisoblanadi. Unga yuklatilgan vazifalar amalga oshirilgandan so'ng tugatiladi. Matritsali struktura chiziqli va loyiha bo'yicha boshqaruv strukturalarining birlashtirilishi natijasida ko'riladi. Boshqaruvni tashkil qilishning matritsali strukturasi loyiha yoki dastur rahbarlarining faoliyati erkinligi ta'minlanadi, ular oldiga qo'yilgan masalalar maqsadli hal qilinadi. Ishni tashkil qilish bo'yicha rahbarning mas'uliyati aniqlanadi, ularning bajarilish muddati, yakuniy natijalar bo'yicha rahbarning mas'uliyati aniqlanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv apparatini belgilangan darajada qisqartirishga, boshqaruvning har xil darajalari va har bir zveno chegarasida alohida darajalarning vazifalari va funksiyalarini aniq ajratish, xalq xo'jaligi, korxonalar (firmalar) tarmoqlarining xo'jalik mustaqilligini ta'minlashga imkon beradigan yangi tashkiliy strukturalar tuziladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Milliy iqtisodiyot tushunchasi va korxonalarining mamlakat xalq xo'jaligi majmuasidagi roli.
2. Sanoat korxonalariga xos bo'lgan belgilar.
3. Sanoat korxonalarining vazifalari va bajaradigan ishlari.
4. O'zbekiston Respublikasida korxonalar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikning rivojlanishini tushuntiring.
5. Korxonani turli belgilariga ko'ra qanday guruhlarga bo'lish mumkin?
6. Korxonalar faoliyati maqsadlari nimalardan iborat?
7. Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb qanday xo'jalik tashkilotiga aytiladi va u qanday xususiyatlarga ega?



8. Aksiyadorlik jamiyati deb qanday xo‘jalik tashkilotiga aytiladi?

9. Korporatsiya nima?

10. O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan qanday xolding kompaniyalarini bilasiz?

### **Test topshiriqlari:**

#### **1. Korxonalar deganda nimani tushunasiz?**

A) yuridik shaxs huquqiga ega bo‘lgan mustaqil xo‘jalik subyekti, mehnat jamoasidir;

B) mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektlarining vaqtinchalik ittifoqi;

C) savdo sanoat, sug‘urta va boshqa sohalarda faoliyat yurituvchi tadbirkorlarning birlashmasi;

D) mahsulot ishlab chiqaradigan mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyekt.

#### **2. Konsern nima?**

A) imtiyozli soliq to‘lash hududida bunyod etilgan korxonalar;

B) yuridik shaxs huquqlariga ega bo‘lgan mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyekt;

C) korxonalar birlashuvining bir ko‘rinishi, huquqiy mustaqil, ammo bitta markazdan boshqarib boriladigan firmalar birlashmasi;

D) mulk egalari tomonidan bir qancha mustaqil hissadorlik jamiyatlarini nazorat etuvchi jamiyat.

#### **3. Konsorsium deganda nimani tushunasiz?**

A) a‘zo korxonalar uchun moliyaviy markaz rolini o‘ynovchi assotsiatsiya;

B) ma‘lum ilmiy-texnikaviy, ekologik, investitsion dasturini bajarish uchun ma‘lum muddatga yuzaga keltirilgan vaqtinchalik assotsiatsiya;

C) sarmoyalarning birlashuvi natijasida yuzaga kelgan xo‘jalik tashkiloti;

D) umumiy kasbiy yoki tabaqaviy manfaatlarini asosida birlashgan shaxslar jamiyati uyushmasi.

#### **4. Aksiyadorlik jamiyati deganda nimani tushunasiz?**

A) jismoniy shaxslar kapitallarining birlashuvidir, u aksiyalar chiqarish yo‘li bilan tashkil etiladi;

B) faoliyati madaniy, ijtimoiy, ilmiy va shu kabi maqsadlar ostida birlashtirilgan jismoniy va yuridik shaxslar birlashmasi;

C) kompaniyaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tekshiruvchi korxonalar;

D) yuridik shaxs huquqiga ega bo‘lgan mustaqil xo‘jalik subyekti.

**5. Xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari qanday shakllarda tuzilishi mumkin?**

A) to‘liq shirkat, mas’uliyati cheklangan jamiyat;

B) to‘liq shirkat, aksiyadorlik jamiyati;

C) to‘liq shirkat, kommandit shirkat, aksiyadorlik kommanditi, mas’uliyati cheklangan jamiyat, aksiyadorlik jamiyati;

D) kommandit shirkat, mas’uliyati cheklangan jamiyat, aksiyadorlik jamiyati.

**6. Mas’uliyati cheklangan jamiyat qanday jamiyat?**

A) tovar ishlab chiqarish maqsadida resurslarni ishlatuvchi jamiyat;

B) aksiyadorlari o‘zlariga tegishli aksiyalarni boshqa aksiyadorlarning rozilgisiz erkin tasarruf qila oladigan jamiyat;

C) aksiyadorlar faqat uning ta’rischilari o‘rtasida taqsimlanadigan jamiyat;

E) ustav fondi ta’ris hujjatlarida belgilangan miqdordagi ulushlarga bo‘lingan, bir yoki bir necha shaxslar tomonidan ta’ris etilgan jamiyat.

**7. Auditorlik firmalari deganda nimani tushunasiz?**

A) mulkdorlar va davlatning mulkiy manfaatlarini himoya qilish maqsadlarida mustaqil moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

B) ilmiy - muhandislik ishlarini bajaradi;

C) ishlab chiqarishni boshqaruvchi firma;

D) iqtisodiy ekspertiza o‘tkazuvchi mustaqil firma.

**8. Faoliyat sohasi va ixtisoslashuviga qarab korxonalar qanday turlarga bo‘linadi?**

A) ijara korxonalar, qo‘shma korxonalar, davlat korxonalari;

B) sanoat korxonalari, qishloq xo‘jaligi korxonalari, qurilish korxonalari, davolash korxonalari, savdo korxonalari, o‘qitish korxonalari;

C) sanoat korxonalari, qurilish korxonalari;

D) kichik, o‘rta, yirik korxonalari.

**9. Shirkat firmalar deganda nimani tushunasiz?**

A) topgan foydasini o‘zi oluvchi korxonalar ;

- B) yakka xususiy mulkka asoslangan korxonasi;
- C) o'zgararni yo'llab o'z faoliyatini olib boradigan korxonasi;
- D) bir necha sohibning mulkini birlashtirish va tadbirkorlikdan olingan foydani birgalikda ishlatishga asoslangan sherikchilik korxonasi.

**10. Xolding kompaniyasi nima?**

- A) monopolistik korxonaning bir turi;
- B) mulk egalari tomonidan bir qancha mustaqil aktsiyadorlik jamiyatlari faoliyatini nazorat qilish maqsadida tashkil etilgan hissadorlik jamiyati;
- C) bir xil mahsulotlarning asosiy ishlab chiqaruvchilarni birlashtiruvchi korxonasi;
- D) ko'p taraflama qo'shma korxonasi.

**11. Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar**

- A) paylarga ajratilgan ustav kapitalini miqdori ta'sis hujjatlari bilan belgilanuvchi va o'z mulki chegarasida majburiyatlar bo'yicha mas'uliyatga ega bo'lgan jamiyat;
- B) ta'sis shartnomasi asosida tuzilgan jamiyatni ustav kapitaliga majburiy ravishda pul yoki mulkiy paylar bilan kirgan, ularning miqdori orqali har bir ta'sischini mas'uliyati belgilanadi;
- C) paylarga ajratilgan mavjud ustav kapitali, ularning miqdori ta'sis hujjatlari bilan belgilanadi, ta'sischilar va banklar orqali tan olinadi.
- D) ta'sischilar va banklar orqali tan olinib, ustav kapitali paylarga ajratilib, ularning miqdori ta'sis hujjatlari bilan belgilanadi.

**12. Mas'uliyati cheklangan jamiyat nima?**

- A) mulki o'ziniki bo'lmaydi;
- B) mulki davlatniki bo'ladi;
- C) mulki uni tasarruf etuvchilarniki bo'ladi;
- D) mulk investorniki bo'ladi.

### **III BOB. KORXONANI TASHKIL QILISH VA UNING FAOLIYATINI TO‘XTATISH**

#### **3.1. Korxonani tashkil qilish tamoyillari**

Iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va ishlab chiqarish kuchlarining o‘sishi faoliyat yuritayotgan korxonalaridan tashqari, yangi korxonalarni tashkil qilish va ishga tushirishga tayanadi. Bunday qadam iqtisodiy jihatdan maqbullikka, resurslar imkoniyati va korxonalar mahsulotlariga bo‘lgan talabga asoslanadi. Biron-bir mahsulotning taqchilligi yoki umuman yo‘q bo‘lishi ham, yangi korxonalar yoki ishlab chiqarishni tashkil qilishga sabab bo‘lishi mumkin.

Yangi korxonani tashkil qilish quyidagi tashkiliy tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- korxonani tashkil qilish fikrining paydo bo‘lishi;
- korxonalar ta‘sischilarini tanlash;
- taklif qilinayotgan mahsulotga bozordagi talabni o‘rganish;
- korxonalar Nizom jamg‘armasini tuzish uchun moliya manbalarini aniqlash;
- korxonalar ta‘sis hujjatlari va biznes-rejasini tayyorlash;
- davlat ro‘yxatidan o‘tish;
- muhr, shtamp va boshqa rekvizitlarni tayyorlash;
- soliq idoralarida ro‘yxatdan o‘tish.

O‘zbekiston Respublikasining “Korxonalar to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan, korxonalar mulk egasi (egalari) yoki u (ular) tayinlagan vakillik idorasi, mehnat jamoasi yoki ta‘sischilar guruhining qarori bo‘yicha belgilangan qonun-qoidalariga asosan tashkil qilinishi mumkin.

Shuningdek, korxonalar agar korxonalar mulki egasi yoki u tayinlagan vakillik idorasining roziligi bo‘lsa, faoliyat yuritayotgan korxonalar tarkibidan bir yoki bir necha tarkibiy bo‘linmalarni, ushbu bo‘linmalarining mehnat jamoalari tashabbusiga ko‘ra, ajratib chiqarish natijasida ham tashkil topishi mumkin.

Korxonani joriy va hisob-kitob raqamlari ochish va ular to'g'risidagi holatlarni tasdiqlash huquqiga ega bo'lgan, mustaqil huquqiy shaxs maqomidagi sho'ba korxonalarini, filiallar, vakolatxonalar, bo'lim va boshqa tashkiliy bo'linmalarni tashkil qilishi mumkin.

Korxonani qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda maxsus davlat idoralarida ro'yxatga olingan kundan boshlab tashkil qilingan hisoblanadi va huquqiy shaxs maqomiga ega bo'ladi.

Korxonani tashkil qilishdan tashqari, uning moliyaviy barqarorligi va samarali faoliyatini ta'minlash, bozor munosabatlari va raqobatchilik sharoitlarida juda muhimdir. Amaliyotdan ko'rinib turibdiki, bu qoidalarga rioya qilmaslik natijasida korxonani tashkil qilishga ketgan barcha sa'y-harakatlar o'zini oqlamaydi hamda ijtimoiy ishlab chiqarish rivojlanishining mikro va makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni moliyaviy jihatdan barqaror bo'lmagan korxonalar endi tashkil qilingan yoki faoliyat yuritayotganligidan qat'i nazar, bankrot korxonalar hisoblanadi.

Yangi korxonani tashkil qilishdan asosan quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- iste'molchilar talab qilayotgan mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va uni sotishdan foyda (daromad) olish;
- ishlab chiqarishga ish bilan band bo'lmagan aholini jalb qilish va shu orqali ish bilan ta'minlashdagi ijtimoiy muammolarni hal qilish;
- ishlab chiqarishga mavjud qo'shimcha resurslarni jalb qilish;
- fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish;
- yakka tarzda yoki hamkorlikda faoliyat yuritish uchun kichik korxonalar (o'rtoqchilik kabi) tashkil qiluvchi alohida fuqarolar yoki shaxslar guruhi a'zolarining shaxsiy ehtiyojlarini qondirish;
- ishlab chiqarishni mustahkamlash va rivojlantirish hamda bozor muhitini kengaytirish.

### 3.2. Ta'sis hujjatlari

Ta'sis hujjatlarini tayyorlash korxonani tashkil etish va keyingi faoliyat yuritish jarayonidagi muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ta'sis hujjatlari faoliyat yurituvchi korxonalarining huquq va majburiyatlarini hamda sharoitlarini ifodalaydi.

Korxonalar faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarida ikki xil ta'sis hujjatlari belgilab berilgan:

- *korxonalar Nizomi*;
- *ta'sis shartnomasi*.

Amaliyotda korxonalar faqat Nizom yoki faqat ta'sis shartnomasi asosida, shuningdek, bir vaqtning o'zida Nizom va ta'sis shartnomasiga asosan faoliyat yuritish hollari mavjud.

Shuni qayd qilib o'tish kerakki, korxonaning (huquqiy shaxsning) ta'sis shartnomasi kelishuv asosida tuziladi, Nizom esa ta'sischi (ta'sischilar) tomonidan tasdiqlanadi. Bitta ta'sischi tomonidan tuzilgan huquqiy shaxs shu ta'sischi tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida faoliyat yuritadi.

***Korxonalar Nizomi*** asosiy ta'sis hujjati bo'lib, unda:

- korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli;
- nomi va manzilgohi;
- Nizom jamg'armasining miqdori;
- daromadlarining tarkibi va taqsimlanish tartibi hamda korxonalar fondlarini tashkil qilish tartibi;
- korxonani tugatish va qayta tashkil qilish tartibi ko'rsatilishi shart.

Boshqacha qilib aytganda, korxonalar Nizomi uning huquqiy maqomini, huquq va majburiyatlarini belgilab beradi.

Nizomda shuningdek,

- korxonalar faoliyat ko'rsatuvchi soha va tarmoq;
- atrof-muhit va odamlar sog'lig'ini muhofaza qilish kafolati;
- boshqaruv shakli;
- hisobga olish va hisobot tizimi ham aks ettirilishi lozim.

Korxonalar to'g'ri va to'liq tayyorlangan Nizom asosida mahalliy hokimiyat idoralarida ro'yxatga olinadi, keyin esa o'z muhriga ega bo'lish va bankda hisob raqami ochish huquqini qo'lga kiritadi. O'z muhri va hisob raqamiga ega bo'lmagan korxonalar, huquqiy shaxs hisoblanmaydi va mustaqil korxonalar qatoriga kiritilmaydi.

**Ta'sis shartnomasi** korxonaning tashkil qilinishi va yakka tarzda yoki hamkorlikdagi faoliyatning boshlanishini tavsiflovchi hujjatdir. U shuningdek, tashkil etilayotgan korxonaning Nizomini to'ldiruvchi hujjat bo'lib hisoblanadi. Ta'sis shartnomasida

- korxonani tashkil qilish tartibi;
- daromad va xarajatlarni qatnashchilar o'rtasida taqsimlash shartlari;
- ishtirokchilarni (ta'sischi) korxonalar tarkibidan chiqish faoliyat tartibi belgilab qo'yiladi.

Ta'sis shartnomasi asosida ko'pincha kichik korxonalar, xo'jalik o'rtoqligi va shu kabi subyektlar faoliyat yuritadi. Masalan, o'rtoqlik yoki korxonaning ta'sis shartnomasida boshqaruv faqat barcha ishtirokchilarning roziligi bilan emas, balki qaror ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinishi mumkinligi ham belgilab qo'yilishi mumkin. Biroq ta'sis shartnomasida ishtirokchilar ovozini aniqlashning boshqa tartibi ham ko'rsatib o'tilishi mumkin. To'liq o'rtoqchilik korxonalarining daromad va xarajatlari agar shartnomada boshqa tartib ko'rsatilmagan bo'lsa, ishtirokchilar o'rtasida ularning umumiy kapitaldagi ulushiga mos ravishda taqsimlanadi.

Korxonalar mulkini shakllantirish va undan foydalanish Nizom va Ta'sis shartnomasining muhim qismi hisoblanadi. "Korxonalar to'g'risida"gi qonunga asosan quyidagilar korxonalar mulkini shakllantirishning manbalari hisoblanadi:

- ta'sischi pul va moddiy ko'rishdagi badallari;
- mahsulot (ish, xizmat) sotishdan va boshqa turdagi faoliyatdan olingan daromadlar;
- qimmatbaho qog'ozlardan olingan daromadlar;

- banklar va boshqa kreditorlardan olingan kreditlar;
- byudjetdan olinuvchi mablag'lar (dotatsiya), kapital qo'yilmalar;
- korxonalar, tashkilot va fuqarolarning beg'araz va xayriya badallari, shuningdek, almashish, meros va sovg'a tariqasida olinuvchi mulk;
- qonun bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Davlat korxonalarining mulkiy huquqlarini kafolatlaydi. Davlatning korxonalar mulkini (asosiy fondlar, aylanma mablag'lar va hokazo) tartib olishiga yo'l qo'yilmaydi, qonunchilikda ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno.

### **3.3. Korxonalarining davlat tomonidan ro'yxatga olinishi**

Yuqorida aytib o'tilganidek, korxonalar joylashgan manzilgohi bo'yicha davlat idoralarida ro'yxatga olingan kundan boshlab tashkil qilingan hisoblanadi. Bu vazifani asosan hokimiyatlar bajarib, ular korxonani ro'yxatga olish to'g'risidagi ma'lumotlarni 10 kun mobaynida Moliya vazirligiga yagona davlat restriga kiritish uchun taqdim etishlari shart.

Davlat ro'yxatidan o'tish uchun korxonani tashkil qilish to'g'risidagi qaror, korxonalar Nizomi (ta'asis shartnomasi) va Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab beriluvchi ro'yxatdagi boshqa hujjatlar taqdim etiladi.

Korxonani davlat tomonidan ro'yxatga olish zarur hujjatlar ilova qilingan ariza berilgan kundan boshlab 30 kun mobaynida amalga oshirilishi lozim. Korxonalarini ro'yxatga olishdan, ularni tashkil qilish maqsadga muvofiq emas, degan sabab bilan bosh tortishga yo'l qo'yilmaydi.

Agar korxonani ro'yxatga olish o'z vaqtida amalga oshirilmasa yoki ta'asischi ro'yxatga olinmaslik sabablarini asossiz deb hisoblagan taqdirda ta'asischi sudga murojaat qilishi mumkin. Korxonani ro'yxatga olishdan asossiz ravishda bosh tortish mahalliy hokimiyat idoralarining



moddiy javobgarlikka tortilishiga olib kelishi mumkin.

Korxonani ro'yxatga olish uchun quyidagi hujjatlar talab qilinadi:

1. Korxonani ro'yxatga olish to'g'risidagi ariza.
2. Ta'sis shartnomasi yoki korxonani tashkil qilish to'g'risidagi qaror.
3. Korxonani Nizomi.
4. Ta'sis shartnomasi yoki korxonani tashkil qilish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan Nizom jamg'armasining kamida 50% miqdoridagi qismi to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar.
5. Davlat bojini to'laganlik haqida guvohnoma.
6. Monopoliyaga qarshi muassasaning korxonani tashkil qilishga roziligini tasdiqlovchi hujjat.
7. Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash qo'mitasi yoki uning quyi idoralari roziligi haqidagi hujjat.

Ro'yxatga olish korxonaga kelib tushuvchi hujjatlarni qayd etish kitobida tartib raqami berish orqali amalga oshiriladi. Ko'rsatilgan jarayonlar amalga oshirilgach, korxonani joylashgan manzilgohi bo'yicha soliq idoralarida hisobda turishi va buni tasdiqlovchi hujjat olishi hamda bankda hisob raqami ochishi mumkin.

**Qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarini ro'yxatdan o'tkazish tartibi.** O'zbekistonda xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalarini ro'yxatdan o'tkazish uchun:

Ustav fondi miqdori kamida 600 000 000 mln so'm ( qariyb 75 000 AQSH dollari) bo'lishi;

Umumiy ustav fondi miqdorida xorijiy yuridik shaxs ulushi kamida 30% ni tashkil etishi shart.

Xorijiy sarmoyador ishtirokida korxonani tashkil etish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirilishi zarur:

➤ muassis hujjatlari paketini ishlab chiqish yoki amaldagi korxonani hujjatlariga o'zgartishlar kiritish (agarda investitsiya amaldagi korxonaga jalb qilinayotgan bo'lsa);

➤ firma nomini zaxiraga olib qo'yish;

- muassis hujjatlarining notarial ishonchnomasi;
- yuridik shaxsning davlat ro‘yxatidan o‘tganligi (qayta o‘tganligi);
- asosiy muhr va burchak shtampni tayyorlash (agar talab etilsa);
- bank xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma tuzish va bank hisob raqamlarini ochish (endi tuzilayotgan korxonalar uchun).

Muassis hujjatlari muassislarning o‘zi yoki ular bilan shartnoma tuzgan uchinchi shaxslar (maslahat markazlari, yuridik firmalar va h.z) tomonidan tayyorlanishi mumkin. Savdo-sanoat palatasining yaqinda joylashgan bo‘linmasiga murojaat etsa ham bo‘ladi. Bunda palata mutaxassislari shartnoma asosida kerakli hujjatlarni ishlab chiqadi.

Muassislar Adliya vazirigining <http://www.minjust.uz/ru/interactive/documents/> rasmiy saytida joylashtirilgan muassis hujjatlarining namunaviy shakllaridan foydalanishlari mumkin.

Xorijiy sarmoyador ishtirokida yangi tuzilgan korxonalar davlat ro‘yxatidan o‘tganidan so‘ng yuridik shaxs maqomi va faoliyat yuritish huquqiga ega bo‘ladi. Ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi tashkil etilayotgan korxonalar maqomi (PII ili UIK)ga bog‘liq emas, u va bu turdagi korxonalar tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha Yagona markazlar tomonidan “yagona darcha” tamoyili asosida ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

“Yagona darcha” markaziga Muassis – yuridik shaxsning joylashgan manzili yoki muassis – jismoniy shaxsning doimiy yashash manzili bo‘yicha murojaat qilish lozim. 2017-yil 1-yanvardan boshlab tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish Internet orqali Interfaol davlat xizmatlari yagona portaligi integratsiyalashtirilgan tadbirkorlik subyektlarini avtomatlashgan ro‘yxatga olish tizimi yordamida amalga oshirish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat qarorlari bilan tashkil etilgan xo‘jalik boshqaruv organlari sifatida amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyekti-yuridik shaxsni ro‘yxatdan o‘tkazishda quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- so‘rovnoma to‘ldiriladi.

- davlat tilidagi ta' sis hujjatlari (ustav va ta' sis shartnomasi) taqdim etiladi.

- so'rovnomada, muassislarning pasport ma'lumotlari ko'rsatiladi.
- to'lov miqdori:
- bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari;
- muddat: 30 daqiqa.

Misol uchun: "O'zbekoziqovqatzahira" meva-sabzavot mahsulotlarini tayyorlash va g'amlash uyushmasi tarkibiga kiruvchi meva-sabzavot mahsulotlarini tayyorlash va g'amlash korxonalarini ro'yxatdan o'tkazishda quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- so'rovnoma;
- davlat tilidagi ta' sis hujjatlari.
- to'lov miqdori (eng kam oylik ish haqiga qarab o'zgarishi mumkin):
- eng kam oylik ish haqining 4 baravari miqdorida.
- internet tarmog'i orqali - Eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida.
- muddat: 30 daqiqa.

2016-yil 28-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi PQ-2646-son Qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi qaror Nizomining 3-ILOVAsida quyidagicha keltirilgan.

Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan muddatlar quyidagicha.

T/r	Tadbirkorlik faoliyati shakllarining nomi	Davlat ro'yxatidan o'tkazishning belgilangan muddatlari
<b>I. Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish</b>		
1.	Yakka tartibdagi tadbirkor, shu jumladan dehqon xo'jaligi, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyati subyektlari	real vaqt rejimida, lekin 30 daqiqadan oshmagan vaqtda
2.	Tadbirkorlik faoliyatining boshqa shakllari	real vaqt rejimida, lekin 30 daqiqadan oshmagan vaqtda
<b>II. Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan qayta o'tkazish</b>		
3.	Dehqon xo'jaligi, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyati subyektlari boshlig'i o'z-garganda	real vaqt rejimida, lekin 30 daqiqadan oshmagan vaqtda
4.	Ta'sis hujjatlariga ustav fondi miqdorining oshirilishi, ulushning (hissaning) boshqa shaxsga o'tishi bilan bog'liq bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganda	16 ish soatidan oshmagan vaqtda
5.	Ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlariga (ta'sis hujjatlariga) kiritilayotgan boshqa o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritilganda	real vaqt rejimida, lekin 30 daqiqadan oshmagan vaqtda

### **3.4. Korxonani tugatish va qayta tashkil qilish**

Korxonani faoliyatini to'xtatish uni tugatish yoki qayta tashkil qilish shaklida amalga oshirilishi mumkin. Ishlab chiqarishning barqaror emasligi, moliyaviy qiyinchiliklar, surunkali zarar ko'rish va to'lov qobiliyatining yo'qolishini korxonalarni tugatish yoki qayta tashkil qilishga asosiy sabab qilib ko'rsatish mumkin.

Korxonani qayta tashkil qilish – uning birlashib ketishi, qo'shilishi, bo'linishi, ajralib chiqish va shaklini o'zgartirishi degani. Korxonani qayta tashkil qilish ta'sischi (ta'sischi) yoki korxonani boshqaruvi qaroriga muvofiq amalga oshiriladi. Qayta tashkil qilish korxonaning ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlari avvalgiga nisbatan yaxshilanishiga xizmat qilishi lozim.

Korxonani tugatish huquqiy xatti-harakat bo'lib, ishlab chiqarish va xo'jalik yuritish faoliyatining to'xtatilishini anglatadi. Korxonani tugatilganda u davlat ro'yxatidan chiqariladi, uning bankdagi hisob raqami yopiladi hamda muhr, shtamp va boshqa rekvizitlari haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Korxonani tugatishga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat)ga bo'lgan talabning pasayib ketishi yoki umuman yo'qolishi;
- ishlab chiqarishning zarar keltirishi;
- ishlab chiqarishning atrof-muhit hamda aholi hayotiga xavf tug'dirishi;
- korxonaning bino va inshootlari, asbob-uskunalar va boshqa vositalaridan iqtisodiy jihatdan unumliroq, yanada sifatli va iste'molchilar talabiga javob beruvchi mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalanish imkoniyatining yuzaga kelishi.

Korxonani tugatishda tugatish komissiyasi tuzilib, unga kreditorlarga korxonani tugatilganini xabar qilish, kreditorlarni aniqlash va debitorlik qarzini undirish choralarini ko'rish, shuningdek, korxonaning tugatilishi sababli ishsiz qolgan xodimlar ish bilan ta'minlanishiga yordamlashish vazifasi yuklanadi. Korxonani tugatish jarayonida oraliq tugatish balansi

tuzilib, unga tugatilayotgan korxonaning mulki, kreditorlarning talablari va ularni ko‘rib chiqish natijalari ro‘yxati kiritilishi lozim. Ushbu balans korxonaning ta‘sischisi (ta‘sischilari) yoki korxonani tugatish to‘g‘risida qaror chiqargan idora tomonidan tasdiqlanadi. Tugatish komissiyasining aybi bilan keltirilgan zarar uchun tugatish komissiyasi javobgar hisoblanadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Yangi korxonani tashkil qilish qanday tashkiliy tamoyillar asosida amalga oshiriladi?
2. Korxonaga qachondan boshlab tashkil qilingan hisoblanadi va huquqiy shaxs maqomiga ega bo‘ladi?
3. Yangi korxonaga tashkil qilishdan qanday maqsadlar ko‘zlanadi?
4. Korxonaga ta‘sis hujjatlariga nimalar kiradi?
5. Korxonaga nizomida nimalar ko‘rsatiladi?
6. Korxonaga ta‘sis shartnomasida nimalar belgilab qo‘yiladi?
7. Korxonani tugatish va qayta tashkil qilish tartibi haqida gapirib bering.

### **Test topshiriqlari:**

#### **1. Korxonaga – bu...**

- A) mustaqil xo‘jalik yurituvchi bozor subyekt;
- B) davlatning mulkiy kompleksi;
- C) tadbirkorlik va biznes sohasidagi subyekt;
- D) mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish va sotish shakli.

#### **2. Korxonaning bankrotligi aniqlanadi**

- A) korxonada mavjud pul mablag‘lari va yuqori likvidlikka ega bo‘lgan aktivlar yo‘qligi;
- B) moliyaviy koeffitsiyentlar tizimi bilan;
- C) qarzlarning mavjudligi bilan;
- D) kadrlar qo‘nimsizligi va ishlab chiqarish pasayishi orqali.

#### **3. Korxonani tashkil etishning ta‘sis hujjatlari**

- A) nizom, ta‘sis shartnomasi;

- B) korxonada va bank tomonidan tasdiqlangan ta'ris shartnomasi;
- C) nizom va korxonada pasporti;
- D) nizom, ta'ris shartnomasi, emissiya prospekti.

**4. Korxonalarda ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish usullari:**

- A) partiyali, oqimli, donalab ishlab chiqarish;
- B) oqimli, donalab;
- C) ulgurji, chakana;
- D) partiyali, oqimli.

**5. Bozor infratuzilmasi deganda nimani tushunasiz?**

- A) bozor iqtisodiyoti uchun tadbirkorlik faoliyatiga bevosita ta'sir kursatadigan har xil xizmatlar ko'rsatadigan sohalar;
- B) tovar oldi - sotdi jarayonida talab va taklif munosabatlari;
- C) bozor muvozanatining mavjudligi;
- D) bozordagi talab va taklifni tarkiban bir - biriga nomuvofiq kelishi.

**6. Konsalting firma deganda:**

- A) ishlab chiqarishga ish yuzasidan maslahat xizmati ko'rsatish va texnikaviy loyihalarni ekspertiza qilish bilan shug'ullanuvchi korxonalar tushuniladi;
- B) muhandislik maslahat xizmatlarini tijoratchilik qoidalariga asoslangan holda amalga oshiruvchi korxonalar tushuniladi;
- C) yangi texnika, texnologiya, tovar namunalarini yaratuvchi korxonalar tushuniladi;
- D) xo'jalik faoliyatini tekshirish, taftish va tahlil etish bilan shug'ullanuvchi korxonalar tushuniladi.

**7. Korxonani tashkil etishning ta'ris hujjatlari.**

- A) majlisning bayonnomasi va ta'rischilarning roziligi;
- B) korxonada va bank tomonidan tasdiqlangan ta'ris shartnomasi;
- C) nizom, ta'ris shartnomasi va korxonada pasporti;
- D) nizom, ta'ris shartnomasi, emissiya prospekti.

## IV BOB. KORXONANI BOSHQARISH

### 4.1. Boshqaruv obyektiv zaruriyat va maqsadga yo'naltirilgan jarayon sifatida

Har qanday ishlab chiqarish boshqaruvning muayyan tizimimiz oqilona harakat qila olmaydi va rivojlanmaydi. Shu tufayli ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida jamiyat o'ziga xos va mos boshqaruv tizimini yaratadi.

«Boshqaruv» tushunchasi uzoq va chuqur tarixiy taraqqiyotga ega. Uning yuzaga kelishi esa insoniyat taraqqiyotining eng muhim jarayonlaridan biri hisoblanadi. Boshqaruv faoliyatining dastlabki davrida insonlar o'z bilim va tajribasiga asoslangan holda ishlab chiqarishni boshqargan bo'lsalar, asta-sekinlik bilan texnika-texnologiyaning rivojlanishi, ishlab chiqarish sur'atlarining o'sishi va har xil tashkiliy sharoitlar yuzaga kelishi natijasida faoliyatning mazkur turi ancha murakkablashib bordi. Bunday holatni anglash, chuqurroq o'rganish va bilish «Boshqaruv fani»ning vujudga kelishiga olib keldi.

Boshqaruvning bir qator nazariy va amaliy vazifalari F.U. Teylor tomonidan asoslab berilgan. U boshqarishga «Nima qilish kerakligini, uni eng yaxshi va qulay usulda amalga oshirishni aniq bilish san'ati», - deb ta'rif bergan.

Boshqaruvning ma'nosi va mohiyati, ahamiyati va mazmuni, tamoyillari va usullari to'g'risida buyuk olimlar, mutafakkirlar, mutaxassislar juda ko'p fikr aytishgan va yozib qoldirishgan.

#### **Boshqaruv to'g'risida buyuk olimlar, mutafakkirlar fikrlari:**

Boshqaruv	alohida funksiya bo'lib, turli-tuman sohalar (mamlakat va uning hududlari, milliy iqtisodiyot va uning tarmoqlari, korxonalar va uning bo'limlari) da insonlar ustidan rahbarlik qilish faoliyatidir.
Boshqaruv	tashkilotning maqsadini ifodalash va unga erishish uchun zarur bo'lgan bashorat qilish, rejalashtirish,



	tashkil etish, ishtiyoqni uyg‘otish (motivatsiya) va nazorat qilish bo‘yicha faoliyat turi, jarayonidir.
Boshqaruv	shunday faoliyatki, uning yordamida uyushmagan jamoa (xaloyiq yoki to‘da) samarali va aniq maqsadga yo‘naltirilgan unumli (barakali) guruhga aylantiriladi.
Boshqaruv	ma‘lum jarayonga, organizm va jamoaga maqsadli ta’sir ko‘rsatishni o‘zida ifoda etuvchi ijtimoiy faoliyatning bir turidir.
Boshqaruv	muayyan axborotga asoslangan va mavjud dasturga muvofiq obyektning ishlashini, ya’ni faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga yo‘naltirilgan tadbirlar majmuasidir.
Boshqaruv	bu tashkilot maqsadlarini aniqlash va ularga erishish uchun zarur bo‘lgan rejalashtirish, tashqil qilish, motivlashtirish va nazorat jarayonlari hisoblanadi.
Boshqaruv (mashhur fransuz olimi Anri Fayol)	bu, korxonada ixtiyoridagi barcha resurslardan maksimal (eng ko‘p — A.O.) foyda olgan holda uni maqsad sari yetaklash faoliyatidir

Bundan tashqari mashhur fransuz olimi Anri Fayol boshqaruvning korxonada bajariladigan barcha funksiyalarini oltita guruhga bo‘lib o‘rgangan. Bularga:

- 1) texnik (ishlab chiqarish, qayta ishlash);
- 2) tijorat (sotib olish, sotish, almashtirish);
- 3) moliyaviy (kapital topish, uni boshqarish);
- 4) himoyalash (mulkni va shaxsni himoyalash);
- 5) hisob-kitob (muvozanat, sarflar, statistika);

6) ma'muriy (ish olib borish, tashkil qilish, farmon chiqarish va nazorat).

A. Fayol boshqaruvni umumiy funksiyalarini turkumlashda birdan-bir muallif hisoblangan.

A.Fayol ma'muriy funktsiya korxonada rahbari zimmasida turgan eng katta o'rinni egallovchi majburiyatdir va uning predmeti deb quyidagilarni bilgan. Bularga:

1) oldindan ko'ra bilish (kelajakni o'rganish va harakat dasturini yaratish);

2) tashkil qilish (korxonaning moddiy-texnika bazasini yaratish);

3) farmon berish (korxonada xodimlarini harakatga keltirish);

4) tartibga keltirish (barcha jarayonlarni, harakat va intilishlarni birlashtirish);

5) nazorat qilish (qonun – qoidalarga, chiqarilgan farmonlarga rioya qilinishini kuzatish).

Demak, boshqaruv obyektiv zaruriyat va maqsadga yo'naltirilgan jarayon hisoblanadi.

Makroiqtisodiy sohaning yetakchi tarmog'i bo'lgan sanoatni boshqarish zaruriyati to'g'risida so'z yuritilganda yuqoridagi ta'riflarni yanada kengaytirish va mazmunan boyitish zarurati yuzaga keladi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishni, jumladan, uning eng yirik va yetakchi sohasi bo'lgan sanoatni boshqarishning obyektiv zaruriyatini izohlab shuni aytish kerakki, yirik miqyosda amalga oshiriladigan, har qanday to'g'ridan-to'g'ri qilinayotgan mehnat, ishlab chiqarish ko'proq yoki kamroq darajada boshqarilishga muhtojdir.

Boshqaruv ilmi (menejment)da boshqaruvning ikki xil tushunchasi mavjud bo'lib, ularning birini boshqaruvning subyektivi va ikkinchisini boshqaruvning obyektivi tashkil etadi.

Boshqaruv subyektivi - jismoniy yoki yuridik shaxslar bo'lib, undan amaldagi qonunlar asosida hokimiyat idoralari tomonidan berilgan vakolatlarga muvofiq huquqiy ta'sir yuzaga keladi.

Boshqaruv obyekti boshqaruv subyektining huquqiy ta'siri qaratilgan narsadir. Bunga ishlab chiqarish va xo'jalik tizimlari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, jismoniy va yuridik shaxslar kirishi mumkin.

Ko'rinib turibdiki, u holatda ham, bu holatda ham insonlarni boshqarish ularning o'zi tomonidan amalga oshiriladi. Faqat kishilar, ularning faoliyati, jumladan, mahsulot ishlab chiqarish, xo'jalik va boshqa jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan faoliyatlari boshqaruvning predmeti, ya'ni hozirgi zamon menejmentining asosi hisoblanadi. Boshqaruvning subyekti va obyektisiz menejment fan va xo'jalik tajribasi sifatida o'z mazmun va mohiyatini yo'qotadi.

Albatta, minglab kishilar ishlaydigan sanoat ham bu tushuncha va mulohazalardan xoli emas. Ayniqsa, sanoat ishlab chiqarishida «subyekt» va «obyekt» tushunchalari boshqa tarmoqlarga nisbatan hiyla ravshanroq ko'rinadi. Bunda vazirlik, kompaniya va aksiyadorlik jamiyatlaridagi boshqaruvchilar korxonadagi boshqaruvchilarga, korxonadagi boshqaruvchilar esa sex, uchastka boshqaruvchilariga rahbarlik qiladilar.

Har qanday boshqaruv o'z maqsadi va vazifalariga ega. Maqsad – bu, inson faoliyatining avvaldan fikran o'ylangan natijasidir. Shunga binoan, boshqaruvning maqsadi deganda, boshqaruv subyektining oldindan o'ylangan, mo'ljallangan, erishish zarur bo'lgan natijasi tushuniladi. Sanoatda esa, maqsad ko'p va sifatli, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va uni o'z vaqtida sotish hamda mo'ljallangan foydani olishdir.

Har qanday maqsadga ma'lum talablar qo'yiladi. Dastavval, maqsad ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan bo'lishi kerak. Ikkinchidan, u aniq, yaxshi ifodalangan va adresli bo'lishi zarur. Uchinchidan, qo'yilgan maqsad erishimli bo'lishi, ya'ni unga yetishishning imkoniyatlari, shart va sharoitlari hisobga olingan bo'lishi kerak.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun ma'lum vazifalarni bajarish zarur. Ma'lumki, vazifa – bu, avvaldan belgilangan, aniqlangan, ko'rsatilgan, bajarilishi va hal etilishi lozim bo'lgan ish, narsadir.

Sanoat ishlab chiqarishida boshqaruvning vazifalari quyidagilardan iborat:

- kelajakni aniq koʻrmoq (istiqbolni toʻgʻri bashorat qilish va unga monand boʻlgan faoliyat dasturini tuzish);
- tashkillashtirmoq (sanoatning ichki, moddiy va ijtimoiy tuzilmasini barpo etish);
- personalni idora qilmoq (sanoat ishlab chiqarish xodimlarini harakatga keltirish);
- kelishish (harakat va tirishqoqlikni bir-biri bilan uygʻunlashtirish);
- nazorat qilish va kuzatish (joriy etilgan va berilgan buyruq asosida harakatning, yaʼni faoliyatning qanday tarzda boʻlayotganini mushohada qilish).

Boshqarish jarayonida oldindan koʻra bilish nihoyatda katta ahamiyatga ega. Barcha jarayonlarni kuzatib, ularning oʻzgarishiga qarab ishlab chiqarish, ish bajarish yoki xizmat koʻrsatish boshqarilib turiladi. Masalan, mahsulotga boʻlgan ehtiyoj, narx-navo, texnika va texnologiyalar oʻzgarishi, ish haqi va ijtimoiy muhofazaning holati ishlab chiqarishga katta taʼsir koʻrsatadi. Shuning uchun vaziyatga qarab kerakli oʻzgarishlarni zudlik bilan amalga oshirish kerak boʻladi.

Boshqarish jarayonida rejalashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mahsulot hajmini belgilaganda uni barcha resurslar bilan taʼminlash va ularni yetkazib berish masalasiga katta eʼtibor berish kerak. Maʼlumki, rejalar bir kunlik, oʻn kunlik, bir oylik, bir kvartallik, bir yillik, uch yillik, besh yillik va oʻn-oʻn besh yillik boʻlishi mumkin. Oxirgisi «konsepsiya», «bashorat» tushunchalari bilan bogʻliqdir.

Ishlab chiqarish jarayoni uzluksiz boʻladi, chunki u, eng avval, yuzaga keladi, shakllanadi, rivojlanadi va takomillashadi. Ana shu oʻzgarishlarni tashkilotchilik taʼminlaydi. **Tashkilotchilik** – moddiy - texnika taʼminoti, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish va tayyor mahsulotni sotish jarayonlaridan iborat. Tashkilotchilikka kunda yuz beradigan muammolarni tez hal etish bilan bogʻliq boʻlgan faoliyat ham kiradi.


Muvofiqlashtirish va nazorat ham muhim vazifalardan hisoblanadi. Tarmoqlar, korxonalar, sexlar va uchastkalar, boʻlimlar hamda unda ishlaydigan xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirib turilgandagina yuqori

natijalarga erishish mumkin. Barcha topshiriqlarning o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash uchun nazorat kerak.

## 4.2. Boshqarishning asosiy tamoyillari va usullari

Boshqaruv tamoyillari deganda, rahbarlik qilishning fundamental qoidalari tushuniladi. Ular iqtisodiy qonunlar harakati va boshqarish usullari bilan bog‘liq bo‘lgan voqeliklarning mohiyatini aks ettiradi.

Boshqarish mexanizmini quyidagicha ta’riflash mumkin:



**qonunlar — tamoyillar — usullar — uslublar**

Ushbu mexanizmning eng muhim elementi Qonun hisoblanadi. Qonun - bu, obyektiv borliqda turli hodisalar o‘rtasida kishi ongidan va ixtiyoridan tashqari, hamma mavjud bo‘lgan zaruriy bog‘lanish, munosabatdir. Masalan, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot qonunlari: talab va taklif qonuni, qiymat qonuni va boshqalar.

Qonun - bu davlat hokimiyati tomonidan qabul qilingan, hamma uchun, shu jumladan, sanoat ishlab chiqarishida mehnat qilayotganlar uchun ham majburiy bo‘lgan ijtimoiy-huquqiy me’yor va munosabatlarni belgilovchi rasmiy hujjat. Masalan, Konstitutsiya-O‘zbekiston davlatining asosiy qonunidir.

Tamoyillarni boshqaruv fani nazariyasi va amaliyotining poydevori deyish mumkin. Ma’lumki, poydevor qancha mukammal va mustahkam bo‘lsa, boshqaruv apparati shunchalik qudratli bo‘ladi.

Boshqaruv tamoyillarining shakllanishi chuqur tarixiy ildizga ega. Xususan, O‘zbekistonda bu tamoyillar Amir Temur hukmronligi davrida shakllana va rivojlana boshlagan. Buyuk Sohibqiron davlati o‘zining ixcham, tezkor boshqarish devoniga ega bo‘lib, yakkaxonlik, ierarxiya (bo‘ysunish tartibi), bilimdonlik, ilmiy, javobgarlik, demokratiya kabi tamoyillar asosida boshqarilgan.

O‘zbekiston Respublikasida dastlab bozor iqtisodiyoti sharoitida O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolga erishishining asosiy tamoyillari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 2-chaqiriq birinchi sessiyasida o‘z aksini topgan.

### 13-jadval

#### Bozor iqtisodiyoti sharoitida O‘zbekistonda davlatni boshqarish tamoyillari

№	Tamoyillar	Izoh
1.	<b>Demokratiya tamoyili</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• insonning o‘z xohish-irodasini erkin bildirish hamda uni amalga oshirish;</li> <li>• barcha fuqarolarning teng huquqliligi;</li> <li>• davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi;</li> <li>• davlat va nodavlat idoralarning saylovchilar oldidagi javobgarligi va boshqalar.</li> </ul>
2.	<b>Iqtisodiy munosabatlarni demokratiyalash tamoyili</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• monopollashgan iqtisodiyotdan erkin iqtisodiyotga;</li> <li>• sotsialistik musobaqadan erkin, sof raqobatga;</li> <li>• qatiy belgilangan narxlardan erkin narxlarga;</li> <li>• davlatlashgan mulkdan xilma-xil mulkchilikka asoslangan iqtisodiyotga o‘tish.</li> </ul>
3.	<b>Yuksak ma’naviyat tamoyili</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Mustaqillik tafakkurini shakllantirish, ya’ni:</li> <li>• O‘zbekiston davlatinng istiqboli va istiqloli haqida qayg‘urish;</li> <li>• o‘zining va o‘z xalqinnng, vatanining qadru qimmatini, or-nomusini anglab, uni himoya qilish;</li> <li>• yuksak g‘oyalar, yangi kashfiyotlar, niyatlar og‘ushida mehnat qilib, iste’dodi va iqtidori, bor imkoniyatini, kerak bo‘lsa, jonini yurt istiqboli, eliga baxshida etishdir.</li> </ul>
4.	<b>Milliy xavfsizlikni ta’minlash tamoyili</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• O‘zbekistonning dunyo hamjamiyatiga kirish sur’atlarini tezlashtirish;</li> <li>• turli xalqaro, davlat va nodavlat tashkilotlari ishlarida faol ishtirok etishni ta’minlash</li> </ul>

O‘zbekiston Respublikasining istiqlol yo‘li bozor munosabatlariga o‘tish yuzasidan mamlakatda olg‘a surilgan besh tamoyilga asoslanadi. Ularning mohiyati quyidagicha (14-jadval):

Ushbu tamoyillar O‘zbekistonning o‘ziga xos sharoitlarini hisobga olgan holda izchillik bilan shakllantirib va rivojlantirib borishni, unga asta-sekin, bosqichma-bosqich, aholining zaif qatlamlarini himoya qila

borib, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy barqarorlikni ta'minlash orqali bozor munosabatlariga o'tishni bildiradi. Ayni vaqtda ular kengash, hamjihatlik, maslahat bilan ish yuritishni, shijoat va tavakallchilik bilan harakat qilishni talab etadi. Bu borada sohibqiron Amir Temurning quyidagi so'zlarini keltirish o'rinlidir: «Tajribamdan ko'rilganki, ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir. Chunki tajribali bir kishi ming kishiga ish buyuradi»<sup>9</sup>.

## 14 - jadval

### Besh asosiy tamoyil<sup>10</sup>

№	Asosiy tamoyillar	Asosiy tamoyillarning mohiyati
1.	<b>Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, ular birorta mafkuraga bo'ysundirilishi kerak emas. Buning ma'nosi shuki, iqtisodiyot siyosatdan ustun turishi kerak.</li> <li>Ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan holi qilish zarur.</li> </ul>
2.	<b>Davlat bosh islohotchi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Davlat bosh islohotchi bo'lishi lozim. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, o'zgartirishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan o'tkazishi, jaholatparastlar va konservatorlar qarshiligini bartaraf etishi shart.</li> </ul>
3.	<b>Qonunlar va ularga rioya qilish ustuvorligi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Qonunlarga rioya etish ustuvor bo'lishi lozim. Demokratik yo'l bilan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarni hech istinosiz hamma hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etishi lozim.</li> </ul>
4.	<b>Kuchli ijtimoiy siyosat yuritish</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazish.</li> <li>Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rilishi lozim. Bu bozor iqtisodiyoti yo'lidagi eng dolzarb vazifa bo'lib keldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.</li> </ul>
5.	<b>Bozor iqtisodiyotiga sekin-asta, bosqichma-bosqich o'tib borish</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Bozor iqtisodiyotiga o'tish obyektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, o'tmishdagi «inqilobiy sakrashlar»siz, ya'ni evolyutsion yo'l bilan, puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak.</li> </ul>

<sup>9</sup> Темур тузуклари. –Т.: Ф.Гуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996 йил, 24 - бет.

<sup>10</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон – бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли.–Т.:Ўзбекистон, 1993 йил, 42 - бет.

O‘zbekiston Respublikasida tub iqtisodiy islohotlar olib borilishi natijasida 2017-yilning 7-fevralida “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PQ-4947-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilinib bugungi kunda bu Farmonning sarhisobi qilindi.

Farmonda iqtisodiyotda ma‘muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o‘ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur‘atlar bilan o‘shishini, inflyatsiyani prognoz ko‘rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta‘minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishi aytib o‘tildi.

Mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon‘yunkturasi keskin o‘zgarib, global-lashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarishni taqozo etdi.

Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida:

№	Ustuvor yo‘nalishlar	Ustuvor yo‘nalishlarning mohiyati
1.	<b>Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish;</li> <li>• Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish;</li> <li>• Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish.</li> </ul>
2.	<b>Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta‘minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish;</li> <li>• Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta‘minlash;</li> </ul>



	<b>qilishning ustuvor yoʻnalishlari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Maʼmuriy, jinoyat, fuqarolik va xoʻjalik qonunchiligini takomillashtirish;</li> <li>• Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish;</li> <li>• Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash;</li> </ul> <p>. Yuridik yordam va xizmat koʻrsatish tizimini takomillashtirish.</p>
3.	<b>Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yoʻnalishlari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy oʻsish surʼatlarini saqlab qolish;</li> <li>• Tarkibiy oʻzgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish;</li> <li>• Qishloq xoʻjaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish;</li> <li>• Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqei yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini ragʻbatlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish; <ul style="list-style-type: none"> <li>○ Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish;</li> </ul> </li> </ul>
4.	<b>Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish;</li> <li>• Aholini ijtimoiy himoya qilish va sogʻliqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish;</li> <li>• Arzon uy-joylar barpo etish boʻyicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini taʼminlovchi yoʻl-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish;</li> <li>• Taʼlim va fan sohasini rivojlantirish;</li> <li>• Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.</li> </ul>
5.	<b>Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bagʻrikenglikni taʼminlash hamda chuqur oʻylangan, oʻzaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yoʻnalishlar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Xavfsizlik, diniy bagʻrikenglik va millatlararo totuvlikni taʼminlash sohasidagi ustuvor yoʻnalishlar;</li> <li>• Chuqur oʻylangan, oʻzaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yoʻnalishlar.</li> </ul>

Mamlakatimizni 2017 — 2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o‘tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.

Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta‘minlash bo‘yicha ta‘sirchan choralar ko‘rildi.

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o‘rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta‘lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta‘minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi.

So‘nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma‘rifiy asoslari yaratildi.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda «Inson qadri uchun» tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta‘minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab olindi. Bu borada 2022-yil 28-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni qabul qilindi.

<b>Taraqqiyot strategiyasi</b>	<b>№</b>	<b>Taraqqiyot strategiyasining maqsadlari</b>
<b>I. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish</b>	1.	Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo‘g‘iniga aylantirish.
	2.	Xalq deputatlari Kengashlarini hududlarda mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo‘g‘inga aylantirish.
	3.	Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining institutsional asoslarini zamon talablariga moslashtirish.

	4.	Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini «fuqarolarga xizmat qilishga yo‘naltirish» tamoyili asosida transformatsiya qilish.
	5.	Ixcham, professional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish.
	6.	Davlat boshqaruvi tizimida ma‘muriy apparatni ixchamlashtirish va ish jarayonlarini maqbullashtirish.
	7.	Mamlakatimizdagi islohotlarni izchil davom ettirishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish.
	8.	Norma ijodkorligi jarayonini modernizatsiya qilish, qonunchilik hujjatlarining qat‘iy ijrosini ta‘minlash.
	9.	«Elektron hukumat» tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini 100 foizga yetkazish hamda byurokratiyani bartaraf etish.
	10.	Davlat fuqarolik xizmati tizimini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish.
	11.	Xalq bilan muloqotning mexanizmlarini takomillashtirish
	12.	Ta‘sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.
<b>II. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish</b>	13.	Mulkiy huquqlarning daxlsizligini ishonchli himoya qilish hamda davlat organlarining mulkiy munosabatlarga noqonuniy aralashuvini cheklash.
	14.	Qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniyligni ta‘minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezonini sifatida belgilash.
	15.	Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o‘rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirish.
	16.	Jamoat xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish.
	17.	Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo‘naltirish.
	18.	Sud va boshqa organlar hujjatlarining o‘z vaqtida va to‘liq ijrosini ta‘minlash.
	19.	Advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo‘lgan talabini to‘liq qondirish.
	20.	Faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda fuqarolar o‘rtasida qonunga hurmat va itoat qilish hissinini shakllantirish.
<b>III. Milliy iqtisodiyotni</b>	21.	Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSH

	dollaridan oshirish hamda «daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar» qatoriga kirish uchun zamin yaratish.
22.	Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish.
23.	Geologiya-qidiruv ishlari hajmini keskin oshirish, sohaga xususiy investorlar va ilg‘or xorijiy kompaniyalarni keng jalb qilish.
24.	Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta‘minlash hamda «Yashil iqtisodiyot» texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish.
25.	Raqamli iqtisodiyotni asosiy «drayver» sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish.
26.	Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko‘rish.
27.	Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko‘paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSH dollaridan 7 milliard AQSH dollariga yetkazish.
28.	Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSH dollariga yetkazish.
29.	Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish.
30.	Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘shishini kamida 5 foizga yetkazish.
31.	Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo‘yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish.
32.	Chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini 1,5-2 baravar ko‘paytirish.
33.	Hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4 - 1,6 baravarga oshirish.
34.	Hududlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish.
35.	«O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling» dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish.

	36.	Barcha transport turlarini uzviy bog‘lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, yirik shaharlar o‘rtasida kunlik transport qatnovlari asosida manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyatini yaratish.
<b>IV. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish</b>	37.	Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o‘qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o‘qitish ko‘lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlarga o‘qitish va bu jarayonda nodavlat ta‘lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish.
	38.	Maktabgacha ta‘limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish.
	39.	Maktabgacha ta‘lim tizimida ta‘lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish.
	40.	Maktabgacha ta‘lim tizimida byudjet mablag‘larining maqsadli va samarali sarflanishini ta‘minlash.
	41.	Maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta‘limi tizimida qo‘shimcha 1,2 million o‘quvchi o‘rni yaratish.
	42.	2026-yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqib, amalda joriy etish.
	43.	Malakali o‘qituvchilarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSh dollari ekvivalentiga yetkazish.
	44.	Maktablarda ta‘lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish.
	45.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bosqichma-bosqich bepul ovqat bilan ta‘minlash.
	46.	Oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta‘lim sifatini oshirish.
	47.	2026-yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta‘lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash.
	48.	Qariyb 100 ming o‘rinli talabalar turar joylarini barpo etish.
	49.	2026-yilgacha nodavlat oliy ta‘lim tashkilotlari sonini kamida 50 taga yetkazish.
	50.	«El-yurt umidi» jamg‘armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o‘qishga yuborish ko‘lamini 2 baravarga oshirish, bunda yoshlarning 50 foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalariga o‘qitish.
	51.	Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalarini va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish.
	52.	Global innovatsion indeksda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilash va 2030-yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirish.
	53.	Aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta‘minlash, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish.
	54.	Pensiya ta‘minoti tizimini takomillashtirish.

	55.	Ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni aholiga yanada yaqinlashtirish va qulayligini oshirish maqsadida respublika hududlarida tibbiyot klasterlarini tashkil etish.	
	56.	Aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, byudjet mablag'laridan samarali foydalanish, tibbiy xizmatlarni markazlashtirish va aholini tibbiy sug'urtalash amaliyotini joriy qilish.	
	57.	Tibbiy asbob-uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish.	
	58.	Dori-darmon va tibbiy buyumlar muomalasini tartibga solish hamda aholiga arzon va sifatli mahsulotlar yetkazib berish tizimini takomillashtirish.	
	59.	Birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatida aholiga malakali xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, sohaga ajratiladigan mablag'larni oshirish.	
	60.	Reproduktiv yoshdagi va homilador ayollar, bolalar uchun yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish.	
	61.	Tibbiy xizmatlardagi xususiy sektorning ulushini 25 foizga yetkazish.	
	62.	Mamlakatda ishlab chiqariladigan dori-darmon va tibbiyot vositalarining ulushini 80 foizga yetkazish	
	63.	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xalqaro maqomga ega laboratoriyalarini tashkil etish.	
	64.	Hududlarda birlamchi tibbiy xizmatni «bir qadam» tamoyili asosida tashkil etish.	
	65.	Malakali shifokorlarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSH dollari ekvivalentiga yetkazish.	
	66.	Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish	
	67.	Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarning sonini oshirish.	
	68.	Olimpiya va Paralimpiya harakatini rivojlantirish.	
	69.	Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash.	
	70.	Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.	
	<b>V. Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish</b>	71.	Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan «Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari» g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish.
		72.	Aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda «Kitobsevar millat» umummilliy g'oyasini ro'yobga chiqarish.
		73.	Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish.

	74.	Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash.
	75.	Tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish.
	76.	Madaniyat va san'at sohalarini yanada rivojlantirish, madaniyat muassasalari va obyektlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash.
	77.	O'zbekiston tarixini o'rganish va targ'ib qilishni yanada rivojlantirish.
	78.	Milliy kino san'atini rivojlantirish.
<b>VI. Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish</b>	79.	Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish.
	80.	Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, «Yashil makon» umummilliy loyihasini amalga oshirish.
	81.	O'rmonlar maydonini kengaytirish.
	82.	Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish.
	83.	Davlat xizmatida halollik standartlarini joriy etish.
	84.	Korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.
	85.	Mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 baravarga qisqartirish.
	86.	Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasini ta'minlash hamda samarali migratsiya siyosatini yuritish.
	87.	«Vatandoshlar» jamoat fondi orqali xorijiy davlatlardagi yurtdoshlarimiz bilan doimiy va samarali aloqalar o'rnatish.
	88.	Pandemiyalarga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish.
<b>VII. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish</b>	89.	Fuqarolarning axborot olish va tarqatish erkinligi borasidagi huquqlarini yanada mustahkamlash.
	90.	Davlatning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini, uning imkoniyatlari va qobiliyatini kuchaytirish.
	91.	Harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolarining ijtimoiy himoyasini har tomonlama kuchaytirish.
	92.	Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish.
	93.	Mamlakatning xalqaro munosabatlardagi teng huquqli subyekt sifatidagi rolini oshirish.

94.	Markaziy Osiyoda xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, suv, energetika, transport va madaniy-gumanitar sohalardagi yaqin hamkorlikni sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqish.
95.	An'anaviy hamkorlarimiz bilan munosabatlarni yanada rivojlantirish, tashqi aloqalar geografiasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratib, iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish.
96.	O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti organlari va institutlari, global va mintaqaviy iqtisodiy, moliyaviy va gumanitar tashkilotlardagi faoliyatini kuchaytirish.
97.	Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish va Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish.
98.	Jahon hamjamiyatida mamlakatimiz imidjini oshirishga qaratilgan axborotlar yetkazish samaradorligini oshirish.
99.	Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish
100.	O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari tomonidan O'zbekistonning chet ellardagi fuqarolariga xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish.

Sanoat ishlab chiqarishining tarmoqlari, korxonalari va boshqa sohasini boshqarishda bir qator boshqa tamoyillardan ham keng foydalanish mumkin, ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- kadrlarni tanlash, joy - joyiga qo'yish, tarbiyalash va himoya qilish tamoyili;

- ilmiylik tamoyili;
- yakkaboshchilik va boshqaruvda hamjihatlilik;
- izchillik va barqarorlik tamoyili;
- mehnatni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tamoyili;
- qat'iy tejamkorlik tamoyili.
- "Yangi uy qurmasdan turib, eskisini buzmay" degan hayotiy

tamoyil.

Rahbarlik qilishning fundamental qoidalarini amalga oshirish uchun bir qancha usullardan foydalanish kerak. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- tashkiliy-ma'muriy va huquqiy usullar;
- iqtisodiy usullar;
- ijtimoiy-ruhiy usullar;



- tarbiyaviy usullar.

Tashkiliy-ma'muriy usullar to'g'risida so'z yuritilganda, avvalo, bu usulning mohiyati, ahamiyati, shakllarini ochib berish kerak. So'ngra, boshqarishning hukuqiy vositalari, huquqiy me'yorlarini bayon etish zarur.

Tashkiliy-ma'muriy usullar boshqaruv usullari tizimida alohida o'rin tutadi va quyi idoralarning yuqori idoralarga bo'ysunishiga asoslanadi. Bu usulning mohiyati shundaki, boshqarish tizimidagi munosabatlarni tartibga solib turadi, jamoalar ichida va orasida ratsional aloqalar tarkib topishiga yordam beradi.

Tashkiliy-ma'muriy usullar yordamida boshqaruv apparatining muayyan tizimini tuzish; boshqaruv bo'g'inlarining funksiyalarini belgilash; kadrlarni to'g'ri tanlash va joy-joyiga qo'yish; buyruqlar, farmoyishlar va qo'llanmalar chiqarish hamda ularning bajarilishini nazorat qilish; topshiriqlar va direktiv ko'rsatmalarni bajarmayotgan bo'linma va shaxslarga nisbatan ma'muriy choralar qo'llash amalga oshiriladi.

Boshqaruvning iqtisodiy usullari iqtisodiy manfaatlardan foydalanishga asoslanadi. Zero, har bir muayyan jamiyatning iqtisodiy munosabatlari, eng avvalo, manfaatlar tarzida namoyon bo'ladi. Manfaatlar uch xilda bo'lishi mumkin:

- umumjamiyat manfaatlari;
- jamoa manfaatlari;
- shaxsiy manfaatlar.

Bu manfaatlarni uyg'unlashtirish muammosi bir qator vazifalarni hal etishni, har bir davr sharoitlariga muvofiq keladigan munosabatlar o'rnatishni talab etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida quyidagi iqtisodiy usullardan keng foydalanishga e'tibor beriladi:

- tarmoqlar va ularning bo'linmalariga faoliyat yuritishlarida erkinlik va mustaqillik berishga;
- barcha sohalarni pirovard natijalarga binoan moddiy rag'batlantirish, soliq imtiyozlarini berishga;

- korxonalar va xo‘jaliklar o‘rtasidagi o‘zaro shartnomalarning bajarilish intizomini mustahkamlash va ularning rolini oshirishga;
- moliya-kredit munosabatlarini takomillashtirishga;
- bozor munosabatlari mexanizmlari: baho va foyda, soliq va boj to‘lovlari, kredit va rentabellik, raqobat va hokazolarga.

Bu usulda xodimlarning shaxsiy va guruhii manfaatlarini yuzaga chiqarish orqali ularning samarali ishlashi ta‘minlanadi. Shu maqsadda ko‘pincha ish haqi to‘lash, mukofotlar berish, bir yo‘la katta mablag‘ bilan taqdirlash kabilar muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy usullar boshqarishning barcha usullari orasida yetakchi o‘rin egallaydi. Bu usuldan oqilona foydalanish jiddiy rejalar qabul qilishga, barcha resurslardan yanada unumliroq foydalanishga, yangi texnologiyalarni joriy etishga, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga va foydani maksimallashtirishga, natijada ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Boshqaruv tizimining muhim usuli hisoblangan ijtimoiy-ruhiy usullarning asosiy maqsadi jamoalarda sog‘lom ijtimoiy-ruhiy muhitni yaratishdan iborat.

Sanoat ishlab chiqarishini boshqarishda ham bir qator umumfalsafiy usullarni qo‘llash mumkin. Sanoatni boshqarishning sir-asrorlarini ilmiy asosda o‘rganish, tahlil qilish maqsadida quyidagi usullardan ham keng foydalaniladi:

1. Tizimli yondashuv.
2. Kompleks yondashuv.
3. Tarkibiy yondashuv.
4. Vaziyatli yondashuv.
5. Integratsion yondashuv.
6. Modellashtirish bo‘yicha yondashuv.
7. Kuzatish usuli.
8. Tajriba usuli.

**Birinchi** usulda sanoat ishlab chiqarishi yaxlit tizim tarzida olib qaraladi. **Ikkinchi** usulda esa sanoat boshqa sohalar, tarmoqlar bilan o‘zaro bog‘lanishda va aloqadorlikda qaraladi. **Uchinchi** usulda sanoat ishlab chiqarishi tarkibiy qismlarga, ya‘ni tarmoqlar, korxonalar, sanoat

infratuzilmasi va hokazolarga bo‘lib o‘rganiladi. **To‘rtinchi** usulda sanoatning muayyan sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatiga qarab boshqarishning ma’qul uslubi qo‘llaniladi. **Beshinchi** usulda sanoat yuqoridagi usullarni birgalikda qo‘llash yordamida boshqariladi.

Modellashtirish va iqtisodiy-matematik usullardan foydalanish jarayonida turli chizmalar, xomaki materiallar tayyorlanadi, hisoblash texnikasi va kompyuter texnologiyalarning barcha imkoniyatlari ishga solinadi.

Kuzatish usulida sanoat ishlab chiqarishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni bashoratli, ilmiy jihatdan namunali uyushtirilgan asosda to‘plash va internetdan foydalanilgan tarzda yo‘lga qo‘yiladi. Kuzatuvchining sotsiologik usuli anketali so‘rovlar, suhbatlar, testlar va infratuzilmaviy tahlillarni o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

### **4.3. Boshqaruvning zamonaviy tuzilishi**

Ko‘pgina zamonaviy korxonalarda boshqaruv tuzilmalari XX-asr boshlarida ishlab chiqilgan boshqaruv tamoyillariga muvofiq qurilgan. Ushbu tamoyillarning eng to‘liq shakllantirilishi nemis sotsiologi Maks Veber tomonidan berilgan (ratsional byurokratiya tushunchasi):

- boshqaruv darajalarining ierarxiyasi printsipi, bunda har bir quyi daraja yuqoriroq tomonidan boshqariladi va unga bo‘ysunadi;
- boshqaruv xodimlarining vakolatlari va majburiyatlarining undan kelib chiqadigan ierarxiyadagi o‘rniga muvofiqligi prinsipi;
- mehnatni alohida funktsiyalarga bo‘lish va bajarilgan funktsiyalarga ko‘ra ishchilarni ixtisoslashtirish printsipi; faoliyatni rasmiylashtirish va standartlashtirish, xodimlar tomonidan o‘z vazifalarini bajarishning bir xilligini ta’minlash va muvofiqlashtirish prinsipi turli vazifalar;
- undan kelib chiqadigan funktsiyalarni xodimlar tomonidan shaxssiz bajarish prinsipi;
- malaka tanlash printsipi, unga muvofiq ishga qabul qilish va ishdan bo‘shatish malaka talablariga qat’iy muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

«Tashkiliy tuzilma» atamasi darhol to‘rtburchaklar va ularni bog‘laydigan chiziqlardan iborat ikki o‘lchovli daraxt diagrammasini

keltirib chiqaradi. Ushbu qutilar bajarilishi kerak bo'lgan ishlarni va mas'uliyat doirasini ko'rsatadi va shu bilan tashkilotdagi mehnat taqsimotini aks ettiradi. Qutilarning nisbiy holati va ularni birlashtiruvchi chiziqlar bo'ysunish darajasini ko'rsatadi. Ko'rib chiqilgan nisbatlar ikki o'lchov bilan cheklangan: yuqoriga - pastga va bo'ylab, chunki biz cheklangan taxmin bilan ishlaymiz, unga ko'ra tashkiliy tuzilma tekis yuzaga chizilgan ikki o'lchovli diagrammada ifodalanishi kerak.

Xo'jalikka rahbarlikning tamoyillari va usullari ishlab chiqarish jarayonida insonlarga boshqaruvning tegishli shakllari va boshqaruv idoralari hamda ularning tashkiliy tuzilmalari orqali ta'sir etadi.


Mamlakat iqtisodiyoti va uning tarmoqlarini rivojlantirishning muhim masalalari davlat iqtisodiy siyosatini belgilaydigan va hayotga tatbiq etadigan oliy idoralar (Prezident administratsiyasi, Oliy Majlis Senati, Vazirlar Mahkamasi) tomonidan qarab chiqiladi.

Sanoatni rivojlantirishning qonun bilan hal etiladigan masalalari (masalan, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning istiqboli va yillik rejalari, sanoat boshqaruvining yangi idoralarini tashkil etish) mamlakat davlat hokimiyati oliy idorasi - Oliy Majlis Senati tomonidan muhokama qilinadi va hal etiladi.

Iqtisodiyotga va uning asosiy tarmoqlaridan biri sanalgan sanoatga kundalik rahbarlikni davlat hokimiyatining ijro etuvchi va boshqaruvchi oliy idorasi - Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasi-ning tarkibini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tuzadi va u Oliy Majlis Senati tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, shu jumladan, sanoatning samarali faoliyatiga rahbarlikni, sanoat ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan barcha qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlar va farmoyishlar ijrosini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonunlarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Bu mahkamaning tarkibiy tuzilishi 3-chizmada berilgan.



### **3-chizma. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tarkibiy tuzilishi**

O'zbekiston sanoati tasarrufida o'nlab mustaqil tarmoqlar, ming-minglab korxonalar faoliyat ko'rsatmoqdalar. Ularning har birini rivojlantirish, bir-birlari bilan o'zaro muvofiqlashtirish, respublika hududlarida joylashtirish, mahsulot (ish bajarish va xizmat ko'rsatish)ga bo'lgan talabni aniqlash va boshqa juda murakkab, keng qamrovli masalalarni o'z vaqtida, oqilona hal etish tarmoq boshqaruvini amalga oshirishni taqozo etadi. Shu sababli, bir qator tarmoq idoralari tashkil etiladi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- vazirliklar va davlat qo'mitalari;
- konsernlr va korporatsiyalar, uyushma va assotsiatsiyalar;
- xolding va milliy kompaniyalar;


- korxonalar va boshqalar.

Vazirliklar Vazirlar Mahkamasining ajralmas qismi hisoblanib, ular O‘zbekistonning barcha hududlarida o‘zlariga bo‘ysunuvchi barcha korxonalar va tashkilotlarga rahbarlik qiladilar. Shu sababli, vazirlik — bu o‘ziga tegishli tarmoqning xo‘jalik tizimida boshqarishning eng oliy bo‘g‘inidir. U quyidagi faoliyatlar uchun javobgar hisoblanadi:

- tarmoqning ahvoli, uni yanada taraqqiy ettirish;
- kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish, tarbiyalash va himoyalash;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotning hajmi, sifati va uning raqobatbardoshligi;
- tayyorlanayotgan mahsulotga bo‘lgan ichki va tashqi talabni qondirish;
- o‘ziga qarashli korxonalarining xorijiy mamlakatlar bilan aloqasini tashkil etish va kuchaytirish.

Vazirliklar tomonidan amalga oshirilayotgan boshqaruv mexanizmining shaklini “O‘zvinosanoat-xolding” kompaniyasi misolida ko‘rish mumkin (4-chizma).

Sanoatga boshqaruvning zamonaviy tizimida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi alohida o‘rin egallaydi. Chunki u iqtisodiyotni boshqarishning eng yirik ilmiy rejali-iqtisodiy idorasi hisoblanadi. Bu tashkilotning tuzilishi farmonga muvofiq Iqtisodiyot vazirligi zimmasiga mamlakatni rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasi hamda kompleks dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, quyidagi g‘oyat muhim vazifalarni hal etishga qaratilgan chuqur o‘ylangan va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni o‘tkazish yuklatilgan:



**4-chizma. “O’zvinosanoat-xolding” kompaniyasining tashkiliy tuzilmasi.**

- makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning barqaror, mutanosib va jadal sur’at bilan rivojlanishni ta’minlash;
- ko‘p ukladli va samarali faoliyat ko‘rsatuvchi iqtisodiyotni shakllantirish, xususiy mulkchilikning yetakchilik rolini ta’minlash, bozor infratuzilmasini rivojlantirish;
- boy tabiiy va mineral-xomashyo zaxiralaridan, bunyod etilgan ishlab chiqarish va fan-texnika salohiyatidan samarali va oqilona foydalanishga qaratilgan aniq maqsad yo‘lidagi strukturaviy siyosatni amalga oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish hamda mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiy tizimiga keng miqyosida integratsiyalashuvini ta’minlash;
- yangi ish joylarini yaratish, mehnat resurslarini oqilona band etish muammosini hal qilish, aholining aniq yo‘naltirilgan ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish, aholining turmish darajasi barqaror, jadal o‘shishini, ijtimoiy infratuzulmani rivojlantirishni ta’minlash;

- mamlakat mintaqalari iqtisodiyotining kompleks rivojlanishini, ishlab chiqaruvchi kuchlarni mamlakat hududi bo'yicha maqbul hamda samarali rivojlantirish va joylashtirishni ta'minlash.

Milliy iqtisodiyotni, shu jumladan, sanoatni boshqarishda sobiq Fan-texnika Davlat qo'mitasining roli alohida o'rin egallagan. Bu qo'mita sanoat ishlab chiqarishi sohasida fan-texnika siyosatini amalga oshirib kelgan. Endilikda bu qo'mita o'rniga 2002-yil 20-fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Ilmiy-texnika taraqqiyotini Muvofiqlashtirish kengashi tuzilgan. Bu kengash zimmasiga quyidagi asosiy vazifalarni hal etish yuklatilgan:

- fundamental va amaliy-ilmiy tadqiqotlar, texnologik ishlanmalar-ning ustuvor yo'nalishlarini iqtisodiyot va ijtimoiy sohalar rivojlani-shining strategiyasi, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotidagi qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolli tarkibiy o'zgarishlar bilan bog'liq holda belgilash;

- mamlakat manfaatlari va davlatimizning iqtisodiy hamda ijtimoiy taraqqiyot sohasidagi ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda yirik ilmiy-tadqiqot dasturlari va texnologik loyihalar bo'yicha ekspertizalar tashkil etish va ekspertiza xulosalarini tasdiqlash;

- mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning davlat ustuvor yo'nalishlariga mos keluvchi yirik ilmiy dasturlar va texnologik loyihalarni tasdiqlash;

- ilmiy tadqiqotlar va texnologik ishlanmalar bo'yicha yillik Davlat dasturini tasdiqlash;

- yangi innovatsiyaviy ilg'or g'oyalarni ilgari suruvchi, jahon ilm-fanidagi yangi, istiqbolli yo'nalishlarni muntazam kuzatib boruvchi hamda mamlakat manfaatlari yo'lida qo'llay olishga qodir iqtidorli yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish.

Sanoat ishlab chiqarishining moliyaviy masalalarini hal etishda Moliya vazirligining tutgan o'rni ham alohida ahamiyatga ega. Sanoat



va uning tarmoqlariga qarashli sohalarda mehnatni tashkil etish, ishchi kuchini taqsimlash va ularni ijtimoiy himoya qilish borasida Mehnat aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi hal qiluvchi o‘rin egallaydi.

#### **4.4. Boshqarishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari**

Sanoat ishlab chiqarishiga oqilona rahbarlik qilish mamlakat xalq xo‘jaligining yanada taraqqiy etishiga va mustahkamlanishiga har doim katta ta‘sir ko‘rsatib keldi va kelgusida ham yetarli ta‘sir ko‘rsatadi.

Shuning uchun ham sanoatni boshqarish masalalari doimo Respublika Prezidenti, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasining diqqat-e‘tiborida bo‘ladi. Natijada, sanoatni boshqarish tizimi milliy iqtisodiyot va sanoat oldida turgan vazifalarga bog‘liq ravishda muttasil o‘zgarib turadi.

Mustaqillikka erishilgandan so‘ng boshqaruv tizimida juda katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Iqtisodiyotga rahbarlikning ilmiy asoslari, ishlab chiqarishni boshqarishning tamoyillari va usullari ishlab chiqildi, boshqaruvning yani tuzilmalari, funksiyalari, huquqlari va burchlari aniqlandi. Lekin, hali xo‘jalikka rahbarlik qilish, ishlab chiqarishni boshqarishni yanada yaxshilash borasida o‘z yechimini kutayotgan muammolar kam emas. Shuning uchun kelgusida sanoat ishlab chiqarishiga rahbarlik qilishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Bularning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

1. Bozor iqtisodiyoti qoidalari va demokratik tamoyillarga asoslangan boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish;

2. Boshqaruvni amalga oshirish jarayonida iqtisodiyotni mafkuradan to‘la xoli qilish, iqtisodning siyosatdan ustuvorligini to‘la ta‘minlash;

3. Xo‘jalikka rahbarlik qilishda davlatning bosh islohotchi bo‘lishiga to‘la-tekis erishish. Bozor munosabatlariga o‘tish chuqurlasha borgan sari davlatning boshqaruv tizimidagi mavqe‘ini nodavlat tashkilotlari va o‘z-o‘zini boshqarish tizimlariga o‘tkaza borish;

4. Boshqaruv jarayonlarining mustahkam huquqiy asoslarga qurilishini ta'minlash. Qonunlarning barcha boshqaruv subyektlari va obyektlari tomonidan og'ishmay bajarilishiga erishish;

5. Bozor islohotlari bosqichma-bosqich va izchil ravishda amalga oshirilishini inobatga olgan holda boshqaruv tizimini ham bosqichma-bosqich takomillashtirib borishni ta'minlash.

Markazdan turib rahbarlik qilishda asosiy e'tibor quyidagilarga qaratilishi kerak:

- inson omilini maksimal darajada faollashtirish, jamiyatning intellektual salohiyatini yuqori darajaga ko'tarish, samarali va sifatli mehnat qilish uchun sharoit va unga undovchi motivlarni yaratish;

- aholining ish bilan samarali va oqilona band bo'lishini ta'minlash va ijtimoiy adolat tamoyilini izchil amalga oshirish asosida mamlakat aholisining turmush darajasini yanada yuksaltirish;

- eng yangi, avvalo, ilm-fan va innovatsiyalar asosida taraqqiy etadigan tarmoqlar va ishlab chiqarishlarni jadallik bilan rivojlantirish;

- mamlakat ishlab chiqarish apparatini texnika va texnologiya jihatidan doimo yangilab turish, undan oqilona foydalanishni to'la ta'minlaydigan struktura va investitsiya siyosatini yuritish;

- respublikaning ilmiy salohiyatini mustahkamlash va uni ishlab chiqarish bilan birlashtirish, fan-texnika taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini va axborot texnologiyalarini jadalroq rivojlantirish, xavfsiz va ekologik jihatdan toza ishlab chiqarishlarni yaratish, iqtisodiyotni intensivlashni ta'minlaydigan miqyoslarda resurslarni tejashga erishishga qaratilgan ilmiy-texnika siyosatini amalga oshirish;

- bozor iqtisodiyotining barcha vositalaridan bekamu-ko'st foydalanish asosida ishlab chiqarishining, jumladan, sanoat ishlab chiqarishining barcha sifat ko'rsatkichlarini yanada yaxshilashga e'tiborni kuchaytirish;

- barcha viloyatlar va tumanlar manfaatlarini aks ettiradigan va ulardan har birining milliy iqtisod kompleksiga qo'shadigan hissasini ko'paytirishga yordam beradigan regional siyosatni amalga oshirish;

- xalqaro mehnat taqsimotining, integratsiyaning afzalliklaridan yanada samaraliroq foydalanishga qaratilgan tashqi iqtisodiy siyosatni amalga oshirish.

Markazlashgan rahbarlikning yangicha qiyofasi, o‘zbek modeliga xos xususiyati shu bilan tavsiflanadiki, bunda vazifalar ma’muriy usullar bilan emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy usullar bilan hal etiladi, ishlab chiqarish qatnashchilarining manfaatlarini birga qo‘shib olib borish asosida demokratik yo‘l bilan amalga oshiriladi.

Boshqaruvning sifat jihatlari, samaradorligi juda ko‘p omillarga bog‘liq:

- davlat va nodavlat idoralarining rahbarlarini to‘g‘ri belgilashga;
- tegishli qonunlar va qarorlar qabul qilinishiga;
- kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish va tarbiyalashga;
- nazoratni tashkil etishga;
- idora xodimlari mehnatining texnik jihatdan qurollanishiga.

Bularning barchasini shartli boshqaruvning texnologiyasi desa bo‘ladi.

Ayni vaqtda, masalaning bir muhim jihati, ya’ni xodimlarni boshqaruv jarayoniga tortish va ularning bu jarayonda manfaatdor sifatida qatnashishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Yirik miqyosda amalga oshiriladigan, har qanday to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat, amaldagi ishlab chiqarish u yoki bu darajada boshqaruvga muhtojdir. Shu sababli boshqaruv obyektiv zaruriyat va maqsadga yo‘naltirilgan jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Respublika sanoatiga rahbarlik qilish O‘zbekiston davlatining iqtisodiy strategiyasiga asoslanadi va unga muvofiq amalga oshiriladi.

Boshqaruvning asosiy tamoyillari va usullari mavjud bo‘lib, ular jamiyat taraqqiyotining turli obyektlarida turlicha bo‘lishi mumkin. Ularning oqilona va izchil hamda bosqichma-bosqich amalga oshirish sanoat ishlab chiqarishi taraqqiyotini jadallashtirishga olib keladi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, davlat bosh islohotchi ekani, kuchli ijtimoiy siyosat olib borilayotgani, islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgani to‘g‘ri yo‘l ekani iqtisodiy inqiroz sharoitida o‘zining hayotiyligini yana bir bor isbotladi.

Sanoatning so‘ngi yillardagi jadal va barqaror rivojlanishi ham O‘zbekiston tanlagan taraqqiyot modelining hayotiy va samarali ekanligini ko‘rsatdi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Boshqaruvning mohiyati, ahamiyati, zaruriyati, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Boshqaruvning bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos va xos tamoyillari va usullari-chi?
3. Sanoat boshqaruvining hozir ahvoli qanday?
4. Boshqaruvning istiqboli hamda uni iqtisodiy o‘shish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yo‘naltirish nimalarni taqazo etadi?
5. Boshqaruvda xorijiy mamlakatlar tajribasi va undan keng foydalanish nima uchun zarur?

### **Test topshiriqlari:**

**1. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasining ikkinchi ustuvor yo‘nalishi nima deb ataladi?**

- A) davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari;
- B) ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari;
- C) iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari;
- D) qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari;

**2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasining uchinchi ustuvor yo‘nalishi nima deb ataladi?**

- A) davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari;
- B) iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari;
- C) ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari;
- D) qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari.

**3. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasining turtinchi ustuvor yo‘nalishi nima deb ataladi?**

- A) iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari;
- B) davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari;
- C) ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari;
- D) qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari.

**4. Boshqaruv deganda nimani tushunasiz?**

- A) tashkilotning maqsadini ifodalash va unga erishish uchun zarur bo‘lgan bashorat qilish, rejalashtirish, tashkil etish, ishtiyoqni uyg‘otish (motivatsiya) va nazorat qilish bo‘yicha faoliyat turi, jarayonidir;
- B) tashkilotning maqsadini ifodalash va uni tashkil etish va nazorat qilish bo‘yicha faoliyat turidir;
- C) tashkilotni rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish demakdir;
- D) tashkilot faoliyatini samarali boshqarish va uni xodimlarini motivatsiya qilish orqali boshqarishdir.

## **6. Boshqaruv subyekti deganda nimani tushunasiz?**

A) boshqaruv subyektining huquqiy ta'siri qaratilgan jismoniy yoki yuridik shaxslar bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan berilgan vakolatlarga muvofiq huquqiy ta'sir yuzaga kelishi demakdir;

B) boshqaruv subyektining huquqiy ta'siri qaratilgan narsa bo'lib, unga ishlab chiqarish va xo'jalik tizimlari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, jismoniy va yuridik shaxslar kirishi demakdir;

C) jismoniy yoki yuridik shaxslar bo'lib, undan amaldagi qonunlar asosida hokimiyat idoralari tomonidan berilgan vakolatlarga muvofiq huquqiy ta'sir yuzaga kelishi demakdir;

D) barcha javoblar to'g'ri.

## **7. Boshqaruv ob'ekti deganda nimani tushunasiz?**

A) boshqaruv subyektining huquqiy ta'siri qaratilgan jismoniy yoki yuridik shaxslar bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan berilgan vakolatlarga muvofiq huquqiy ta'sir yuzaga kelishi demakdir;

B) boshqaruv subyektining huquqiy ta'siri qaratilgan narsa bo'lib, unga ishlab chiqarish va xo'jalik tizimlari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, jismoniy va yuridik shaxslar kirishi demakdir;

C) jismoniy yoki yuridik shaxslar bo'lib, undan amaldagi qonunlar asosida hokimiyat idoralari tomonidan berilgan vakolatlarga muvofiq huquqiy ta'sir yuzaga kelishi demakdir;

D) barcha javoblar to'g'ri.

## **8. Boshqaruv tizimi deganda nimani tushunasiz?**

A) qo'yilgan maqsadga qisqa muddatda va ishlab chiqarish resurslaridan unumli foydalangan holda yaqinlashish darajasini korxonani boshqarish samaradorligining bevosita mezoni sifatida ko'rsatilishi demakdir;

B) korxonaning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashda muhim omildir;

C) ishlab chiqarish samaradorligiga erishish;

D) barcha javoblar to'g'ri

**9. Iqtisodiy rejalashtirish va prognozlash mamlakat miqyosida asosiy yo'nalishlarini ko'rsating?**

A) ijtimoiy ehtiyojlar va ularni qondiruvchi zarur bo'lgan moddiy, mehnat va moliyaviy resurs;

B) resurslar ratsional foydalanish;

V) mamlakat mintaqalari va tarmoqlar o'rtasida rivojlanishni balanslashtirishni ta'minlash;

G) Barcha javoblar to'g'ri.

**10. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni prognozlashda shartli ravishda metodlarni 3 xil muhim guruhlarga bo'lish mumkin. Ularni ko'rsating.**

A) ekstropolatsiya, prognozlashning ekspert baholash va modellashtirish metodlari;

B) prognozlashning ekspert, individual va jamoaviy baholash metodi;

V) prognozlashning individual, kollegial va jamoaviy baholash metodi;

G) prognozlashning modellashtirish, kollegial va jamoaviy baholash metodi.

## V BOB. KORXONA FAOLIYATINI REJALASHTIRISH VA BASHORAT QILISH

### 5.1. Rejalashtirish va prognozlashning mohiyati, ahamiyati va vazifalari

Texnikaviy, madaniy va iqtisodiy jihatdan rivojlangan jamiyatda rejalashtirish singari vosita boshqaruv jarayonining kengayishi, fan-texnika taraqqiyoti hamda ehtiyojlarning darajasi va hajmi jihatidan ortishi boshqaruv instansiyalari, ya'ni bir-biriga itoat qiladigan tashkilotlar oldiga siyosat, iqtisodiyot va alohida shaxslar, oilalar, mahallalar, korxonalar, hududiy jamoalar, mamlakatlar, shuningdek, butun insoniyat uchun muhim bo'lgan muammolarni qo'ymoqda. Tajriba shuni ko'rsatadiki, kelajakning murakkab masalalarini hal etish uchun odamlar jiddiy fikr yuritishlari va faol harakat qilishlari darkor. Bunda istalgan maqsadlarni o'z vaqtida anglash va ularga erishish choralarini belgilashning ma'qul ko'rinishida ko'maklashadigan loyiha, konsepsiyalar, asosiy yo'nalishlar, ayniqsa, zarur bo'ladi. Ehtiyojlarni qondirish uchun mablag' qancha kam bo'lsa, tegishli texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni oqilona boshqarishda ko'maklashadigan vositalar shunchalik ta'sirchan bo'lishi lozim. Ma'lum orzu-umidlar bilan bog'liq bo'lgan boshqaruv vositalaridan biri **rejalashtirishdir**.

*Rejalashtirish* tartibga soluvchi jarayon sifatida korxonada faoliyatini yaqin va uzoq istiqbol sari ilgari surish, asoslab berish, muayyanlashtirish va izohlab berishni ifodalaydi. Oxirgi holatda gap korxonada faoliyatini bashorat qilish haqida borishi mumkin. Bashorat qilishni rejalashtirishning boshlanishi va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan davomi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Rejalashtirish va bashorat qilish o'zaro aloqada bo'lgan ikkita jarayon bo'lib, xo'jalik faoliyatini avvaldan bajarilgan hisob-kitoblar, eng kam tavakkalchilik va eng yuqori natijalarga erishish asosida yuritishni ko'zda tutadi.

Rejalashtirish korxonada tomonidan bajariluvchi vazifalar muayyanlashtirilgan rejalarda o'z aksini topadi. Bozor iqtisodiyotida reja "yot



unsur” yoki “yuqoridan” keluvchi buyruq sifatida qabul qilinishi sababli, hozirgi xo‘jalik yuritish faoliyatida **indikativ reja va bashorat** deb nomlanuvchi, lekin mohiyatiga ko‘ra rejalashtirishning barcha hollarda obyektiv zaruriyatini tasdiqlovchi tushunchalardan foydalaniladi. Demak, **rejalashtirish**, jumladan, indikativ reja va bashorat – korxonalarining xo‘jalik faoliyati uchun mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish uchun barcha omillardan foydalanish va tayyorgarlikning o‘z vaqtida bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan qulay sharoitlarni yaratishdir.

Reja va rejalashtirish orasidagi farqni anglash muhim ahamiyat kasb etadi. **Rejalashtirish** indikativ reja yoki prognoz kabi rejalarni ishlab chiqish jarayoni bo‘lsa, **reja** korxonaning ma’lum bir vaqt mobaynida amalga oshiruvchi texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini o‘zida aks ettiruvchi hujjatni ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, reja – korxonaning maqsadli vazifalari va ularni amalga oshirish yo‘llarini belgilab beruvchi rejalashtirishning moddiylashgan shaklidir.

**Rejalashtirish** – loyiha ishlab chiqish bo‘yicha axborotni ishlashga asoslangan kelajakda maqsadga erishish uchun parametrlarni aniqlovchi tartibga solingan jarayondir.

Milliy iqtisod va uning sohalari hamda bo‘limlari iqtisodiyotida rejalashning qator ta’riflari mavjud bo‘lib, ular yuqorida keltirilgan ta’riflardan turli darajada farq qiladi, lekin mohiyatan unga o‘xshab ketadi. Shunday ta’riflardan bir nechtasini keltirish mumkin.

**Rejalashtirish** – «kelajakning ongli tafakkuri».

**Rejalashtirish** (keng ma’noda) – «mazmunan bo‘lajak voqealarni aniqlash bo‘yicha qarorlar qabul qilishni tizimli tayyorlash asosida boshqaruv qarorlarini shakllantirishdir».

**Rejalashtirish** – «oldindan sezib qabul qilingan qaror», ya’ni rejalashtirish deganda shunday yechim tushuniladiki, u (qaror qabul qilishga muvofiq keluvchi axborot jarayoni bilan bir qatorda) vaqt jihatdan konyunkturali voqealar yuzaga kelishidan oldin ishlab chiqiladi.

**Rejalashtirish** – bu vazifani sifatli va sonli tasvirlash, natijaviy imkoniyatlarni belgilash va ularga erishish yo‘llarini aniqlashdir.

**Rejalashtirish** – kelajak muammolarini bilish va hal etishning tizimli, usuliy (metodik) jarayoni.

Nihoyat, **rejalashtirish** – xalq xo‘jaligiga rahbarlik qilishning o‘zagidir. Rejalar esa davlat iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishning asosiy qurolidir.

Rejalashtirishning ahamiyati shundan iboratki, u iqtisodiyotni rivojlantirishning prinsipial masalalariga oid davlat va hukumat ko‘rsatmalarini, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot rejaları yordamida aniq topshiriqlarga va amaliy ishlarga aylantiradi. Uzoq muddatli, ya’ni uch yillik, besh yillik va o‘n yillik rejalarda davlatning iqtisodiy strategiyasi jamlangan holda ifodalanadi. Yillik rejada, odatda, xo‘jalik vazifalarini hal etishning eng samarali taktikasi nazarda tutiladi.

Rejalashtirish faoliyatlarda, ya’ni amalda muayyan uyg‘unlik va muvofiqlikni ta’minlaydi, ishlab chiqarish taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlarini aniqlaydi, raqobat, bellashuv sharoitida, umuman, iqtisodning, xususan, sanoatning omon (sog‘) qolishiga imkoniyat, qulaylik yaratadi. Aynan rejalashtirish tufayli tarmoq idoralari mahsulotning u yoki bu turini ishlab chiqarish, o‘z vaqtida resurslar bilan ta’minlash vazifasini hal etadilar. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sotish kanallari va usullarini aniqlaydilar. Bundan tashqari, rejalashtirish ishlab chiqarish rezervlaridan, raqobatning afzalliklaridan, iqtisodiyotdagi yangi tendensiyalar, ya’ni mayl va g‘oyalarni kuzatish imkoniyatini yaratib beradi, faoliyatning nozik va zaif tomonlari ta’sirini susaytirish, bo‘lishi mumkin xatolarning oldini olish va xavf-xatarni kamaytirish imkonini beradi.

Rejalashtirish obyektiv iqtisodiy qonunlardan ongli ravishda foydalanishni taqozo etadi. Rejali xo‘jalik yuritish imkoniyati va zaruriyatining o‘zi har bir jamiyatda **xalq xo‘jaligini rejali va mutanosib rivojlantirish qonunining** amal qilishini taqozo etadi. Lekin bozor iqtisodiyoti sharoitida nafaqat rejali rivojlanish qonuni, balki bir qator boshqa qonunlar, jumladan, qiymat qonuni, talab va taklif qonuni, vaqtni tejash, mehnatga qarab taqsimlash qonunlari harakatda bo‘ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida umumdavlat strategiyasining, jumladan, umumdavlat rejasining “falsafasi“ masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu “falsafa“ O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim sohalari va maqsadlarini, struktura va investitsiya siyosati, fan-texnika taraqqiyotining yo‘nalishlarini, ilmiy, ma’naviy va ma’rifiy salohiyatini ko‘tarish, mamlakat mudofaa qobiliyatini saqlab turish vazifalarini belgilab beradi.

Bozor iqtisodiyotining barcha imkoniyatlari erkin reja asosida amalga oshiriladi. Demak, rejalashtirish qanchalik erkin va mukammal bo‘lsa, mustaqillikning afzalliklari, istiqloqlarning samarasi shunchalik to‘liqroq ko‘zga tashlanadi, shundagina jamiyat o‘z ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini muvaffaqiyatli hal etadi. Ana shundagina rejalashtirish xalq xo‘jaligining barcha sohalari, jumladan, sanoatni tashkiliy ravishda va tartibli rivojlanishiga imkon yaratadi.

Rejalashtirish mutlaqo ilmiy asosda tuziladi va u jamiyat taraqqiyotini, jumladan, sanoat taraqqiyotining amaliyotini doimo umumlashtirib borishni, fan va texnikaning barcha yutuqlaridan foydalanishni talab qiladi. Sanoatga rejali rahbarlik qilish voqealarni oldindan ko‘rish demakdir. Voqealarni, hodisalarni, bo‘lajak faoliyatni oldindan ko‘rish jamiyat iqtisodiy qonunlarini bilib olishga asoslanadi va jamiyat moddiy va ma’naviy hayoti rivojining yetilgan talablariga suyanadi.

Iqtisodiy qonunlarning mohiyati, mazmuni va boshqa tomonlarini bilib olish iqtisodiy jarayonlar mohiyatini o‘qib olishga, taraqqiyotning ilg‘or tendensiyalarini hali ular kurtak holda bo‘lganidayoq aniqlab olishga, iqtisodiy taraqqiyot jarayonini ilmiy asosda oldindan ko‘ra olishga, uni mustaqil, buyuk davlat qurish manfaatlari uchun reja asosida yo‘lga solishga yordam beradi.

**Rejalashtirish** – qaror qabul qilishning uzluksiz bir jarayoni bo‘lib, bu jarayon davomida korxonalar faoliyati va rivojlanishining maqsad va vazifalari atrofida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni inobatga olgan holda vaqt bo‘yicha aniqlanadi va belgilanadi hamda ularni amalga oshirish uchun resurslar aniqlanadi. Mazmuniga ko‘ra, rejalashtirish texnik-iqtisodiy va tezkor-ishlab chiqarish turlariga bo‘linadi.

**Texnik-iqtisodiy rejalashtirish** korxonada faoliyatining barcha (iqtisodiy, texnik, ijtimoiy va hokazo) jihatlarini qamrab oluvchi rejalashtirish turi bo‘lib, asosan, bir yilga mo‘ljallangan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish rejasi shaklida amalga oshiriladi. Mazkur rejalashtirish turining soddalashtirilgan ko‘rinishi ko‘pincha korxonada faoliyatining yillik rejasi deb ataladi.

**Tezkor-ishlab chiqarish rejalashtirish** texnik-iqtisodiy rejalashtirishning davomi bo‘lib, korxonada faoliyati yillik rejasini yanada qisqaroq muddatga – sutka, o‘n kunlik, oyga bo‘lib muayyanlashtirish bilan tavsiflanadi. Tezkor-ishlab chiqarish rejalashtirish – kalendar rejalashtirish va dispetcherlashdan iborat bo‘ladi.

**Kalendar rejalashtirishda** korxonada yillik rejasida va birinchi o‘rinda ishlab chiqarish dasturi (mahsulot tayyorlash rejasi)ni o‘n kunlik, hafta, kun va smena bo‘yicha aniqlashtirish hamda bu ko‘rsatkichlarni bajaruvchilarga yetkazish ko‘zda tutilgan.

**Dispetcherlashtirish** oylik, o‘n kunlik, kunlik sutka-smenalik rejalarni bajarishni tezkor boshqarishda ifodalanadi.

Rejalashtirish nazariyasida rejalashtirishning turlari, bosqichlari, maqsadlari, vazifalari, tizimlari degan tushunchalar mavjud.

Rejalashtirishning asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

- munosabatdor kattaliklar bo‘yicha rejalashtirish;
- muvofiqlashtirish shakllari bo‘yicha rejalashtirish;
- moslashuv (adaptatsiya) shakliga ko‘ra rejalashtirish.

Rejalashtirish turlarini bir qator alomatlar bo‘yicha tasniflash mumkin. Masalan, rejalashtirishning birinchi eng muhim turi bo‘lgan munosabatdor kattaliklar bo‘yicha rejalashtirish turining alomatlariga quyidagilar kiradi:

- zamon (vaqt) ko‘lami (qisqa muddatli, o‘rtacha muddatli, uzoq muddatli rejalashtirish);
- funksional bo‘lim (ishlab chiqarishni, sotishni, saqlashni, ta‘minotni, moliyani, investitsiyani rejalashtirish);
- boshqaruv ierarxiyasi (rahbariyat ierarxiyasi);

- rejalash ierarxiyasi (strategik, ya'ni oliy; taktik, ya'ni o'rta; operativ, ya'ni past darajadagi rejalashtirish).

Agar rejalashtirish jarayonini boshdan oyoq ko'rib chiqilsa, unda ayrim bosqichlarni ajratish mumkin. Ularga quyidagilar kiradi:

- maqsadlarni ifodalash, ya'ni ishlab chiqish;
- muammolarni qo'yish;
- muqobil variantlarni izlash va tanlash;
- taxmin qilish;
- baholash va qarorlar qabul qilish.

Sanoatni rejalashtirishdan ko'zlangan oliy maqsad sanoat ishlab chiqarishining faoliyati asosida avvaldan fikran o'ylangan bo'lg'usi natijani aniqlash va bu natijaga erishish uchun tegishli chora-tadbirlarni belgilashdan iborat bo'ladi. Shu sababli rejalashtirish jarayonining birinchi bosqichi maqsadlarni ifodalashdan iborat bo'ladi.

Maqsadlarni ifodalashning alohida vazifalari quyidagilardan iborat: maqsadlarni izlash, maqsadlarni aniqlash, maqsadlarni tarkiblash; maqsadlarni amalga oshirish, maqsadlarni tanlash.

Ushbu nazariyadan kelib chiqib, sanoat ishlab chiqarishini rejalashtirishning asosiy vazifalarini quyidagicha izohlash mumkin:

- eng avvalo, maqsadni qo'yish;
- sanoat ishlab chiqarishining xilma-xil faoliyatini, ayniqsa, xalq xo'jaligi va aholi uchun zarur bo'lgan yuqori sifatli, raqobatbardosh mahsulotlar tayyorlashning ijtimoy-iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini asoslab berish;
- zaruriy moddiy-texnik bazani shakllantirish;
- moliyalash manbalarini aniqlash va ijobiy pirovard natijaga erishish.

Hozirgi paytda iqtisodiyotga oid bo'lgan adabiyotlarda rejalashtirishga nisbatan *strategik, uzoq muddatli, qisqa muddatli va joriy rejalashtirish* kabi tushunchalar qo'llanmoqda. Ularning har biri o'z shakli, ko'rsatkichlarni ishlab chiqish va hisoblash usullariga ega.

*Strategik rejalashtirish* xo'jalik yuritishning bozor tizimidagina

vujudga kelib, 10-15 yillik davrni o'z ichiga oladi. U korxonada rahbariyatining mas'uliyatli vazifasi hisoblanadi hamda rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini topish va bozorda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan talabni inobatga olgan holda resurs bilan ta'minlashga qaratilgan.

Strategik rejalashtirish asosida yaqin 3-5 yilga mo'ljallangan **uzoq muddatli rejalashtirish** amalga oshiriladi. U korxonada faoliyatining ishlab chiqarish, sotish, xarajatlar, moliya kabi turlarini o'z ichiga oladi hamda o'z mazmuni va maqsadli vazifalariga ko'ra, strategik rejalashtirishdan farq qilmaydi.

**Qisqa muddatli rejalashtirishda** korxonada faoliyati va rivojlanishi 1-3 yilga mo'ljallab rejalashtiriladi. Uning o'ziga xosligi shundaki, birinchi yil ko'rsatkichlari har chorakda, ikkinchi va uchinchi yil ko'rsatkichlari esa har yarim yil yoki bir yilda aniqlashtiriladi va to'g'rilashlar kiritilib boriladi. Buning maqsadi sifatida esa, reja ko'rsatkichlarining iqtisodiy muhit, bozor va fan-texnika taraqqiyotida yuz berayotgan o'zgarishlarni to'laroq aks ettirishga intilishni ko'rsatish mumkin.

Bozor munosabatlarida raqobatchilikni kuchaytirish hamda xo'jalik yuritish va hayotiy jarayonlar dinamikasi hisobiga **joriy rejalashtirish** amalga oshirilib, unga choraklarga bo'lingan yillik rejalar asos qilib olinadi. Ushbu rejalar qoidaga ko'ra, o'zgaruvchan bo'lib, joriy yilning birinchi uch oyi uchun **qat'iy, hayotiy ko'rsatkichlar** belgilanib, keyingi to'qqiz oy davomida ularga to'g'rilashlar (korrektirovka) kiritiladi. Ular qisqa muddatli rejalariga qaraganda, ayniqsa, ishlab chiqarish harakati va moddiy-tovar boyliklari zaxirasi, bahoni shakllantirish qismida yanada aniqroq hisoblanadi. Umuman olganda, korxonaning turli bo'lim va xizmatlari vazifalari bunday rejalarda o'zaro bog'lanadi.

Rejalashtirishning istalgan turi korxonada faoliyatining biron-bir jihatini aks ettiruvchi, umumiy va xususiy, sifat va miqdor ko'rsatkichlariga asoslanadi.

**Umumiy va umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar** korxonada ishlab chiqarish rivojlanishining yo'nalishi va darajasini aks ettiradi. Bunday ko'rsatkichlar qatoriga ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi, mehnat,

tannarx va jamg'armalar bo'yicha ko'rsatkichlarni kiritish mumkin.

**Xususiy ko'rsatkichlar** umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar asosini tashkil qiluvchi alohida elementlarni, masalan, material, yoqilg'i, energiya va shu kabilarning mahsulot tannarxidagi salmog'ini tavsiflaydi. Shuningdek, bu ko'rsatkichlar asosiy ko'rsatkichlar darajasiga ta'sir o'tkazuvchi alohida omillarni ham tavsiflab beradi. Masalan, yordam ko'rsatuvchi ishchilar salmog'ining mehnat, ishlab chiqarishi darajasiga ta'siri; asbob-uskunalarni ish bilan ta'minlash koeffitsientining ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi va korxonada ishlab chiqarish dasturining bajarilishiga ta'siri; xom-ashyo va materiallardan foydalanish koeffitsientining mahsulot tannarxi pasayishiga ta'siri va hokazolar.

Umumlashtiruvchi hamda xususiy ko'rsatkichlar ikkita kategoriyaga – miqdor (absolyut) va sifat (nisbiy) kategoriyalariga bo'linishi mumkin.

**Miqdor ko'rsatkichlari** korxonaning ishlab chiqarish va xo'jalik yuritish faoliyatini hajm o'lchamida izohlaydi. Bunday ko'rsatkichlar qatoriga ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdori, ishlayotgan xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondi, mashina va asbob-uskunalar parki, ishlab chiqarish dasturini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan materiallar miqdori, sex hamda ish joylari soni va hokazolarni kiritish mumkin.

**Sifat ko'rsatkichlari** korxonaning ishlab chiqarish faoliyatidagi o'zgarishlarni nisbiy kattaliklar: mehnat mahsuldorligining o'sishi, mahsulot tannarxining bazis davrga (yoki reja hisobotiga) nisbatan foizlarda kamayishi, mahsulotning to'liq tannarxiga nisbatan foizlarda daromad hajmi, korxonada rentabellik darajasining o'sishi va shu kabilar yordamida tavsiflaydi.

Sifat ko'rsatkichlari aksari hollarda pul qiymatida ifodalanishi sababli, korxonalarning xo'jalik faoliyatini rejalashtirish va tahlil qilish amaliyotida asosiy va aylanma fondlar, asbob-uskunalar, sarflanayotgan yoqilg'i, energiya va boshqa materiallar kabi **qiymat ko'rsatkichlaridan** foydalaniladi. Qiymat ko'rsatkichlari korxonada faoliyatida qo'llaniluvchi turli xildagi vositalarni statika va dinamikada taqqoslash imkonini

beradi. Bundan tashqari, soliqlar va turli xil to'lovlar hamda korxonada daromadi foizlardan tashqari pul ko'rinishida ham o'lchanadi.

Mustaqillik yillarida rejalashtirish sohasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Lekin shuni aytish kerakki, xalq xo'jaligining rejali, mutanosib rivojlanish qonuniyati talablariga to'la javob beradigan darajaga erishilgani yo'q. Yaqin o'tmishda rejalashtirishda birtalay xatolarga yo'l qo'yilganini, murakkab xo'jalik muammolarini hal etishga o'ylamay-netmay tavakkalchilik bilan qaralganligini hamma yaxshi biladi.

Milliy iqtisod va uning yetakchi tarmog'i bo'lgan sanoat ishlab chiqarishning uzoq davrga mo'ljallangan rivojini belgilash uchun boshqaruvning eng muhim funksiyalaridan biri bo'lgan prognozlash alohida e'tibor berishni talab qiladi. Shu munosabat bilan bu kategorianing mohiyati va ahamiyati, mazmuni va turlari, usullari va vazifalarini yaxshi bilish kerak.

Eng avvalo, shuni qayd qilish kerakki, ijtimoiy hayot kelajakni oldindan ko'rmasdan va uning istiqbolini bashorat qilmasdan qaror topa olmaydi. Shu sababli keyingi vaqtda bashorat qilish xalq xo'jaligining optimal faoliyat ko'rsatishining eng zaruriy shartiga aylanmoqda. Istiqbolni boshqaruvning juda murakkab jarayonida bashorat qilish ishlab chiqarishning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'llarini oldindan ko'rish vazifasini bajaradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bashorat qilish jamiyat rivoji, shu jumladan, moddiy ishlab chiqarishning eng muhim sohasi bo'lgan sanoat rivojining kelajakda amalga oshishi mumkin bo'lgan maqsadlarini va ularga erishishni ta'minlovchi iqtisodiy resurslarni aniqlash, iqtisodiy va texnikaviy siyosatning uzoq va o'rta muddatli yo'nalishlarining eng ehtimolga yaqin iqtisodiy samarali variantlarini qidirib topish uchun zarur.

Prognoz, ya'ni bashorat deganda real obyektning kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan ahvoli, uni amalga oshirishning alternativ, ya'ni muqobil (mumkin bo'lgan qarama-qarshi ikki holdan birini tanlab olish zaruriyati) yo'llarini va muddati to'g'risidagi ilmiy jihatdan



asoslangan mulohaza tushuniladi. Qisqacha qilib aytganda, oldindan qilingan xulosadir.

Prognozlash, ya'ni bashorat qilish deganda kelajakni ko'rish, mo'ljal qilish va oldindan aytib berish jarayoni tushuniladi. Faqat mavjud dalillar, ma'lumotlar va aniq raqamlar asosida voqea yoki hodisaning qanday bo'lishi, rivojlanishi va oqibatini oldindan aytib berish, ya'ni bashorat qilish mumkin.

Bashorat qilish rejalashtirish tavsifida o'z aksini topadi: ishlab chiqarish va korxonalar iqtisodiy hayotining boshqa jihatlarini **strategik rejalashtirish** – o'rta va uzoq muddatli bashoratlar asosida hamda **joriy rejalashtirish** – qisqa muddatli bashoratlar asosida ishlab chiqiladi. Bu yo'nalishlarning ikkalasi ham o'zaro uzviy aloqada bo'lib, ishlab chiqarish strategiyasini fan-texnika taraqqiyoti va hayotning real voqeligi bilan bog'laydi.

**Bashoratning maqsadi** – bozorga ta'sir qiluvchi omillarni, shu bilan birga, xo'jalikning umumiy ahvoli, tuzilmaviy siljishlar, investitsion faollik, fan-texnika taraqqiyotining iste'molchi va ishlab chiqaruvchilarga ta'sir ko'rsatishi, an'anaviy mahsulotlardan tashqari korxonaning barqarorligi va raqobatbardoshligiga olib keluvchi «pioner» (yangi) mahsulot ishlab chiqarish istiqbolida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarini belgilashdadir. Korxonalar uchun talabni bashorat qilish muhim ahamiyatga ega bo'lib, u ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turi va miqdorining o'zgarishini avvaldan aniqlab beradi. Umuman olganda, bashorat rejalashtirishning ilmiy asosidir.

Bashorat qilishning bir qancha yo'llari mavjud bo'lib, ulardan eng asosiylariga **iqtisodiy** va **ijtimoiy** bashorat qilish kiradi. Ularni bir-biridan shartli ajratish mumkin, chunki bashorat qilishning maqsadi va vazifasi bir hodisa yoki voqeaning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy jihatlari bilan bog'liq, bir medalning ikki tomonidir.

**Bashorat qilishning maqsadi** real obyektning kelajakda fikran o'ylangan natijasini ta'minlashdan iborat. Hodisa va voqealar fikriy modelining natijasiga erishish.

**Bashorat qilishning vazifasi** esa bu jarayonning oldida turgan maqsadga erishish uchun bir qator ishlarni bajarishdan iborat.

**Bashorat** – korxonada, obyekt yoki hodisaning kelajakdagi ahvoli va ularni amalga oshirish variantlari va muddati to‘g‘risidagi ilmiy jihatdan asoslangan mulohazadir. Bashoratlarni ishlab chiqish jarayoni bashorat qilish, ya’ni kelajakni hozirgi paytdan kelib chiqqan holda oldindan ko‘ra bilish deb ataladi.

## 5.2. Rejalashtirish tamoyillari va usullari

Rejalashtirish nazariyasida xo‘jalikka rahbarlik qilishning ma’lum fundamental qoidalari, ya’ni tamoyillari masalasi alohida o‘rin egallaydi. Bozor munosabatlari sharoitida bunday tamoyillar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Ilmiylik tamoyili.
2. Rejalarni ma’lum maqsadga yo‘naltirish tamoyili.
3. Mutanosiblik va balanslilik tamoyili.
4. Komplekslik tamoyili.
5. Uzluksizlik tamoyili.
6. Barqarorlik tamoyili.
7. Tarmoq va hududiy rivojlanishning uyg‘unligi.
8. Xalq xo‘jaligi va uning tarmoqlari hamda korxonalar (firma)lar rivojlanishining uzviy birligini hisobga olish tamoyili.

Sanoat va uning tarmoqlari, korxonalari, tashkilotlari faoliyatlarini rejalashtirganda yuqoridagi tamoyillarga to‘la amal qilinsa topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarish mumkin, iqtisodiy o‘shish kuchayadi va ishlab chiqarish samaradorligi, albatta, ko‘tariladi. Yuqorida keltirilgan tamoyillarni amalga oshirish uchun bir qator usullardan, ya’ni balans, maqsadli, normativ, statistik-iqtisodiy, ko‘p variantli, iqtisodiy-matematik matritsa usullaridan foydalaniladi.

**Balans usuli** rejalashtirishning bosh usuli hisoblanadi. Faqat balans usuligina asosiy **proporsiyalarni** belgilash, resurslarning

jamiyat ehtiyojlariga muvofiqligini aniqlash, rejalarni real va natijali qilish imkonini yaratadi. Balanslardan istiqbol va joriy rejalarning barcha bo‘limlarini ishlab chiqishda foydalaniladi.

Sanoat ishlab chiqarishini rejalashtirishda balans usulidan keng foydalaniladi, chunki u xalq xo‘jaligining yetakchi tarmog‘i bo‘lgan sohalarini muayyan sharoitda aniq vaqt va ma‘lum fazoda yaxlit holda, bir biriga bog‘liq texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar yordamida aks ettira oladi. Balanslar ishlab chiqarishning ko‘lami va dinamikasi, uning tarkibi va tuzilmasi hamda samaradorligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni mujassamlashtiradi. Ularda sanoat tarmog‘i va boshqa milliy iqtisodiyotning tarmoqlarining o‘zaro munosabatlarini ko‘rish mumkin.

Rejalashtirishda balanslarning **qiymat, natura-qiymat, moddiy, mehnat va moliyaviy** turlaridan keng foydalaniladi.

**An’anaviy qiymat balanslari qatoriga:** yalpi ijtimoiy mahsulot balansi, milliy daromad balansi, asosiy fondlar balansi, tovar oboroti va resurslar balansi, tashqi savdo va to‘lov balanslari kiritiladi.

Balanslarning eng muhimlaridan biri – **moddiy balans** bo‘lib, u mahsulotlarning eng muhim to‘plamini qamrab oladi. Balanslarni ishlab chiqish katta bilim va ilm, tajriba, ijobiy yondashuvlar talab qiluvchi murakkab ishdir.

Rejalashtirish amaliyotida natura yoki moddiy balanslarning quyidagi uch turidan:

- mehnat quollarining balanslari;
- mehnat buyumlarining balanslari;
- xalq iste‘moli buyumlarining balanslaridan foydalanish mumkin.

Moddiy balanslar ma‘lum sxemalar bo‘yicha ishlab chiqilib, unda, bir tomondan, mahsulot resurslari, ikkinchi tomondan, uning ayrim qismlari bo‘yicha taqsimlanishi ko‘rsatiladi (sxemaga qarang).

### Moddiy balansning taxminiy sxemasi

Resurslar	Resurslarning taqsimoti
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Rejalashtirishdan oldingi qoldiq.</li> <li>2. Ishlab chiqarish hajmi.</li> <li>3. Import.</li> <li>4. Davlat rezervlaridan kelib tushishi.</li> <li>5. Boshqa kelib tushishlar.</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ishlab chiqarishni ekspluatatsiya qilish.</li> <li>2. Kapital qurilish ehtiyojlari.</li> <li>3. Bozor fondlari.</li> <li>4. Eksport.</li> <li>5. Davlat resurslarini to'ldirish.</li> <li>6. Rejalashtirilayotgan davrning oxirgi mahsulot qoldig'i.</li> </ol>
JAMI	JAMI

### 5-chizma. Moddiy balansning taxminiy sxemasi

Balanslarning yana bir eng muhim turi – bu **mehnat balanslaridir**. Bunday balanslarda mavjud mehnat resurslari va ulardan foydalanish yo'nalishlari aks ettiriladi. Mehnat balanslariga mehnat resurslarining yig'ma balansi, tarmoqlar va hududlar bo'yicha ishchi kuchi balansi va h.k.lar kiritiladi.

Rejalashtirishning yana bir muhim tamoyili **ilmiylik** bo'lib, u avvalo, tayyorlanayotgan rejalar va ishlab chiqarishni rivojlantirish dasturlariga, shuningdek, fan-texnika taraqqiyoti talablari, raqobatchilik va bozor talablarini hisobga olishga asoslanadi. Rejalashtirishning ilmiyligi, jonli mehnat va mahsulotga aylangan mehnat xarajatlarining eng kam miqdorida iloji boricha yuqori natijalarga erishishga, shuningdek, korxonada xodimlari manfaatdorligini oshirishga ko'maklashadi.

**Majmuaviylilik** tamoyili ishlab chiqarishni, birinchidan, zamon va makonda; ikkinchidan, ishlab chiqarishni boshqarishning gorizontal va vertikalida; uchinchidan, ishlab chiqarishning resurs asoslarini ta'minlashda; to'rtinchidan, ishlab chiqarishdagi "tor joylarni" hisobga olish va ularni yo'qotish chora-tadbirlarida, beshinchidan, xodimlarning o'z mehnatlari natijasidan moddiy va ma'naviy qoniqishida, oltinchidan, korxonaning mo'ljallanayotgan daromad yoki foyda olishini amalga

o'shinishni ko'zda tutadi.

**Proporsionallik** nafaqat ishlab chiqarishni rejalashtirishda, balki ishlab chiqarishni boshqarishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zarur proporsiyalarga amal qilish ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchining sexlar va ish joylari bo'yicha hamda ishlab chiqarish bosqichlarida to'g'ri taqsimlanishiga va ulardan to'g'ri foydalanishga ko'maklashadi. Proporsiyalarga amal qilmaslik esa, aksincha, ishlab chiqarishning ba'zi uchastkalarda kuchayib, boshqalarida pasayishiga, ya'ni disproporsiyalarning vujudga kelishiga hamda korxonalarining noritmik tarzda faoliyat yuritishiga sabab bo'ladi. Zaruriy proporsionallikni ta'minlashda ishlab chiqarishni tashkil etishni texnik-iqtisodiy me'yorlashtirish katta rol o'ynaydi.

**Rejalashtirishning uzluksizligi** ishlab chiqarishni va umuman, korxonada faoliyatini tashkil etishning muhim tamoyili hisoblanadi. Bu tamoyil amalda joriy rejalarning istiqboldagi rejalar bilan, istiqboldagi rejalarning esa bashoratlar (prognoz) bilan bog'liq bo'lishida o'z aksini topadi. Boshqacha qilib aytganda, rejalashtirish qisqa muddatli tavsifga ega bo'lgan indikativ reja tabiatiga mos kelmaydigan, yanvardan martgacha yoki martdan dekabrgacha, ya'ni "...dan" "...gacha" tamoyili asosida amalga oshirilmasligi lozim. Rejalashtirishning "...dan" "...gacha" tamoyilini inkor qilganda biz, avvalo, vaqt bo'yicha rejalashtirish uzilishining oldini olishni ko'zda tutamiz. Masalan, o'sha indikativ reja o'z davomiga ega bo'lishi, ya'ni korxonada o'z faoliyatini yanvar-mart oylariga rejalashtirganda keyingi davrlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vazifalarni ham, albatta, bozor konyunkturasi, iste'molchilar manfaati va ishlab chiqarish holatlarining o'zgarishini ko'zda tutishi lozim. Bu vazifa, asosan, yil davomida amalga oshiriluvchi rejalarni aniqlashtirish va muayyanlashtirish yo'li bilan bajariladi.

**Optimallik** ham rejalashtirish tamoyillari qatoriga kiradi. Rejalar barcha ishlab chiqarish resurslaridan chiqitlar va yo'ldosh mahsulotlardan keng foydalanishni inobatga olgan holda iloji boricha ratsional va unumli foydalanishni ta'minlashi hamda yuqori natijalarga erishish uchun eng samarali yo'llarni tanlashi kerak.

Rejalashtirishning optimalligiga iqtisodiy-matematik usullar va elektron hisoblash mashinalarini qo'llash, rejalarning bir nechta variantlarini ishlab chiqish yordamida erishiladi. Ko'p variantlilik eng tejamkor reja varianti yoki korxonalar faoliyati dasturini tanlashga imkon yaratadi.

**Moslashuvchanlik** rejalashtirishning bozor sharoitlaridagi muhim tamoyili hisoblanadi. U ishlab chiqarish rejalariga o'z vaqtida o'zgartirishlar kiritish, iste'molchilar va xaridorlar talablarini hisobga olish, ishlab chiqarishning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan pasayishi va inqirozlarning oldini olishga yordam beradi. "Korxonalar to'g'risida"gi qonun ishlab chiqarishni rejalashtirishda ushbu tamoyilni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratadi.

Biroq hech qanday tamoyil, jumladan, yuqorida sanab o'tilgan tamoyillar ham, o'zidan-o'zi, ya'ni shu tamoyillar uchungina kerak emas. Agar amaliyotda qo'llanmasa bu tamoyillar faqat qog'ozda qolib ketishi yoki oddiy chaqiriq bo'lib qolishi mumkin. Shu sababli korxonalar rahbarining rejalashtirish jarayonini, aniqrog'i, rejaning bajarilishi hamda rejalashtirishning belgilangan va boshqa tamoyillari qanday aks ettirilganligini **nazorat qilishi** muhim ahamiyat kasb etadi. Nazorat kerakli natijalarga erishish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan disproportsiyalarni aniqlash va ularning oldini olish, shuningdek, zaxiralarni aniqlash va ulardan foydalanish yo'llarini belgilashga imkon beradi.

Korxonalar (firma)larda ishlab chiqarish quvvati balansi tuzilib, unda korxonaning ishlab chiqarish imkoniyati, uning tarkibidagi nomutanosibliklar mavjudligi, ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish uchun zarur bo'lgan kapital qo'yilmalar aniqlanadi.

Rejani texnik-iqtisodiy jihatdan asoslashning eng muhim asoslaridan biri bu normativ usuldir. Rejalashtirish jarayonida iqtisodiy normativlarning roli beqiyos. Ular yordamida rejalashtirilayotgan davr sharoitlarini (mahsulot berish topshiriqlari, narx, foydadan byudjetga ajratma, ish haqi fondlarini tashkil etish normativlarini) oldindan bilgan holda korxonalar jamoalari ishlab chiqarishni o'stirishning yuksakroq sur'atlarini, uning samaradorligini ancha oshirishni ta'minlaydigan

rejalarni ijodiy tarzda, barcha imkoniyatlarni oshkora qilishdan cho‘chimasdan tuza oladilar.

Normativ usulning mohiyati shundan iboratki, unda reja ko‘rsatkichlari rejali norma asosida aniqlanadi. Bu usul yordami bilan ishlab chiqarishdagi ilg‘or tajribalarni umumlashtirishning barcha bo‘g‘inlaridagi balanslari (mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish, ishchi kuchi, moddiy va moliyaviy balanslari)dan keng foydalanishni nazarda tutadi.

Rejalashtirishda norma va normativlarning uch guruhi: iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik guruhlaridan foydalaniladi.

Iqtisodiy normativlar resurslardan foydalanish samaradorligini eng past mumkin bo‘lgan miqdorini ifodalaydi. Masalan, rejalashtirish va prognozlashda kapital mablag‘lardan foydalanishning normativ koeffitsienti (Yen) ko‘rsatkichidan keng foydalaniladi. Faraz qilaylik, rejalashtirishda uning miqdori Yen q 0,15 kesimida belgilanadi. Bu milliy iqtisod rivojiga sarflangan mablag‘larning har bir so‘mi 15 tiyin bilan qaytishi kerak. Shunday bo‘lsa, sarflangan kapital mablag‘ taxminan 7 yilda o‘zini to‘la qoplaydi. Agarda u har yili 15 tiyindan kam tejam keltirsa, kapital qo‘yilmalar (investitsiyalar) samarasiz foydalanilganligini anglatadi.

Ijtimoiy normativlar jamiyat va uning a‘zolari ehtiyojlari muayyan davrga qondirilishining mumkin bo‘lgan darajasini, insonning tevarakatrofdagi muhit bilan o‘zaro aloqasi xarakterini belgilaydi. Ayrim mahsulot turlarining bir kishi tomonidan iste‘mol qilinishi normasi ijtimoiy normativlar namunasi. Masalan, bir kishining bir yilda oyoq kiyimiga bo‘lgan iste‘mol normasi 3,3 juft hajmida belgilangan.

Texnologik normativlar chiqarilayotgan mahsulot birligiga resurslarining solishtirma sarfi miqdorini ifodalaydi. Masalan, 1kVt soat elektroenergiya ishlab chiqarishga sarflanayotgan yonilg‘i normasi, xom paxtadan paxta tolasini chiqarish normasi.

### 5.3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalar tizimi

Ma'lumki, milliy iqtisodiyot, jumladan, sanoat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun aniq topshiriqlar, ya'ni xo'jalik vazifalari va amaliy chora-tadbirlar belgilanadi. Ular reja shaklida namoyon bo'ladi.

Reja – bu davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini, jamoa va shaxs o'z ishlarini amalga oshirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Shu sababli reja va rejalashtirish masalasiga alohida e'tibor beriladi va ularning mohiyati, ahamiyati, mazmuni va vazifalarini chuqur bilish zaruriyati yuzaga keladi.

Reja – bu biror ish, dastur, tadbir va shu kabilarni amalga oshirishning oldindan belgilangan tartibi, loyihasi. Ko'pincha uni topshiriq deb ham ataydilar.

Ishlab chiqarish rejasi har xil bo'lishi mumkin. Masalan, ijtimoiy ishlab chiqarish rejasi yoki yagona xalq xo'jaligi kompleksining, ya'ni mamlakat xalq xo'jaligi rejasi, milliy iqtisodiyot va uning real tarmog'i rejasi (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va h.k.lar rejasi).

Rejaning bir qancha shakllari mavjud:

- vaqti va muddatiga qarab har qanday reja soatlik, kunlik, haftalik, o'n kunlik, bir oylik, bir kvartallik, bir yillik va bir necha yillik bo'lishi mumkin;
- rejalashtirishning maqsadi va vazifasiga ko'ra reja ikki turga: operativ reja va texnik-iqtisodiy rejaga bo'linadi. Bu rejaning ikkinchi turi o'z navbatida ikki shaklda, ya'ni joriy (taktik) reja va istiqbolli (strategik) reja shakllarida bo'ladi.

Reja tuzish va uni ro'yobga chiqarish, ya'ni reja bajarilishini tashkil etish va nazorat qilish jarayoni "Rejalashtirish" deb ataladi.

"Rejalashtirish" atamasi haqida so'z borganda shuni ta'kidlash kerakki, turli ilmiy asarlar, darslik va o'quv qo'llanmalari, ensiklopediya va lug'atlarda turlicha ta'riflar berilgan va ular o'zbek tiliga tarjima qilingan. Lekin, Sobiq O'zbekiston SSR ensiklopediyasida "Reja" va "Rejalashtirish" terminlari umuman keltirilmagan, uning o'rniga "Plan" va "Planlashtirish" terminlari ishlatilgan.



Mustaqillik, istiqlol va ular tufayli yuzaga kelgan keskin o'zgarishlar bu kategoriyaning mohiyati, ahamiyati, mazmuni, maqsadi va vazifalarini tubdan tadqiq qilishni talab etadi. Ayniqsa, **markazlashgan rejalashtirishning** tubdan o'zgarganligi va tarmoqlar, korxonalar katta erkinlik olganliklari muammolari o'z yechimini topishi kerak.

Bozor va rejalashtirish bir birini taqozo etadi va ularni bir biridan ajratib bo'lmaydi. Bu yerda shuni aytish kerakki, mustaqillikning birinchi yillarida "Reja" va "Rejalashtirish" so'zlaridan qo'rqa boshlagan edik. Buni anglagan Respublika Prezidenti 1995-yil yakunlari va 1996-yil vazifalariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisida taajjublanib shunday degan edi: "Xorijiy mamlakatlarda, agar fermer foyda olishga ishonmasa unda umuman ishga qo'l urmaydi. Bizda-chi? Hech kim iqtisodiy tahlil bilan shug'ullanmaydi, hech kim yil boshida hisob qilmaydi". Bundan ko'rinib turibdiki, yil boshida rejalar aniqlanmaydi.

Reja va rejalashtirish ma'lum ko'rsatkichlar tizimi, ya'ni topshiriqlar majmui tariqasida aks ettiriladi. Ular rejaning asosiy g'oyasi, maqsadi va vazifalarini ifodalaydi hamda natijalarini tavsiflaydi. Ko'rsatkichlar yordamida bir qator funksiyalarni baholash, hisob-kitob qilish va topshiriqlarning mutanosibligini ta'minlash mumkin.

Reja tuzish jarayonida qo'llaniladigan barcha ko'rsatkichlarning belgilanish tartibi, ishlab chiqarish xodimlarining xo'jalik faoliyatida qo'llanish miqyosi va vazifasiga qarab guruhlariga ajratilishi mumkin.

Belgilanish tartibiga ko'ra ular tasdiqlanadigan va hisoblanadigan ko'rsatkichlarga bo'linadi.

Tasdiqlanadigan ko'rsatkichlar yuqori tashkilot tomonidan belgilanadi va tasdiqlanadi. Hisoblanadigan ko'rsatkichlar esa boshqarishning ma'lum bo'g'ini tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

Qo'llanish miqyosiga binoan ko'rsatkichlar umumiy va differensiyallashgan turlarga bo'linadi. Umumiy ko'rsatkichlar sanoat tarmog'ining barcha bo'g'inlari uchun taalluqli bo'lib, ular xalq xo'jaligi va uning tarmoqlari bo'yicha ko'rsatkichlarni o'zaro taqqoslashni ta'minlash maqsadida belgilanadi. Differensiyallashgan ko'rsatkichlar ham

sanoatda amalga oshiriladigan ko'pgina jarayonlarni aniq ifodalashga yordam berib, ularni takomillashtirishga olib keladi.

Ishlab chiqarishning xo'jalik faoliyatidagi vazifasiga qarab, plan ko'rsatkichlarini miqdor va sifat ko'rsatkichlariga ajratish mumkin. Miqdor ko'rsatkichlari ishlab chiqarish hajmi, ish haqi fondi, xomashyoga bo'lgan ehtiyojlardan iborat. Sifat ko'rsatkichlari moddiy resurslar va ishchi kuchidan foydalanish darajasini ifodalaydi.

Sifat ko'rsatkichlari o'z navbatida sintetik va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga bo'linadi. Sintetik ko'rsatkichlar (masalan, mehnat unumdorligi, mahsulot sifati, mahsulot birligining tannarxi, foyda yoki daromad) korxonada faoliyatini har tomonlama aks ettiradi.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar esa ayrim ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish darajasini ifodalaydi. Masalan, uskunalardan foydalanish, mahsulot birligiga sarflanadigan xomashyo, yoqilg'i va elektr energiya, ko'p mehnat talab etadigan jarayonlarni mexanizatsiyalash, eng mukammallashgan texnologik jarayonlarni qo'llash shular jumlasidandir.

Ko'rsatkichlar rejalashtirish tajribasida eng ko'p ishlatiladigan, belgilanadigan va hisoblanadigan, umumiy va xususiy, miqdoriy va sifat ko'rsatkichlaridan iborat bo'lishi mumkin.

Natura ko'rsatkichlar ishlab chiqarishning moddiy buyum nisbatlarini, mahsulotni tayyorlovchi va iste'mol etuvchilar orasidagi aloqalarni belgilab, mahsulotning turlari yoki ish hajmining o'lchov birliklari (dona, metr, kubometr, tonna, kilovat-soat va hokazolar) ifodalanadi.

Tovar-pul munosabatlari sharoitida qiymat ko'rsatkichlari alohida o'rin egallaydi. Bu ko'rsatkichlar ishlab chiqarishning hajmini, sarflarini va moliyaviy natijalarini aniqlash uchun keng qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash yo'llaridan biri – sanoatni yuqori sur'atlar bilan rivojlantirishdir. Bunga erishish uchun, dastavval, uning ahvolini va imkoniyatlarini bilish lozim. Buning uchun har xil ko'rsatkichlardan foydalanish kerak bo'ladi. Bir tomondan, qo'llaniladigan ko'rsatkichlar sanoatning umumiy taraqqiyotini ifoda etsa, ikkinchidan, sanoatning

o‘zining shart-sharoitlarini ifodalovchi ko‘rsatkichlar ham mavjud bo‘lishi mumkin. Bunday ko‘rsatkichlarga asoslanib sanoatning texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlari aniqlanadi.

**Sanoat taraqqiyotini ifodalaydigan ko‘rsatkichlar.** Sanoat tarmoqlarining korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotning hajmini natural o‘lchov birligida, qiymat birligida ifoda etadigan ko‘rsatkichlaridir.

Sanoat mahsulotlarining hajmini aniqlashda qo‘llaniladigan natural birliklar bo‘lib kilovat-soat, tonna, kubometr, kvadratmetr, diko-litr, dona va boshqalar hisoblanadi.

Bu o‘lchovlarga tayangan holda ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlarining miqdorini aniqlash mumkin. Masalan, O‘zbekistonda 2001-yilda 47,9 mlrd. kilovat-soat elektr energiya, 7,3 mln. tonna neft, 57,4 mlrd. kubometr gaz, 428,3 mln. kvadrat metr gazlama va 38,2 mln. dona trikotaj kiyimlari ishlab chiqarish mo‘ljallangan edi.

Sanoat mahsulotlarining natural o‘lchov birliklari orqali barcha sanoat tarmoqlarining rivojlanishini solishtirib bo‘lmaydi, chunki bir tarmoqning mahsuloti kilovat-soatda o‘lchansa, ikkinchisniki tonnada, uchinchisniki kubometrda o‘lchanadi va h.k. Shuning uchun barcha sanoat tarmoqlarining ishlab chiqaradigan mahsulotlarini va bajaradigan ishlarini hisoblashda yagona o‘lchov birligi bo‘lishi lozim. Bu o‘lchov birligi har tomonlama bo‘lishi kerak. Bunday vazifalarni qiymat ko‘rsatkichlari bajaradi. Qiymat ko‘rsatkichlari baholar yordamida sanoatning umumiy rivojlanishini, o‘sish sur‘atlari va uning strukturasi aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Qiymat ko‘rsatkichlarini ishlatishning yana bir afzal tomoni borki, bu har xil tarmoqlar ish faoliyatini bir biriga solishtirish imkoniyatini yaratib beradi.

Hozirgi davrda sanoat rejasini tuzishda qo‘llaniladigan qiymat ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat: yalpi ichki mahsulot, tovar mahsuloti, realizatsiya qilingan mahsulot, normativ sof mahsulot, sof mahsulot.

Sanoat tarmoqlarida ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchta katta guruhga bo‘linadi: mehnat buyumlari, mehnat qurollari va xalq iste’mol mollari.

Mehnat buyumlariga xomashyo, materiallar, yoqilg‘i, elektroenergiya va boshqa ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan buyumlar kiradi. Bu buyumlar sanoatni yuqori sur‘atlar bilan va samarali rivojlantirish uchun ko‘p miqdorda talab qilinadi.

Rejalashtirish qanchalik mukammal bo‘lsa, taraqqiyot shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ladi.

Rejalashtirish tizimi quyidagi talablarga javob bergan taqdirdagina samarali va ishonchli hisoblanadi:

1. Rejalashtirishning har bir elementi va bosqichi qat’iy ravishda asoslab berilishi.

2. Rejadagi vazifalarning aniq va o‘z vaqtida bajarilishi, ya’ni rejaning adresliligi.

3. Reja bajarilishini doimiy va uzluksiz ravishda hisobga olish, nazorat qilish va unga zarur hollarda o‘zgartirishlar kiritish.

4. Ichki va tashqi muhitdagi o‘zgarishlarni ijobiy qabul qilish, shuningdek, korxonada faoliyatini ro‘y bergan o‘zgarishlarga mos ravishda, o‘z vaqtida qayta tashkil etish (rejalashtirishning moslashuvchanligi).

#### **5.4. Ishlab chiqarish rejasini tuzib chiqish va tasdiqlashni tashkil etish**

Namunali metodikaga ko‘ra sanoat tarmog‘ining joriy va istiqbolli rejasi quyidagi qismlardan iborat:

1. *Mahsulot ishlab chiqarish va uni realizatsiya qilish.* Bu belgilangan turdagi mahsulotni ishlab chiqarish va uni realizatsiya qilish hamda iste’molchilar bilan uzoq davom etadigan xo‘jalik aloqalari asosida mahsulot ishlab chiqarish va uning eksportga mo‘ljallangan hajmini ifodalaydi.

2. *Fan-texnika taraqqiyotini, ishlab chiqarish va boshqarishni takomillashtirish.* Bu bo‘limda texnika va texnologiya hamda boshqarishni takomillashtirish tadbirlari belgilanadi.

3. *Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi.* Bunda ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi, jumladan, ish vaqti, asosiy va aylanma mablag‘lar, moddiy resurslar va kapital mablag‘lardan foydalanishga doir ko‘rsatkichlar rejalashtiriladi.

4. *Norma va normativlar.* Ular rejani asoslash va ishlab chiqarish rezervlarini harakatga keltirish uchun zarur bo‘lgan norma va normativlarni yaratish hamda sistemaga solish masalalarini o‘z ichiga oladi.

5. Kapital qurilish bo‘limida ishlab chiqarish quvvatlari va boshqa asosiy fondlarni takomillashtirish hamda turar joy va boshqa qurilish obyektlarini yaratish bo‘yicha ko‘rsatkichlar nazarda tutiladi.

6. *Asosiy moddiy resurslarga bo‘lgan ehtiyoj.* Bunda birlashma (korxon)ning asosiy materiallarga bo‘lgan ehtiyoji aniqlanadi, ularni sotib olish tartibi belgilanadi, ichki rezervlarni safarbar etish yo‘llari mo‘ljallanadi.

7. Mehnat va ish haqi bo‘limida mehnat unumdorligini oshirish mo‘ljallanadi, ishlovchilarning soni, ish haqi fondining miqdori belgilanadi, ishchilarga bo‘lgan ehtiyoj va kadrlarni tayyorlash hamda qayta tayyorlash ko‘rsatkichlari aniqlanadi.

8. *Tannarx, foyda va ishlab chiqarish rentabelligi.* Bu bo‘limda realizatsiya qilinadigan mahsulotlarning tannarxi, foyda va rentabellik rejalashtiriladi.

9. *Iqtisodiy rag‘batlantirish fondlari.* Bu yerda barcha rag‘batlantirish manbaalari va ulardan keng foydalanishning aniq yo‘nalishlari belgilanadi.

10. *Moliya rejasi.* Bu bo‘limda moliyaviy mablag‘lar, daromadlar, xarajatlar va ajratmalar, byudjetga to‘lovlar, byudjetdan olinadigan mablag‘lar aniqlanadi.

11. *Ijtimoiy rivojlanish rejasi.* Bu o‘z tarkibiga xodimlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning bilim va ilmiy darajasini, ishlab

chiqarish malakasini ko‘tarish, jamoa a‘zolarining turar joyi, maishiy hamda madaniy sharoitlarini yaxshilash kabi tadbirlarni mo‘ljallaydi.

12. *Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish.* Bu bo‘limda tabiatni muhofaza qilishning ijtimoiy va iqtisodiy qirralari, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va boshqa ekologik tadbirlar belgilanadi.

Hozirgi paytda gap ma‘muriy buyruqbozlik tizimi davridagi rejalashtirish to‘g‘risida emas, balki bozor iqtisodiyotiga mos keladigan reja va rejalashtirish to‘g‘risida borishi kerak. Gap asosan u yoki bu soha (tarmoq), korxonalar (firma)ning o‘z fikri, g‘oyasini amalga oshirish va shu asosda foyda (daromad) olishga yo‘naltirilgan rejali tashkil etilgan tadbirlar, harakatlar tizimidan iborat bo‘lgan biznes-reja haqida bo‘lishi kerak.

Biznes-reja zamonaviy ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning muhim vositasidir. Shu sababli uning mohiyatini, ahamiyatini, mazmunini chuqur anglash zarur. Bu masala haqida gap borganda eng avvalo, biznes-reja nima uchun kerak? – degan savol tug‘iladi. Bunday reja, eng avvalo, bankir hamda investorlarga zarur. Chunki korxonalar (firma) o‘z loyihasini amalga oshirish uchun ulardan pul mablag‘lari so‘raydi.

Ikkinchidan, biznes-reja korxonalar (firma) xodimlari uchun kerak. Ular o‘zlarining maqsad, vazifalarini, istiqbolni bilishlari zarur.

Uchinchidan, eng asosiysi ishbiarmon, tadbirkor, korxonalar (firma) rahbari o‘z g‘oyalarini, ularning to‘g‘ri va realligini bilishi kerak.

Biznes-rejani tayyorlash natijasida, «*Ishni nimadan boshlash kerak?*»; «*Samarali ishlab chiqarishni qanday tashkil qilish lozim?*» «*Birinchi foyda yoki daromad qachon olinadi?*», «*Investorlar va kreditorlar bilan qachon hisob-kitob qilish mumkin?*», «*Yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarni qanday kamaytirish mumkin?*», «*Raqobat-chilar bilan kurashda qanday choralardan foydalanish mumkin?*» kabi savollarga javob olinadi.

Biznes-rejani tuzishda quyidagi shartlarga alohida e‘tibor qaratish zarur:

- biznes-reja professional va shu bilan bir paytda sodda, bajarish uchun tushunarli va oson bo‘lishi lozim;

- biznes-reja investor yoki boshqa manfaatdor shaxs o‘ziga kerakli ma’lumotlarni qidirib topishi uchun bo‘limlarga (boblarga) bo‘linishi lozim;

- biznes-rejani tayyorlashda korxonaning bosh rahbari, albatta, qatnashishi shart, chunki investor, bank yoki boshqa moliya idorasi korxonani rahbari qatnashmaganligi yoki boshqa shaxsga topshirilganligi haqida xabar topsa, biznes-rejaning ishonchliligiga shubha uyg‘onishi mumkin;

- biznes-rejaning obyektiv baholanishiga erishish kerak, ya’ni unda xatolar va noto‘g‘ri hisob-kitoblar bo‘lmasligi lozim;

- biznes-rejaning tarqatib yuborilmasligini nazorat qilish zarur, chunki unda biznes to‘g‘risidagi maxfiy ma’lumotlar joy olgan bo‘ladi.

Biznes-rejani tuzishda rahbarning shaxsiy ishtiroki juda zarurdir, shuning uchun ham ko‘pgina xorijiy mamlakatlar banklari, investorlar va boshqa muassasalar agar biznes-rejani boshdan oyoq chetdan, konsultant orqali ishlab chiqilib, rahbar unga faqat imzo chekkani ma’lum bo‘lib qolgan taqdirda loyihaga mablag‘ berishdan bosh tortadilar. Bunday reja, odatda, talabgorsiz qoladi.

Biznes-rejada quyidagi narsalar yoritiladigan bo‘limlar bo‘ladi:

- biznesning maqsadi va asosiy g‘oyasi;
- korxonani (firmani) ishlab chiqaradigan mahsulot (xizmat)ning o‘ziga xos xususiyati va ular bilan bozor ehtiyojini qondirish;

- ayrim bozor segmentlarida firmaning xulq-atvori, strategiyasini belgilash;

- tashkiliy qoida hamda ishlab chiqarish tarkibiy tuzilishini belgilash (aniqlash);

- ishning moliyaviy loyihasini shakllantirish (shu jumladan, moliyalashtirish strategiyasi va investitsiyalash bo‘yicha takliflar);

- firmaning rivojlanish istiqbollari bo‘limlari.

Biznes-rejani tuzib chiqish jarayonida quyidagilarga erishamiz:

– **birinchidan**, o‘zimiz boshlayotgan ishni puxta bilishga erishamiz;

– **ikkinchidan**, xarajatlarni bilamiz, korxonani yaxshi boshqarishga erishamiz;

– **uchinchidan**, o‘z g‘oyamizni boshqariluvchiga tez yetkazamiz va moliyaviy faoliyatimizni reja asosida olib borishga erishamiz.

Biznes-reja juda ko‘p bo‘limlardan iborat:

1. Rezyume (xulosa).
2. Korxonona (firma) haqidagi ma‘lumotlar.
3. Tovar (mahsulot yoki xizmat) turlari.
4. Sotuv bozori.
5. Marketing strategiyasi.
6. Ishlab chiqarish dasturi.
7. Ishlab chiqarishni tashkil etish.
8. Korxonaning tashkiliy-reja shakli.
9. Moliyaviy reja.
10. Loyihaning rentabelligi (foydaliligi, samaradorligi, natijaliligi).

Tanlangan biznes yo‘nalishining konsepsiyasini tuzishda uning raqobatbardoshligi (sifat, narx, iste‘molchiga yetkazib berish shakli, tayyorlash texnologiyasi va hokazo); mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojlar; o‘ziga jalb qilishning asoslanganligi (taklif qilinayotgan mahsulotning boshqa mahsulotlardan afzalliklari, mahsulot ishlab chiqarishning qaysi bosqichda ekanligi va hokazo)ga katta e‘tibor qaratish lozim.

**Konsepsiyada** tanlangan tovar bozoridagi ahvol; korxonaning tanlangan biznes sohasidagi kuchli va kuchsiz tomonlari; boshqa bozorga chiqish imkoniyatlari; bozorga ta‘sir o‘tkazuvchi qonunchilik, siyosat, demografik holat kabi omillar aks ettiriladi. Bundan tashqari, konsepsiya bahoning o‘zgarishi, inflyatsiyaning o‘sishi, kapital olib chiqish yoki mahsulot olib kirishni cheklovchi qonun hujjatlarini qabul qilinishi kabi sharoitlarda, mahsulotni sotishni ko‘paytirish uchun zarur bo‘lgan chora-tadbirlarni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu bo‘lim tanlangan biznes yo‘nalishi maqsadlari va niyatlarining shakllanishi bilan yakunlanadi.

**Korxonona, uning mahsulot va xizmatlari tavsifnomasi** bo‘limida korxonaning joylashgan manzili, bozorga chiqish shakli, bozordagi ulushi, asosiy raqobatchilari va ularning kuchli tomonlari, texnologiya



darajasi va xarajatlar tahlili aks ettiriladi.

Mulkchilik shakli, xodimlarning malakasi, tashqi muhit bilan munosabatlar **“Boshqaruv”** bo‘limida ko‘rsatiladi.

**“Bozor tadqiqoti va tahlili”** bo‘limida tanlangan bozor asoslab beriladi, xaridorlarni korxonaga mahsulotlariga jalb etuvchi raqobatchilik usullari hamda bozorda bahoni shakllantirish va hokazolar ko‘rib chiqiladi.

**Marketing rejasining** asosiy vazifasi korxonaning bozordagi imkoniyatlariga baho berishdadir. Marketing rejasining asosiy elementlari sifatida tovarlarni tarqatish tizimi, bahoni shakllantirish, reklama, savdoni rag‘batlantirish usullari, sotilgandan keyingi xizmat ko‘rsatishni tashkil qilish, korxonaga (firma) va uning mahsulotlari haqida jamoatchilik fikrini shakllantirish kabilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

**“Ishlab chiqarish rejasini”** salohiyat xaridorlarga kerakli mahsulotlar hajmini o‘z vaqtida ishlab chiqarish imkoniyatining mavjudligini ko‘rsatadi. Mazkur bo‘limda quyidagilar o‘z aksini topadi: yangi tashkil qilingan yoki faoliyat yuritayotgan korxonada tovar ishlab chiqarish joyi; buning uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish quvvatlari va ularning o‘sish istiqbollari; xomashyo va material yetkazib beruvchilar; ishlab chiqarish kooperatsiyasi; ishlab chiqarish oqimlari tizimini tuzish; sifatni nazorat qilish jarayoni; foydalaniladigan standartlar; vujudga kelishi mumkin bo‘lgan ishlab chiqarish xarajatlari.

**“Tavakkalchilik va sug‘urtalashni baholash”** bo‘limi ikki qismga bo‘linadi. Birinchi qismda tavakkalchilikning barcha turlari (yong‘in, zilzila, soliqni boshqarishdagi o‘zgarishlar va valyuta kursining tebranishi) oldindan hisoblab chiqiladi. Ikkinchi qismda esa tavakkalchilik xavfining oldini olish, ya’ni tavakkalchilik va zararlarni qisqartirish chora-tadbirlari ko‘rsatiladi, shuningdek, tavakkalchilik xavfidan sug‘urtalash dasturi amalga oshiriladi.

**Moliyaviy reja** biznes-rejaning yakunlovchi bo‘limi bo‘lib, korxonaga faoliyatining natijalarini tavsiflaydi. U quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

- savdo hajmining bashorati;

- pul daromadlari va xarajatlari balansi;
- foyda va zarar bo'yicha reja.

Mazkur rejaning ko'rsatkichlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- tovarlarni sotishdan tushgan daromad;
- ishlab chiqarish xarajatlari;
- savdodan tushgan umumiy foyda;
- sof foyda;
- korxonada aktiv va passivining solishtirma balansi;
- zararsizlikka erishish grafigi.

Shuningdek, mazkur bo'limda ishlab chiqarishni tashkil qilish yoki keqaytirish uchun mablag' jalb qilish rejalari ham ifodalanadi. Bo'limda korxonaning moliviy barqarorligi yoki nochorligini aniqlash imkonini beruvchi maxsus ko'rsatkichlar hisob-kitobi ham keltiriladi.

### **5.5. Rejalashtirishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari**

Davlatning iqtisodiy strategiyasida boshqaruv va uning eng muhim funksiyasi bo'lgan rejalashtirishni takomillashtirish alohida o'rin egallaydi. Chunki u rejalashtirishning barcha darajalari va sohalarida qonuniy jarayon hisoblanadi. Bu esa jamiyatda ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan vazifalar bilan belgilanadi.

Sanoat ishlab chiqarishini rejalashtirishni takomillashtirish sohasida, eng avvalo, quyidagi vazifalarni hal etish lozim:

- rejalashtirishning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tezlatishga, sanoatning ilg'or strukturasi shakllantirishga, uni balansli va mutanosib rivojlantirishga, ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy hamda ilmiy va texnikaviy salohiyatdan samarali foydalanishga ta'sirini kuchaytirish;
- fan-texnika taraqqiyotini jadal va uzluksiz amalga oshirishni oqilona bashorat qilishga erishish;

- bashorat qilish bilan istiqbolli va joriy rejalashtirish o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash. Bu vazifalarni amalga oshirish texnologiyalaridan keng foydalanish;

- reja ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirish, ularni pirovard natijalar sari yo'naltirishni kuchaytirish hamda mehnat, moddiy, moliya resurslaridan foydalanish samaradorligini, mahsulotning sifati va uni yangilash miqyoslarini aks ettiradigan ko'rsatkichlardan keng foydalanish.

Galdagi eng muhim vazifalardan biri rejalashtirishning ilmiy saviyasini, darajasini oshirishdir. Rejalar ilmiy tarzda tuzib chiqilishi, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan asoslab berilgan va to'la-tekis balanslashtirilgan bo'lishi kerak. Aniqroq qilib aytganda, milliy iqtisod, jumladan, sanoat rejalarida ko'zda tutilgan ishlab chiqarishni o'stirish, yalpi ichki mahsulotni ko'paytirish sur'atlari va asosiy mutanosibliklar optimal bo'lishi, ya'ni mavjud imkoniyatlardan yangi jamiyatning obyektiv iqtisodiy qonunlariga muvofiq ravishda eng yaxshi, eng samarali foydalanishni ta'min etish kerak. Hozirgi jadallashgan fan-texnika taraqqiyoti sharoitida rejalashtirishning eng muhim vazifalaridan biri ilm va texnikaning so'nggi yutuqlarini sanoat orqali tez sur'atlarda o'zlashtirib olishni rejalarda, ayniqsa, istiqbolli rejalarda ko'zda tutishdan iborat. Istiqbolli rejalarining rolini oshirish rejalashtirish uchun ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan normativlar sistemasini vujudga keltirishni talab etadi. Shundagina rejalashtirishda tavakkalchilik yuz berishining oldini olish hamda ishlab chiqarishning natijaliligini yuqori darajaga ko'tarish bo'yicha imkoniyatlarni ishga solish mumkin bo'ladi.

Ishlab chiqarishni rivojlantirishni shunday rejalashtirish kerakki, natijada mahsulot ishlab chiqarish ko'paya borsin, mehnat unumdorligi borgan sari ko'tarilsin, mahsulotning tannarxi pasaysin, korxonada foydasi oshib borsin.

Xo'sh, buning uchun nimalar qilish kerak?

Buning uchun, eng avvalo, investitsiyalardan, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan oqilona va samarali foydalanmoq kerak.

Rejalashtirishni yanada takomillashtirish uchun bu jarayon bilan shug'ullanadigan idoralarni iste'dodli va iqtidorli, bilimdon, obro'li, o'z ishining ko'zini biladigan kadrlar bilan mustahkamlash kerak. Faqat shunday mutaxassislargina bu sohadagi o'zboshimchaliklar va subyektivizmga batamom barham berishi mumkin bo'ladi.

Reja tuzish ishning bir qismigina, xolos. Uning bajarilishi va oshirib bajarilishi har bir rahbar va xodimning aql zakovati, tashabbuskorligi va fidokorona mehnatiga bog'liqdir. Agarda jamoa va uning har bir xodimi o'z vazifalarini muntazam, bekami-ko'st bajarib borsa belgilangan rejalar, albatta, muvaffaqiyatli bajariladi.

1. Sanoat ishlab chiqarishini rejalashtirish boshqaruv tizimining ajralmas qismidir. U yordamida milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmog'i – sanoatning rivojlanishiga taalluqli bo'lgan ko'rsatkichlar muayyan vaqtga belgilanadi.

2. Rejalashtirish o'zining tegishli tamoyil va usullariga ega va ular iqtisodiyot nazariyasida alohida o'rin egalladi.

3. Sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun aniq topshiriqlar berilishi kerak va ular reja shaklida aks etadi. Sanoat rejasi 12 bo'limdan iborat.

4. Sanoat rejasini tuzish eng murakkab ishlardan biri hisoblanadi. Chunki bunda taraqqiyotning barcha tomonlarini oldindan ko'rish, ya'ni bashorat qilish hamda bu taraqqiyotni ta'minlovchi iqtisodiy va texnik salohiyatning samarali variantlarini qidirib topish kerak bo'ladi.

5. Mustaqillik yillarida rejalashtirishni takomillashtirish borasida anchagina ishlar amalga oshirildi. Lekin xalq xo'jaligini, jumladan, sanoatning rejali, mutanosib rivojlanishining bir qator muammolari hali o'z yechimini topgani yo'q. Shu sababli bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish va demokratik davlat, bozor iqtisodiyotining talablariga javob beradigan rejalashtirishni yaratish zarur.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Reja va rejalashtirishning tavsifi, maqsadi va vazifalari.

2. Rejalashtirishning bozor iqtisodiyotiga mos tamoyillari va usullari.
3. Rejalar tizimi va uning bozor munosabatlariga mosligi.
4. Sanoat ishlab chiqarish rejasining bo‘limlari va ko‘rsatkichlari.
5. Biznes-reja va uni tuzish usullari.
6. Rejalashtirishni takomillashtirish yo‘llari.

### **Test topshiriqlari:**

**1. Korxonada faoliyatini prognozlashtirish deganda nimani tushunasiz?**

- A) Ishlab chiqarish rejalarini asosida prognozlashtirish;
- B) Kelajakni ko‘zlash;
- C) Istiqbolni o‘ylab prognozlashtirish;
- D) Ishlab chiqarish rejalarini asosida kelajakni prognozlashtirish.

**2. Korxonada faoliyatini prognozlashtirishning umumiy yondashuvlarini sanab bering.**

- A) tarixiy, kompleks, tizimli, tuzilmaviy, tizimli-tarkibiy yondashuvlar;
- B) kompleks, tizimli, tuzilmaviy, tizimli-tarkibiy yondashuvlar;
- C) tarixiy, tizimli, tuzilmaviy, tizimli-tarkibiy yondashuvlar;
- D) Barcha javoblar to‘g‘ri.

**3. Tarmoqlararo balans (TAB) – bu...**

- A) iqtisodiyotdagi asosiy model bo‘lib, unda xalq xo‘jaligidagi turli qiymat aloqadorligini ko‘rsatadi;
- B) iqtisodiyotdagi yordamchi qo‘shimcha modeli bo‘lib, u sanoat, kapital qo‘yilmalar, mehnat resurslari va tarmoqlar bo‘yicha mahsulot hajmining o‘zaro bog‘langanligini hisobga olgan holda reja davri qator yillari uchun xalq xo‘jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarilish va taqsimlanish ko‘rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi;

C) iqtisodiyotdagi asosiy model bo‘lib, reja davri qator yillari uchun xalq xo‘jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarilish va taqsimlanish ko‘rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi;

D) barcha javoblar to‘g‘ri.

#### **4. Tarmoqlararo balansning ko‘rinishlarini ayting.**

A) qiymat va natural shaklda shakllantiriladi;

B) natural shaklda shakllantiriladi;

C) qiymat shaklda shakllantiriladi;

D) balansli modellar shaklida shakllantiriladi.

#### **5. Moddiy qiymat tarmoqlararo balans modeli balanslashtirilgan reja uchun boshlang‘ich ma‘lumotlarini sanab bering?**

A) Aralash, eksport, import va kapital ta‘mirlash hajmi;

B) MD hajmi, eksport, import va kapital ta‘mirlash hajmi;

C) MD hajmi, aralash, import va kapital ta‘mirlash hajmi;

D) MD hajmi, aralash, eksport va kapital ta‘mirlash hajmi;

#### **6. Prognozlashning ekspert usuli bu ...**

A) prognozlashning bu usuli obyektlar va muammolarni tadqiq qilishda, ularning taraqqiyoti qisman matematik shakllantirishga to‘g‘ri kelmaydigan, ya‘ni adekvant (o‘xshash, to‘g‘rilangan) modelni ishlab chiqish qiyin bo‘lgan hollarda ishlatiladi

B) prognozlashning ekspert baholash usuli obyektlar va muammolarni tahlil qilishda, ularning taraqqiyoti to‘liq yoki qisman matematik shakllantirishga to‘g‘ri kelmaydigan, ya‘ni adekvant (o‘xshash, to‘g‘rilangan) modelni ishlab chiqish qiyin bo‘lgan hollarda ishlatiladi;

C) prognozlashning baholash usuli muammolarni o‘rganishda, ularning taraqqiyotini to‘liq shakllantirishga to‘g‘ri kelmaydigan, ya‘ni adekvat (o‘xshash, to‘g‘rilangan) modelni ishlab chiqish qiyin bo‘lgan xollarda ishlatiladi;

D) barcha javoblar to‘g‘ri.

**7. Prognozlashda qo‘llaniladigan ekspert baxolash usullarini sanab bering.**

- A) individual va kollektivga bo‘linadi;
- B) individual, kollegial va jamoaviyga bo‘linadi;
- C) kollegial va jamoaviyga bo‘linadi;
- D) barcha javoblar to‘g‘ri.

**8. Prognozni shakllantirishda qo‘llaniladigan usullarni ayting?**

- A) intervyu usuli baholash;
- B) intervyu va tahliliy baholash;
- C) intervyu va analitik-ekspert baholash;
- D) analitik-ekspert baholash.

**9. Haqiqatdan ham ekspert jamoasi yordami bilan prognozlashni shakllantirishda qo‘llaniladigan masalalarni sanang?**

- A) malakali ekspert guruhlarini shakllantirish;
- B) ekspertizalarni tayyorlash va o‘tkazish;
- C) olingan hujjatlar asosida statistik hisoblashlar o‘tkazish;
- D) barcha javoblar to‘g‘ri.

**10. Iqtisodiy rejalashtirish va prognozlashda mamlakat miqyosida asosiy yo‘nalishlarini ko‘rsating.**

- A) ijtimoiy ehtiyojlar va ularni qondiruvchi zarur bo‘lgan moddiy, mehnat va moliyaviy resurs;
- B) resurslardan ratsional foydalanish;
- C) mamlakat mintaqalari va tarmoqlar o‘rtasida rivojlanishni balanslashtirishni ta‘minlash;
- D) barcha javoblar to‘g‘ri.

**11. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni prognozlashda shartli ravishda metodlarini 3 xil muhim guruhlarga bo‘lish mumkin. Ularni ko‘rsating.**

- A) ekstrapolyatsiya, prognozlashning ekspert baholash va model-  
lashtirish metodlari;
- B) prognozlashning ekspert, individual va jamoaviy baholash metodi;
- C) prognozlashning individual, kollegial va jamoaviy baholash metodi;
- D) prognozlashning modellashtirish, kollegial va jamoaviy baholash  
metodi.



## VI BOB. SANOAT ISHLAB CHIQRISHNING IQTISODIY VA IJTIMOYIY SAMARADORLIGI

### 6.1 Samaradorlik sanoat ishlab chiqarishining «ko‘zgusi» sifatida. Bozor munosabatlari sharoitida samaradorlikning o‘rni va ahamiyati

Rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy strategiyasi uzoq vaqtga mo‘ljallangan fundamental maqsadlarni o‘rtaga qo‘yish bilan bir qatorda, bu maqsadlarga erishish vositalari, yo‘llarini belgilashni ham o‘z ichiga oladi. Bular orasida **ishlab chiqarish samaradorligini** to‘xtovsiz oshirib borish asosiy o‘rinda turadi.

O‘zbekiston davlatining qudratini mustahkamlash, aholining moddiy va ma‘naviy ne‘matlarga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘laroq qondirish, kelajakda esa ularni mo‘l-ko‘l yaratish, iqtisodiy va ilmiy-texnika sohasida eng rivojlangan davlatlar qatoridan joy olish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga bevosita bog‘liqdir.

Mustaqillikka erishilganlik, qudratli iqtisodiy va ilmiy-texnik salohiyat yaratilayotganlik, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarning takomillashayotganligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalarini birinchi o‘ringa qo‘ydi. Binobarin, Respublika Prezidentining ma‘ruza va nutqlarida, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida ishlab chiqarishning, jumladan, sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishning mohiyati va ahamiyati, dolzarb muammolari, iqtisodiyotni ekstensiv va intensiv taraqqiyot yo‘liga o‘tkazish munosabati bilan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar chuqur va har tomonlama tahlil etib berilmoqda.

Ma‘lumki, ishlab chiqarishni rivojlantirishda ikki xil omil: miqdor va sifat, ekstensiv va intensiv, ya‘ni kengaytiruvchi (uzaytiruvchi) va zo‘r beruvchi, kuchaytiruvchi omillar harakatda bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, agar ishlab chiqarish sohasi kengaytirilsa, ekstensiv suratda kengaygan takror ishlab chiqarish bo‘ladi; agar yana ham **ko‘proq samara** beradigan ishlab chiqarish vositalari qo‘llaniladigan bo‘lsa, intensiv suratda kengaygan takror ishlab chiqarish yuzaga keladi.

O‘zbekiston sanoatida ana shu ikki yo‘ldan oqilona foydalanish natijasida ishlab chiqarishning samaradorligi bosqichma-bosqich o‘shirib bormoqda.

Samaradorlik so‘zi – bu eng ko‘p uchraydigan umumiy tushunchalardan biri bo‘lib, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning xilma-xil sohalarida juda keng ishlatiladi. Masalan, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat samaradorligi, o‘qish va o‘qitish samaradorligi, davolash va davolanish samaradorligi, qabul qilingan qonun va qoidalar hamda yechimlarning samaradorligi va hokazolar.

Samaradorlik sanoat ishlab chiqarish faoliyatining «ko‘zgusi» hisoblanadi. Bu «ko‘zgu»da ishlab chiqarishning barcha natijalarini ko‘rish mumkin. Ma’lumki, har bir tarmoq, korxonalar, qolaversa, har bir shaxs o‘z ishlab chiqarish faoliyatida maksimum foyda olishga intiladi. Uning uchun ma’lum xarajatlar qiladi. Ana shu foyda bilan xarajatlar o‘rtasidagi farq tarmoq va korxonalar faoliyatining «ko‘zgusi» bo‘lgan samaradorlikda ko‘zga tashlanadi. Ishlab chiqarishning eng yuqori samaradorligi ishlab chiqarish xarajatlarini minimum darajaga keltirishdan iborat.

Bozor munosabatlari sharoitida samaradorlikning alohida o‘rni mavjud. Bozor iqtisodiyoti natijalilikni, foydalilikni taqozo etadi. Tartibli bozorga asoslangan iqtisodiyotda eng kam resurs sarflab ko‘p natijaga erishish zarur. Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida 5 turdagi resurslar tizimi harakatda bo‘ladi:

- a) moddiy resurslar;
- b) mehnat resurslari;
- v) moliyaviy resurslar;
- g) energetik resurslar;
- d) axborot resurslari, ya’ni informatsion resurslar.

Mana shu resurslardan oqilona foydalanib, ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish mumkin. Bunday faoliyat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘nalishida muhim ahamiyat kasb etadi. Sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishning aniq-ravshan

yoʻnalishlari Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida koʻrsatib berilgan.

## **6.2. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, mezonlari va koʻrsatkichlari. Xarajatlarning umumiy va qiyosiy samaradorligi**

Samaradorlik – bu foydalilik, natijalilikdir. Maʼlumki, qandaydir natija olish uchun mehnat qilish, ishlash, mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat koʻrsatish va maʼlum miqdorda xarajat qilish kerak.

Samaradorlikni aniqlash uchun natijani shu natijaga erishishga sarflangan xarajatlari yoki resurslar bilan taqqoslash kerak. Demak, samaradorlik ishlab chiqarish faoliyati natijalari bilan ularga erishish uchun sarflangan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarning oʻzaro nisbatidir:

$$S = \frac{\textit{natija}}{\textit{xarajatlari}} = \frac{\textit{natija}}{\textit{mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar}}$$

Ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini farqlaydilar. Samaradorlikni iqtisodiy va ijtimoiy turlarga boʻlish shartli boʻlinish hisoblanadi. Moddiy ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan va mehnat xarajatlari bilan bogʻliq boʻlgan natijalarning hammasi iqtisodiy va maʼlum maʼnoda ijtimoiy samara deb aytish mumkin.

Bu yerda shuni eslatib oʻtish kerakki, iqtisodiy va ijtimoiy tushunchalarning sunʼiy boʻlinishi haqida bahslashish mumkin. Lekin iqtisod ijtimoiy hayotdan tashqarida boʻlmagani kabi, ijtimoiy hayot ham iqtisodsiz boʻlmaydi. Demak, ularni bir-biridan ajratib boʻlmaydi. Chunki amalga oshirilgan har bir ish ayni vaqtda ham iqtisodiy, ham ijtimoiy samara keltiradi.

**Iqtisodiy samaradorlik** ishlab chiqarishning iqtisodiy natijasini koʻrsatadi. Masalan, mahsulot ishlab chiqarish, boshqaruv, yangi texnika va texnologiyani joriy etish, mehnat sifatini oshirish va hokazolarning natijasi. Iqtisodiy samara material, mehnat, pul va boshqa

resurslarni tejash tufayli erishilgan miqdor, vaqtni tejash, qurilish muddatlarini qisqartirish, mehnat sarfini tejash, ish vaqtining zoe ketishini kamaytirish, mablag‘lar oborotini tezlashtirish, mahsulot yetishtirish hajmini o‘stirish, ishlar sifatini yaxshilash va boshqa natijalar bilan tavsiflanadi.

**Ijtimoiy samaradorlik** shaxsning har tomonlama kamol topishiga yordam beradigan tadbirlarni amalga oshirishning samaradorligini ifodalaydi. U mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilanishida, xodimlar malakasini oshirishda aks etadi va asosiy oziq-ovqat, sanoat Tovarlarining aholi jon boshiga iste‘mol qilinishi, ijtimoiy iste‘mol fondlaridan beriladigan nafaqa va imtiyozlar, kadrlar tayyorlash bo‘yicha xarajatlarning o‘sishi bilan tavsiflanadi.

Ushbu samaralar ishlab chiqarishning o‘zida vujudga kelayotganini va birlashib bajarilgan mehnat tufayli ishlovchilar o‘rtasidagi munosabatlar ta‘riflanishini nazarda tutsak, ularni ijtimoiy-iqtisodiy samara deb atasak bo‘ladi.

Iqtisodiy samaradorlikning mohiyati uning mezoni va ko‘rsatkichlar tizimida aks etadi.

**Mezon masalasi** iqtisodiy samaradorlik nazariyasining eng muhim sohasi hisoblanadi. Falsafiy ma‘noda mezon – bu asosiy o‘lchov, muhim farqli belgi, asosiy nuqtai nazardir. Shular asosidagina u yoki bu sohadagi bizning bilimlarimizni obyektiv haqiqatligini, to‘g‘riligini va ishonchliligini aniqlash, haqiqatni anglashmovchiliklardan farq qilish mumkin.

Ishlab chiqarishning asosiy maqsadiga erishish uchun barcha resurslardan oqilona foydalanish, tayyorlanadigan mahsulotning har bir birligiga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish kerak bo‘ladi. Demak, samarani o‘lchaganda mezon sifatida jami ijtimoiy mehnatni tejash, uning unumdorligini oshirish qabul etiladi.

Ishlab chiqarishning umumiy (mutloq) samaradorligi deganda xarajatlar va resurslarning ayrim turlari bilan solishtirilgan yoki taqqoslangan iqtisodiy samaraning umumiy miqdori tushuniladi.

Ishlab chiqarishning umumiy samaradorligi xarajatlar va resurslarning ayrim turlaridan foydalanish darajasini aniqlash va baholash uchun qo'llaniladi va umuman, xalq xo'jaligi bo'yicha, tarmoqlar, korxonalar, kapital qurilish obyektlari bo'yicha hisoblab chiqiladi. Bunday samaradorlikni aniqlash xarajatlar va resurslar samaradorligi darajasini, samaradorlikning asosiy yig'imlarini aks ettiruvchi differentsiyalangan ko'rsatkichlarni hisoblab chiqishga asoslanadi. Bunday ko'rsatkichlarga ishlab chiqarishning yoki unda tayyorlanadigan mahsulotning mehnat sig'imi, material sig'imi, fond sig'imi, kapital sig'imi kiradi.

Mehnat sig'imi milliy daromad, sof, yalpi, tovar mahsulotning yoki natural shaklda ifodalangan mahsulot birligiga sarflangan xarajat miqdorini tavsiflaydi.

Mahsulotning sermehnatliligi – bu muayyan turdagi mahsulotni (masalan, bitta traktorni, kostyumni yoki ko'ylakni) ishlab chiqarishga sarf bo'lgan ish vaqti miqdorini ifodalovchi ko'rsatkich hisoblanadi.

Mehnat sig'imining uch turi bo'ladi: texnologik, to'la va xalq xo'jaligi mehnat sig'imi. Mehnat sarfini hisobga olish jihatiga qarab esa u yana uch turga: rejali mehnat, normativ mehnat va haqiqiy (amaldagi) mehnat sig'imlariga bo'linadi.

Mehnat sig'imi bevosita sarf (asosiy xodimlar sarf qilgan mehnat) bo'yicha, to'la sarf (yordamchi xodimlar sarf qilgan mehnat) bo'yicha hamda umumiy ijtimoiy mahsulot yoki milliy daromad qiymatiga nisbati bilan belgilanadi. Ayrim komplekslar va ularning tarmoqlarida, korxonalarda esa moddiy sarflar miqdorining qiymatiga nisbatan belgilanadi:

$$M_s = \frac{M_x}{T_m}$$

Ko'pincha amaliyotda mehnat sig'imining boshqacha ma'nosini bildiruvchi mehnat unumdorligi ( $M_u$ ) ko'rsatkichidan foydalaniladi:

$$M_u = \frac{T_m}{M_x}$$

Mehnat unumdorligi – bu inson mehnatining muayyan vaqt ichida ozmi-ko'pmi mahsulot ishlab chiqarish qobiliyatidir.

Ishlab chiqarishning material sig‘imi – bu mahsulot (ish bajarish yoki xizmat ko‘rsatish) birligiga ketadigan va unda ifodalanadigan moddiy resurslar (xomashyo, asosiy va yordamchi materiallar, sotib olinadigan butlovchi buyumlar va yarim fabrikatlar, yoqilg‘i va energiya) yalpi sarfini tavsiflab beruvchi ko‘rsatkichdir. U quyidagi formula yordami bilan ifodalanadi:

$$\mathbf{Ms} = \frac{\mathbf{Mr}}{\mathbf{Tm}}$$

Ishlab chiqarishning fond talabligi bu mahsulot birligiga (natural yoki qiymat doirasida) to‘g‘ri keladigan asosiy ishlab chiqarish fondlarini tavsiflovchi ko‘rsatkichdir. Fond sig‘imi (Fs) asosiy va aylanma fondlardan foydalanishning samaradorligini ko‘rsatadi va ularning o‘rtacha yillik qiymatini (F) mahsulot hajmiga (Mx) nisbatini ifodalaydi:

$$\mathbf{Fs} = \frac{\mathbf{F}}{\mathbf{Mx}}$$

Bu miqdorning teskarisi fond samarasi (natijasi) yoki fond qaytimi (Fk) deb yuritiladi va quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\mathbf{Fk} = \frac{\mathbf{Mx}}{\mathbf{F}}$$

Ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini baholashda kapital qo‘yilmalardan foydalanish ko‘rsatkichlari ishlab chiqarish fondlarini qayta takror ishlab chiqarishning yangi asosiy va oborot fondlarini yaratish uchun zarur bo‘lgan jamg‘arma fondlari samaradorligini tavsiflaydi. Bunday ko‘rsatkichlardan eng muhimi kapital talablik yoki kapital sig‘imi hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich (Ks) kapital mablag‘lar (K)ning yordami bilan tayyorlangan mahsulotning ko‘paygan qismiga nisbati bilan ifodalanadi:

$$\mathbf{Ks} = \frac{\mathbf{K}}{\Delta \mathbf{Mx}}$$

Yuqorida keltirilgan va boshqa bir qator tabaqalashtirilgan (differensiyalangan) ko‘rsatkichlar ishlab chiqarishning samaradorligini baholash va tashkil etishda muhim o‘rin egallaydi, xarajatlari va resurslar

asosiy turlarining qaytarib berilishini tavsiflaydi. Lekin faqat bu ko'rsatkichlar asosida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi o'zgarishiga baho berish qiyin, chunki ular o'zgarishning xarakteri va dinamikasini taqqoslay olmaydi. Undan tashqari, ba'zi bir davrlarda ular har xil yo'nalishda o'zgaradilar. Masalan, sanoatda mehnat unumdorligi juda sekinlik bilan ko'paymoqda.

Iqtisodiy samaradorlikni rejalashtirish va tahlil etish nafaqat xarajat va resurslar asosiy turlaridan foydalanish darajasini tahlil etishni o'z ichiga olishi kerak, balki uning butunlay o'zgarishini, yig'indi (integral) samaradorlikni baholashni ham o'z ichiga oladi. Mana shu maqsadda iqtisodiy samaradorlikning umumlashtiruvchi, kompleks ko'rsatkichlari hisoblab chiqiladi va ishlab chiqarishning oqibat natijalari shu ko'rsatkichlar yordamida tahlil etiladi. Bunday ko'rsatkichlar turli xarajatlardan va resurslarning darajasini yig'ilgan turda, har xil omillarning ta'sirini hisobga oladi.

Ishlab chiqarish – texnik vazifani hal etishning biror variantining ijtimoiy-iqtisodiy afzalligini asoslab berish, taqdim etilgan variantlardan eng samaraligini tanlab olish maqsadida aniqlanadigan samaradorlik **qiyosiy samaradorlik** deb ataladi. Qiyosiy samaradorlik ikki va undan ortiq variantlarni taqqoslash va shu asosda bir variantning boshqa variantlardan ustunligi va uning optimalligini aniqlab beradi.

Optimal variantni tanlab olish hamda uni asoslab berish uchun qo'shimcha kapital mablag'larning qoplanish muddati yoki qiyosiy samaradorlik koeffitsientini hisoblab chiqish va ular miqdorini normativ qiymati bilan taqqoslash kerak bo'ladi.

Qo'shimcha kapital mablag'larning o'zini qoplash muddati(V) qo'shimcha kapital mablag'larning ( $K_2-K_1$ ) mahsulot tannarxini pasaytirishdan olingan tejam ( $T_1-T_2$ )ga nisbati bilan aniqlanadi:

$$V = \frac{K_2 - K_1}{T_1 - T_2}$$

Bu yerda: V– qoplanish muddati (yil hisobida);

$K_1$  va  $K_2$  – variantlarni joriy etish uchun kerak bo'lgan mablag'lar miqdori;

$T_1$  va  $T_2$  – taqqoslanadigan variantlarning ekspluatatsiya xarajatlari.

Qo‘shimcha kapital mablag‘larning qiyosiy samaradorlik koeffitsienti ( $Kqs$ ) qoplanish muddatining teskari ifodasi hisoblanadi va tannarxni pasaytirishdan olingan tejamning qo‘shimcha kapital mablag‘lar miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi:

$$Kqs = \frac{T_1 - T_2}{K_2 - K_1} \text{ yoki } \frac{1}{v}$$

### **Keltirilgan xarajatlar, ularning vazifasi va uni hisoblash usuli.**

Keltirilgan xarajatlar kapital mablag‘larning qiyosiy-iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkich bo‘lib, texnikaviy va iqtisodiy masalalarni hal qilish variantlarining eng yaxshisini tanlab olishda qo‘llaniladi. Biron bir texnikaviy vazifani hal etishning, ratsionalizatorlik va ixtirochilik takliflari, texnikaviy va tashkillashtirishning mumkin bo‘lgan variantlarini, mahsulot sifatini oshirishning turli usullarini taqqoslaganda boshqa shartlari teng bo‘lib qolsa, keltirilgan xarajatlar minimum bo‘lishini talab qiladigan variant eng yaxshisi hisoblanadi. Bir necha variantlardan eng yaxshisini tanlab olish uchun quyidagi keltirilgan xarajatlar formulasidan foydalanish kerak.

$$S + E_m * K \rightarrow \min$$

Bu yerda  $S$  – muayyan variant bo‘yicha ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi;

$E_m$  – kapital mablag‘lar samaradorligining normativ koeffitsienti;

$K$  – bir yo‘la solinadigan kapital mablag‘larning yig‘indisi.

Xalq xo‘jaligida yangi texnika, ixtirolar va ratsionalizatorlik takliflaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini belgilash metodikasida samaradorlikning normativ koeffitsienti xalq xo‘jaligining hamma tarmoqlari uchun **0,15 ga** teng qilib olingan.

Keltirilgan xarajatlarni aniqlash eski texnika o‘rniga yangisini yaratish va qo‘llash natijasida hosil bo‘ladigan iqtisodiy samarani baholashga xalq xo‘jaligi nuqtai nazaridan yondashishni taqozo etadi.



**Yillik iqtisodiy samara** – bu yangi texnika, texnologiya va progressiv mahsulot turlarining, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etishning iqtisodiy samaradorligini tahlil qitish va baholashda qo‘llaniladigan muhim ko‘rsatkichlardan biridir. Bu ko‘rsatkich qiyos qilinadigan variantlar bo‘yicha sarflangan xarajatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida quyidagi formula yordamida hisoblab chiqiladi:

$$Y = [(T_1 + E_m * K_1) - (T_2 + E_m * K_2)] * A_2$$

Bu yerda Y – yillik tejam;

$T_1$  – yangi texnika bo‘yicha tadbirlar joriy qilingungacha bo‘lgan mahsulot yoki ish birligining tannarxi (so‘m hisobida);

$T_2$  – shuning o‘zi, tadbirlar joriy qilingandan so‘ng (so‘m hisobida);

$K_1$  – tadbirlar joriy qilingungacha mahsulot birligiga sarflangan kapital mablag‘lar miqdori;

$K_2$  – shuning o‘zi, tadbirlar amalga oshirilgandan so‘ng;

A – yangi tadbirlar amalga oshirilgandan boshlab tayyorlanadigan yillik mahsulot yoki ishlarning natura birligi;

$E_m$  – kapital xarajatlarning normadagi qiyosiy samaradorligi koeffitsienti.

U yangi kapital qo‘yilmalarning minimal darajadagi iqtisodiy samaradorligini hamda bir so‘mlik kapital qo‘yilma bir yilda mahsulot tannarxini necha tiyanga kamaytira olishni bildiradi. Masalan, sanoat tarmog‘i uchun belgilangan samaradorlik koeffitsienti normasi 0,15 bo‘lsa, bu shu tarmoqda har bir so‘m kapital qo‘yilmalar mahsulot tannarxining pasayishi hisobiga eng kami bilan 15 tiyinlik tejam, foyda berishi zarur. Samaradorlik koeffitsienti «0»dan «1»ga qancha tez intilsa, samaradorlik shuncha yuqori, xarajatlarning reja qoplanish muddati esa shuncha qisqa bo‘ladi.

Ishlab chiqarishning samaradorlik darajasi xilma-xil, bir-biriga bog‘liq bo‘lgan omillar ta’sirida tashkil topadi va shakllanadi. Har bir kompleks, tarmoq va korxonada uchun uning texnik-iqtisodiy xususiyati sababli samaradorlikni oshirishning o‘ziga xos omillari mavjud.

### **6.3. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning omillari va yo'llari**

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning juda ko'p, xilma-xil omillari va asosiy yo'nalishlar mavjud. Barcha omillar uch belgiga asosan guruhlariga bo'linishi mumkin: manba bo'yicha, ishlab chiqarishni rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha, omillarning o'rni va amalga oshirish darajasi bo'yicha.

Omillarni ishlab chiqarish samaradorligini oshirish manbalari bo'yicha tasniflash nimalar hisobiga ijtimoiy mehnatni tejashga erishish mumkinligini yoki erishilganligini aniqlashga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan asosiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin: mahsulotning mehnat sig'imi; material sig'imi; fond sig'imi hamda kapital mablag' talabni kamaytirish; tabiiy resurslardan ratsional foydalanish va vaqtni tejash. Lekin bunday tasniflash talabga javob bermaydi. Bu savollarga javob topish uchun ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning barcha omillarni ishlab chiqarishni rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha guruhlash kerak. Ular ijtimoiy mehnatni tejashga qaratilgan texnik, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy chora-tadbirlar kompleksidan iborat. Bu yo'nalishlar g'oyat xilma-xildir. Eng muhimlariga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish strukturasi yaxshilash;
- fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, ishlab chiqarish va mahsulotning texnik-iqtisodiy darajasini ko'tarish, fan va texnika yutuqlarini joriy etish muddatini qisqartirish;
- ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, kooperatsiyalash, kombinatlashtirish va hududiy joylashtirish darajasini oshirish;
- boshqarishning strukturasi, moliyalash, baholash va kreditlash hamda rag'batlantirish tizimini takomillashtirish;
- inson omilini kuchaytirish asosida mehnatkashlarning ijodiy faolligini va tashabbusini oshirishni yo'lga qo'yish.

Sanoat ishlab chiqarishini erkinlashtirish va bu tarmoqda islohotlarni chuqurlashtirish samaradorlikni oshirishning asosiy yoʻnalishi hisoblanadi.

Sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishning hal qiluvchi yoʻllaridan yana biri fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishdir. Texnik va texnologik omil mehnat unumdorligini oʻstirishning kamida uchdan ikki qismini taʼminlaydi.

Maʼlumki, iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlarida texnika taraqqiyotining xarakteri va mazmuni oʻz xususiyatlariga ega boʻladi. Masalan, bozor iqtisodiyotiga oʻtish natijasida fan-texnika taraqqiyoti undagi miqdoriy oʻzgarishlargagina emas, balki koʻproq sifat oʻzgarishlariga qaratiladi. Umuman, samaradorlik iqtisodiyotdagi sifat oʻzgarishlari bilan bogʻliqdir, bu talab fan-texnika taraqqiyotiga ham toʻliq joriy etiladi.

Sanoat ishlab chiqarishi ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini yuqori darajaga koʻtarishda inson omilining roli beqiyosdir. Insonlarning tashabbusi, kuch-gʻayrati, jonli ijodiyoti har qanday taraqqiyotning kudratli kuchi va eng muhim manbai hisoblanadi. Shu sababli ham insonni jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi deb aytadilar. U barcha yangiliklarni, shu jumladan, yangi, ilgʻor texnika-texnologiyalarni yaratadi, ishlab chiqarishni oqilona tashkil etadi, ilmiy va amaliy kashfiyotlar qiladi. Barcha ishlab chiqarish vositalari inson mehnati bilan harakatga keltiriladi, foydali narsalar hosil qilinadi. Biroq inson faqat asosiy ishlab chiqaruvchi kuchgina emas, shu bilan birga, ishlab chiqarish va boshqa ijtimoiy munosabatlarning subyekti hamdir. Odamlar faoliyati shu munosabatlar orqali ruyobga chiqadi. Bu faoliyat yoʻnalishi va natijalari xodimning oʻz faoliyatida qanday oʻy-fikrlarga, tasavvurlarga, maqsadlarga, hayotiy yoʻl-yoʻriqlarga, muddaolarga va psixologik eʼtiqodlarga amal qilishiga bogʻliq. Shu sababli inson omilining mohiyati, ahamiyati va mazmuni tahlil etilganda gap faqat inson haqidagina emas, balki avvalo, inson yashab, mehnat qilayotgan ijtimoiy munosabatlarning butun tizimi bilan belgilanuvchi

ijtimoiy sifatlar, faoliyatni rag‘batlantiruvchi omillar va muddaolar haqida borishi kerak.

1. Ishlab chiqarishning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligi muhim kategoriya sifatida, umuman olganda, ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini, erishilgan natija bilan jonli va buyumlashgan mehnat o‘rtasidagi nisbatlarni o‘rganadi.

2. Sanoat ishlab chiqarishi samaradorligining doimiy oshib borishi obyektiv zarurat hisoblanadi va milliy daromadning keskin ko‘payishiga imkoniyat yaratib beradi.

3. Samaradorlik umumiy nazariyasida mezon muammosi, ya‘ni baholash o‘lchovi, asosiy nuqtai nazar masalasi alohida o‘rin egallaydi.

Jami ijtimoiy mehnatni tejash, uning unumdorligi o‘sishi samaradorlikning mezoni hisoblanadi.

4. Iqtisodiy hisoblash va tahlil tajribasida ikki xil samaradorlikni farqlaydilar. Birinchi – bu umumiy (mutloq) samaradorlik, ikkinchisi-qiyosiy samaradorlik.

5. Sanoat ishlab chiqarishi samaradorligining darajasi turli xil o‘zaro bir biri bilan bog‘liq omillar ta’siri ostida shakllanadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Samaradorlik tushunchasi, uning turlari, mezoni va ko‘rsatkichlari.
2. Mutlaq iqtisodiy samaradorlik va uni hisoblash usuli.
3. Ishlab chiqarishning qiyosiy-iqtisodiy samaradorligi.
4. Ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi omillar.
5. Sanoat ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo‘llari.

### **Test topshiriqlari:**

**1. Ishlab chiqarish-texnik vazifani hal etishning biror variantining ijtimoiy-iqtisodiy afzalligini asoslab berish, taqdim etilgan variantlardan eng samaraligini tanlab olish maqsadida aniqlanadigan samaradorlik qanday samaradorlik deb ataladi?**

- A) qiyosiy samaradorlik;
- B) iqtisodiy samaradorlik;
- C) umumiy samaradorlik;
- D) tanlangan samaradorlik.

**2. Qo‘shimcha kapital mablag‘larning qiyosiy samaradorlik koefitsienti qanday aniqlanadi?**

- A) bu inson mehnatining muayyan vaqt ichida ozmi-ko‘pmi mahsulot ishlab chiqarish qobiliyatiga nisbati bilan aniqlanadi;
- B) tannarxni pasaytirishdan olingan tejamning qo‘shimcha kapital mablag‘lar miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi;
- C) bu mahsulot birligiga ketadigan va unda ifodalanadigan moddiy resurslarga nisbati bilan aniqlanadi;
- D) bevosita sarf bo‘yicha, to‘la sarf bo‘yicha hamda umumiy ijtimoiy mahsulot yoki milliy daromad qiymatiga nisbati bilan aniqlanadi.

**3. Korxonada samarali faoliyat yuritadi, qachonki:**


- A) majburiyatlar bo‘yicha qarzlarni yo‘qligi;
- B) eksport imkoniyatlari yuqori bo‘lganda;
- C) resurslardan to‘liq foydalanilganda;
- D) ustav kapitalini ko‘payishi hisobiga.

## VII BOB. KORXONALARNING ASOSIY FONDLARI VA ISHLAB CHIQRISH QUVVATI

### 7.1. Asosiy fondlarning mohiyati va ularning korxonada faoliyatidagi o'rnini

Zamonaviy iqtisodiyot fani **asosiy fondlarni** ma'lum bir iste'mol qiymati ko'rinishida ijtimoiy mehnat asosida yaratiluvchi, ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan material omillari qatoriga kiritadi. Hozirgi bozor sharoitlarida korxonada kuchi va vositalari yordamida yaratilgan asosiy fondlar ishlab chiqarish quvvatlarini shakllantirish va ulardan foydalanishga faol ravishda ta'sir ko'rsatuvchi mulk hisoblanadi. Butun xalq xo'jaligi miqyosida asosiy fondlar mamlakatning milliy boyligini tashkil qiladi.

**Asosiy fondlar** korxonada ishlab chiqarish vositalarining bir qismi bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt ishtirok etada va o'zining natural-moddiy holatini yo'qotmaydi hamda o'z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotlarga qismlab o'tkazib beradi. Asosiy fondlar qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga o'tkazish jarayoni amortizatsiya deb, ushbu jarayonda to'plangan mablag'lar esa *amortizatsiya ajratmalari* deb ataladi.




**1-chizma. Asosiy fondlar klassifikatsiyasi.**

Asosiy ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarishda band bo'lgan barcha mutaxassis va xodimlar soni bilan birgalikda, **korxonaning** ishlab chiqarish apparati deb ataladi.

**Noishlab chiqarish asosiy vositalari** korxonada asosiy fondlarining ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmaydigan qismi bo'lib, shu sababli o'z qiymatini tayyor mahsulotga o'tkazmaydi. Bular qatoriga asosan korxonada balansida turuvchi turar joy (uy-joy fondi), oshxona, profilaktoriya, klub, bolalar bog'chasi va yashilar, sport-sog'lomlashtirish va boshqa obyektlar kiritiladi. Madaniy-maishiy va sog'lomlashtirish yo'nalishidagi noishlab chiqarish asosiy fondlari ishlab chiqarish asosiy fondlari bilan foydalanish muddati, natural shaklning saqlanishi, o'z qiymatini sekin-asta yo'qotishi kabi ko'p jihatlari bilan o'xshashdir.

Korxonada asosiy vositalarining tarkibini quyidagi 2-chizma ko'rinishida aks ettirish mumkin.



**2-chizma. Korxonaning asosiy vositalarining tarkibi.**

Mehnat predmetiga o‘tkazuvchi ta’siriga ko‘ra, asosiy ishlab chiqarish fondlari **aktiv** va **passiv** turlarga bo‘linadi. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining passiv turiga bino va inshootlar, aktiv turiga esa quvvat mashina va uskunalari, ishchi mashina va uskunalari, transport vositalari, texnologik liniyalar, ya’ni biron-bir turdagi mahsulot yaratishda foydalaniluvchi mehnat qurollari kiritiladi.

Korxonaning aktiv asosiy ishlab chiqarish fondlari eng harakatchan va ahamiyatli hisoblanadi. Fan-texnika taraqqiyoti davomida ko‘plab korxonalarda aktiv ishlab chiqarish fondlarining salmog‘i ortadi, ularning tarkibi va ko‘rinishi o‘zgaradi, asosiy fondlar guruh va turlarining ma’naviy eskirish tufayli almashinish sur’ati tezlashadi.



Ishlab chiqarish miqyosining o‘shishi va boshqa ijobiy o‘zgarishlar sharoitlarida, ba’zan korxonaning asosiy fondlari, jumladan, ishchi mashinalar va uskunalar, ishlab chiqarish binolari, qurilmalar va hokazolar yetmay qoladi. Bunday hollar ro‘y berganda korxonada shartnoma asosida o‘ziga kerakli bo‘lgan asosiy fondlarni yollaydi va ular ijaraga olingan hisoblanadi. Ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi o‘rtasida yuzaga keluvchi mulk munosabatlari **lizing** deb ataladi (ingl. *Lease* – ijara).

Asosiy fondlarning umumiy hajmida alohida guruhlarining qiymat bo‘yicha o‘zaro nisbati *asosiy fondlarning turlar bo‘yicha tuzilmasini* aks ettiradi hamda amaliyotda foizlarda o‘lchanadi. Korxonada asosiy ishlab chiqarish fondlari tuzilmasining, birinchi o‘rinda uning aktiv qismini – mashina va asbob-uskunalarini ko‘paytirishga yo‘naltirilgan takomillashtirishdan manfaatdor bo‘lishi lozim. Ularning ulushi qanchalik yuqori bo‘lsa, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdori shunchalik katta bo‘ladi va aksincha.

Korxonada asosiy fondlarining turlar bo‘yicha tuzilmasi, ko‘p jihatdan kapital qo‘yilmalarning texnologik tuzilmasi orqali, jumladan, ularning yangi qurilish va qayta ta’mirlash, amaldagi ishlab chiqarishni kengaytirish va qayta qurollantirish bilan avvaldan belgilab qo‘yilgan bo‘ladi. Asosiy fondlarning turlar bo‘yicha tuzilmasiga ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va konsentratsiya qilish darajasi ham katta ta’sir o‘tkazadi. Yirik korxonalar, ishlab chiqarishni fondlar bilan ta’minlashda va fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan keng foydalanishda kichik va o‘rta korxonalar qaraganda ko‘proq imkoniyatga ega. Biroq kichik korxonalar harakatchanroq, ularning boshqaruvi moslashuvchanroq bo‘lib, natijada ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish osonroq kechadi.

«Korxonada iqtisodiyoti»ga **ekspluatatsiya qilinayotgan asosiy fondlarning yoshi**, birinchi o‘rinda mashina va asbob-uskunalarining yoshi katta ta’sir ko‘rsatadi. Hozirgi paytda mashina va sanoat uskunalari yosh bo‘yicha guruhlashda taxminan quyidagi muddatlardan kelib chiqiladi: 5 yilgacha, 5 yildan 10 yilgacha, 10 yildan 15 yilgacha, 15 yildan 20 yilgacha, 20 yildan 25 yilgacha va hokazo.

Mashina va uskunalarning ekspluatatsiya muddati qanchalik yuqori bo'lsa, korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari shunchalik past bo'ladi, mahsulotlar sifati pasayadi, bekor turib qolish va talofatlar ko'payadi hamda aksincha. Bundan tashqari, korxonada asbob-uskunalaridan uzoq vaqt mobaynida foydalanilganida ta'mirlash uchun ham ko'p xarajatlar sarflanadi.

## **7.2. Korxonalarda asosiy fondlarni eskirishi, ularni baholash va ta'mirlash**

Xo'jalik amaliyotida asosiy fondlar natural va qiymat ko'rinishida hisobga olinadi. Agar asosiy fondlarni *natural baholash* – ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish va zamonaviylashtirish masalalarini hal qilish, asbob-uskunalarini ta'mirlash uchun ularning guruh va turlari bo'yicha grafiklar tuzish, shuningdek, ta'mirlash vositalariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash imkonini bersa, *qiymat bo'yicha baholash* esa, asosiy fondlarni qayta ishlab chiqarishni rejalashtirish, ularning mavjud hajmini aniqlash, amortizatsiya hajmini belgilash, asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini tahlil qilish va hokazolarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy fondlarni baholashning quyidagi usullari mavjud: **boshlang'ich qiymat bo'yicha** – asosiy vositalarni yaratish yoki sotib olish uchun sarflangan xarajatlar majmuidan iborat bo'lib, asosiy fondlar yoki ularning alohida qismlarini foydalanishga topshirish uchun yaroqli holga keltirish bilan bog'liq bo'lgan ularni keltirish, o'rnatish kabi xarajatlarni hisobga olgan holda yuzaga keluvchi qiymat.

Masalan, bitta mashina yoki uskunaning boshlang'ich qiymati – korxonaning mazkur mashina yoki uskunani ma'lum bir sanada sotib olgan va bu haqda buxgalteriya hujjatlarida qayd qilingan sotib olish narxidir.

**Tiklanish qiymati bo'yicha** – asosiy fondlar yoki ularning biron-

bir qismini (binolar, qurilmalar, mashinalar, ishlab chiqarish uskunalari va hokazo) hozirgi paytdagi inflyatsiya va boshqa omillarni hisobga olgan holda baholash. Baholashning bu usuli obyektning hozirgi paytdagi qayta ishlab chiqarish davrida qancha turishini ko'rsatadi. Korxonalar asosiy fondlarining tiklanish qiymati, taftish va inventarizatsiya paytida, mamlakat miqyosida va davlat chora-tadbiri sifatida esa, asosiy fondlarni qayta baholash paytida amalga oshiriladi.

**Qoldiq qiymati bo'yicha** – asosiy fondlarning eskirishini inobatga olgan holda, birlamchi va qayta tiklash qiymatlari o'rtasidagi farq ko'rinishidagi baholashdir. Boshqacha qilib aytganda, bu asosiy fondlarning ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga hali o'tkazilmagan qismidir. Korxonalar tomonidan foydalanilmaydigan hamda hisobdan chiqarish yoki sotib yuborish mo'ljallangan asosiy fondlar ham, ko'pincha qoldiq qiymati bo'yicha, mazkur xo'jalik yilidagi narxlarda baholanadi.

Asosiy fondlarning qoldiq qiymati quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$AFqq = Bq + Kt * \frac{Ay * Db * T}{100}$$

$Bq$  – asosiy fondlarning boshlang'ich qiymati;


$AFqq$  – asosiy fondlarning qoldiq qiymati;

$Kt$  – asosiy vositalarning butun foydalanish muddati uchun kapital ta'mirlash xarajatlari;

$Ay$  – yillik amortizatsiya normasi, %;

$T$  – asosiy fondlarning ekspluatatsiya davri, yillar.

Korxonalar asosiy fondlarini baholashning turlarini quyidagi chizma ko'rinishda aks ettirish mumkin. (3-chizma)



**3-chizma. Asosiy fondlarning baholanishi**

Iqtisodiyotning globallashuvi hamda hisob va hisobotlarning mukammallashuvi, jumladan, milliy hisob standartlarining jahon standartlari talablari darajasiga keltirilishi tufayli, garchi asosiy vositalar, asosiy fondlarning pul ko‘rinishidagi ifodasi sifatida avvaldan qo‘llanib kelgan bo‘lsada, hayotimizga “asosiy kapital”, “asosiy vositalar” kabi atamalar endilikda keng ravishda kirib kelmoqda.

Hozirgi kunda amaliyotda asosiy vositalarning korxonada aks ettiriluvchi va hisobotlarida aks ettiriluvchi (ya’ni boshlang‘ich, belgilangan tartibda o‘tkaziluvchi qayta baholashdan keyin esa tiklanish), hisobga olish qiymati **balans qiymati** deb ataladi. Bundan asosiy vositalarning qoldiq qiymatini asosiy vositalarning balans qiymatidan eskirish summasini ayirib tashlash yordamida topish mumkinligi anglashiladi.

Qabul qilingan baholash usuli va korxonada aks ettiriluvchi buxgalteriya hisoboti ma’lumotlari asosida, **korxonada asosiy ishlab chiqarish fondlarining o‘rtacha yillik qiymati** ( $F_{o'r}$ ) belgilanib, u quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$F_{o'r yil} = F_b + \frac{F_k * T_1 - F_{ch} * T_2}{12}$$

Bu yerda,  $F_b$  – asosiy ishlab chiqarish fondlarining yil boshidagi qiymati;

$F_k$  – yil davomida kelib tushgan (foydalanishga topshirilgan) asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati;

$F_{ch}$  – yil davomida ishlab chiqarishdan chiqarilgan (yo‘q qilingan) asosiy fondlar qiymati;

$T_1$  – foydalanishga topshiriluvchi asosiy ishlab chiqarish fondlari amalda bo‘luvchi o‘rtacha muddati (oylarda), qabul qilingandan keyingi oydan boshlab;

$T_2$  – ishlab chiqarishdan chiqarilgan (yo‘q qilingan) asosiy ishlab chiqarish fondlari foydalanilmaydigan o‘rtacha muddat (oylar) chiqarilgan oydan to yil oxirigacha).

Asosiy fondlarni boshlang‘ich yoki tiklanish qiymati bo‘yicha baholashdan tashqari eskirish summasi ham hisobga olinadi. Asosiy fondlar jismoniy va ma‘naviy jihatdan eskirishi mumkin.

*Jismoniy (moddiy) eskirish* asosiy fondlarning birlamchi xislatlarini ishlab chiqarishda foydalanish va tabiiy eskirish natijasida yo‘qotishdan yuzaga keladi. U asosan bir xilda kechmaydi hamda ko‘p jihatdan iqlimning ta‘siri, asosiy fondlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish, jumladan, xodimlarning malakasiga ham bog‘liq bo‘ladi.

Jismoniy eskirishni ( $J_{es}$ ) quyidagi formula asosida hisoblab topish mumkin:

$$J_{es} = \frac{T_h}{T_m} * 100 \quad \text{yoki} \quad J_{es} = \frac{E}{B_q} * 100$$

Bu yerda:  $T_h$  – asosiy fondlarning haqiqiy xizmat qiluvchi muddati;

$T_m$  – asosiy fondlar xizmat qilishi kerak bo‘lgan me‘yoriy muddat;

$E$  – hisoblangan amortizatsiya summasi (eskirish summasi);

$B_q$  – asosiy fondlarning boshlang‘ich (qayta tashkil qilish) qiymati.

*Ma‘naviy eskirish* – asosiy fondlarning qadrsizlanishi yoki texnik

jihatdan muddatidan avval ish qobiliyatini yo‘qotilishidir. U ikki shaklda yuzaga keladi: birinchi shaklda – asosiy fondlar ularning ishlab chiqarish qiymatlari pasayishi natijasida qadrsizlansa; ikkinchi shaklda – asosiy fondlarning qadrsizlanishi yangi, fan-texnika taraqqiyoti ta’siri ostida, yanada samaraliroq fondlarning paydo bo‘lishi natijasida ro‘y beradi. Asosiy fondlar ma’naviy eskirishining yuqorida keltirilgan shakllarini quyidagi tarzda aniqlash mumkin: Birinchi holda:

$$Me = \frac{Bq - Tq}{Bq} * 100$$

ikkinchi holda esa:

$$Me = \frac{Uyat - Bq}{Uyat} * 100$$

Bu yerda:  $B_q$  – asosiy fondlarning to‘liq boshlang‘ich qiymati;

$T_q$  – asosiy fondlarning tiklanish qiymati;

$U_{yat}$  – yangi texnikaning unumdorligi.

Asosiy fondlarni qayta ishlab chiqarish, ya’ni jismoniy va ma’naviy jihatdan eskirgan asosiy fondlarning o‘rmini iqtisodiy to‘ldirish uchun korxonalar bu vositalar qiymatidan *amortizatsiya ajratmalarini* ayirib tashlaydi hamda bu ajratmalar keyinchalik xarajatlar sifatida mahsulot tannarxiga kiritiladi.

Amortizatsiya ajratmalari quyidagi formula asosida aniqlanuvchi amortizatsiya me’yorlari ( $A_m$ ) asosida amalga oshiriladi:

$$Am = \frac{A}{Bq} * 100$$

Bu yerda:  $A$  – amortizatsiya ajratmalari;

$B_q$  – asosiy fondlarning to‘liq boshlang‘ich qiymati.

Yillik amortizatsiya ajratmalari ( $A_a$ ) miqdori quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$Aa = \frac{Bq + Tk + M - Q(L)}{T}$$

Bu yerda:  $T_k$  – asosiy fondlar xizmat qilgan muddat davomida kapital ta'mirlashga sarflangan xarajatlar;

$M$  – uskuna, mashina va qurilmalarni, ular xizmat qilgan davr mobaynida modernizatsiya qilishga sarflangan xarajatlar;

$Q(L)$  – asosiy fondlarning qoldiq (likvidatsion) qiymati;

$T$  – asosiy fondlarning xizmat qilish muddati, yil.

Amalda amortizatsiya mablag'lari asosiy fondlarni to'liq qayta tiklash (renovatsiya), kapital ta'mirlash va uskunalarni modernizatsiya qilish uchun alohida ravishda yo'naltiriladi. Bundan kelib chiqqan holda amortizatsiya me'yori ikki qismdan – fondlarni renovatsiya qilish ( $N_v$ ) hamda kapital ta'mirlash va modernizatsiya qilish ( $N_r$ ) uchun ajratiluvchi mablag'dan iborat bo'ladi.

Birinchi holda amortizatsiya me'yori quyidagi formula:

$$N_v = \frac{Bq - Q(L)}{Tk * Bq} * 100$$

ikkinchi holda esa:

$$N_r = \frac{Tk + M}{T * Bq} * 100$$

asosida aniqlanadi

Ishlab chiqarish jarayonida asosiy fondlar asta-sekinlik bilan eskirishi sababli, ularning ish qobiliyatini ta'mirlash orqali tiklash zaruriyati tug'iladi. O'z vaqtida ta'mirlash asosiy fondlar muddatidan oldin ishdan chiqishining oldini oladi hamda ularning xizmat qilish muddati va unumdorligini oshiradi. Asosiy fondlarni ta'mirlash kapital, o'rta va joriy turlarga bo'linadi. Bino va inshootlarni ta'mirlash o'z mazmuni, talab qilinuvchi muddat va mablag'larga ko'ra, mashina va uskunalarni ta'mirlashdan farq qiladi.

Masalan, mashina va asbob-uskunalarni **kapital ta'mirlashda** ular

to'liq qismlarga bo'linadi va eskirgan qismlar almashtiriladi. Uskunalar ni ikki marta kapital ta'mirlash orasidagi muddat *ta'mirlash sikli* deb ataladi. Mashina va uskunalar, qoidaga ko'ra, maxsus zavodlarda ta'mirlanadi.

**O'rtacha ta'mirlash** texnik mazmuni, murakkabligi, bajariladigan ish hajmi va davriyligiga ko'ra, kapital ta'mirlashdan farq qiladi hamda sarflanuvchi mablag', vaqt va kuchni nisbatan kamroq talab etadi. Joriy ta'mirlash kabi u ham mashina yoki uskunadan foydalanuvchi korxonaning o'zida amalga oshirilishi mumkin.

**Joriy ta'mirlashda** asosan, asbob-uskunalar tozalanadi, moylanadi, tekshiriladi, mayda kamchiliklari bartaraf qilinadi, ya'ni uskunalarining foydalanishga doimiy tayyorligi ta'minlanadi.

Asosiy fondlarni ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish majmuasi *rejali-oldini oluvchi ta'mirlash tizimiga (ROOT)* birlashtiriladi va korxonada bosh mexanigi tomonidan boshqariladi. Deyarli har bir korxonada ROOT o'tkazilishini qayd qilish jurnallari mavjud bo'lib, ularda profilaktika va ta'mirlash tadbirlarini o'tkazish tartibi va grafigi belgilab qo'yiladi.

Ta'mirlash ishlari tufayli korxonada asosiy fondlarning joriy ekspluatatsiyaga tayyorligini ta'minlaydi. Biroq shu bilan bir qatorda korxonada asosiy fondlarni yaratish, foydalanish, amortizatsiya, qayta tiklash kabi bosqichlarni o'z ichiga oluvchi takror ishlab chiqarish amallarini doimiy ravishda bajarishga intilishi lozim. Bu bosqichlarni quyidagi chizma yordamida aks ettirish mumkin

Takror ishlab chiqarish siklida asosiy fondlarni yaratish jarayoni korxonadan tashqarida amalga oshiriladi hamda asosan qurilish sohasi, mashinasozlik, asbobsozlik hamda asosiy fondlarni yaratish bilan shug'ullanuvchi boshqa sohalar bilan bog'liq bo'ladi. Asosiy vositalarni takror ishlab chiqarishning qolgan bosqichlari korxonada hududida amalga oshiriladi. Biroq barcha hollarda ham asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish tufayli korxonalar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda rivojlanib borayotgan bozor munosabatlari sharoitlarida iqtisodiy va texnik barqarorlikka erishishlarini ta'minlaydi.



### 7.3. Asosiy fondlardan foydalanishni yaxshilash yo‘llari va ko‘rsatkichlari

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning turli xil ko‘rsatkichlari mavjud bo‘lib, ularni shartli ravishda ikki guruhga bo‘lish mumkin:

– **birinchi guruh** – *umumlashtiruvchi* va *qiymat* ko‘rsatkichlari bo‘lib, ular asosiy fondlarning turli guruhlarini dinamika va statikada baholash, tahlil qilish, zaxiralarni aniqlash va bashorat qilish imkonini yaratadi. Bunday ko‘rsatkichlarga fond qaytimi, fond sig‘imi, fond rentabelligi va boshqalarni kiritish mumkin;

– **ikkinchi guruh** – *xususiy* va *natural* ko‘rsatkichlar bo‘lib, ko‘proq asosiy ishlab chiqarish fondlarining faol qismi – ishchilar, mashina va asbob-uskunalardan foydalanish bilan bog‘liq.

Ko‘rsatkichlarning bu guruhi tarkibiga quyidagilar kiradi:

- asosiy ishlab chiqarish fondlari (mashina va asbob-uskunalar) dan ekstensiv foydalanish koeffitsienti, ulardan vaqt bo‘yicha foydalanilganlik darajasini aks ettiradi;

- asosiy ishlab chiqarish fondlari (mashina va asbob-uskunalar) dan intensiv foydalanish koeffitsienti, ulardan quvvat bo‘yicha foydalanilganlik (unumdorlik) darajasini aks ettiradi;

- asosiy ishlab chiqarish fondlaridan integral foydalanish koeffitsienti, barcha ekstensiv va intensiv omillardan birgalikda foydalanishni hisobga oladi.

Ko‘rsatilgan ko‘rsatkichlarning har biri amaliyotda mustaqil ma’noga ega bo‘lib, turli maqsadlarga erishish uchun foydalaniladi. Masalan, asosiy ishlab chiqarish fondlaridan vaqt bo‘yicha qanday foydalanilganligini (ekstensiv foydalanish) baholash asbob-uskunalarining smenalik koeffitsienti, uskunalarni koeffitsienti, smena davomida uskunalarning bekor turib qolishi, uskunalardan smenalarda foydalanish koeffitsienti kabi ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi.

Asbob-uskunalardan ekstensiv foydalanish koeffitsienti mazkur uskunalardan amalda haqiqiy foydalanilgan vaqtning ulardan reja

bo'yicha foydalanish muddatiga nisbati orqali aniqlanadi.

$$\mathbf{Keks} = \frac{\mathbf{thaq}}{\mathbf{trej}}$$

Bu yerda,  $t_{\text{haq}}$  – uskunalardan haqiqiy foydalanilgan vaqt, soatlar;  
 $t_{\text{rej}}$  – uskunalarining me'yorga asosan foydalanish muddati, soatlar.

**Misol.** Agar 8 soatlik smena mobaynida ta'mirlash uchun 1 soat rejalashtirilib, amalda 5 soat sarflangan bo'lsa, u holda ekstensiv foydalanish koeffitsienti 0,71 ( $5(8-1)$ ) ni tashkil qiladi. Bu esa asbob-uskunalaridan smena davomida faqat 71 % foydalanilganligini anglatadi.

Korxonalarda bunday uskunalarining bir emas, bir nechta – o'nta yoki yuztasidan foydalaniladi. Shu munosabat bilan uskunalarining smenalik koeffitsienti sutka davomida mashina-smenalarning o'rnatilgan uskunalarining umumiy soni yoki ishchi o'rinlariga nisbatini aniqlash zaruriyati tug'iladi. Bu holda smenalilik koeffitsienti quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\mathbf{Ks} = \frac{\mathbf{MS}}{\mathbf{Aa.u}}$$

Bu yerda, MS – sutka davomida haqiqiy ishlangan mashina-smenalar yig'indisi;

$A_{a.u.}$  – o'rnatilgan asbob-uskunalarining umumiy soni.

**Misol.** Korxonada 200 dona metall qirquvchi stanok sutka mobaynida 360 mashina-smena, 60 ta temir presslovchi stanok 50 mashina-smena, 40 ta quyuv stanoklari esa 30 mashina-smena ishlagan. Ushbu holda barcha stanoklardan foydalanishning smenalilik koeffitsienti quyidagicha topiladi:

$$\mathbf{Ksm} = \frac{\mathbf{360 + 50 + 30}}{\mathbf{200 + 60 + 40}} = \mathbf{1,47}$$

Uskunalarining smenalilik koeffitsientini aniqlashning yana bir yo'li bo'lib, unga ko'ra korxonalarining bir emas, ikki yoki uch smenada

ishlashi va bunda uskunalarning barchasidan ham to‘liq foydalanilmasligi ko‘zda tutiladi. Masalan, sexda 270 dona uskuna o‘rnatilgan bo‘lib, birinchi smenada ulardan 200 tasi, ikkinchi smenada esa 190 tasi ishlagan. Bu holda uskunalarning smenalilik koeffitsienti 1,44  $(200+190)/270$  ni tashkil qiladi.

**Uskunalarni yuklanish koeffitsienti** ham uskunalardan vaqt bo‘yicha foydalanishni tavsiflaydi. Smenalilik koeffitsientidan farqli ravishda, u mahsulotning mehnat sig‘imini hisobga oladi. U mazkur uskunada tayyorlangan barcha mahsulotlar mehnat sig‘imining uning ishlash vaqti fondiga nisbati orqali aniqlanadi. Mazkur misolda ushbu koeffitsient quyidagicha bo‘ladi:

$$K_{yu} = \frac{1,44}{2} = 0,72$$

Korxonada asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni to‘liq baholash uchun ekstensiv ko‘rsatkichlardan tashqari, ularning quvvat bo‘yicha yuklanish tabiatini o‘rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yerda yuqorida aytib o‘tilganidek, texnologik uskunalarni amaldagi unumdorligining, ya‘ni texnik asoslangan progressiv unumdorlikning me‘yoriy unumdorlikka nisbati asosida, ya‘ni uskunalarning intensiv foydalanish koeffitsientidan foydalanish, uni quyidagi formula bo‘yicha hisoblash mumkin:

$$K_{int} = \frac{ICh_{haq}}{ICh_m}$$

Bu yerda,  $ICh_{haq}$  – vaqt birligida uskunada ishlab chiqarilgan haqiqiy mahsulot miqdori;

$ICh_m$  – vaqt birligida uskunada texnik jihatdan asoslangan mahsulot ishlab chiqarish me‘yori.

**Misol.** Pasport ma‘lumotlari bo‘yicha dastgohda bir soatda 100 ta detal yasash mumkin, amalda esa shu vaqt ichida faqat 80 ta detal tayyorlandi. U holda  $K_{int} = 0,8$  (80:100), ya‘ni dastgohdan quvvat bo‘yicha foydalanish 80 foizni tashkil qildi.

**Uskunadan integral foydalanish koeffitsienti** uskunadan ekstensiv

va intensiv foydalanish koeffitsientlarining ko'paytmasi orqali aniqlanib, uning vaqt va quvvat bo'yicha band bo'lishini (foydalanilishini) majmuaviy tavsiflaydi.

Bizning misolimizda  $K_{eks} = 0,71$  va  $K_{int} = 0,8$  bo'lganligi tufayli, uskunadan integral foydalanish koeffitsienti quyidagiga teng bo'ladi:

$$K_{integ} = K_{eks} * K_{int} = 0,71 * 0,8 = 0,57$$

Korxonaning asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning umumiy va qiymat ko'rsatkichlari nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, avvalo, **fond qaytimi** haqida to'xtalib o'tish kerak. U asosiy fondlar birligiga (qiymati bo'yicha) to'g'ri kelgan mahsulot ishlab chiqarishni tavsiflaydi.

U mahsulot sotishdan tushgan bir yillik tushumning (T) asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$Fq = \frac{Tm}{AFo'r.yil}$$

Mahsulotning fond sig'imi – fond qaytimiga teskari qiymat bo'lib, quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$Fs = \frac{AFo'r.yil}{Tm}$$

Fond sig'imi kapital qo'yilmalari (investitsiyalar)ni tejash yoki ko'paytirish bilan uzviy ravishda bog'liq bo'ladi. Masalan, mahsulot fond sig'imi pasayib, uning ishlab chiqarish hajmi doimiy yoki o'suvchi bo'lganda asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish sharoitlari yaxshilanadi, demak, kapital qo'yilmalarini tejash uchun imkoniyat tug'iladi. Uni topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$Ik = Fs * Tm$$

Bu yerda,  $I_k$  – kapital qo'yilmalarni tejash, so'm;

$F_s$  – hisobot yilida mahsulot fond sig'imining o'tgan yildagiga

nisbatan o‘zgarishi, so‘m.

$T_m$  – Mahsulot ishlab chiqarish hajmi.

Har bir korxonada o‘z tasarrufidagi asosiy ishlab chiqarish fondlaridan iloji boricha unumli foydalanishga intilishi lozim. Bunga fondlarni ish bilan ta‘minlashni yaxshilash tufayli ishlab chiqarish va mahsulotlarni sotish hajmini oshirish, nisbiy xarajatlarni kamaytirish, foydani oshirishdan tashqari asosiy fondlarda jamiyatning o‘tmishda narsa holiga aylangan mehnati mujassamlanganligi ham zarurat tug‘diradi.

Korxonada asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilashning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- smena davomida uskunalar bekor turib qolishini qisqartirish va uning oldini olish;
- uskunalarning smenalik koeffitsientini oshirish;
- bekor turuvchi uskunalarni qisqartirish va tugatish;
- ta‘mirlash va profilaktika tadbirlarini o‘z vaqtida va sifatli ravishda amalga oshirish;
- uskunalarni ekspluatatsiya qiluvchi xodimlarning malakasini oshirish;
- ishlab chiqarishni tashkil etishni va resurslar bilan ta‘minlashni yaxshilash.

#### **7.4. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati**

Asosiy ishlab chiqarish fondlari hajmi va ulardan foydalanish darajasi korxonaning ishlab chiqarish quvvati kattaligini belgilaydi. U ishlab chiqarish dasturini asoslashda katta rol o‘ynaydi hamda korxonaning belgilangan nomenklatura va sifatli mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha salohiyat imkoniyatlarini tavsiflaydi.

Bundan kelib chiqadiki, **ishlab chiqarish quvvati** – ma‘lum bir vaqt davomida ilg‘or texnologiyalardan foydalanish, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning ilg‘or sharoitlarida ishlab chiqarish mumkin bo‘lgan mahsulotlarning maksimal darajasidir. U qoidaga ko‘ra, ishlab

chiqarilgan mahsulotlar hajmining natural ko‘rinishda, ushbu korxonaning ixtisoslashganligi va mahsulotning alohida turlari o‘rtasidagi o‘zaro nisbatiga ko‘ra aniqlanadi.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati ilg‘or (asosiy) sexlar quvvati bilan, sexlar quvvati bosh uchastkalar quvvati bilan, uchastkalar quvvati esa bosh uskunalar quvvatiga asosan aniqlanadi. Korxonada ishlab chiqarish quvvati kattaligini belgilab beruvchi ko‘rsatkichlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- \* uskunalar tarkibi va turlar bo‘yicha soni;
- \* uskuna, agregat va dastgohlardan foydalanishning texnik-iqtisodiy me‘yorlari;
- \* uskunalarning ishlash vaqti fondi;
- \* ishchilar soni;
- \* ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi va assortimenti (turlari va xilma-xilligi).

Korxonada ishlab chiqarish quvvatining *boshlang‘ich* (yil boshida), *yakuniy* (yil oxirida), *o‘rtacha* yillik hamda *loyiha quvvati* turlari mavjud. Loyiha quvvati qurilish loyihasida ko‘zda tutilgan bo‘ladi. qayta tiklash, kengaytirish va texnik jihatdan qayta qurollantirish davomida loyiha quvvati kattalashtirilishi mumkin. Shu sababli amaliyotda loyiha quvvati ko‘pincha korxonaning amaldagi quvvati bilan solishtiriladi. Korxonaning amaldagi quvvati korxonada ishlab chiqarish dasturini tayyorlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Korxonada ishlab chiqarish quvvatini aniqlashda zaxiradagi uskunalardan tashqari, barcha o‘rnatilgan uskunalar hisobga olinadi. Ba‘zi bir sexlarda (yig‘uv, quyuv va boshqa sexlarda) ishlab chiqarish quvvati ishlab chiqarish maydonlariga asosan hisoblanadi.

Ishlab chiqarish quvvatini aniqlashda mahsulot birligiga sarflanuvchi vaqt me‘yori yoki har bir uskunaning unumdorlik me‘yorlari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular ilg‘or hamda progressiv bo‘lishi talab qilinadi.

Korxonada bosh bo‘g‘inining (asosiy sexining) ishlab chiqarish quvvati quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$Q = \frac{n * F_{maks}}{M_s}$$

Bu yerda,  $K$  – sex yoki uchaskaning qabul qilingan o‘lchov birligidagi ishlab chiqarish quvvati;

$n$  – sex yoki uchastkadagi ilg‘or uskunalar soni;

$F_{maks}$  – yetakchi uskunadan foydalanish mumkin bo‘lgan maksimal ish vaqti fondi soat;

$M_s$  – yetakchi uskunada mahsulot tayyorlashning progressiv mehnat sig‘imi, me‘yori, soat.

Amaliyotda ishlab chiqarish quvvati va uskunalarning yuklanishini hisoblashda ba’zida xatolar, ular o‘rtasidagi farqni sezmaslik hollari ham uchrab turadi. Korxonada quvvati asosiy ishlab chiqarish fondlari, yangi texnika va aniqlangan zaxiralardan foydalangan holda mahsulot ishlab chiqarish mumkin bo‘lgan maksimal darajani tavsiflaydi, uskunalarning yuklanishini hisoblash natijalari esa, ushbu quvvatlardan rejadagi davrda foydalanishning darajasini aniqlaydi.

Demak, ular o‘rtasidagi prinsipial farq shundaki, birinchi holatda korxonada ishlab chiqarishi mumkin bo‘lgan mahsulotlarning maksimal darajasi aniqlansa, ikkinchi holda mazkur davr mobaynida uskunalar qanchalik foydalanilishi aniqlanadi.

Ishlab chiqarish dasturining korxonada mavjud bo‘lgan quvvatlarga mos kelishini aniqlash uchun, *o‘rtacha yillik ishlab chiqarish quvvati* hisoblab topiladi. Uni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$Q_{o'r.yil} = Q_{y.b.} + \frac{Q_{kir} * n_1}{12} - \frac{Q_{chiq} * n_2}{12}$$

Bu yerda,  $Q_{o'r.yil}$  – korxonaning o‘rtacha yillik quvvati;

$Q_{y.b.}$  – korxonaning yil boshidagi quvvati;

$Q_{kir}$  – yil mobaynida kiritiluvchi quvvati;

$Q_{chiq}$  – yil davomida ishlab chiqarishdan chiqariluvchi (yo‘q qilinuvchi) quvvat;

$n_1$  ,  $n_2$  – ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirishdan yoki tugatilgan ishlab chiqarish quvvatlari yo‘q qilingandan to yil oxirigacha o‘tgan to‘liq oylar soni.

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilash bilan bog‘liq bo‘lgan mazkur chora-tadbirlar, ko‘pincha ishlab chiqarish quvvatlari balansini tuzish yo‘li bilan amalga oshirilib, korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari va ularni ta‘minlash manbalariga bo‘lgan ehtiyoji aniqlanadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Asosiy ishlab chiqarish fondlari deganda nimani tushunasiz?
2. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining sinflanishini sanab bering.
3. Depolar, garajlar, omborxonalar, ishlab chiqarish xonalari va laboratoriya, har xil energiya, suyuq va gazsimon moddalar uzatadigan uzatuvchi uskunalar asosiy ishlab chiqarish fondlarining sinflanishiga kiradimi ?
4. Aktiv asosiy ishlab chiqarish fondlariga nimalar kiradi?
5. Passiv asosiy ishlab chiqarish fondlariga nimalar kiradi?
6. Asosiy fondlar tuzilmasi qanday turlarga ajratiladi?
7. Amaliyotda asosiy fondlarni baholashning turlarini bilasizmi?
8. Dastlabki to‘la qiymat orqali belgilangan baho qanday aniqlanadi?
9. Qiymatini qaytadan tiklash orqali belgilangan baho qanday aniqlanadi?
10. Qolgan qiymati orqali belgilangan baho qanday aniqlanadi?
11. Korxonada asosiy ishlab chiqarish fondlarining o‘rtacha yillik qiymati (Fo‘r)ni aniqlash formulasini toping?
12. Asosiy fondlar jismoniy jihatdan eskirishi formulalarini toping va izohlab bering?
13. Asosiy fondlar ma‘naviy jihatdan eskirishi formulalarini toping va izohlab bering?
14. Amortizatsiya va amortizatsiya ajratmalari deganda nimani tushunasiz?
15. Asosiy vositalarning yillik amortizatsiya me‘yorini topish uchun



quyidagi formuladan foydalaniladi?

16. Asosiy vositaning yillik amortizatsiya summasini topish uchun: Amortizatsiyani hisoblash usullarini ayting?

17. Asosiy fondlardan foydalanishning samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni sanab bering?

### **Test topshiriqlari:**

***1. Asosiy fondlarning tarkibiga quyidagilar kiradi. Noto'g'risini aniqlang?***

- A) binolar;
- B) inshootlar;
- S) mashina va jihozlar;
- D) nomoddiy aktivlar;
- E) transport vositalari.

***2. Asosiy vositalarni baholashda quyidagi qiymatlardan foydalaniladi.***

- A) dastlabki, qayta tiklangan va eskirish qiymati;
- B) dastlabki, qayta tiklangan va o'rtacha qiymati;
- S) dastlabki, qayta tiklangan va qoldiq qiymati;
- D) dastlabki, qayta tiklangan va eskirish qiymati;
- E) dastlabki, qoldiq va eskirish qiymati.

***3. Asosiy fondlarning yil boshidagi qiymati 200 mln so'm. Aprel oyida 12 mln so'mlik asosiy fondlar olib tashlandi. 1-sentyabrda 20 mln so'mlik yangi asosiy fondlar o'rnatildi. Asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymatini hisoblang.***

- A) 210 mln so'm;
- B) 205 mln so'm;
- S) 208 mln so'm;
- D) 202,34 mln so'm;
- E) 232 mln so'm.

4. \_\_\_\_\_ hisobot davrida ishga tushirilgan asosiy vositalar qiymatining asosiy vositalarning yil oxiridagi qiymatiga nisbatiga teng.

- A) eskirish koeffitsienti;
- B) yangilanish koeffitsienti;
- S) o'sish koeffitsienti;
- D) olib tashlash koeffitsienti;
- E) asosiy fondlardan foydalanish koeffitsienti.

5. Korxonada 25 mln so'mga yangi mashina sotib oldi. Mashinani modernizatsiya qilish xarajatlari 2 mln so'm, kapital ta'mirlash xarajatlari 1,5 mln so'm va uni tugatilish bahosi 2,5 mln so'mni tashkil qiladi. Agar mashinaning xizmat qilish muddati 5 yilga teng bo'lsa amortizatsiya normasi qanchaga teng bo'ladi?

- A) 20 %;
- B) 20,8 %;
- S) 21 %;
- D) 22,34 %;
- E) 23.2 %.

6. Korxonada hisobot yilda tovar mahsulot 450 mln so'mni tashkil qildi. Asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati 124 mln so'm. Fond sig'imini hisoblang.

- A) 3,6 so'm;
- B) 2,9 so'm;
- S) 0,275 so'm;
- D) 0,285 so'm;
- E) 2,1 so'm.

7. Asosiy fondlar nima?

A) asosiy fondlar o'z qiymatini tayyor mahsulot qiymatiga asta-sekin eskirish darajasiga qarab o'tkazadi;

B) asosiy fondlar – mahsulot ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi fondlar;

S) asosiy fondlar – bu korxonaning daromadi;

D) asosiy fondlar o‘z qiymatini tayyor mahsulot qiymatiga birdaniga to‘la o‘tkazadi;

E) korxonaning foydasi.

**8. Asosiy fondlarning tarkibiga quyidagilar kiradi. Noto‘g‘risini aniqlang.**

A) binolar;

B) inshootlar;

S) mashina va jihozlar;

D) ehtiyot qismlar;

E) transport vositalari.

**9. Asosiy fondlarning yil boshidagi qiymati 250 mln so‘m. May oyida 10 mln so‘mlik asosiy fondlar olib tashlandi. 1 avgustda 25 mln so‘mlik yangi asosiy fondlar o‘rnatildi. Asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymatini hisoblang.**

A) 254,25 mln so‘m;

B) 285 mln so‘m;

S) 253,75 mln so‘m;

D) 252,34 mln so‘m;

E) 278,2 mln so‘m.

**10. Asosiy fondlarning yil boshidagi qiymati 200 mln so‘m. Aprel oyida 12 mln so‘mlik asosiy fondlar olib tashlandi. 1-sentyabrda 20 mln so‘mlik yangi asosiy fondlar o‘rnatildi. Asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymatini hisoblang.**

A) 210 mln so‘m;

B) 205 mln so‘m;

S) 208 mln so‘m;

D) 202,34 mln so‘m;

E) 232 mln so‘m.

**11. Hisobot davrida ishga tushirilgan asosiy vositalar qiymatining asosiy vositalarning yil oxiridagi qiymatiga nisbatiga teng.**

- A) eskirish koeffitsienti;
- B) yangilanish koeffitsienti;
- S) o‘shish koeffitsienti;
- D) olib tashlash koeffitsienti;
- E) asosiy fondlardan foydalanish koeffitsienti.

**12. Korxonada 25 mln so‘mga yangi mashina sotib oldi. Mashinani modernizatsiya qilish xarajatlari 2 mln so‘m, kapital ta‘mirlash xarajatlari 1,5 mln so‘m va uni tugatilish bahosi 2,5 mln so‘mni tashkil qiladi. Agar mashinaning xizmat qilish muddati 5 yilga teng bo‘lsa amortizatsiya normasi qanchaga teng bo‘ladi?**

- A) 20 %;
- B) 20,8 %;
- S) 21 %;
- D) 22,34 %;
- E) 23.2 %.

**13. Korxonada hisobot yilida tovar mahsulot 450 mln so‘mni tashkil qildi. Asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymati 124 mln so‘m. Fond sig‘imini hisoblang.**

- A) 3,6 so‘m;
- B) 2,9 so‘m;
- S) 0,275 so‘m;
- D) 0,285 so‘m;
- E) 2,1 so‘m.

**14. Asosiy fondlar nima?**

- A) asosiy fondlar o‘z qiymatini tayyor mahsulot qiymatiga asta sekin eskirish darajasiga qarab o‘tkazadi;
- B) asosiy fondlar – mahsulot ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi fondler;

- S) asosiy fondlar – bu korxonaning daromadi;
- D) asosiy fondlar o‘z qiymatini tayyor mahsulot qiymatiga birdaniga to‘la o‘tkazadi;
- E) korxonaning foydasi.

**15. Asosiy fondlarning tarkibiga quyidagilar kiradi. Noto‘g‘risini aniqlang.**

- A) binolar;
- B) inshootlar;
- S) mashina va jihozlar;
- D) ehtiyot qismlar;
- E) transport vositalari.

**16. Asosiy fondlarning yil boshidagi qiymati 250 mln so‘m. May oyida 10 mln so‘mlik asosiy fondlar olib tashlandi. 1-avgustda 25 mln so‘mlik yangi asosiy fondlar o‘rrnatildi. Asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymatini hisoblang.**

- A) 254,25 mln so‘m;
- B) 285 mln so‘m;
- S) 253,75 mln so‘m;
- D) 252,34 mln so‘m;
- E) 278,2 mln so‘m.

## VIII BOB. KORXONANING AYLANMA MABLAG‘LARI

### 8.1. Aylanma fondlarning mohiyati va ahamiyati

Sanoat sohasida turli mahsulotlarni tayyorlash jarayonida moddiy va moliyaviy mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojlar doimo oshib boradi. Sanoat korxonalarida asosiy fondlar bilan bir vaqtda mehnat buyumlari ham harakatda bo‘ladi. Shu sababli ular aylanma fondlar deb aytiladi.

**Aylanma fondlar** – bu ishlab chiqarish jarayonida bir marta qatnashib, o‘z qiymatini tayyor mahsulotga o‘tkazib, o‘z shaklini ham o‘zgartiradigan, butunlay yo‘qotib yuboradigan mehnat buyumlaridir.

Aylanma fondlarga ishlab chiqarish jamg‘armalari va ishlab chiqarishdagi mablag‘lar, tugallanmagan ishlab chiqarish va kelgusi davr xarajatlari kiradi.

**Ishlab chiqarish jamg‘armalari** aylanma fondlarning asosiy qismini tashkil etadi. Bu korxonalariga keltirilgan, lekin ishlab chiqarish jarayonida hali foydalanilmagan mehnat bumlari, xususan, xom-ashyo, yarim tayyor mahsulotlar, yoqilg‘i, asosiy va yordamchi materiallar, energiya, ta‘mirlash uchun ehtiyot qismlar, xo‘jalik jihozlari va tez yemiriluvchi buyumlardan iborat.

Aylanma fondlarning yana bir qismini **tugallanmagan ishlab chiqarish** tashkil etadi. Ular ishlab chiqarish jarayoniga allaqachon tushgan, lekin ishlov berish tugamagan mehnat buyumlaridir. Bularga korxonalar o‘zi yaratgan, lekin chala tayyor mahsulotlar va tugallanmagan ishlab chiqarishlar kiradi.

Aylanma fondlarning yana bir qismi **kelgusi davr xarajatlari** hisoblanadi. Ularga yangi turdagi mahsulotlarni loyihalash, tayyorlash va o‘zlashtirish, mutaxassislarni o‘qitish va qayta tayyorlash, xonalarni ijaraga olish, tog‘- sanoat korxonalariga taalluqli xarajatlardan iboratdir. Bu xarajatlarning hammasi tayyor mahsulotning tannarxiga kiritish evaziga qoplanadi.

Aylanma fondlarning tarkibi turli tarmoqlarda turlicha bo‘ladi. Masalan, umuman sanoat bo‘yicha ishlab chiqarish jamg‘armasi 64% ga

yaqin bo'lsa, elektroenergetika va issiqlik energiyasi ishlab chiqarish sohasida 56% ni, mashinasozlikda 54%, ko'mir sanoatida 33% ni tashkil etadi. Aylanma fondlarning tarkibi faqat tarmoqlarda emas, korxonalarda ham bir biridan farq qilishi mumkin. Bu ishlab chiqarishning texnikaviy darajasiga, joriy etilayotgan texnologiyaning usuliga, yo'liga, korxonani ixtisoslashtirish darajasiga, ishlab chiqarish jarayonining davomiyligiga, ishlatiladigan materiallarning tarkibiga bog'liqdir. Aylanma fondlarning tarkibini iqtisodiy tahlil etish va ularning tarkibiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularning ta'sir kuchi natijalarini topish, tarmoqlar va korxonalar taraqqiyotini belgilashga katta yordam beradi. Aylanma fondlarning tarkibini aniqlash, foydalanishni yaxshilash yo'llarini belgilash uchun moddiy balanslar tuziladi. Bu balanslar har bir tarmoq ikkinchi tarmoqqa qanday buyumlar yetkazib berishini tavsiflaydi.

## **8.2. Moddiy resurslardan samarali foydalanish masalalari**

Ijtimoiy ishlab chiqarish va uning asosiy bo'g'ini bo'lgan korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirishda moddiy resurslardan oqilona foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Moddiy resurslardan foydalanishning juda ko'p yo'llari mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

1. Moddiy resurslardan kompleks (har taraflama) foydalanish;
2. Chiqindilardan yoki ikkilamchi xomashyo va materiallardan foydalanish.

Xomashyo va boshqa aylanma fondlardan foydalanishni yaxshilash uchun dastavval fan va texnika taraqqiyotini jadallashtirish kerak. Eski texnikani yangi texnika bilan almashtirish, ayniqsa, hozirgi zamonda rivojlangan xorijiy mamlakatlar texnologiyasini joriy etish zarur. Bu borada hozirgi paytda respublikada anchagina ishlar amalga oshirilmoqda. Rossiya, Olmoniya, AQSH, Yaponiya, Fransiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Italiya va boshqa bir qator davlatlar bilan hamkorlikda sanoat korxonalarini texnik va texnologik jihatdan yaxshilanmoqda.

Korxonalarda ishlab chiqarish jarayonini kompyuterlashtirish kuchaymoqda. Ba'zi bir mashina-mexanizmlar modernizatsiya qilinmoqda. Ishlab chiqarish jarayonlari takomillashmoqda. Bu esa korxonalarda ishlovchilarning malakasini oshishiga ta'sir ko'rsatmoqda, oqibatda har bir mahsulot birligiga sarflanayotgan mehnat buyumi kamaymoqda. Xomashyo, yoqilg'i, energetika resurslari, ya'ni aylanma fondlarning yaxshi ishlatilishi tufayli katta samara olish borasida faqat texnikaviy omillargina katta o'rin tutmasdan, ijtimoiy-iqtisodiy omillar ham yetarli rol o'ynaydi.

Aylanma fondlardan samarali foydalanishda xo'jalik mexanizmining ahamiyati katta. Xususan, rejalashtirish, baholash, moliyalash, kreditlash, xo'jalik hisobini yuritish, boshqarish, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish kabi xo'jalik mexanizmining elementlari ham ta'sir ko'rsatadi. Aylanma fondlardan oqilona foydalanish uchun raqobatni joriy etish kerak. Raqobat esa mahsulotni eng sifatli, eng arzon va ko'plab ishlab chiqarish vositasidir. Raqobat bo'lishi uchun bir xil mahsulotni ishlab chiqaradigan korxonalar soni ko'p bo'lishi kerak.

Aylanma fondlardan rejaviy foydalanishni tashkil qilishda ularning ayrim turlarini mahsulot birligiga sarf etishni ilmiy asosda normalashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Bu ishni bajarish ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish, ishlab chiqarishning rentabelligini oshirish, moddiy texnika ta'minotini tashkil etish, texnika va texnologiyani takomillashtirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Barcha normalar ilmiy jihatdan asoslangan va o'zlarining xususiyatlari bo'yicha ilg'or davr talabiga javob beradigan bo'lishlari zarur.

Moddiy resurslarni sarflash normalari turlicha bo'lishi mumkin:

1. Foydalanish muddatiga normalar: a) istiqbolli; b) yillik va operativ normalar.

2. Qo'llanish miqyosi bo'yicha normalar ikki xil: shaxsiy normalar va rasmiylashgan normalar bo'ladi.

3. Normallashtirilayotgan mablag'ning detallashtirish darajasi: tayyor mahsulot yoki uning ayrim qismlari bo'yicha ajratilishi mumkin.



4. Materiallarni detallashtirish bo'yicha yig'ma normalar, yiriklashgan normalar bo'lishi mumkin.

5. Moddiy resurslarni to'g'ri, oqilona sarflashni normallashtirish uchun ularning tarkibini belgilash katta ahamiyatga ega.

**Normalar tarkibida quyidagilar e'tiborga olinadi:**

- mahsulot birligiga sarflanadigan foydali xomashyo va materiallarning miqdori.

- zaruriy texnik chiqindi va boshqalar. Masalan, kiyim tikish jarayonida qiyqimlar chiqadi. Normalar tajriba, laboratoriya, texnikaviy, analitik, hisob, statistik usullar bilan tuziladi. Bu usullarning eng muhimi birinchisi hisoblanadi.

### **8.3. Aylanma mablag'lar va ularning aylanishini tezlashtirish**


Sanoat korxonalarining faoliyati asosiy va aylanma fondlar hamda aylanma mablag'lar bilan uzviy bog'liqligi alohida ahamiyat kasb etadi. Muomaladagi ishlab chiqarish fondlarining yig'indisi aylanma mablag'larni ifodalaydi. Aylanma mablag'lar 2 ta fondni o'z ichiga oladi:

1. Aylanma fondlar.
2. Muomala fondlari.

Aylanma fondlar o'z navbatida ishlab chiqarish jamg'armasi, tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr xarajatlari va skladlar (ombor)-lardagi tayyor mahsulotlardan iborat bo'ladi.


Muomala fondlariga jo'natishga yuklangan mahsulotlar va davlat bankidagi pul mablag'lari kiritiladi.

Aylanma mablag'larning tarkibini 6-chizmada ko'rish mumkin:



**6-chizma. Aylanma mablag'lar (sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha).**

Aylanma mablag'lar doimo harakatda bo'lib, pul va ishlab chiqarilgan tovar shaklida ro'y berishi mumkin. U quyidagi sxema bilan ifodalanadi:



Bunda, P – korxonaning pul shaklidagi mablag‘lari; ishlab chiqarish vositalarini sotib olish uchun (Iv) va ish haqi (Ih), so‘m hisobida.

Ich – ishlab chiqarish vositalarining unumli iste‘moli, so‘m hisobida;

T – ishlab chiqarish vositalarining ishlab chiqarish jarayonida iste‘mol qilinishi natijasida ishlab chiqarilgan tovarlar qiymati, so‘m hisobida;

P<sup>1</sup> – ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish natijasida hosil bo‘lgan pul, so‘m hisobida.

Korxonaning aylanma mablag‘lari kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Chunki ular ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligiga sharoit yaratib beradilar. Aylanma mablag‘lari kamayib ketgan korxonalar (firma)lar bankrotlikka yuz tutadilar.

Tashkil etilish usuliga qarab aylanma mablag‘lar normallashtiriladigan va normallashtirilmaydigan mablag‘larga bo‘linadi.

Normallashtiriladigan aylanma mablag‘lar korxonaning uzluksiz ishlashini ta‘minlash uchun kerak bo‘lgan mablag‘larning minimal miqdoridir.

Aylanma mablag‘larning aylanish davri 3 qismdan iborat bo‘ladi:

1. jarayonidagi shakli;
2. Tayyor mahsulot yoki Mablag‘larning ishlab chiqarishdagi jamg‘arma shakli;
3. Ishlab chiqarish hisob-kitob schyotidagi shakli.

Normallashtirishning asosiy vazifasi ishlab chiqarish jamg‘armalarini, tugullanmagan ishlab chiqarish hajmini, tayyor mahsulot qoldig‘ini aniqlashdan iborat.

Normalarga binoan, ishlab chiqarish jamg‘armalari rejalashtiriladi. Ularning miqdori korxonalarda kamroq, lekin ishlab chiqarish jarayoniga yetarli bo‘lishi kerak.

Har bir korxonalar aylanma mablag‘larni saqlash va ulardan oqilona foydalanishni va ularning aylanishini tezlashtirishni ta‘minlashi kerak. Faqat shundagina u samarali ishlagan bo‘ladi. Aylanma mablag‘larning

iqtisodiy samaradorligi ularning doiraviy shaklda aylanishining tezlashishidir. Bunga erishilganda ortiqcha mablag'larning bo'shashiga va ulardan boshqa maqsadlarda qo'llanishiga sharoit yaratib beriladi.

Aylanma mablag'larning aylanishi turli ko'rsatkichlar bilan belgilanadi. Aylanma mablag'larning aylanish koeffitsienti quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$K_a = M_{sm} / A_{y.q}$$

Bunda,  $M_{sm}$  – sotilgan mahsulot miqdori, so'm hisobida;

$A_{y.q}$ . – aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qoldig'i, so'm hisobida.

Aylanma mablag'larning 1 ta aylanish davrini quyidagi formula bilan hisoblash mumkin:

$$A_d = (A_{y.q} * 360) / M_{sm}$$

Aylanma mablag'larning aylanish davrini hisoblashni osonlashtirish uchun yildagi kunlar sonini 360 kun, kvartalni 90 kun, oylikni 30 kun deb qabul qilingan.

1. Sanoat ishlab chiqarishida asosiy fondlar bilan bir vaqtning o'zida mehnat buyumlari ham harakatda bo'ladi. Shu sababli ularni aylanma fondlar deb ataydilar. Aylanma fondlarning ashyoviy mazmunini asosiy va yordamchi materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish, yarim fabrikatlar, ehtiyot qismlar, kam baholi hamda tez to'ziydigan buyum va inventarlar, turli idishlar (taralar) tashkil etadi. Aylanma fondlarga tayyor mahsulot, yo'ldagi mahsulot va hisobdagi pullar ham kiradi.
2. Aylanma fondlardan foydalanishni yaxshilash mavjud xomashyo va materiallar bilan ishlab chiqarish ko'lamini yuqori darajaga ko'tarish, tarmoqlar o'rtasida yuqori tejamli nisbatlarni (proporsiyalarni) belgilash, ijtimoiy mehnat unumdorligini oshirish va mahsulot tannarxini pasaytirishga imkon yaratadi. Ishlab chiqarishni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish xomashyo va materiallardan, yoqilg'i va elektroenergetikadan oqilona foydalanishni talab etadi.
3. Moddiy resurslarni tejash maqsadida ko'p omillardan foydalanish mumkin. Resurslarni tejashning asosiy ishlab chiqarish-texnik omil-

lariga ishlab chiqarishning texnik darajasini uzluksiz oshirish, texnologik jarayonlarni mukammallashtirish, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishni yaxshilash, tejamkorlikni rag'batlantiruvchi dastak va stimullardan keng foydalanish kiradi.

4. Aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirish juda katta xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega. Chunki u pul mablag'larini bo'shatishga imkoniyat yaratadi.

5. Aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirishning asosiy yo'llari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish siklining davomiyligini, uzoqligini qisqartirish;
- normativdan tashqari, va oshiqcha zahiralarni yo'qotish;
- tayyor mahsulotlarni sotishni tezlashtirish va h.k.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Aylanma fondlarning mohiyati, ahamiyati va mazmuni nimalardan iborat?

2. Aylanma fondlar asosiy fondlardan qaysi xususiyatlari bilan farqlanadi?

3. Aylanma fondlarning tarkibi va tuzilmasi to'g'risida nimalarni bilasiz?

4. Moddiy resurslardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?

5. Aylanma fondlardan samarali foydalanish mexanizmi nimalarni o'z ichiga oladi?

6. Aylanma mablag'lar deganda nimalarni tushunasiz? Ularning turlarini izohlab bering.

7. Aylanma mablag'larning aylanish tezligini oshirishning ahamiyati nimalardan iborat?

8. Aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirish yo'llarini izohlab bering.

9. Bu mavzu bo'yicha yechimi topilmagan qanday muammolar mavjud?

### Test topshiriqlari:

1. \_\_\_\_\_ bu aylanma fondlarning nomoddiy unsurlari, ya'ni ayni vaqtda ishlab chiqarilayotgan, lekin kelgusi davr mahsuloti bo'ladigan mahsulotlarni tayyorlash va yangi mahsulot turlarini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlardir.

- A) tugallanmagan ishlab chiqarish;
- B) ishlab chiqarish zaxiralari;
- S) tayyor mahsulot;
- D) ehtiyot qismlar;
- E) kelgusi davr xarajatlari.

2. *Korxonada aylanma aktivlarning o'rtacha yillik qiymati 210 mln so'm. Hisobot yilda sotilgan mahsulotning hajmi 650 mln so'mni tashkil qildi. Hisobot yil uchun aylanma aktivlarning aylanish tezligini hisoblang.*

- A) 120 kun;
- B) 116,3 kun;
- S) 112 kun;
- D) 62 kun.;
- E) 11503 kun.

3. **Korxonada hisobot yilda aylanma aktivlarning o'rtacha yillik qiymati 250 mln so'm. Hisobot yilida sotilgan mahsulotning hajmi 880 mln so'mni tashkil qildi. Reja yilida sotilgan mahsulot hajmi 10 % ga va aylanma aktivlarning o'rtacha yillik qiymati 6 %ga ko'paytirish rejalashtirilgan. Reja yilida aylanish koeffitsienti qancha foizga o'zgaradi?**

- A) 3,2 % ga ko'payadi;
- B) 3,2 %ga kamayadi;
- S) 3,77%ga ko'payadi;
- D) 3,77 %ga kamayadi;
- E) 2,7 %ga ko'payadi.

**4. Aylanma aktivlarning tuzilishi deganda nimani tushunasiz?**

- A) bu jami aylanma aktivlarning uning har bir elementiga nisbati;
- B) bu aylanma fondlarning muomala mablag'lariga nisbati;
- S) bu aylanma fondlarning jami aylanma aktivlarga nisbati;
- D) bu muomala mablag'larning aylanma aktivlarga nisbati;

Aylanma ishlab chiqarish fondlari va muomala fondlari o'rtasidagi xuddi shunday foizlardagi munosabatlar;

E) bu aylanma aktivlarning har bir elementining jami aylanma aktivlarga nisbatining foizdagi ifodasidir.

**5. Aylanma aktivlarni me'yorlashtirish uchun quyidagi qaysi ko'rsatkichlardan foydalaniladi?**

- A) kunlik mahsulot ishlab chiqarish hajmi;
- B) 1 tonna mahsulotga material sarfi;
- S) asosiy materialning 1 tonnasi bahosi;
- D) birlik mahsulotning o'rtacha bahosi;
- E) zaxira normasi kunlarda.

**6. Quyidagi ko'rsatkichlardan qaysi biri aylanma aktivlardan foydalanishni ko'rsatadi?**

- A) fond samarasi;
- B) fond sig'imi.;
- S) mehnat unumdorligi;
- D) bir yildagi aylanishlar soni;
- E) aylanma aktivlarning yillik o'sish darajasi.

**7. Aylanma aktivlarning tarkibiga quyidagilar kiradi. Noto'g'risini aniqlang.**

- A) tugallanmagan ishlab chiqarish;
- B) ishlab chiqarish zaxiralari;
- S) tayyor mahsulot;
- D) hisob-kitob raqamidagi pul mablag'lari;
- E) kreditor qarzarlar.

**8. Korxonada aylanma aktivlarning o‘rtacha yillik qiymati 450 mln so‘m. Hisobot yilda sotilgan mahsulotning hajmi 1520 mln so‘mni tashkil qildi. Hisobot yil uchun aylanma aktivlarning aylanish tezligini hisoblang.**

- A) 110,2kun;
- B) 116,3 kun;
- S) 106,5 kun;
- D) 112,3 kun;
- E) 111,5 kun;

**9. Korxonada hisobot yilda aylanma aktivlarning o‘rtacha yillik qiymati 420 mln so‘m. Hisobot yilda sotilgan mahsulotning hajmi 1240 mln so‘mni tashkil qildi. Reja yilida sotilgan mahsulot hajmi 12 % ga va aylanma aktivlarning o‘rtacha yillik qiymati 8 %ga ko‘paytirish rejalashtirilgan. Reja yilida aylanish koeffitsienti qancha foizga o‘zgaradi.**

- A) 4,0 % ga ko‘payadi;
- B) 4,0 % ga kamayadi;
- S) 3,70% ga ko‘payadi;
- D) 3,70 % ga kamayadi;
- E) o‘zgarmaydi.

**10. Korxonada aylanma aktivlarning o‘rtacha yillik qiymati 338 mln so‘m. Hisobot yilda sotilgan mahsulotning hajmi 866 mln so‘mni tashkil qildi. Hisobot yil uchun aylanma aktivlarning aylanish tezligini hisoblang.**

- A) 120,3 kun;
- B) 154,3 kun;
- S) 140,5 kun;
- D) 132,3 kun;
- E) 162,3 kun.



**11. Korxonada hisobot yilda aylanma aktivlarning o‘rtacha yillik qiymati 425 mln so‘m. Hisobot yilda sotilgan mahsulotning hajmi 960 mln so‘mni tashkil qildi. Reja yilida sotilgan mahsulot hajmi 15 % ga va aylanma aktivlarning o‘rtacha yillik qiymati 8%ga ko‘paytirish rejalashtirilgan. Reja yilida aylanish koeffitsienti qancha foizga o‘zgaradi.**

A) 7,0 % ga ko‘payadi;

B) 7,0 %ga kamayadi;

S) 6,67 %ga ko‘payadi;

D) 6,48 %ga kamayadi;

E) 6,48 %ga ko‘payadi.

## **IX BOB. KORXONADA MEHNAT RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH, MEHNATNI TASHKIL ETISH VA HAQ TO‘LASH**

### **9.1. Kadrlar siyosati va uning sanoat taraqqiyotidagi roli**

Sanoat taraqqiyotining muammolari umumiy majmuida uni xodimlar bilan ta'minlash masalasi, ularning manbalari, tayyorlash va qayta tayyorlash shakllarini hamda ulardan oqilona foydalanish masalalarini aniqlash alohida o‘rin egallaydi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonasi (firma) larni kadrlar (xodimlar) bilan ta'minlash va ulardan oqilona foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Xodimlar (kadrlar) o‘zlarining bilimi va ilmi, mehnat malakasi, ishlab chiqarish tajribasi va ma'naviyati bilan ishlab chiqarish kuchlarining muhim unsuri hisoblanadi. Ular fan-texnika taraqqiyoti rivojining, mehnat unumdorligini oshirish, asosiy va aylanma fondlardan foydalanishni yaxshilash, mahsulot sifatini oshirishning va uning tannarxini pasaytirishning hamma sohalari, hamma tomonlarining samaradorligini belgilaydilar.

Shu sababli ham «Hamma ishlarni kadrlar, hal qiladi», degan mashhur qoida hozirgi kunda ham aslo o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Aksincha, bu asosiy fikr Respublika Prezidentining asarlari, ma'ruzalari va suhbatlarida qayta-qayta tilga olinmoqda. «Qanday vazifalarni biz o‘z oldimizga qo‘ymaylik, qandaydir muammolarni yechish kerak bo‘lmasin, degan edi mustaqil O‘zbekiston asoschisi I. Karimov, – oqibat natijada ularning barchasi kadrlarga va yana kadrlarga borib taqaladi».

Sanoat ishlab chiqarishida nafaqat mehnat qurollari va mehnat buyumlari (ishlab chiqarish vositalari), balki kadrlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan kadrlar ishlab chiqarishni boshqaradilar, joriy va istiqbolga tegishli rejalashtirishni va bashorat qilishni amalga oshiradilar, ishlab chiqarish vositalari va moliyaviy resurslarni harakatga keltiradilar. Kadrlarning bilimi, ilmi, kasbiy mahorati qanchalik yuqori bo‘lsa, sanoat faoliyatining ishlab chiqarish – iqtisodiy

parametrlari shunchalik yuksak bo‘ladi. Demak, sanoat ishlab chiqarishining ahvoli, holati, rivoji uning **kadrlar potentsiali** bilan belgilanadi.

Shu yerda «potensial» atamasining ma’nosini tushuntirib o‘tish kerak bo‘ladi, chunki bu tushuncha bozor iqtisodiyoti sharotitida juda ko‘p ishlatiladi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida «potensial» so‘zi lotincha «*potentia*» so‘zidan olinganligi va imkoniyat, kuch-qudrat, yashirin imkoniyatlar ma’nolarini bildirishi ta’kidlangan. Odatda, bu atamada mavjud bo‘lgan va safarbar etilishi, harakatga keltirilishi, ma’lum maqsadlarga erishish uchun foydalanilishi mumkin bo‘lgan vositalar, zaxiralar va manbalar ham izohlanishi mumkin.

**Kadrlar potentsiali** – bu mehnat zahirasi yoki imkoniyatidir. U jamiyat mehnat potentsialining tarkibiy qismi hisoblanadi. Unda mehnat resurslarining umumiy soni va ularning tarkibi, ma’lumot darajasi, professional ko‘nikmasi va ishlab chiqarishning u yoki bu sohasida mehnat qilish qobiliyati aks etadi.

Sanoat ishlab chiqarishining muvaffaqiyati pirovard natijada rahbar kadrlarning yetukligiga, bilim va ilmining darajasiga, ish malakasi hamda tashkilotchilik qobiliyatiga, ularni to‘g‘ri tanlash, joy-joyiga qo‘yish va tarbiyalashga bog‘liqdir.

Davlat kadrlar siyosatini jamiyat hayotining barcha tomonlariga rahbarlik saviyasini oshirish bilan, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotning barcha sohalarida jamoa tashkilotlarining rahbarlik rolini kuchaytirish bilan bevosita bog‘laydi. Davlat va nodavlat tashkilotlari kadrlar bilan ishlashni muttasil nazorat qilib boradilar va mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda kadrlar masalasida Prezident va Vazirlar Mahkamasining yagona yo‘lini og‘ishmay o‘tkazib boradilar.

Ishlab chiqarish – xo‘jalik faoliyatining har qanday sohasida, shu jumladan, sanoat tarmog‘ida ham natijalilik, samaradorlik ko‘p jihatdan o‘rta bo‘g‘in kadrlarga bog‘liq. Ular rahbarlarning eng ko‘p sonli kategoriyasi bo‘lib, ishlab chiqarishga hammadan yaqinroq turadilar. Shu boisdan respublikada o‘rta bo‘g‘in kadrlarga alohida ahamiyat beriladi.

Kadrlar siyosatining mazmuni, uni amalga oshirishda amal qilindigan bir qator tamoyillar mustaqillikka erishilgandan keyin butunlay o'zgardi. Kadrlar ishining usullari, shakllari, bu ishga yondashishning siyosiy va tashkiliy rahbarlik usullari haqidagi qoidalar qaytadan ishlab chiqildi.

Ma'lumki, siyosat kishilar orqali yuritiladi. Har qanday tashkiliy masalalarni siyosatdan ajratish mumkin emas. Shu sababli, odatda, xodimlarning ishchanlik va siyosiy xislatlariga; oshkoralikka va xodimlarni ochiq-oshkora tanlashga, rahbarlikning davomiyligiga rioya qilgan holda ularni o'zgartirib turishga; keksa va yosh kadrlarni qo'yib ishlatishga, kadrlarga ishonishga hamda ularga nisbatan qat'iy talabchan bo'lishga; davlatning asosiy vazifalari va xodimlarning shaxsiy qobiliyatlariga muvofiq tarzda kadrlarni joy-joyiga qo'yishga; ularning ajoyib fazilatlari va kamchiliklarini o'rganishga; xo'jalik va siyosiy rahbarlarning g'oyaviy-nazariy saviyasini muttasil oshirib borishga katta ahamiyat beriladi.

Kadrlar siyosatining dolzarb muammolari Prezident asarlari va nutqlarida nazariy jihatdan chuqur mushohada etilgan va har taraflama asoslab berilgan. Kadrlar siyosati Oliy Majlis tomonidan ko'rib chiqiladi, ko'pgina qonun va qororlarda o'z ifodasini topadi.

1997-yilning avgust oyida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi va ta'lim tizimining aniq strategiyasi yaratildi. Bu dasturning maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi **yuqori malakali kadrlar** tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir. Bu strategik fenomen mamlakatimizda ta'lim tizimini eng zamonaviy talab-ehtiyojlar asosida o'zgartirib yubordi. Davrimizning bu ulug'vor hujjati qabul qilingandan beri kadrlar tayyorlash borasida tub yangilanishlar yuz berdi. Lekin keyingi vaqtda bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan mutaxassislar yetishmayotganligi sezilib qoldi. Shu sababli Respublika Prezidenti va Oliy Majlis hamda Vazirlar Mahkamasi istiqlol, mustaqillik bilan hamkorlik qilishga rozi bo'lgan,

tayyor turgan barcha mutaxassislarni ishga jalb eta oldi. Ayni bir vaqtda yoshlar orasidan rahbar kadrlarni izlash, tanlash, tayyorlash va tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Mavjud xodimlardan g'oyat oqilona foydalanish manfaatlarini ko'zlab, ularni bir ish sohasidan boshqa ish sohasiga hamda bir hududdan boshqa bir hududga yuborish usulini keng qo'lladi.

Mustaqillik yillarida xalq xo'jaligining barcha sohalari uchun yuksak malakali kadrlar tayyorlash borasida juda katta ishlar qilindi. Milliy iqtisodning, jumladan, sanoatning hal qiluvchi uchastkalariga rahbarlik izlanuvchan, yangilikka intiluvchi, fidoyi, tafakkuri o'tkir, tashkilotchilik qobiliyati zo'r, o'z ishini yaxshi biladigan mutaxassislar qo'lida jamlangandir.

O'zbekiston xalq xo'jaligida 2004-yilda 10 millionga yaqin mutaxassis ishlagan bo'lsa, ulardan 3 millioni oliy ma'lumotli va 4,5 millioni maxsus o'rta ma'lumotli kishilar hisoblanadi.

Mamlakatimizda XXI asr kadrlari o'sib yetishmoqda, ular iqtisodiy, ijtimoiy va fan-texnika taraqqiyotining eng murakkab muammolarini hal etishga qodirdirlar.

## **9.2. Kadrlar, ularning tarkibi va strukturasi**

**Kadrlar (xodimlar)** – bu muayyan kasbni egallash bo'yicha tayyorgarlikdan o'tgan, amaliy tajriba va mehnat ko'nikmasiga ega bo'lgan ishlab chiqarish sohasida ish bilan band bo'lgan kishilardir.

Kadrlarga bo'lgan talabni aniqlash, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash, ulardan oqilona foydalanish, kadrlarning mehnati bo'yicha rejalashtirish va hisobga olish va boshqa yo'nalishlar bilan mujasamlashtirish uchun xodimlarni guruhlarga ajratish kerak bo'ladi, ya'ni tasniflash zarur.

Ishlab chiqarish, xo'jalik faoliyatida qatnashishiga qarab sanoat tarmog'ida band bo'lgan barcha kadrlar ikki guruhga bo'linadi:

- sanoat ishlab chiqarish xodimlari;
- nosanoat ishlab chiqarish xodimlari.

Mahsulot ishlab chiqarish doirasida band bo'lgan xodimlarning barchasi sanoat ishlab chiqarish xodimlari guruhiga kiradi. Sanoat ishlab chiqarish xodimlari o'z navbatida bajaradigan funksiyasining tavsifiga qarab quyidagi kategoriyalarga bo'linadi:

1. Ishchi xodimlar;
2. Muhandis-texnik xodimlar;
3. Xizmatchilar;
4. Ish bajaruvchi kichik xodimlar;
5. Qorovullar va o't o'chiruvchilar, ya'ni korxonani qo'riqlaydigan va yong'indan muhofaza qiluvchi xodimlar.

Sanoat ishlab chiqarish xodimlarning eng muhim va juda ko'p qismi— bu ishchilar bo'lib, ular mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish)da bevosita qatnashadilar, jihozlarni ta'mirlash, mehnat buyumlari va tayyor mahsulotni bir yerdan ikkinchi joyga tashiydilar va nixoyat ta'mirlash – qurish ishlarini bajaradilar.

Ishchilardan keyingi o'rinda **muhandis-texnik xodimlar** turadi va ular rahbar xodimlar hisoblanadi. Ularga direktorlar, boshqaruvchilar, ularning muovnlari, bosh mutaxassislar, xizmat ko'rsatish bo'limlarining rahbarlari kiradi.

**Xizmatchilar kategoriyasiga** – hujjatlarni tayyorlovchi, ularni rasmiylashtiruvchi, hisob va nazorat ishlarini bajaruvchi, xo'jalik xizmatini bajaruvchi (agentlar, kassirlar, ish yurituvchilar, kotibalar, statistlar va boshqa)lar kiradi.

Tarmoq va korxonada faoliyatini rejalashtirish va tahlil etishda, ayniqsa, mehnat unumdorligini hisoblash, o'rtacha ish haqini aniqlash, kadrlar qo'nimsizligini aniqlash uchun xodimlarning o'rtacha soni ko'rsatkichi ko'p ishlatiladi.

Kadrlar salohiyatini miqdoriy baholash bilan birgalikda ularni sifat jihatdan ham tavsiflash kerak bo'ladi. Bu jihatlar xodimlarning professional va malakaviy fazilatlarini bilan belgilanadi. Bu borada, birinchi o'rinda «mutaxassislik», «ixtisoslik», «malaka» degan tushunchalar yuzaga keladi.

**Mutaxassislik** – bu ma’lum bir yoki bir necha turdagi ishlarni amalga oshirish uchun insonga zarur bo‘lgan bilimlar va malakalar yig‘indisi. Masalan, iqtisodchi, marketolog, vositachi, moliyachi, buxgalter, yoki texnika sohasida – muhandis, mexanik, energetik va h.k.

**Ixtisos** – insonning hosil qilgan bilimlar va amaliy ko‘nikmalari majmui. Ixtisos kishiga hayotning moddiy va ma’naviy sohasida muayyan ishni bajarish imkoniyatini beradi.

**Malaka** – biron bir mutaxassislik va ixtisoslik bo‘yicha murakkab ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ilm hamda mehnat ko‘nikmasining darajasidir. Kadrlarning malaka darajasini baholash uchun o‘rtacha koeffitsient va o‘rtacha tarif koeffitsienti razryadi belgilanadi.

Yangidan-yangi ishlab chiqarish sohalari vujudga kelishi, fan va texnikaning rivoji, ish, shu jumladan, bir texnologik jarayonning boshqa jarayonga almashinishi bilan boshqaruv, rejalashtirish, tashkil etish, takomillashuvi bilan yangi mutaxassisliklar kasb va ixtisoslar yuzaga keladi, eskirganlari barham topadi.

Kadrlar ilmini o‘rganish nazariyasida «**Kadrlar tuzilmasi**» degan tushuncha mavjud. Masalan, korxonada xodimlari umumiy sonini 100 foiz deb olsak, ishchilar 75 foizni, muhandis-texnik xodimlar 12 foizni, xizmatchilar 8 foizni, boshqa xodimlar esa 5 foizni tashkil etishi mumkin. Bu misoldan ko‘rinib turibdiki, xodimlar kategoriyalari, ya’ni ularning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi nisbat ularning tuzilmasini, ya’ni strukturasi ifodalaydi.

Kadrlar tarkibi va strukturasi faqat korxonalarda emas, balki tarmoqlarda ham bir-biridan farq qilishi mumkin. Bu tarmoqning murakkabliligiga, korxonada (firma)ning katta-kichikligiga, ularning texnikaviy va texnologik jihatdan qurollanganligiga, ishchi-xizmatchilarning bilimi va ilm darajasiga va mehnat ko‘nikmasiga, sohaning hamkorlik munosabatlari rivojlanganligiga va boshqa bir qator xususiyatlarga bog‘liq.

### 9.3. Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish

Kadrlarni tanlash, ularni joy-joyiga qo'yish, ulardan oqilona foydalanish va tarbiyalash masalasi kadrlar siyosatining, umumiy iqtisodiyotning, shu jumladan, makro- va mikroiqtisodiyotning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning asarlarida, Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlarda, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida bu masalaga alohida e'tibor berilgan.

Kadrlarni tanlashda, ularni joy-joyiga qo'yish, foydalanish va tarbiyalash borasida quyidagi tamoyillarga alohida e'tibor berish kerak:

- aql-idrok, did va farosat;
- qat'iylik, matonatlik, prinsipiiallik, o'z vazifasiga puxtalik;
- rahbarlik sohasini juda yaxshi bilish;
- o'z eliga, yurtiga, Vataniga sadoqatli bo'lish.

Kadrlar siyosatining eng muhim masalalaridan biri ularni attestatsiya qilish masalasidir.

**Kadrlar attestatsiyasi** – bu xodimlarning malakasini bilim va ko'nikmalarining darajasini, faoliyatining samaradorligini, ishdagi, xizmatdagi va boshqa sohalardagi fazilatlari, egallab turgan lavozimiga to'g'ri kelishi yoki kelmasligini aniqlab olish bo'yicha bajariladigan jarayon va ish tartibidir.

Attestatsiya ishining ahamiyati nimadan iborat?

Kadrlar attestatsiyasi xodimlarning sifat tarkibini yaxshilash, ularni oqilona joy-joyiga qo'yish, xodimlarni topshirilgan ish uchun javobgarligini kuchaytirishga qaratiladi. Attestatsiya xodimlarni egallab turgan lavozimlariga qanchalik munosib ekanligini aniqlashning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. Kadrlar attestatsiyasi vaqti-vaqti bilan har yili yoki ikki-uch yilda bir marta ham o'tkazilishi mumkin.

Respublikada bozor iqtisodiyoti davrida kadrlar tayyorlash borasida bir qator yangi talablar yuzaga keldi. Ular ichida eng muhimlari quyidagilardan iborat:



- ijtimoiy-psixologik diagnostika;
- kadrlarni boshqarish tizimini axborot bilan ta'minlash;
- bandlikni boshqarish;
- zaruriy bo'sh lavozimlarga nomzodlar tanlash;
- kadrlar salohiyati va xodimlarga bo'lgan ehtiyojlarni tahlil etish;
- kadrlar marketingini belgilash;
- xizmat martabasini rejalashtirish va nazorat qilish;
- xodimlarning kasbiy va psixologik moslashuvi, ko'nikishi;
- mehnat-huquqiy munosabatlar masalalari;
- mehnat etikasi va estetikasi.

Agar ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida bu mezon va vazifalarga ikkinchi darajali deb qaralgan bo'lsa, bozor munosabatlari sharoitida ular birinchi o'ringa chiqarildi. Bu mezon va vazifalarga e'tibor berish sanoat taraqqiyotining barqaror va izchil rivojlanishiga katta imkoniyatlar yaratib beradi.

Boshqaruvning barcha darajalarida inson rolining ortib borishi, iqtisodiyotda, shu jumladan, sanoatda keng qamrovli tarkibiy o'zgarishlar sodir bo'lishi va raqobat darajasining o'sishi kadrlarning boshqarishga yondoshuvini o'zgartirishni taqozo etadi. Bunday yondoshuvlar quyidagilardan iborat:

- xodimlarning samarali ishlashlarini, faoliyat ko'rsatishlarini tashkil etish;
- lavozimlar darajasini optimallashtirish, zaruriy mahorat va malakalar tizimini yaratish;
- ishlab chiqarish madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish;
- institutsional maqsadlarga erishish;
- o'z jamoa va o'z xodimlarining manfaat va ehtiyojlarini to'laroq qondirish.

#### **9.4. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash**

Sanoatda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash mutaxassislarining bilim va ilm darajasini yuqoriga ko'tarish, kasb

mahorati va ko‘nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratilgan. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tarmoq va korxonalarda bu borada olib borilgan faoliyat natijalariga ko‘ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikat topshiriladi.

Sanoatda kadrlar malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi faoliyatida yangicha tarkib, mazmun hamda bu tizimni boshqarishni shakllantirish;
- yuqori malakali o‘qituvchi-mutaxassis kadrlar tayyorlash va sohani ular bilan to‘ldirib borishni ta‘minlash;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimining bu sohada raqobatga asoslangan muhitini shakllantirish va samarali faoliyat olib borishni ta‘minlovchi normativ bazasini yaratish;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta‘lim muassasalarini davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasidan o‘tkazish tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- iqtisodiyotning davlat va nodavlat sektorlari, mulkchilikning turli shaklidagi tashkilot va muassasalarning talab-ehtiyojlariga muvofiq kadrlar va mutaxassislarni ildam qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta‘minlovchi davlat va nodavlat ta‘lim muassasalarini tashkil etish va rivojlantirishga ko‘maklashish;
- professional treningning ilg‘or texnologiya va uskunalarini, shuningdek, murakkab, fan yutuqlarini talab qiluvchi texnologiya jarayonlari imitatorlarini ishlab chiqish, yaratish va amaliy o‘zlashtirib olish.

Kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimida xalqaro hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Bu muammoni hal etish uchun hamkorlikning xalqaro-huquqiy bazasi yaratilishi, uning ustuvor yo‘nalishlari ro‘yobga chiqishi, xalqaro ta‘lim tizimlari rivojlantirilishi, mutaxassislar almashishi kengayishi kerak. Bu boradagi milliy hujjatlar xalqaro

miqyosda e'tirof etilishi, investitsiyalarning keng jalb qilinishi borasidagi faoliyat kuchaytirilishi kerak.

### **9.5. Mehnat va unga haq to'lash**

Mehnat – har bir shaxs va umuman jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'ladigan moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish sohasidagi maqsadga muvofiq faoliyatdir.

Moddiy ishlab chiqarish jarayonini tadqiq qilish asosida shunday fikrga kelish mumkinki, mehnat avvalo, inson bilan tabiat o'rtasidagi sodir bo'ladigan shunday jarayonki, unda inson o'z faoliyati bilan o'zi va tabiat o'rtasidagi moddalar almashinuvini bevosita ifodalaydi, tartibga soladi va nazorat qiladi.

Mehnat jarayonining oddiy jihatlariga uning maqsadga muvofiq-ligi, mehnat buyumi va mehnat vositalarini kiritish qabul qilingan. Mehnat buyumlari va ishlab chiqarish qurollari jonli mehnat jarayoniga kiritilmasa ular o'z o'zidan faoliyat ko'rsata olmaydi. Jonli mehnat esa hamisha faqat kishilarning tabiatga munosabatidan iborat bo'libgina qolmay, shu bilan birga, jarayon qatnashchilari o'rtasidagi munosabatdan iborat.

Mehnat munosabatlarini yo'lga qo'yish sharoitida mehnatga haq to'lashning tashkiliy tizimi yuzaga keladi. Mehnatga haq to'lashni tashkil etishda ish beruvchilar bilan uni amalga oshiruvchilar, ya'ni xodimlar manfaatlari e'tiborga olinadi. Bu yerda shuni ta'kidlash zarurki, bozor munosabatlariga o'tishda tomonlar mehnatga haq to'lash masalalarini hal etishda teng huquqlariga ega bo'lishlari lazimligi shakshubhasizdir. Korxonada ma'muriyati (yoki mulkdorning vakili) bilan xodimlar manfaatlarini himoya qiluvchi kasaba uyushmalari o'rtasida tuzilgan jamoa shartnomalari mehnat munosabatlarini tartibga solishning, shu jumladan, mehnatga haq to'lash masalalarini tartibga solishning huquqiy amaliy va birdan-bir ta'sirchan shakliga aylanadi.

Bozor sharoitida, ayniqsa o'tish davrida, taqsimlash munosabatlari, davlatning tartibga solish yo'nalishlari va xususiyati o'zgarib boradi,

ma'muriyatchilik andozalariga barham beruvchi yangi boshqaruv shakllari paydo bo'ladi. Korxonalar darajasini tartibga solish jarayonlariga yangi talablar qo'yiladi. Davlatning aralashuvi daromadlarni taqsimlash shart-sharoitlari va tamoyillariga rioya qilishni aniqlash, tahlil etish va ta'minlash uchun zarurdir.

Taqsimlash munosabatlarining davlat yo'li bilan tartibga solinishining asosi mehnat sohasidagi qonunlar va bitimlar, soliq tizimida yakka daromadlarning o'sishi bilan inflyatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashdan iborat bo'lishi lozim. Davlatning ishtirokisiz insonga daromadni kafolatlab bo'lmaydi, bu daromad unga korxonaning iqtisodiy faoliyatidan qat'iy nazar munosib hayot kechirishni ta'minlaydi. Davlatning funksiyasiga, bundan tashqari, aholining kam ta'minlangan qatlamlari daromadlarini oshirishni kiritish zarur, bu narsa ish kuchini normal darajada takror hosil qilish uchun, mehnat resurslarini maqbul tarzda taqsimlashni ta'min etish, ijtimoiy keskinlikni yumshatish va hokazolar uchun kerak bo'ladi. Davlat ish kuchini takror hosil qilish ishtirokchisi bo'lganligi sababli taklif etilgan ish kuchining ko'proq qismini o'ziga qabul qiladi, uning tadbirkorlar talabiga javob berishiga intiladi.

Ish haqining mohiyati uning ijtimoiy ishlab chiqarish bosqichlari bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish, uni taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilishda bajaradigan funksiyalari (vazifalari)da namoyon bo'ladi.

**1. Takror hosil qilish funksiyasi.** U xodimlarni, shuningdek, ularning oila a'zolari ish kuchini takror hosil qilish, avlodlarni qayta ko'paytirish uchun zarur bo'lgan hayotiy ne'matlar bilan ta'minlashdan iborat. Unda ehtiyojlarning ortib borishidan iborat iqtisodiy qonun o'z ifodasini topadi. Mazkur funksiya ish haqining davlat tomonidan tartibga solinishi xususiyatlari, ish haqining ish kuchini takror hosil qilishni ta'min etadigan miqdorini qonuniy darajada belgilash bilan mustahkam bog'liqdir.

**2. Rag'batlantiruvchi funksiya.** Uning mohiyati xodimning ish haqi uning quyidagi mehnat hissasiga, korxonaning ishlab chiqarish

xo‘jalik faoliyati natijalariga bog‘liqligini belgilashdan iborat bo‘lib, bunda ko‘rsatib o‘tilgan bog‘liqlik xodimni o‘z mehnati natijalarini doimiy ravishda yaxshilab borishga qiziqtirishi lozim.

**3. O‘lchov-taqsimlash funksiyasi.** Bu funksiya istemol fondlarini yollanma xodim bilan ishlab chiqarish vositalari egasi o‘rtasida taqsimlash vaqtida jonli mehnat o‘lchovini aks ettirish uchun mo‘ljallangan. Ish haqi vositasida ishlab chiqarish jarayoni har bir ishtirokchisining mehnat hissasigi muvofiq uning iste‘mol fondidagi alohida ulushi aniqlanadi.

**4. Resurslarni joylashtirish funksiyasi.** Mazkur funksiyaning hozirgi vaqtdagi ahamiyati jiddiy ravishda oshib bormoqda. Uning mohiyati mehnat resurslarini mintaqalar, iqtisodiyot tarmoqlari va korxonalar bo‘yicha qulay ravishda joylashtirishdan iboratdir. Mehnat resurslarini joylashtirish sohasidagi davlat boshqaruvi eng kam darajaga keltirilgan sharoitda, mehnat bozorining samarali faoliyat ko‘rsatishini shakllantirish faqat har bir yollanma xodimda o‘z mehnatini sarflash joyini tanlashda erkinlik bo‘lgan taqdirdagina turmush darajasini oshirishga intilish, ish topish maqsadida uni boshqasi bilan almash-tirishni taqozo qiladi, bu ish esa uning ehtiyojlarini eng ko‘p darajada qondirishi lozim.

**5. Aholining to‘lovga qobiliyatli talabini shakllantirish funksiyasi.** Bu funksiyaning vazifasi to‘lovga qobiliyatli talabni muvo-fiqlashtirishdir, bunday talab deganda xaridorlarning pul mablag‘lari bilan ta‘minlangan ehtiyojlarining namoyon bo‘lish shakli tushuniladi, shuningdek, iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarish nazarda tutiladi. To‘lovga qobiliyatli talab ikki asosiy omil – jamiyatning ehtiyojlari va daromadlari ta‘sirida shakllanadi va bozor sharoitida ish haqi yordamida tovarni taklif qilish bilan talab o‘rtasida zarur mutanosiblik o‘rnatishga yordam beradi.

Yuqorida aytib o‘tilgan funksiyalarni amalga oshirish uchun quyidagi eng muhim tamoyillarga rioya qilinishi zarur:

1. Ishlab chiqarish va mehnat samaradorligi yuksalib borgan sari real ish haqining ortib borishi. Bu tamoyil ehtiyojlarning ortishi obyektiv

iqtisodiy qonunning amal qilishi bilan bog‘liq bo‘lib, mazkur qonunga muvofiq ehtiyojlarning yanada to‘laroq qondirilishi faqat o‘z mehnati uchun ko‘proq miqdorda moddiy ne‘matlar va xizmatlarga ega bo‘lishi imkoniyatlari kengaygan sharoitdagina real bo‘ladi. Biroq bunday imkoniyat ishlab chiqarish faoliyati natijalari bilan mehnat samaradorligining bog‘lanishini taqozo etadi. Bunday bog‘lanishning yo‘qligi esa, bir tomondan, ishlab topilmagan pulning berilishiga, demak, inflyatsiyaga, olingan nominal ish haqining ta‘min etilishiga va real ish haqining pasayishiga olib kelishi, ikkinchi tomondan esa, pasaytirilgan, mehnat hissasining samaradorligiga mos kelmaydigan nominal ish haqining to‘lanishiga olib kelishi mumkin. Natijada, xodimlarning ortib borayotgan ehtiyojlarini qondirish imkoniyati va ish haqinig ko‘payish imkoniyati mavjud bo‘lmaydi.

2. Mehnat unumdorligi o‘shishini o‘rtacha ish haqining o‘shish sur‘atlaridan ilgarilovchi sur‘atlarini ta‘minlash (yoki mahsulot ishlab chiqarish hajmlari sur‘atining iste‘mol fondlari o‘shishi sur‘atlaridan ortib ketishi). Bu tamoyilning mohiyati – ishlab chiqarishni rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish asosida mehnat daromadlarini maksimal (eng ko‘p) darajaga yetkazishdan iborat. Bu tamoyilga rioya qilinishi jamg‘arish jarayonining, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning uzluksizligini taqozo etadi va korxonaning rivojlanishi hamda ravnaq topishining zarur sharti hisoblanadi. Mazkur tamoyilning buzilishi tovarlar bilan ta‘min etilmagan pulning to‘lanishiga, uning qadrsizlanishiga, mamlakat iqtisodiyotida turg‘unlik holatlarining avj olishiga olib keladi. Muayyan korxonada bu ishlab chiqarish vositalarini yangilash jarayonining sekin asta susayib borishi, ulardan eng istiqbollilarini ishlab chiqarish va sotib olish mo‘ljalining yo‘qligi hamda buning natijasi sifatida raqobat qiluvchi firmalar o‘rtasida kamroq sifatli mahsulotga bo‘lgan talabning pasayishidir.

3. Xodimning korxonada faoliyati natijalariga qo‘shgan mehnat hissasiga, mehnat mazmuni va sharoitlariga, korxonada joylashgan mintaqaga, uning qaysi tarmoqqa mansubligiga qarab ish haqini tabaqalashtirish. Mazkur tamoyil xodimning o‘z mehnat malakasidan,

mahsulotning yuqori sifatli bo'lishini ta'minlashdan moddiy manfaatdorligini kuchaytirish zarurligiga asoslangan. Bunda ish kuchini takror hosil qilish uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlar miqdoridagi, mehnatning turli sharoitlaridagi jo'g'rofiy va iqlim sharoitlaridagi tafovutlar hisobga olinishi lozim.

4. Barobar (teng) mehnat uchun barobar haq to'lash. Bozor sharoitida bu tamoyilni ishlovchining jinsi, yoshi, milliy mansubligi va hokazolarga qarab uning mehnatiga haq to'lashda kamsitishiga yo'l qo'ymaslikdir. Buni korxonada yoki firma ichidagi taqsimotda adolat tamoyiliga rioya etish deb tushunish kerak. U bir xildagi mehnatga bir xil haq to'lash orqali bir xil baholashni nazarda tutadi.

5. Mehnatga haq to'lashni davlat yo'li bilan boshqarish va tartibga solib turish.

6. Mehnat bozorining ta'sirini hisobga olish. Mehnat bozorida ham davlat va xususiy kompaniyalarda ham uyushmagan sektordagi ish haqi keng namoyon etilgan bo'lib, ulardagi ish kuchi kasaba uyushmalari bilan qamrab olinmagan va mehnatga haq to'lash to'la-to'kis ma'muriyat tomonidan belgilanadi.

Mehnat bozori – bu shunday bir sohaki, u yerda pirovard natijada mehnatning har xil turlariga baho berish tarkib topadi. Har bir xodimning mehnatiga to'lanadigan ish haqi uning mehnat bozoridagi mavqei bilan mustahkam bog'liq bo'lib, mazkur bozordagi vaziyat va bundan tashqari, bandliyklik imkoniyatini ham belgilab beradi.

7. Mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlarining oddiyliyi, mantiqiyliyi va qulayliyi mehnatga haq to'lash tizimlarining mohiyati haqida keng xabardor bo'lishni ta'minlaydi. Xodimda ish haqi haqida tushunarli va batafsil axborot mavjud bo'lgandagina u jon-dili bilan berilib mehnat qiladi. Xodimlar qanday holatda ish haqining miqdori, ya'ni o'z moddiy farovonliklari darajasi oshishini aniq tassavur qilishlari lozim.

Ish haqini tashkil etish tamoyillarini ularni amalga oshirishga qaratilgan funksiyalarga muvofiq tasniflash maqsadga muvofiqdir. Har bir tamoyil faqat bitta funksiya bilan emas, balki bir qancha funksiyalar

bilan bog‘langan. Shunday bo‘lsa ham asosiy funksiyani ajratib ko‘rsatish mumkin. Har bir tamoyil birinchi navbatda ana shu funksiyani bajarishga qaratiladi.

Ish haqini tashkil etishning qayta qurilishi bozor talablariga muvofiq quyidagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:

- har bir xodimning o‘z mehnati samaradorligi rezervlarini aniqlash va foydalanishdan manfaatdorligini oshirish, ishlamasdan pul mablag‘lariga ega bo‘lish imkoniyatlariga barham berish;

- mehnatga haq to‘lashda tekischilik hollarini bartaraf etish, ish haqining ham yakka tartibdagi, ham jamoa mehnati natijalariga bevosita bog‘liqligiga erishish;

- turli toifadagi va kasb-malakali guruhlarga mansub bo‘lgan xodimlar mehnatga haq to‘lash nisbatlarini optimallashtirish, bunda bajariladigan ishlarning murakkabligini, kasblarning noyobligini e‘tiborga oladigan mehnat sharoitlari, shuningdek, pirovard natijalarga erishishga intilayotgan turli xodimlar guruhlari va ishlab chiqarish raqobatbardoshligining ta‘sirini hisobga olishni nazarda tutadi.

Sanoat ishlab chiqarishida mehnatga haq to‘lashni tartibga solish sohasidagi amaliy qadamlar haqida gapirganda, shuni qayd qilib o‘tish kerakki, xodimlarning turli toifalari mehnatiga haq to‘lash darajalarini tabaqalashtirish uchun yagona tarif stavkasi (YaTS) ishlab chiqilgan va joriy etilgan bo‘lib, u bir xil murakkablikdagi ish uchun barobar haq to‘lash imkonini beradi.

Mehnatga haq to‘lashni davlat yo‘li bilan tartibga solish kam ta‘minlangan, oz ish haqi oladigan xodimlarning ijtimoiy himoya qilinishini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar asosida ish haqining eng kam miqdorini belgilaydi.

Sanoat sohasida ish haqini tashkil etishda yagona tarif setkasi asosida asosiy ish haqini shakillantirish usulini yoki mehnatga haq to‘lashning tarifsiz tizimini tanlash muhimdir. Yagona tarif setkasi ustuvor bo‘lib, undan foydalanganda xodimlar ish haqini yanada obyektivroq tabaqalashtirishga erishiladi. Biroq iqtisodiy ahvol doimiy ravishda o‘zgarib turishi sababli korxonalarda ko‘pincha tarif



stavkalarni o'zgartirishga to'g'ri keladi, bu esa katta mehnat xarajatlari olib keladi. Mehnatga haq to'lashning tarifsiz tizimi ish haqini korxonalarining haqiqiy natijalariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq qilib qo'yadi. Ish haqini hisoblash esa kamroq mehnat talab qiladi, lekin bu faqat kichikroq korxonalarga taalluqlidir.

Ish haqini tashkil etish iqtisodiy samaradorlikning mezoni sifatida xo'jalik hisobi daromadining ish haqi fondiga nisbatan ustuvor o'sishi hisoblanadi. Bunday ustuvor o'sish ta'min etilmagan hollarda sabablarni sinchiklab tahlil qilish, foydani ko'paytirishga qaratilgan yoki mehnatga to'lanadigan xarajatlarni qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha tadbirlarni ishlab chiqish zarur bo'ladi.

Hozirgi sharoitda sanoatda ish haqini to'g'ri tashkil etishga uning asosiy elementi bo'lgan mehnatni normalash asosida erishish mumkin, u mehnat xarajatlari hajmi bilan unga to'lanadigan haq o'rtasidagi muvofiqlikni o'rnatish imkonini beradi. Mehnatni normalashni takomillashtirish sohasidagi ishlar normalarning sifatini oshirishga va avvalo mehnatning barcha turlari hamda xodimlarning barcha guruhlariga uchun baravar jiddiyligiga, qizg'inlikni ta'minlashga qaratiladi. Turli ishlab chiqarish uchastkalarida normalarning baravar jiddiyligiga, mehnat jarayonining ayrim elementlariga miqdoriy ahamiyati bo'yicha teng yoki yaqin jiddiylilik koeffitsientlarini o'rnatish hisobiga, yoki mehnat intensivligining normalardagi muayyan darajasini hisobga olish yo'li bilan erishiladi. Normalarning baravar jiddiyligi ishlab chiqarishning turli uchastkalarida mehnatning bir xildagi intensivligini nazarda tutadi. Shu munosabat bilan birinchi miqdor ish sur'atlari va bandlik vaqtini hisobga olgan holda belgilanishi mumkin.

$$J=K_s \cdot K_b$$

bu yerda  $J$  – mehnat intensivligi;

$K_s$  – ish sur'ati koeffitsienti;

$K_b$  – bandlik vaqti koeffitsienti.

Ish sur'ati koeffitsienti haqiqiy ish sur'atining jismoniy jihatdan maqbul bo'lgan narsaga munosabatini, bandlik koeffitsienti esa smena-dagi haqiqiy bandlik vaqtining smena uzunligi muayyan foizga teng

bo'lgan shartli hisoblash darajasiga munosabatini bildiradi. Agar mazkur ish o'rnidagi mehnat intensivligi normativdagi intensivlikdan farq qilsa, u holda uni pasaytirish yoki oshirish, xususan, mehnat normasini o'zgartirish choralarini amalga oshirish kerak bo'ladi.

Mutaxassislar va xizmatchilar mehnatini, shuningdek, xodimlarning ayrim toifalari mehnatini normalashni yaxshilash ularning ish bilan ta'minlanish darajasini, vazifalarning oqilona taqsimlanishini, boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish va hozirgi zamon texnikaviy vositalarini joriy etishni tahlil qilish asosida amalga oshirilishi lozim. Boshqaruvning ortiqcha bo'g'inlarini qisqartirish va tartibga solish, yordamchi xizmat ko'rsatuvchi va boshqaruv xodimlari sonini qisqartirish yuzasidan ish olib borish zarur. Har bir mutaxassisga ish reglamentini belgilab berish zarur, bu uning yil davomida kundalik ish bilan to'liq band bo'lishini ta'minlaydi. Reglament qoidalari aniq ravshan bo'lishi mutaxassisning mazkur ish o'rnidagi, ushbu lavozimdagi va tegishli malaka kategoriyasidagi ishining o'ziga xos tomonlarini aks ettirishi lozim.

Sanoat korxonalarining yangi tuzilmasini va uni boshqarish tizimlarini, xodimlar lavozimlari nomlarini ular haqiqatdan bajaradigan funksiyalarga muvofiq ravishda aniqlash sohasidagi ishlar yakunida shtat jadvalini tuzib chiqish uchun talab qilinadigan rahbarlar, mutaxassislar olinadi.

Bozor munosabatlarining shakllanishi sharoitida ish haqini tashkil etish masalalarini mustaqil hal qilish huquqini olgan korxonalar buning uchun turli andoza va yondashuvlardan foydalanadilar. Biroq bu sohadagi xorijiy tajriba haqidagi, mehnatga haq to'lash sohasida vatanimizda firmalar ichki andozalari to'g'risidagi ma'lumotlar banki mavjud emas. Bu bank faqat endigina shakllanib kelmoqda, mehnat va ish haqini tashkil etish bo'limining xodimlari odatda o'z korxonalarida mehnatga haq to'lashning eng maqbul andozalarini tanlash uchun yetarli bilimga ega emaslar. Ana shu sabablarga ko'ra ko'pchilik korxonalar, ayniqsa, o'rta va yirik korxonalar an'anaviy tarif tizimidan kelmoqdalar.

Bunday korxonalarda mehnatga haq to‘lashni tashkil etishning asosiy elementlari mehnatni normalash, tarif tizimi, ish haqining shakllari va tizimlaridir.

**Mehnatni normalash** – bu ilmiy asoslangan mehnat xarajatlari va uning natijalarini vaqt normalari, soni, xizmat ko‘rsatishning boshqarilishi, mahsulot ishlab chiqarish normalangan topshiriqlar normalarini aniqlashdir. Bular bo‘lmasa, mehnat miqdorini, har bir xodimning umumiy natijalarga qo‘shgan alohida hissasini hisobga olib bo‘lmaydi.

**Ish haqining shakllari va tizimlari** – bu mehnatning miqdor natijalari va sifatiga (uning murakkabligi, intensivligi, shart-sharoitlariga) bog‘liq ravishda ish haqini belgilash mexanizmidir.

**Tarif tizimi** turli normativ materiallar majmuidan iborat bo‘lib, ular yordamida korxonadagi xodimlar ish haqi darajasi ularning malakasi, ishlarning murakkabligi, mehnat sharoitlari, korxonalarining jo‘g‘rofik joyi va boshqa tarmoq xususiyatlariga qarab belgilanadi. Tarif tizimining asosiy elementlariga tarif setkalari, tarif stavkalari, tarif-malaka ma‘lumotnomalari, lavozim maoshlari, xizmatchilar lavozimlarining tarif ma‘lumotnomalari, tarif stavkalariga ustama va qo‘shimcha haqlar, ish haqiga doir mintaqaviy malaka koeffitsientlari kiradi.

**Tarif stavkalari** – razryadlar shkalasidan iborat bo‘lib, ularning har biriga o‘z tarif koeffitsienti berilgan va har qanday razryadning tarif stavkasi birinchi razryaddan necha marta ko‘pligini ko‘rsatib turadi. Birinchi razryadning tarif koeffitsienti birga tengdir. Razryadlar miqdori va ularga tegishli tarif koeffitsientlarining miqdori korxonalarda tuziladigan jamoa shartnomasida belgilanadi. Jamoa shartnomasi tarif bitimi asosida ishlab chiqiladi va xodimlar ahvolidan shartnoma shartlariga nisbatan yomonlashuvini nazarda tutmaslik lozim.

Tarif stavkasi – ish vaqti birligi hisobiga mehnatga haq to‘lashning pul bilan ifodalangan mutloq miqdoridir. Birinchi razryad tarif stavkasi va tarif stavkasi asosida shundan keyingi har bir razryadning tarif stavkasi hisoblab chiqiladi. Birinchi razryad tarif stavkasi korxonaning jamoa shartnomasi bilan belgilanadi va bir tomondan, uning moliyaviy imkoniyatlariga, ikkinchi tomondan, tarmoq bitimida aks ettirilgan

mehnatga haq to‘lash shartlariga bog‘liq bo‘ladi. Bunda u belgilangan eng kam ish haqi darajasidan kam bo‘lmasligi lozim. Tarif stavkasi ishchilar mehnatiga haq to‘lash darajasini belgilash uchun boshlang‘ich miqdor hisoblanadi, bunda korxonalar mehnatga haq to‘lashning qanday shakllari va tizimlari qo‘llanilishini e‘tiborga olmaydi.

Tanlangan vaqt birligiga qarab tarif stavkalari soatbay, kunbay va oylik maoshlardan iborat bo‘ladi. Eng ko‘p tarqalgan soatbay tarif stavkalari bo‘lib, ular asosida turli qo‘shimcha haqlar hisoblab chiqiladi. Kundalik va oylik stavkalar soatbay stavkalarni ish smenasidagi soatlar soniga va oy mobaynidagi ishlangan o‘rtacha oylik soatlar soniga ko‘paytirishi yo‘li bilan hisoblab chiqiladi.

**Tarif-malaka ma‘lumotlari** normativ hujjatlardan iborat bo‘lib, ular yordamida ish razryadi va ishchining razryadi belgilanadi. Ularda har bir mutaxassislikdagi har bir razryad ishchisi nazariy va amaliy jihatdan bilishi lozim bo‘lgan axborot mavjud bo‘ladi. Mazkur ma‘lumotnomalar uch bo‘limdan: «Ishlarning ta‘rif-tavsifi», «Bilish kerak» va «Ishlarga doir misollar» dan tashkil topadi. Ilgari, 1991-yil 1-yanvardan e‘tiboran kuchga kirgan «Korxonalar va tadbirkorlik faoliyati to‘g‘risida» gi qonun joriy qilinishiga qadar, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida foydalanish uchun majburiy bo‘lgan tarif-malaka ma‘lumotnomalari, hozirgi vaqtda tavsiyaviy xususiyatga ega bo‘lib, faqat ulardan foydalanuvchi korxonalar uchunгина normativ hujjat hisoblanadi. Malaka razryadi ishchiga odatda sex yoki korxonalar malaka komissiyasi tomonidan beriladi.

Mehnatga haq to‘lashni tashkil etish sohasidagi an‘anaviy yondashuvlardan foydalanuvchi korxonalar xodimlar ish haqining miqdorini belgilash uchun tarif setkalari, tarif stavkalari va tarif-malaka ma‘lumotnomalaridan foydalanadilar. Bunday korxonalarda boshqaruv mehnati xodimlari hisoblanuvchi xizmatchilar uchun shtat-maosh tizimi tatbiq etiladi. Uning o‘ziga xos xususiyati shtat jadvalining tuzilishidan iborat bo‘lib, unda muayyan korxonada mavjud bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati, har bir lavozim bo‘yicha xodimlar soni va maosh miqdori ko‘rsatiladi.

Korxonaning attestatsiya (shahodat berish) komissiyasi lavozimlarining malaka ma'lumotnomalaridan foydalanishi asosida attestatsiya jarayonida xizmatchilarga malaka toifalarini beradi. Xizmatchilar lavozimlarining malaka ma'lumotnomasi alohida tavsiflardan tashkil topadi. Har bir malaka tavsifi uch bo'limdan iborat: «Lavozim vazifalari», «Bilish kerak», «Malaka talablari».

Tarif-malaka ma'lumotnomasi singari xizmatchilar lavozimlarining malaka ma'lumotnomasi tavsiyaviy xususiyatga ega bo'lib, korxonalar ulardan ixtiyoriy ravishda foydalanishlari, uning bo'limlariga tuzatishlar va o'zgarishlar kiritishlari mumkin. Xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazib turish davriyligini korxonalar rahbariyatining o'zi belgilaydi.

Ma'lumki, mustaqillikka erishgandan so'ng mehnatga haq to'lash borasida anchagina o'zgarishlar yuz berdi. 1993-yilning 1-yanvaridan boshlab ish haqining stavka va maoshlari yangi tarif koeffitsientlari asosida to'lanish boshlandi. Bundan maqsad mehnatga haq to'lash tizimini tartibga solish, turli kasb va toifadagi xodimlarning ish haqlariga muayyan obyektiv nisbat belgilash ko'zlangan. 1997-yilda mehnatga haq to'lashning yagona tarif stavkasi 0 dan 28 gacha bo'lgan razryad darajalari qabul qilindi. Bu darajalar o'rtasidagi tarif koeffitsientlarining farqi 1.00 dan 5.83 gachani tashkil etgan edi.

Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 18-martdagi «Mehnatga haq to'lashning yagona tarif setkasini takomillashtirish to'g'risida»gi qaroriga muvofiq mehnatga haq to'lashning 0 dan 22 gacha bo'lgan razryad (daraja)lari qabul qilindi, unga ko'ra razryadlar o'rtasidagi farq 2-2,5 baravar ko'paydi. Boshlang'ich razryadning 550 so'm miqdori yagona tarif stavkasiga asos qilib olindi. Qo'shimcha haq va ustamlarning amaldagi tizimi, shuningdek, xodimlar ish haqiga qo'shiladigan rayon koeffitsientlari saqlab qolindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2022-yil 20-maydagi «Ish haqi miqdorini oshirish to'g'risida»gi PF-138-son Farmonga muvofiq 2022-yil 1-iyundan boshlab budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi miqdori 12 foizga oshirildi va 2022-yil 1-iyundan

boshlab O‘zbekiston Respublikasi hududida mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori-oyiga 920 000 so‘m, bazaviy hisoblash miqdori – oyiga 300 000 so‘m etib belgilandi.

Hozirgi paytda iqtisodiyot sohasida qo‘llanilatgan tarif setkasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnatga haq to‘lash, pensiyalar va boshqa to‘lovlar miqdorlarini aniqlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 2019-yil 21-may PF-5723-son Farmoni-ning ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2019-yil 16-sentabrdagi “Mehnatga haq to‘lash yagona tarif setkasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 775-son qaroriga asosan quyidagi 15-jadvalda keltirilgan.

### 15-jadval

#### O‘zbekistonda qo‘llanilayotgan mehnatga haq to‘lash yagona tarif setkasi

Mehnatga haq to‘lash razryadi	Tarif koeffitsienti	Mehnatga haq to‘lash razryadi	Tarif koeffitsienti
1	1,000	12	2,148
2	1,053	13	2,284
3	1,106	14	2,421
4	1,158	15	2,561
5	1,269	16	2,704
6	1,384	17	2,847
7	1,505	18	2,993
8	1,630	19	3,141
9	1,755	20	3,292
10	1,883	21	3,444
11	2,014	22	3,597

**Manba.** O‘zbekiston Vazirlar mahkamasining 2019-yil 16-sentabrdagi 775-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4514781>

Ko‘pgina korxonalar hozirgi vaqtda an‘anaviy tarif tizimi elementlari asosida mehnatga haq to‘lashni tashkil etishning yangi, yanada

samaraliroq usullarini izlash yo‘lidan bormoqdalar. Bu ijobiy hodisa bo‘lib, korxonalariga o‘zlari qarab chiqadigan masalalarni hal qilishda mustaqillik berishning natijasidir. Korxonada ishlovchi barcha xodimlarning mehnatga haq to‘lashni tashkil etish uchun umumiy tarif setkasidan foydalanish ancha keng tatbiq etilmoqda. Odatda, ishchilarga beriladigan razryadlar soni avvalgidek, ya’ni 6–8 bo‘lib qolmoqda. Setkadagi razryadlarning eng ko‘p miqdori va ularga mos keluvchi tarif koeffitsienti muayyan korxonada ixtiyoriy ravishda belgilanishi va albatta jamoa shartnomasida mustahkamlab qo‘yilishi lozim.

1. Sanoat xalq xo‘jaligining yetakchi tarmog‘i sifatida yuqori malakali, boy ma’naviyatga ega bo‘lgan mehnatkashlar jamoasini o‘zida mujassamlashtiradi.

2. Kadrlarning bilim, ilm va malaka darajasi mamlakat ishlab chiqarish kuchlarining eng muhim elementi, ya’ni unsuri hisoblanadi.

3. Kadrlar bilan ishlash sanoat taraqqiyotini rejalashtirish va bashorat qilish, sanoat korxonalarini tashkil etish va boshqarishdan iboratdir.

4. Sanoat kadrlarining sonini aniqlash, ularni tayyorlash va taqsimlash, mehnat topshiriqlarini sanoat ishlab chiqarishi rejasining boshqa bo‘limlari bilan bog‘lash uchun kadrlarni tasniflash alohida ahamiyatga ega.

5. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston sanoatida kadrlarni tarkibi va tuzilmasi miqdoriy va sifat jihatdan sezilarli darajada o‘zgardi.

6. Sanoatning izchil rivojlanishi kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish, tayyorlash va qayta tayyorlash masalasiga alohida e’tibor berishni taqozo etadi.

7. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Vazirlar Mahkamasining 2002-yil birinchi yarim yilligi yakunlariga bag‘ishlangan majlisidagi ma’ruzasida bunday degan edi: «O‘ta muhim va dolzarb vazifa borki, uni amalga oshirmasdan turib, biz nafaqat iqtisodiyot sohasida, balki umuman jamiyatni isloh qilish borasida o‘z oldimizga qo‘ygan maqsad va marralarga erisha olmaymiz. Gap Kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga joriy etish haqida, shu dastur orqali yuksak zamonaviy talablarga javob beradigan, yangicha fikrlaydigan,

mamalakatimizning kelajak taqdirini ishonib topshirish mumkin bo‘lgan yosh kadrlarni tarbiyalash haqida bormoqda».

8. Xodimlarning moddiy manfaatdorligi tamoyilini hayotga muntazam ravishda, ya’ni izchillik bilan tatbiq etish sanoat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli sanoat ishlab chiqarishida mehnatga haq to‘lashni yaxshilash va uning eng progressiv usullarini qo‘llashga alohida e’tibor berish kerak bo‘ladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Davlatning kadrlar siyosati: mohiyati, ahamiyati va mazmuni.
2. Sanoat ishlab chiqarishi va kadrlar. Ularni guruhlariga bo‘lish.
3. Kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish va ularni tarbiyalash.
4. Kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash.
5. Kadrlar sonini bashorat qilish va ulardan oqilona foydalanish muammolari.
6. Mehnat atamasining tushunchasi, mohiyati, ahamiyati.
7. Mehnatga haq to‘lash tamoyillari va shakllari.
8. Tarif tizimi va uning unsurlari.
9. Ish haqining bozor iqtisodiyotiga mos turlari.
10. Mehnatga haq to‘lashni erkinlashtirish masalalari.

### **Test topshiriqlari:**

*1. Mehnatga haq to‘lashning quyidagi sistemalari mavjud. Noto‘g‘ri variantni ko‘rsating.*

- A) vaqtbay;
- B) oddiy-vaqtbay;
- S) oddiy-ishbay;
- D) ishbay mukofot;
- E) akkord.



**2. Korxonada mehnat unumdorligini hisoblang. Hisobot yilida korxonada 620 mln so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Ushbu davr ishlovchilarining o‘rtacha yillik soni 320 kishi.**

- A) 1937 ming so‘m;
- B) 1850 ming so‘m;
- S) 516 ming so‘m;
- D) 325 ming so‘m;
- Ye) 1920 ming so‘m.

**3. Korxonada mehnat unumdorligini hisoblang. Hisobot yilida korxonada 660 mln so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Ushbu davr ishlovchilarining o‘rtacha yillik soni 420 kishi.**

- A) 1574 ming so‘m;
- B) 1600 ming so‘m;
- S) 1580 ming so‘m;
- D) 1700 ming so‘m;
- E) 1723 ming so‘m.

**4. Korxonada omborida tayyor mahsulotning yil boshidagi qoldig‘i 25 mln so‘mni tashkil etdi. Hisobot yilida korxonada 368 mln so‘mlik tovar mahsulot ishlab chiqarildi. Tayyor mahsulotning yil oxiridagi qoldig‘i 15 mln so‘mni tashkil qildi. Korxonada sotilgan mahsulot hajmi qanchani tashkil etgan?**

- A) 408 mln so‘m;
- B) 358 mln so‘m;
- S) 378 mln so‘m;
- D) 380 mln so‘m;
- E) 328 mln so‘m.

**5. Mehnat unumdorligining o‘zgarishiga quyidagi omillar ta’sir qiladi. Noto‘g‘risini ko‘rsating.**

- A) ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirish ;
- B) mehnatni va ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish;

- S) tabiiy va tashqi sharoitlarini o'zgartirish;
- D) ishlovchilar soni;
- E) ishlab chiqarishning tuzilishini o'zgartirish.

**6. Korxonada hisobot yilida 180 nafar ishlovchilar ishladi. Reja yilida mehnatni ilmiy tashkil qilishni takomillashtirish natijasida ishlovchilar soni 4 kishiga kamaydi. Ushbu omil natijasida mehnat unumdorligi qanday o'zgaradi?**

- A) 3,0 % ga ko'payadi;
- B) 3,0 % ga kamayadi;
- S) 2,37 % ga ko'payadi;
- D) 2,27 % ga kamayadi;
- E) 2,27 % ga ko'payadi.

**7. Korxonada mehnat unumdorligini hisoblang. Hisobot yilida korxonada 760 mln so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Ushbu davr ishlovchilarining o'rtacha yillik soni 182 kishi.**

- A) 4193,7 ming so'm;
- B) 4175,8 ming so'm;
- S) 4516 ming so'm;
- D) 4325 ming so'm;
- E) 4192,0 ming so'm.

**8. \_\_\_\_\_ bu ishlab chiqarish jarayoniga qatnashadigan mehnat buyumlaridir, bularga: materiallar, detallar, ishlab chiqarish jarayonida qayta ishlanuvchi, to'ldiriluvchi va to'planuvchi buyumlar, shuningdek, o'zida tayyorlangan yarim fabrikatlar, bitta sexda ishlab chiqarilishi to'liq tugatilmagan va korxonaning boshqa sexlarida yana qayta ishlanishi zarur bo'lgan buyumlar kiradi.**

- A) tugallanmagan ishlab chiqarish;
- B) ishlab chiqarish zaxiralari;
- S) tayyor mahsulot;
- D) ehtiyot qismlar;
- E) kelgusi davr xarajatlari.

## **X BOB. ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI, FOYDA VA RENTABELLIK**

### **10.1. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va uning tarkibi**

Milliy iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish birliklari (korxonalar) o'z faoliyati natijalaridan ko'proq daromad olishga harakat qiladi. Har qanday korxonalar nafaqat o'zining tovarini ancha yuqori baholarda sotishga, balki mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishga qilinadigan sarf-xarajatlarni kamaytirishga ham intiladi.

Tovarlarni sotish baholari, asosan, korxonalar faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tashqi sharoitlar bilan belgilansa, ishlab chiqarish sarf-xarajatlari korxonaning ishlab chiqarish va tayyor tovarlarni sotish jarayonlarini tashkil qilish samaradorligi darajasiga bog'liq. Lekin har qanday tovarni ishlab chiqarish va sotish uchun malum sarf-xarajatlarni talab etiladi.

**Ishlab chiqarish sarf-xarajatlari degan** tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishga qilinadigan barcha sarflar tushuniladi.

Ishlab chiqarish sarf-xarajatlari tarkibiga xomashyo, asosiy va yordamchi materiyalar, yonilg'ich va energiya uchun qilingan xarajatlarni, asosiy kapital amortizatsiyasi, ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, foiz to'lovlari va boshqa xarajatlarni kiradi.

Ishlab chiqarishga qilingan barcha sarf-xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot tannarxini tashkil qiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarni ikkiga bo'lib o'rganish mumkin: **bevosita ishlab chiqarish xarajatlari va muomala xarajatlari.**

**Ishlab chiqarish xarajatlari** deganda mahsulotni bevosita ishlab chiqarish uchun qilinadigan barcha sarflar (ish haqi, xomashyo va mineral sarflar, amortizatsiya va h.k.) tushuniladi. Tovar birligining qiymatida ishlab chiqarish xarajatlari faqat uning bir qismini tashkil qiladi. Ishlab chiqarish xarajatlari tovar qiymatidan foyda miqdoriga

ham. Misol uchun, xo‘jalik yurituvchi subyektning transporti va xodimlari tomonidan moddiy resurslarni yetkazish bilan bog‘liq xarajatlar (yuklash va tushirish ishlari ham shu jumlagi kiradi) ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlariga kirishi kerak (mehnatga haq to‘lash xarajatlari, asosiy fondlar amortizatsiyasi, moddiy xarajatlar va boshqalar).

**Muomala xarajatlari** tushunchasi tovarlarni sotish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, shu tovarlarni ishlab chiqaruvchidan olib, iste‘molchiga yetkazilguncha ketadigan sarflarga aytiladi.

Ular ikki guruhga bo‘linadi: qo‘shimcha muomala xarajatlari va sof muomala xarajatlari. Tovarlarini o‘rash, qadoqlash, saralash, transportga ortish, tashish va saqlash xarajatlari qo‘shimcha muomala xarajatlari hisoblanadi. Muomala xarajatlarining bu turlari ishlab chiqarish xarajatlariga yaqin turib, tovar qiymatiga kiradi va uning qiymatini oshiradi. Xarajatlar tovarlar sotilgandan keyin olingan pul tushum summasidan qoplanadi.

### XARAJATLAR TURLARI

Ishlab chiqarish xarajatlari				Muomala xarajatlari	
Ish haqi	Xomashyo xarajatlari	Yonilg‘i va moylash materiallariga xarajatlar	Amortizat siya va h.k.z	Qo‘shimcha muomala xarajatlari	Sof muomala xarajatlari

### 10.2. - chizma. Xarajatlar turlari

### Ishlab chiqarish xarajatlari

Tashqi xarajatlar	Ichki xarajatlar
Ishchi kuchiga sarflar	Bino-inshoot amortizatsiyasi
Xomashyo xarajatlari	Mashina-uskuna amortizatsiyasi
Yonilg‘i-energiyaga xarajatlar	Ijara haqi
Transport-aloqa xizmatlariga xarajatlar	Qarz pul mablaglari va uning uchun foizlar
Bank tijorat xizmatlari uchun sarf-xarajatlar	Me’yordagi foyda

### 10.2.-chizma. Ishlab chiqarish xarajatlari

#### UMUMIY XARAJATLAR

Doimiy xarajatlar	O‘zgaruvchi xarajatlar
Korxonona to‘lov majburiyatlari	Xomashyo
Soliqlar	Material
Amortizatsiya ajratmalari	Yonilg‘i
Ijara haqi	Transport xizmati
Qo‘riqlash xizmati xarajatlari	Ishchilar ish haqi va shu kabilar uchun xarajatlar
Boshqaruv xodimlar maoshi va h.k.	

### 10.3.-chizma. Umumiy xarajatlar

Sof muomala xarajatlari (sotuvchi maoshi va boshqalar) marketing (iste‘molchilik talabini o‘rganish) reklama va shu kabi xarajatlardan iborat bo‘ladi. Sof muomala xarajatlari tovar qiymatini oshirmaydi va

ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan tovarni sotgandan keyin olingan foyda g'isobidan qoplanadi.

Hozirgi zamon sarf-xarajatlar g'oyasi bo'yicha korxonalar ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan resurslar o'z resurslari yoki jalb qilingan resurslar bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra xarajatlar ichki yoki tashqi xarajatlarga bo'linadi.

**Tashqi xarajatlar** korxonalar o'zi uchun zarur resurs va xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirishi natijasida vujudga keladigan xarajatlardir. Bunday xarajatlarga yollanma ishchilar ish haqi, xomashyo va materiallar uchun to'lovlar, kredit uchun foiz to'lovlari, ijaraga olingan yer uchun renta, transport xizmati va boshqa har xil xizmatlar uchun to'lovlar kiradi. Tashqi xarajatlar to'lov hujjatlari bilan rasmiylashtiriladi, shu sababli buxgalteriya xarajatlari deb ham ataladi.

Korxonaning o'ziga tegishli bo'lgan resurslar foydalanish bilan bog'liq xarajatlar ichki xarajatlar deyiladi. Bunday xarajatlar pul to'lovlari shaklida chiqmaydi. Shu sababli ichki xarajatlar darajasini baholash o'z resurslari qiymatini shunga o'xshash resurslarning bozor baholariga taqqoslash orqali amalga oshiriladi.

Mazkur korxonalar doirasida tadbirkorlik faoliyatini ushlab turish uchun zarur bo'lgan to'lov-normal (me'yoridagi) foyda ham, renta va ish haqi bilan birga xarajatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Sarf xarajatlar ichki va tashqi xarajatlarga ajratish, korxonalar iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish yo'llarini qiyosiy tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga bog'liqlik darajasiga qarab doimiy va o'zgaruvchi xarajatlar ham farqlanadi.

Ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga (qisqarish yoki ortishi) bog'liq bo'lmagan tovarlarning hajmiga ta'sir etmaydigan xarajatlar doimiy xarajatlar deyiladi.

Doimiy xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lmaydi, uning o'sishiga ham bevosita ta'sir etmaydi va ishlab chiqarishning har qanday, hatto, nolinchida ham mavjud bo'ladi. Bunga korxonaning to'lov majburiyatlari (zayomlar bo'yicha foiz va boshqa), soliqlar,

amortizatsiya ajratmalari, ijara haqi, qo‘riqlash xizmatiga to‘lov, uskunalarga xizmat ko‘rsatish sarflari, boshqaruv xodimlari maoshi va shu kabilar kiradi.

Uzgaruvchi xarajatlar ishlab chiqariladigan tovar miqdorini oshishiga yoki kamayishiga ta‘sir qiladi va ishlab chiqarish hajmi uzgarishiga bog‘liqlikda uzgaradi. Unga xomashyo, material, yonilg‘i-transport xizmati, ishchilar ish haqi va shu kabilarga kilinadigan sarflar kiradi.

Ishlab chiqarishning har bir darajasida doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlar yig‘indisi umumiy yoki yalpi xarajatlarni tashkil qiladi. Mahsulot birligini ishlab chiqarishga qilinadigan sarf xarajatlarni hisoblash uchun o‘rtacha umumiy, o‘rtacha doimiy va o‘rtacha o‘zgaruvchan xarajatlar tushunchalaridan foydalanadi.

O‘rtacha umumiy xarajatlar yalpi (umumiy) xarajatlarning ishlab chiqarilgan tovar miqdoriga nisbatan teng. O‘rtacha doimiy xarajatlar doimiy xarajatlarni ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi. O‘rtacha o‘zgaruvchan xarajatlar o‘zgaruvchi xarajatlarni ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

Eng yuqori darajada foyda olishga erishish uchun tovar ishlab chiqarishning zarur miqdorini aniqlash zarur. Bunda iqtisodiy tahlil vositasi bo‘lib qo‘shimcha xarajat tushunchasi xizmat qiladi. Avvalo, qo‘shimcha xarajat deb, keyingi qo‘shilgan mahsulotlarning har bitta birligini ishlab chiqarish bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajatlarga aytiladi. Qo‘shimcha xarajatlarni har bir navbatdagi chiqarilgan qo‘shimcha mahsulot birligi uchun aniqlash mumkin.

Korxonada foydalanadigan ko‘plab resurslar miqdori, ya‘ni jonli mehnat, xom ashyo, yonilgi va energiya sarflari tovar hajmining o‘zgarishiga tez va oson ta‘sir qiladi. Boshqa resurslar sarfi ta‘sirida tovar hajmi o‘zgarishi uchun uzoq vaqt talab qilinadi. Masalan, og‘ir sanoat tarmoqlarining ishlab chiqarish quvvatlari ancha uzoq vaqt oralig‘ida mahsulot miqdorini o‘zgartirishiga ta‘sir qilishi mumkin. Demak, ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishga vaqt omili, ya‘ni xarajat qilingan pirovard natijasi olinguncha o‘tgan davr sezilarli ta‘sir

ko'rsatadi. Shu sababli vaqt omilidan kelib chiqib, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqa va uzoq muddatli davrda alohida tahlil qilinadi.

Korxonada ishlab chiqarish hajmini o'zgartirish uchun qisqa muddatli davrda faqat o'zining o'zgaruvchi xarajatlari miqdorini o'zgartirishi mumkin. Bu qisqa muddatli xarajatlardir.

Ishlab chiqarish quvvatlari esa (ishlab chiqarish inshootlari maydoni, mashina va uskunalarning miqdori) doimiy bo'lib qoladi hamda bu davr faqat ulardan foydalanish darajasini o'zgartirish uchun yetarli bo'lishi mumkin.

Uzoq muddatli davr-bu korxonaning ishlab chiqarish quvvatlarini ham o'z ichiga olgan, bugun band bo'lgan resurslari miqdorini o'zgartirish uchun yetarli bo'lgan davrdir. Bu davr davomida boshqa tarmoqlar faoliyat qilib turgan korxonalar mazkur tarmoqqa kirib kelishi mumkin.

Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, ishlab chiqarish quvvatlarining o'zgarishi taqozo qilingan qisqa va uzoq muddatli davr davomiyligi ayrim tarmoq va korxonada xususiyatidan kelib chiqib farqlanishi mumkin. Masalan, yengil sanoat tarmog'ida kiyim kechak ishlab chiqaradigan kichkina firma, bir necha qo'shimcha tikuv mashina o'rnatish bilan o'zining ishlab chiqarish quvvatlarini qisqa vaqtda (bir necha kunda) oshirishi mumkin. Og'ir sanoat tarmoqlarida yangi quvvatlarni ishga tushirish uchun bir necha yil talab qilinadi. Oqibat natijasida barcha xarajat turlari o'zgaradi va o'zgaruvchi miqdorlar bo'lib qoladi.

## **10.2. Ishlab chiqarish xarajatlariga ta'sir etuvchi omillar**

Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish chuqur tanglikka, yo'qlikni cheklab o'tishga, intilishga, fan va MM texnikaning ilg'or texnologiyaning eng yangi yutuqlarini izlash va joriy etishga undaydi.

Bularning barchasi pirovard natijada keskin raqobatchilik sharoitida ishlab chiqarishning barqarorligiga erishishga inqirozning oldini olishga yo'naltirilgan. Bu holat kengroq ko'rilganda, bozorda talab bilan taklif o'rtasida qulay muvozanatning ta'minlanishiga olib keladi. Bizga



kapitalistik ishlab chiqarish usulining eng katta nuqsoni, illati sifatida targ'ib qilib iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishning qudratli omiliga aylanmoqda.

Bugungi kunda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib borish va unga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilib berish juda muhim hisoblanmoqda. Chunki ishlab chiqarishning rivojlanib borishi va yuksalishi xarajatlarni qisqartirib borish, unga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish, aniqlash kabi xususiyatlarga ega hisoblanadi. Bu sohada dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari o'zlarining taraqqiyot darajasiga erishgandir. Ma'lumki, sobiq totalitar tuzim davrida barcha ishlab chiqarish markazlashgan, rejalashtirilgan tartibda edi. Shuning uchun ham isrofgarchilik juda ko'p miqdorda edi. Ishlab chiqarish xarajatlarning ortib ketishi mahsulot sifatining buzilishiga, shuningdek, uning «o'tmay» qolishiga sabab bo'ldi. Natijada o'sha davrda mamlakat ishlab chiqarishi inqirozga uchradi. Bu mamlakat uchun fojiali hol edi. Chunki egasiz mulkning qadri bo'lmaydi, tekin narsani esa samarasi bo'lmaydi. Bu barchamizga ma'lumdir.

Shuning uchun ham mustaqillikka erishganimizdan keyin, prezidentimizning oqilona fikrlari, ularning tashabbuslari bilan eng asosiy e'tibor shu sohaga karatiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlariga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

1. Mehnat unumdorligini oshirib borish.
2. Mehnatni ilmiy tashkil qilish.
3. Ishchi kuchlarini to'g'ri joylashtirish va ishlab chiqarishga to'g'ri jalb etish.
4. Fan-texnika taraqqiyotini yuksaltirib borish, tadbiq qilish.
5. Kadrlar malakasini oshirib borish.
6. Xomashyoresurslaridan samarali va unumli foydalanish.
7. Ishlab chiqarishni boshqarishni to'g'ri tashkil etish.

Umuman olganda, bu omillarni quyidagicha birlashtirish mumkin: yangi fan-texnikani qo'llash mehnat unumdorligini oshirib borish, xomashyosarflarini qisqartirib borish. Har qanday jamiyatning muhim

bo'g'inlaridan asosiysi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib borishdir. Har bir faoliyat ko'rsatayotgan korxonona ham o'z oldiga ana shuni vazifa qilib qo'yadi, ya'ni korxonaning asosiy maqsadi, ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirib maksimal foyda olishdir, ko'proq mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan.

Ishlab chiqarish xarajatlariga yuqorida sanab o'tilgan muhim omillar ta'sir etar ekan, bularning barchasini birgalikda amalga oshirish juda qiyin. Masalan: xomashyo zaxiralarining eng arzon kanallarini qidirib topish va samarali ishlatishni ta'minlash, ishchilarni ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish, fan-texnika taraqqiyotini yuksaltirib, uni ishlab chiqarishga tadbqiq qilish, umuman, bularni birvarakayiga amalga oshirish murakkab jarayonidir. Lekin shu omillarni barchasini birgalikda olib borilishi iqtisodiy samaradorlikka erishishning asosiy sharti hisoblanadi.

Respublikamizda bunday ishlarni rivojlantirish maqsadida ilgari davlat markazlashgan korxonalar tizimi o'zgartirilib, xususiylashtirish ishlari yo'lga qo'yiladi. Bugungi kunda umumiy ishlab chiqarishning 84% asosan xususiy va qo'shma korxonalariga to'g'ri kelmoqda. Bu degan so'z har bir korxonona o'zining ishlab chiqarish jarayonlariga va xarajatlarni kamaytirib borish omillariga jiddiy ta'sir qilmoqda deganidir.

Albatta, bunday munosabatlar ishlab chiqarishning pasayishini oldini olish ishsizlikka yo'l qo'ymaslikni ta'minlaydi. Ishlab chiqarish va tadbirkorlikni rivojlantirib borish esa unga tamal toshi bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, ishlab chiqarish xarajatlariga asosan fan-texnika yutuqlari, yuqori ishchi kuchi, xomashyo resurslari asosiy ta'sir ko'rsatadi. Mehnatni ilmiy tashkil qilgan holda ishlab chiqarishni yuksaltirib borish ham muhimdir. Har bir ishchi o'zining kasbini, qilayotgan ishini sevishi kerak. Bu esa kadrlar malakasizligiga barham beradi, natijada ishlab chiqarish yuksaladi. Ilmiy tadqiqotlardan ma'lumki, ishchilarning u ishdan bu ishga ko'chib yurishlari natijasida ish samaradorligi 30-40% foizgacha kamayar ekan. Bu degan so'z

ishlab chiqarishning asosiy qismi yo‘qoldi degandir. Shu sababli eng asosiy e’tibor ishchi o‘rinlarini to‘g‘ri tashkil etishga qaratilishi zarur.

Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan ko‘plab korxonalar ishlab chiqarish xarajatlariga ta’sir qiluvchi omillarini har tomonlama o‘rganib, shu asosda ish yuritmoqdalar.

Yangi bozor tizimi islohotlarni amal qilishi iqtisodiyotida juda muhim sanalmoqda va ahamiyati ortib bormoqda. Har bir korxonaga o‘z oldiga xarajatlarni pasaytirish, unga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilishni ustuvor vazifa qilib qo‘yish kerak, Ana shundagina iqtisodiyot yuksaladi, ishlab chiqarish taraqqiy etadi.

### **10.3. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning asosiy yo‘nalishlari va iqtisodiy samaradorlik**

Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining uzluksiz pasayishi bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarish usulining qonuniyatidir. U mehnat unumdorligining to‘xtovsiz o‘sishi, mehnatkashlar madaniy, texnikaviy darajasini yuksalishi, moddiy va mehnat resurslaridan ratsional foydalanish, xo‘jalik yuritish usullarining takomillashtirishi bilan ta’minlanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish uchun nurashning ahamiyati yildan yilga oshib bormoqda, chunki uni pasaytirishning har bir foizning absolyut hajmi o‘sib bormoqda. Umuman, respublika bo‘yicha sanoat mahsuloti tannarxini faqat 1% ga pasaytirilsa 3 mlrd. so‘m miqdorida iqtisod qilinadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining pasaytirishning yillarini keltiramiz. Ishlab chiqarish xarajatlarining pasaytirishda ishlab chiqarishning texnikaviy darajasini oshirish katta ta’sir ko‘rsatadi. Yangi texnikani joriy qilish va mahsulot tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish jarayonlarining kamayishiga kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Ular moddiy resurslardan yanada samaraliroq foydalanish, buyumlarni tayyorlashga ketadigan mehnat sarfini kamaytirish imkonini beradi.

Amaldagi jixozlarni zamonaviylashtirish hamda kulanilayotgan texnikadan foydalanishni hisobga ishlab chiqarish xarajatlarini anchagina kamaytirishga erishish mumkin. Yangi texnika va progressiv texnologiya asosida o'tgan va jonli mehnatni tejashga erishiladi.

Moddiy resurslarda buyumlashgan o'tgan mehnatni tejash xuddi shu miqdordagi xomashyova materiallardan ko'proq mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi; jonli mehnat sarfini tejash mahsulot unumdorligini oshirish imkonini beradi, yani har bir ishchiga hisoblanganda ko'proq mahsulot ishlab chiqarishga imkon yaratadi. Bunga fan-texnika taraqqiyoti yordam beradi. Yangi texnika va ilg'or texnologiya ishlab chiqarishni boshqarishni takomillashtirish asosida mehnat unumdorligi oshib boradi bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga olib keladi.

Moddiy va pul mablag'larini sarflashda qat'iy iqtisodiy tejashga rioya qilish katta ahamiyatga ega. Asbob-uskunalarni asrashga dori sarflarini kamaytirish, material shuningdek, ishlab chiqarish chiqindilaridan maksimal foydalanish. Brak natijasida ro'y beradigan nobudgarchiliklarni kamaytirish fondlarining samaradorlik darajasini oshirish, ish haqi fondini ratsional sarflash sex va umumzavod xarajatlarini kamaytirish – bularning barchasi u yoki bu darajasida mahsulotning arzonlashuviga ta'sir ko'rsatadi.

Moddiy texnika taminotini yaxshilash ishlab chiqarish xarajatlarini kamaishiga olib keladi. Korxonaning xomashyomaterial, yoqilg'i va energiya yetkazib berishning uzilib qolishi ishlab chiqarish ritmini buzishga, bekor turib qolishlariga oy oxirida haybarakallachilikka va oqibat natijada unumsiz xarajatlarga olib keladi. Korxonada iqtisodiyotga haddan tashqari normativdan ortiqcha zaxiralarni bo'lishi ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zaxira ko'payib ketganda oborot mablag'lari oshib ketadi, moliyaviy ahvol yomonlashadi, ishlab chiqarishning rentabelligi pasayib ketadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga mehnatni tashkil etishda takomillashtirish ta'sir ko'rsatadi. Har qanday texnikadan hatto yangisidan ham ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil qilmay turib, maksimal

ravishda foydalanish mumkin emas. Shuning uchun texnologik protsesslarni mexanizatsiya va avtomatlashtirish bilan bir qatorda, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishga katta e'tibor berish kerak.

Mahsulot tannarxini pasaytirishda hisobotning roli kattadir. Hisob olib borish yoqilg'i va energiyadan, xomashyova materiallardan ratsional foydalanishga yordam beradi, xarajatlarni kamaytirish va korxonada jamg'armasini oshirish imkonini beradi. Kollektivning kuchini yetishtiriladigan mahsulotning tannarxini pasaytirishga qaratish uchun ishlab chiqarishga qilinadigan xarajatlarni to'g'ri rejalashtirish va hisobga olish zarur. Iqtisod qilish yo'llarni aniqlash ortiqcha xarajatlarning sababini ochib tashlash uchun bu xarajatlarni doimiy analiz qilib turish kerak. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish rejasining bajarilishini analiz qilish ishlab chiqarish rentabelligining oshishi uchun korxonadagi barcha ishlarning takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Lekin analiz fakatgina tannarxning pasaytirish rejasini bajarilishiga qo'yilgan baho bilan chegaralanmaydi, u ishlab chiqarish xarajatlarini yanada kamaytirish uchun tahliliy va texnikaviy harakatlarni ham ko'rish kerak.

Mahsulot ishlab chiqarishni analiz qilishning ishchilarning aktiv ishtirok etishlari uni pasaytirishning muhim yo'lidir.

Xarajatlarni korxonaga bog'lik bo'lmagan omillarga qarab o'zgaradi. Masalan; resurs narxi har xil xizmat haqqining tebranishi korxonada xohishidan qat'iy nazar xarajatlarni o'zgartiradi. Korxonada ishlab chiqarish ko'lami kengaysa, resurslar sarfi qisqaradi, chunki ular kamroq isrof etiladi. Resurslarni tejovchi texnologiya joriy etilganda xarajatlarni keskin qisqaradi. O'rtacha xarajatlarni mehnat unumiga nisbatan teskari mutanosiblikda o'zgaradi. Mehnatni unumining ortishi ham moddiy ham mehnat sarfini qisqartiradi bozordagi narx binobarin tovar barqaror sharoit mehnat unumdorligi xarajatlari pasaytirish orqali foydani ko'paytiradi.

Xarajatlarni doimiy ravishda pasaytirib borish korxonada foydasini oshirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Zero, mahsulot bahosi

tarkibining asosiy elementlari bu xarajat va foydadir. Binobarin xarajatlarni qanchalik qisqarib borsa, shunga mos foyda oshib boradi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish asosiy yoʻnalishlaridan biri bu fan texnika taraqqiyotining (FTT) yutuqlaridan oqilona foydalanishga erishishdir. FTT yutuqlaridan foydalanish mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan, xomashyo materiallaridan yoqilgʻi resurslaridan yanada toʻlaroq foydalanishga imkon beradi. Shuningdek, yangi unumdorligi yuqori boʻlgan samarador mashina, dastgohda yangi texnologik jarayonlar yaratish, uni ishlab chiqarish joriy etish pirovard natijada korxonada ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga sharoit yaratadi. FTT ning XX asr ikkinchi yarmidagi oʻziga xos jihati prinsipal yangi texnologik usulga oʻtilishi bilan xarakterlanadi. Uning mavjud texnologik ishlab chiqarish usullaridan ustunligi faqat nisbatan yuqori iqtisodiy samaradorligida emas, balki sifat nuqtai nazaridan moddiy neʼmatlar va xizmatlarni ishlab chiqarish imkoniyatidir. Xarajatlarni pasaytirish asosiy yoʻnalishlardan biri bu ishlab chiqarish va mehnat tashkil etishning takomillashtirishidir. Ushbu yoʻnalish ishlab chiqarishda yoʻqotishlarni kamaytirish yoʻli bilan xarajatlarni pasaytirish bu esa oʻz navbatida jonli mehnatni iqtisod qilishga yaʼni ishlab chiqarish unumdorligini oshishiga olib keladi.

Samaradorlik iqtisodiy kategoriya sifatida odamlarni ayrim ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan mahsulotlar qobiliyatlarini anglatadi. Samaradorlik miqdoriy oʻlchov darajasiga ega boʻladi. Iqtisodiyotda eng avvalo yuqori samaradorlik koʻpincha imkoniyatlari bilan birgalikda isteʼmol qilishdan hosil boʻlgan samaradorlikning yuksalishini izohlaydi. Barcha samaradorliklar majmuasi eng yuqori maksimal samaradorliklardan iborat ekanini izohlash qiyin emas. Har bir isteʼmol qilinayotgan yangi tovar oʻzining eng yuqori samaradorlik darajasiga teng samaradorlik darajasini kengaytiradi.

Maksimal samaradorlikni pasaytiruvchi qonunga koʻra navbatdagi har bir isteʼmol qilinayotgan neʼmatni yuqori samaradorlik darajasi oldingi bosqichga nisbatan past boʻladi.

Demak, bir o'lovga to'g'ri keluvchi qo'shimcha ne'matlar hosil qilish samarasi oldingi bosqichda olingan natijalardan pastroq bo'ladi.

Iqtisodiy samaradorlik bir necha iqtisodiy ko'rsatgichlar orqali tavsiflanadi. Ishlab chiqarish samaradorligi bir qancha juz'iy ko'rsatgichlar orqali tavsiflanadi. Samaradorlikning umumiy ko'rsatgichi mehnat unumdorligidir. U umummahsulot midori (MM) ning jonli mehnat (JM) sarfiga nisbatan ifodalanadi. Jonli mehnat sarfi kunlarda, soatlarda hisoblanadi. Mehnat unumdorligi bilan birga mehnat sig'imi degan samaradorlik ko'rsatgichi ham qo'llanadi. Mehnat sig'imi jonli mehnatni mahsulot midoriga nisbatan orqali aniqlanadi. Mahsulotning material degan iqtisodiy ko'rsatgich ham bizning davrimizda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Material sig'imi moddiy ashyolar sarfini (BM) mahsulot midori (MM) ga nisbatan orqali aniqlanadi. Ishlab chiqarish fondlarini samaradorligi mahsulotning fond sig'imi yoki fondlar qaytimi ko'rsatgichlari orqali o'lchanadi. Ko'rinib turibdiki, juz'iy ko'rsatgichlar samaradorlik umumiy ifodasini aniqlashtirilgan shaklida bu nisbatlarda mahsulotlar midori ko'rsatgichlari o'rnida jami mahsulot yalpi milliy mahsulot, jami ichki mahsulot, sof mahsulot, qo'shimcha mahsulot, uning pul shakllaridan biri foyda milliy daromad kabi kategoriyalar qo'llaniladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ayniqsa, respublikamizning hozirgi sharoitida samaradorlikni oshirish juda jiddiy masaladir. Gap shundaki, hozirgi davrda ko'pgina resurslar chegaralangan ularning aksariyat qismi xorijdan keltiriladi, zamonaviy texnologiya yetishmaydi, kadrlar malakasi yuqori emas. Shuning uchun resurslardan tejamli foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish milliy va xorijiy sarmoyalarni eng zarur sohalarga joylashtirish yuqori malakali kadrlar tayyorlash kabi samaradorlikni oshirish vositalariga yetarlicha e'tibor berish talab qilinadi.

#### 10.4. Foydaning mazmuni. Foyda me'yori va massasi

Jamiyat nuqtai nazaridan takror ishlab chiqarish samaradorligi cheklangan resurslar samarali foydalanishga bog'liq. Bu samaradorlik o'zida resurslarni taqsimlash samaradorligi va ishlab chiqarish samaradorligini ifodalaydi. Resurslarni taqsimlashning samaradorligiga erishish uchun resurslar korxonada va tarmoqlar o'rtasida shunday taqsimlanishi kerakki, natijada jamiyatga eng zarur bo'lgan mahsulotlarning ma'lum turlari olishini kerak. Ishlab chiqarish samaradorligi jamiyat uchun zarur bo'lgan har bir tovar eng kam sarf xarajatlari (resurs sarflari) bilan ishlab chiqarilishini taqozo qiladi. Aniqroq aytganda, u ishlab chiqarish jarayonida qo'llaniladigan resurslar miqdori bilan olingan mahsulot miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni xarakterlaydi. Sarf xarajatlarning mavjud hajmida olingan mahsulotlarning ko'prok miqdori ishlab chiqarish samaradorligi oshganligini bildiradi.

Korxonada faoliyatining samaradorligi darajasiga baho berishda ham uning erishgan natijasi (iqtisodiy yoki sof foyda) ishlab chiqarish sarf-xarajatlari yoki qo'llanilgan resurslar miqdori bilan taqqoslanadi.

Foyda ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan qo'shimcha mahsulotning o'zgargan shaklidir.

$$F=N-T$$

Bu yerda, **F** – ishlab chiqaruvchining foydasi;

**N** – ulgurji narx;

**T** – mahsulot tannarxi.

Demak, foydaning asl manbai qo'shimcha mahsulot bo'lib, u mahsulot sotilgandan keyin pul shaklida namoyon bo'ladi.

**Mahsulot tannarxi** = Sarflangan ishlab chiqarish vositalari qiymati + Ish haqi

**Mahsulot qiymati** = Mahsulot tannarxi + Yalpi foyda.

Tovarlarni sotishdan tushgan yalpi pul tushumidan shu mahsulotlarni ishlab chiqarishga qilingan barcha xarajatlari (tannarx) chiqarib tashlansa korxonaning balans foydasi yoki brutto foydasi qoladi. Bu iqtisodiy foyda deb ham ataladi



Korxonaning umumiy foydasidan byudjetga (asosan, soliq to'lov-lari) banklarga (olingan ssuda uchun foiz) to'lovlar va boshqa majburiyatlar chiqarib tashlansa korxonada sof foydasi qoladi.

Buxgalteriya foydasi sotilgan mahsulot uchun tushgan umumiy pul summasidan ishlab chiqarishning tashki xarajatlari chiqarib tashlanishi natijasida hosil qilinadi. Shu sababli buxgalteriya foydasi iqtisodiy foydadan ichki xarajatlar midoriga ko'p. Bunda ichki xarajatlar har doim o'ziga normal foydani ham oladi.

Korxonada foydasining mutloq miqdori uning massasini qashkil qiladi. Foyda massasini ishlab chiqarish xarajatlari (tannarx) bilan taqqoslash foyda normasi yoki rentabellikni ko'rsatadi.

Amaliyotda foyda normasini hisoblashning ikki variantidan foydalaniladi. Bular foydaning joriy sarflarga – korxonada xarajatlari (tannarx) yoki avanslangan mablag'larga (asosiy va aylanma fondlar) nisbatidir. Bu hisob usullarning ikkalasi avanslangan mablag'larning aylanish tezligi ko'rsatgichi orqali o'zaro bog'langandir. Bu bog'lanish quyidagi tarzda ko'rinadi:

$$F_n = \frac{F_m}{X} 100\%$$

Bu yerda,  $F_n$  – foyda normasi;  $F_m$  – foyda massasi ;  $X$  – iqtisodiy va ishlab chiqarish xarajatlari;

$$F_n = \frac{F_m}{K_{avans}} 100\%$$

Bu yerda,  $F_n$  – foyda normasi;

$F_m$  – foyda massasi;  $K_{avans}$  (Asosiy kapital + aylanma kapital) - korxonada avanslangan mablag'lari yoki asosiy va aylanma kapitalning o'rtacha yillik qiymati

**Foyda normasi** ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmiga to'g'ri mutanosib hamda foydalanilgan avanslangan mablag'lar qiymatiga teskari mutanosibdir. Shu tufayli foyda normasi korxonada ish samaradorligini integral ko'rsatgichi hisoblanadi.

Foydaning o'sishiga, chiqarilayotgan mahsulot umumiy hajmi o'zgarmagan holda ikki yo'l bilan: yoki ishlab chiqarish xarajatlarini

kamaytirish hisobiga, yoki bahoni oshirish hisobiga erishish mumkin. Bahoning o'sishi ba'zi iqtisodchilarning foyda normasi ko'rsatgichini bartaraf etib bo'lmaydigan qusurga ega bo'lgan va shu sababli samaradorlikni o'lchash uchun mutlaqo yaroqsiz ko'rsatgich sifatida tanqid qilishlariga sabab bo'ldi.

### **10.5. Zarar ko'rish va bankrotlik**

Bozor iqtisodiyoti tasodiflardan holi emas. Bozorda faoliyat ko'rsatayotgan firmalar har xil vaziyatga tushib qolishi mumkin. Firmaning ishi yurishib tezda boy firmaga aylanishi yoki zararga yo'liqib bor butidan ajralib qolishi ham hech gap emas.

Tadbirkorlik xatari ham mana shunda. Bu xatarni bartaraf etib bo'lmaydi. Ammo uni kamaytirish mumkin. Buning uchun biror ishga qo'l urishdan avval uning ijobiy va salbiy tomonlarini hisobga olish talab qilinadi.

Firmani o'z foydasi va hatto kapitalidan ajralib qolish ehtimoli tadbirkorlik xatari deyiladi.

Xatar - *birinchidan* firmaning ishini uquvsiz yuritishdan, - *ikkinchidan*, firmaga bo'lmagan holda vaziyatning o'zgarishidan, ya'ni bozorda noaniqlik bo'lishidan kelib chiqadi.

Bozordagi resusrlar va tovarlar narxining kutilmaganda o'zgarib qolishi mijozlar va sheriklarni aynib ketishi, soliqlar va boj pulining o'zgarishi, xalqaro vaziyatning keskinlashuvi kabilar xatarni yuzaga chiqaradi. Xatarning oldini ola bilish va uni yengib o'tish hamma firmaning ham qo'lidan kelavermaydi.

Firmalar yo'liqadigan xatarni uch turga bo'lish mumkin.

**1. Ishlab chiqarish xatari.** Bu mo'ljallangan hajmida va kerakli turdagi tovarlarni yaratishga rahna soluvchi xavf-xatar.

**2. Tijorat xatari.** Bu mo'ljallangan resurslarni bozordan ola bilmaslik xavf-xatari.

**3. Moliyaviy xatar.** Bu firma moliya bozorida va soliq to'lash sohasida yo'liqadigan xavf-xatardir. Aytaylik, firma mo'ljallangan

kreditni ololmaydi va foizi ortib ketadi, firma aksiyasini narxi tushadi, davlatdan moliyaviy yordam tegmay qoladi, natijada firma xatar girdobiga tushib qoladi va hokazo.

Yuqorida aytilgandek, bozorda faoliyat ko'rsatayotgan har qanday firmaga xatar soya tashlab turadi.

Undan tamoman qutilish mumkin bo'lmasa, uning ta'sirini kamaytirish imkoni bor va bu firmani o'ziga bog'lik. Xatarning eng halokatlisi bankrot bo'lish, sinish xavf-xataridir. Biror bir ishga pul sarflashdan zarar ehtimolini imkoni boricha kamaytirishning har xil yo'l-yo'riqlari ishlab chiqiladi. Eng avval, firma xatarini cheklab o'tish yo'llarini axtaradi. Qayerga qancha pul qo'yish, qaysi sohada ish boshlashdan oldin, qayerlarda ish qanday ketayotganligini o'rganiladi, axborot to'planadi. Axborot tovar narxi, savdo hajmi raqobatchilik vaziyati xarajatlar darajasi, bozorning kengayishi imkoniyati resurslar narxi, reklama holati va boshqa sohalar qamraydi. Shularni tahlil etib, pul qo'yish yoki qo'yimaslikka ahd qilinadi. Bunda, sinalgan yo'llardan biri pul foyda bo'lmasada, xatari eng kam ishga qo'yiladi. Boshqa yo'l tadbirkorlik xatarini sug'urtalash hisoblanadi. Bu yo'l tanlanganda sug'urta puli kutiladigan foydadan ma'lum darajada kamroq bo'lishi lozim, aks holda zarar qilish mumkin.

Xatarga yo'liqmaslik kafolati yo'q, ammo uni kamaytirish qaysi birini afzal ko'rish firmani ishi hisoblanadi.

## **10.6. Foydani taqsimlanishi va ishlatilishi**

Korxonada foydani taqsimlash tartibi. Korxonada foydasini bir qismi ishlab chiqarish fondlariga to'plash uchun sarflanadi. To'lovlar ulardan yaxshi foydalanishni rag'batlantirish uchun joriy qilingan. Sanoatning turli tarmoqlarida to'lovlar asosiy ishlab chiqarish fondlari va normalashtiriladigan oborot mablag'lar qiymatining uch foizidan uch foizigachasini tashkil etadi.

Qayd qilingan (renta) to'lovlar yordamida davlat tomonidan qisman ortiqcha foyda olinadi. Bu turli tabiiy sharoitlar, turli xil texnikaviy

darajalar mahsulot turlari va hokazolar bilan ifodalandi. Bunday tafovutlar natijasida ba'zi bir korxonalarda qo'shimcha qiymat, ortiqcha foyda vujudga keladi. Buni esa davlat undirib oladi. Qayd qilingan to'lovlarni undirish korxonada ishini yaxshilashga bo'lgan moddiy manfaatdorlikni pasaytirilmagan holda tashkil qilinadi.

Fondlar uchun to'lovlar va qayd qilingan (renta) to'lovlari birinchi holda yudjetga qo'shiladi. Bank kreditlari uchun foizlar ham to'lanadi.

Foydaning qolgan qismi iqtisodiy rag'batlantirish fondini tashkil qilish, markazlashgan kapital qo'yilmalarini mablag' bilan ta'minlash, bank kreditlarini to'lash, o'z oborot mablag'larini ko'paytirish, turar joy kommunal xo'jaliklaridan foydalanish natijasida ko'rilgan zararni madaniy-maishiy muassasalarni saqlash, xarajatlarni qoplash, rezervlar tashkil etishga sarflanadi. Foydaning bundan keyingi qolgan qismi, ya'ni foydaning erkin qoldig'i davlat byudjetiga topshiriladi.

Korxonada foyda hisobida uch xil iqtisodiy rag'batlantirish fondi tashkil etiladi: moddiy rag'batlantirish, ijtimoiy- madaniy tadbirlar va uy-joy qurilish, ishlab chiqarishni rivojlantirish.

Foydani hajmi butun korxonada ishining samaradorligini to'la tarzda ifodalaydi. Buning uchun yana bir ko'rsatkich rentabellik darajasidan ham foydalaniladi rentabellik xo'jalik faoliyatini foydasi va u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarishning daromadligini ifodalaydi. Rentabellik korxonada yillik foydasining uning foizda ifodalangan asosiy ishlab chiqarish fondlari va oborot mablag'larining o'rtacha yillik qiymatiga nisbatan iborat. Rentabellik darajasi quyidagi formula bilan hisoblanib chiqiladi:

$$R = \frac{Fu}{Ai/ch + MAM} 100\%$$

Bu yerda: Fu-foyda sum hisobida

Ai/ch - asosiy ishlab chiqarish fondlarini qiymati, so'm hisobida

MAM - me'erashtirilgan aylanma mablag'lari qiymati, so'm hisobida.

## Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ishlab chiqarish xarajatlarining mohiyati, turlari?
2. Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar.
3. Ishlab chiqarish hajmlari usgan sharoitda doimiy va o'zgaruvchan hamda o'rtacha xarajatlar dinamikasining xususiyatlari.
4. Cheklangan xarajatlarning firma (korxonona) strategiyasidagi roli.
5. Ichki va tashqi xarajatlar.
6. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning asosiy yo'nalishlari.
7. Makro va mikro darajadagi daromad tushunchasi.
8. Foyda iqtisodiy kategoriya sifatida, uning manbalari.
9. Foyda me'yori va massasi, ularga ta'sir qiluvchi omillar.
10. Foydaning taqsimlanishi va ishlatilishi.
11. Korxonaning bankrot bo'lishi. Korxonalarni sanatsiya qilish.
12. Korxonaning rentabelligi va uni aniqlash yo'llari.
13. O'zbekistonda korxonalar foydasini oshirishda amalga oshirilayotgan tadbirlar.
14. Kapital. Kapitalga to'lanadigan foiz, uning mohiyati.
15. Ish haqining iqtisodiy mazmuni.
16. Nominal va real ish haqi, ularga ta'sir qiluvchi omillar.
17. O'zbekistonda ish haqini ko'tarishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar.
18. Ishlab chiqarish omillari bozori.

## Test topshiriqlari

### *1. Dividend nima?*

- A) aksioner tomonidan 1 aksiya uchun oladigan daromadi;
- V) xorijiy banklarda saqlanadigan mablag'lar;
- S) banklar tomonidan chiqarilgan pul mablag'lari;
- D) korxonaning boshqa korxonalarga qarzi;
- Ye) boshqa korxonalarga mahsulot sotishdan olinadigan daromadlar.

**2. Korxonalarda umumiy rentabellik quyidagi formula bilan hisoblanadi:**

$$A) \quad R = \frac{F_u}{A_i/ch+MAM} 100\%;$$

$$B) \quad R = \frac{A_i/ch+MAM}{F_u} 100\%;$$

$$C) \quad R = \frac{F+AF}{MAM} 100\%;$$

$$D) \quad R = \frac{F-AF}{NAM} 100\%$$

$$Ye) \quad R = \frac{A_i/ch-AF}{NAM} 100\%$$

Bu yerda: AF – asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymati,

NAM – normalashtirilgan aylanma aktivlar.

F– balans foyda.

**3. Korxonada soliq tulaguncha foyda 420 mln so‘mni tashkil qildi. Foyda solig‘i 20% ni tashkil qiladi. Yuqori tashkilotlarga ajratmalar va boshqa to‘lovlar soliq to‘laguncha foydaning 15 % ni tashkil qiladi. Korxonaning sof foydasini hisoblang.**

A) 147 mln so‘m;

V) 273 mln so‘m;

S) 275 mln so‘m ;

D) 320 mln so‘m;

Ye) 269,2 mln so‘m.

**4. Korxonada mahsulot sotishdan olinadigan foyda quyidagi formula bilan hisoblanadi:**

A)  $F = ( B *T ) /N;$

V)  $F = ( B +T ) * N;$

S)  $F = ( B -T ) / N;$

D)  $F = ( B -T ) +N;$

Ye)  $F = ( B -T ) * N.$

Bu yerda: F – sotishdan olingan foyda,

B– mahsulot ulgurja bahosi,

T– mahsulot tannarxi,

N– Natural ifodada mahsulot ishlab chiqarish hajmi.

**5. Bir soʻmlik tovar mahsulot harajatlari quyidagi formula bilan aniqlanadi.**

- A)  $Z = TM/ TT$ ;
- V)  $Z = TT/TM$ ;
- S)  $Z = TT/ MX$ ;
- D)  $Z = MX/TM$ ;
- Ye)  $Z = TT/MX$ .

Bu yerda:  
TM – tovar mahsulot.  
TT– toʻla tannarx,  
MX– moddiy harajatlar

**6. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish harajatlari quyidagi guruhlardan tashkil topgan. Notoʻgʻri variantni koʻrsating.**

- A) mahsulot ishlab chiqarish tannarxi;
- V) davr harajatlari;
- S) moddiy harajatlar;
- D) moliyaviy faoliyat boʻyicha xarajatlar;
- Ye) favqulotda zararlar.

**7. Korxonada ishlab chiqarilgan 1 tonna mahsulotning tannarxi 420 ming soʻmni tashkil qilayapti. Ushbu mahsulotni sotishdan olinadigan foyda esa 68,3 ming soʻmni tashkil qiladi. Ushbu mahsulotning rentabelligini hisoblang.**

- A) 15,21 %;
- V) 16,25 %;
- S) 17,56 % ;
- D) 18,35 % ;
- Ye) 19,3 % .

**8. Quyidagi xarajatlar shartli oʻzgarmas xarajatlar hisoblanadi. Notoʻgʻrisini koʻrsating.**

- A) maʼmuriy xarajatlar;
- V) amortizatsiya ajratmasi;
- S) binolarni isitish uchun yoqilgʻi xarajatlari;
- D) texnologik maqsadlar uchun energiya xarajatlari;
- Ye) ijara xarajatlari.

**9. Quyidagi xarajatlar moddiy xarajatlar tarkibiga kiradi.**

***Noto'g'risini ko'rsating?***

- A) xomashyova asosiy materiallar;
- V) yordamchi materiallar;
- S) yoqilg'i;
- D) energiya;
- Ye) ishchilarning ish haqi.

**10. Korxonada ishlab chiqarilgan 1 tonna mahsulotning tannarxi 84 ming so'mni tashkil qilayapti. Ushbu mahsulotni sotishdan olinadigan foyda esa 15 ming so'mni tashkil qiladi. Ushbu mahsulotning rentabelligini hisoblang.**

- A) 15,25 %;
- V) 16,12 %;
- S) 17,85 %;
- D) 18,2 %;
- Ye) 20,3 %.

**11. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari quyidagi guruxlardan tashkil topgan. Noto'g'ri variantni ko'rsating.**

- A) mahsulot ishlab chiqarish tannarxi;
- V) davr xarajatlari;
- S) moddiy xarajatlar;
- D) moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar;
- Ye) favqulotda zararlar.

**12. Korxonada hisobot yilda tovar mahsulot 640 mln so'mni tashkil qildi. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq barcha xarajatlar 460 mln so'mni tashkil qildi. Korxonada 1 so'mlik tovar mahsulot xarajatlari qancha so'mni tashkil qilgan?**

- A) 70,2 tiyin;
- V) 71,87 tiyin;
- S) 75,23 tiyin;
- D) 139,13 tiyin;
- Ye) 135,2 tiyin.



## **XI BOB. KORXONANING INVESTITSION FAOLIYATI**

### **11.1. Investitsion jarayon va investitsiyalar tasnifi**

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar va mamlakatning iqtisodiy faoliyati ko‘p jihatdan amalga oshirilayotgan investitsiyalar hajmi va shakli bilan belgilanadi. «Investitsiya» termini lotincha «invest» so‘zidan olingan bo‘lib, «qo‘yish», «mablag‘ni safarbar etish» ma‘nosini anglatadi. Ammo kengroq ma‘noda investitsiya – bu ko‘paytirib, kaytarib olish maqsadlarida kapitalni biror-bir ishga kiritishni bildiradi. Ko‘pgina hollarda «investitsiyalar» tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne‘matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ham ta‘riflanadi.

«Chet el investitsiyalari» tushunchasiga ta‘rif berishda yuqoridagi ma‘nolar nazarda tutiladi, lekin o‘z o‘rnida ularning qonuniy jihatlari va maqsadiga ko‘proq urg‘u beriladi. O‘zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to‘g‘risidagi» Qonunida (30-aprel 1998-y) O‘zbekiston Respublikasi hududida chet ellik investorlar tomonidan qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlari obyektlariga aksariyat hollarda foyda olish maqsadlarida kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne‘matlar hamda ularga doir huquqlarning jami turlari, shu jumladan, intellektual mulkka bo‘lgan huquqlar hamda chet el investitsiyalaridan olinadigan har qanday daromad chet el investitsiyalari sanaladi. Milliy iqtisodiyot chetdan qo‘yilma sifatida chet el kapitalini va uning turli shakllarida (pul, tovar, mulkiy huquq, intellektual mulk va boshq.) qabul qilishi mumkin.

Tadbirkorlik faoliyati obyektlariga qo‘yiladigan investitsiyalar turli shakllarda bo‘lishi mumkin. Investitsiyalarni rejalashtirish, hisoblash va tahlil etish maqsadida investitsiyalar qo‘yidagi sifatlar bo‘yicha klassifikatsiyalanadi:

**11.1.-jadval.**

**Investitsiyalarning sifatlar bo'yicha klassifikatsiyasi/**

<b>n/r</b>	<b>klassifikatsiyasi</b>	<b>turlari</b>	<b>xususiyatlari</b>
<b>1.</b>	<i>Vositalarini qo'yish obyektlari bo'yicha</i>	real investitsiyalar (moddiy va nomoddiy aktivlarga qo'yilmalar);	Real investitsiyalar deb real aktivlarga (ya'ni material va nomaterial aktivlar) quyiladigan vositalar tushuniladi. Nomaterial aktivlarga quyiladigan vositalar ilmiy-texnik progress va innovatsion investitsiyalar bilan xarakterlanadi.
		moliyaviy investitsiyalar (moliyaviy vositalarga, ya'ni qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalar).	Moliyaviy investitsiyalar deganda turli moliyaviy vositalarga, ya'ni qimmatli qog'ozlarni sotib olish, tijorat banklariga kapital qo'yish va boshqa kompaniyalar kapitalida ulushga ega bo'lishga qaratilgan kapital qo'yilmalar tushuniladi.
<b>2.</b>	<i>Investitsiyalashda qatnashish xarakteri bo'yicha:</i>	to'g'ri investitsiyalar (investorlar investitsiyalashda bevosita qatnashadilar);	To'g'ri investitsiyalar investorning investitsiyalash obyektni tanlashda va vositalarni qo'yishda bevosita qatnashishi ko'zda tutadi. To'g'ri investitsiyalashni investitsiyalash obyekti to'g'risida aniq axborotga ega yoki investitsiyalash mexanizmi bilan yaxshi tanish investorlar amalga oshiradilar.
		egri investitsiya (investitsiyalash moliyaviy vositachilar	Egri investitsiyalar investitsion yoki moliyaviy vositachilar yordamida amalga oshiriladi. Ko'pincha hamma investorlar ham

		yordamida amalga oshiriladi)	investitsiyalash obyektini tanlash va keyinchalik ularni boshqarish bo'yicha kerakli bilim va malakaga ega bo'lavermaydi, bunda ular investitsion yoki boshqa moliyaviy vositachilar yordamidan foydalaniladi va ular chiqargan qimmatli qog'ozlarni sotib oladilar.
3.	<i>Investitsiyalash muddati bo'yicha:</i>	qisqa muddatli muddatli investitsiyalar mavjud.	Qisqa muddatli investitsiyalarga asosan 1 yilga qo'yiladigan kapital kiradi (qisqa muddatli depozitlar, qisqa muddatli jamg'arma sertifikatlar).
		uzoq muddatli investitsiyalar mavjud.	Uzoq muddatli investitsiyalar asosan 1 yildan ko'p muddatga qo'yiladi. Investitsion kompaniyalar amaliyotidan uzoq muddatli investitsiyalar quyidagicha tasniflanadi: a) 2 yilgacha; b) 2 yildan 3 yilgacha; v) 3 yildan 5 yilgacha; g) 5 yildan ortiq.
4.	<i>Investitsiyalash subyektlari bo'yicha:</i>	davlat investitsiyalari;	Davlat investitsiyalariga davlat boshqaruv organlari tomonidan byudjet hisobidan qilinadigan yoki davlat korxonalar tomonidan o'z hisobidan qilinadigan qo'yilmalar tushuniladi.
		korporativ investitsiyalar;	Korporativ investitsiyalarga mam-lakat subyektlari bilan xorijiy davlat subyektlarining investitsiyalari kiradi.

		xususiy investitsiyalar;	Xususiy investitsiyalar mamlakat fuqarolari, nodavlat shakldagi korxonalar tomonidan amalga oshiriladi
		xorijiy investitsiyalar	Xorijiy investitsiyalar chet ellik jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va davlatlar tomonidan amalga oshiriladi.
5.	<i>Regional sifat bo' yicha</i>	mamlakat ichidagi investitsiyalar	Mamlakat ichidagi investitsiyalarga ushbu davlat territoriyasida joylashgan investitsiyalash obyektlariga qo'yiladigan vositalar tushuniladi.
		mamlakat tashqaridagi investitsiyalar	Mamlakat tashqarisidagi investitsiyalarga mamlakat tashqarisida joylashgan investitsiyalash obyektlariga quyiladigan kapital qo'yilmalar tushuniladi. Intellektual investitsiyalar patentlarni, litsenziyalarni, nou-xaularni, personalni tayyorlash va qayta tayyorlashni sotib olish ko'zda tutadi.
6.	<i>Foydalanish yo' nalishtirib bo' yicha</i>	yangi korxonani tashkil etish bilan bog'liq investitsiyalar;	yangi tashkil etilayotgan korxonalar bilan bog'liq investitsiyalar

		jismoniy va ma'naviy eskirgan	jismoniy va ma'naviy eskirgan ishlab chiqarish uskunalari almashtirish, ishlab chiqarishning asosiy vositalarini joriy va kapital ta'mirlash bilan bog'liq investitsiyalar;
		faoliyat yuritayotgan va ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga sarflayotgan investitsiyalar	korxonalar ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga, korxonalar ishlab chiqarish dasturi strukturasi o'zgartirishga qaratilgan investitsiyalar.
	<i>Investitsiyalar hajmi bo'yicha</i>	investitsiyalar nisbatan kichik	Bunda sohalar bo'yicha investitsiyalar chegarasini aniqlashga individual yondashiladi.
		investitsiyalar nisbatan o'rta	
		investitsiyalar nisbatan katta	

7.	Investitsiyalash maqsadlari va ular bilan bog'liq xavflar bo'yicha	venchur;	katta xavflar bilan bog'liq bo'lgan, yangi faoliyat sohalarida yangi aksiyalar chiqarish <b>venchur kapital</b> shakli hisoblanadi. <b>Venchur kapitali</b> - bu yuqori tavakkalchilik bilan bo'liq yangi faoliyat turlarida chiqariladigan yangi aksiyalarga investitsiya kiritishdir. Venchur kapitali asosan innovatsion va yangi texnologiyalar bilan bo'liq faoliyat turlarida uchraydi
bevosita;		<b>Bevosita investitsiyalar</b> esa iqtisodiy subyektning ustav kapitaliga daromad topish va xo'jalik yurituvchi subyektni boshqarishda ishtirok etish huquqini olish maqsadlarida kiritiladigan investitsiyalardir.	
portfel;		<b>Portfel investitsiyalar</b> moliyaviy resurslarni diversifikatsiya asosida portfelni shakllantirish bilan bog'liq va investorning aniq bir investitsiya maqsadlariga yoki uyg'unlashgan maqsadlariga erishish uchun xizmat qiladigan turli boyliklarning bir butun qilib yig'ilgan majmuidan iborat.	
annuit		<b>Annuitet investorga</b> muntazam ravishda belgilangan muddatlarda	

			<p>muayyan daromad keltiruvchi investitsiyalardir.</p> <p><b>Annuitet</b> (nemischa annuitat-yillik тyлов)–investitsiya kirituvchi shaxsga bir xil vaqt orali’ida muayyan daromad keltiradigan investitsiyalardir. Bunga asosan su’urta va nafaqa jam’armalariga mabla’ qo’yishni misol tariqasida keltirish mumkin</p>
--	--	--	---

Investitsiyalash maqsadlari va ular bilan bog‘liq xavflar bilan bir qatorda, investitsiyalar boshqa aktivlarni, xususan, nomoddiy, aylanma aktivlarni shakllantirishga yo‘naltirilishini ham nazardan soqit qilmaslik kerak. Shu munosabat bilan ularni safarbar etish va bog‘lash obyektlariga mol-mulk, moliyaviy vositalar, nomoddiy va intellektual boyliklar kiritiladi. Investitsiya kiritish maqsadlari va ular bilan bog‘liq xavflardan kelib chiqqan holda investitsiyalar yuqorida keltirib o‘tgan venchur (xavfli), bevosita, portfel va annuitet kabi turlarga tasniflanadi.

**Annuitet investorga** investitsiyalar kiritish sohalari va ularning aniq jarayonlar va obyektlarga bog‘lanishiga qarab aniq maqsadlarga ega bo‘ladi hamda ularga aniq va noaniq xavflar xos. Investitsiyalash subyektlari nuqtai nazaridan investitsiyalarni **xususiy, korporativ va davlat investitsiyalariga** ajratish mumkin. Investitsiyalarni mazmun va mohiyatini aniqlovchi asosiy mezon sifatida, ularning makon va zamonda harakatda bo‘lishidan kelib chiqib, kelgusidagi manfaatlar va ularga erishish bilan bog‘liq bo‘lgan xavflar tashkil etadi. Investitsiyalarning mohiyatini yanada to‘laroq ochib berish uchun O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonuniga muvofiq ularning tasnifini, shuningdek, bu masala bo‘yicha iqtisodiy adabiyotlarda mavjud bo‘lgan qarashlar va nuqtai nazarlarni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.


## 11.2. Korxonaning investitsion siyosati

Mamlakatimiz hududlarining barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash O'zbekistonda yuritilayotgan iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lmoqda. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishi, turmush sharoitining yaxshilanishi ham bevosita ularning iqtisodiyoti rivojlanishi bilan bog'liq. Mamlakat iqtisodiyoti hududlardan tarkib topgan bu butun tizimni tashkil etgani sababli, uning har bir mintaqasidagi rivojlanishni ta'minlash mamlakatimizning uzluksiz taraqqiyotiga zamin yaratadi.

Shunday ekan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda mamlakat va uning mintaqalarida yaratilgan investitsion jozibadorlik va nisbiy afzalliklar muhim o'rin tutadi. Aynan ushbu omillarga investorlar tomonidan alohida e'tibor beriladi.

Hududlarning investitsion jozibadorligini aniqlashda turli uclublardan foydalaniladi. Ularning bir-biridan farqi investitsion muhitni belgilaydigan ko'rsatkich va indikatorlarni tanlab olishda namoyon bo'ladi.

Yurtimiz olimlarining tadqiqotlariga ko'ra, mintaqalarning investitsion jozibadorlik indeksi oltita element asosida hisoblanadi va shu bo'yicha integral indeks aniqlanadi.



**1-rasm. Hududlarda faoliyat yuritayotgan xorijiy sarmoyador ishtirokidagi jami korxonalar soni (hududlar bo'yicha).**



Olingan ma'lumotlarga ko'ra, mintaqalarning investitsion jozibadorligini uchta guruhga bo'lish mumkin (1-jadval).

**1-jadval**

**Hududlarning investitsion jozibadorligini aniqlash elementlari<sup>11</sup>**

	<b>Hududlar</b>	<b>Hududning umumiy iqtisodiy rivojlanish darajasi</b>	<b>Hududning moliyaviy resurslar bilan ta' minishi</b>	<b>Investitsion infratuzilmani rivojlanish darajasi</b>	<b>Hududning demografik tavsifi</b>	<b>Institutsional o' zgarishlar va rivojlanish darajasi</b>	<b>Hududning investitsion faoliyat xavfsizligi darajasi</b>	<b>Mutlaq integral ko' rsatkich</b>
1	Qoraqalpog'iston	0,0064	0,121	0,085	0,222	0,559	0,535	0,234
2	Andijon	0,341	0,151	0,276	0,426	0,560	0,594	0,367
3	Buxoro	0,304	0,144	0,165	0,413	0,509	0,511	0,315
4	Jizzax	0,198	0,049	0,075	0,388	0,496	0,506	0,151
5	Qashqadaryo	0,362	0,542	0,266	0,382	0,370	0,386	0,382
6	Navoiy	0,536	0,189	0,218	0,348	0,348	0,439	0,338
7	Namangan	0,141	0,118	0,183	0,374	0,531	0,554	0,285
8	Samarqand	0,181	0,234	0,154	0,401	0,607	0,522	0,322
9	Surxondaryo	0,150	0,101	0,104	0,324	0,549	0,422	0,250
10	Sirdaryo	0,185	0,037	0,147	0,320	0,317	0,723	0,247
11	Toshkent	0,434	0,197	0,366	0,493	0,611	0,362	0,404
12	Farg'ona	0,317	0,241	0,331	0,470	0,289	0,573	0,347
13	Xorazm	0,171	0,113	0,199	0,310	0,529	0,535	0,284
14	Toshkent sh.	0,837	0,793	0,701	0,820	0,580	0,845	0,755

*Birinchi guruhga* Toshkent shahri, Toshkent, Qashqadaryo, Andijon va Farg'ona viloyatlari kiradi hamda ular investorlar uchun eng qulay


<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi ma'lumotlari.

hisoblanadi (indeks 0,755-0,347). Investitsion jozibadorlikning yuqori bo‘lishi ushbu hududlarda tabiiy-iqtisodiy salohiyat, infratuzilma, jumladan, transport va axborot-kommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanish darajasi yuqoriligi bilan belgilanadi.

*Ikkinchi guruhni* Samarqand, Buxoro, Navoiy va Namangan viloyatlari tashkil etadi (indeks 0,322-0,288). Ushbu hududlar xorijiy investorlarning qazib oladigan va qayta ishlaydigan korxonalar faoliyat ko‘rsatayotganiga qiziqishi bilan belgilanadi.

*Uchinchi guruhga* nisbatan kam Rivojlangan hududlar – Xorazm, Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo viloyatlari va Qoraqalroq‘iston Respublikasi kiradi (0,284-0,234). Yuqorida qayd etilgan hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda davlatning ishtiroki yuqori bo‘lishi lozim.

Mamlakatimizda 2014-yil uchun amalga oshirish belgilab olingan investitsiya dasturida moliyalashtirishning sezilarli qismi korxonalar mablag‘lari (32 foiz) hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish (23 foiz) orqali amalga oshirilishi rejalashtirilgan (2-rasm).



**2.-rasm. O‘zbekiston Respublikasi investitsiya dasturining 2021 yil uchun belgilangan asosiy ko‘rsatkichlari (milliard so‘m).<sup>12</sup>**

<sup>12</sup> O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi ma‘lumotlari.

Keyingi o'n yilda mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar hajmi 3,2 barobar oshgan bo'lsa, shu davrda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 22 barobardan ziyod o'sgani e'tiborga sazovordir.

Qo'lga kiritilgan tajribalar shuni tasdiqlab bermoqdaki, mamlakatimizning boshqa mintaqalarida ham Navoiy va Angrendagi kabi mahsus industrial zonalarni, zamonaviy logistika tizimlari va transport infratuzilmalarini yaratish bo'yicha boshlagan ishlarimizni davom ettirish maqsadlarimizga javob beradi.

“Chet ellik investorlar xuquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida”gi Qonunga ko'ra, qonunchilik normalarining o'zgartirilishi investitsiyalash shart-sharoitlarini yomonlashtirishga olib kelgan taqdirda, chet ellik investorlarga nisbatan o'n yil mobaynida investitsiya kiritilgan paytda amal qilgan qonunchilik qo'llanadi.

Yana bir qulaylik tomoni shundaki, davlat boshqaruv organlari yoki davlat hokimiyati mahalliy organlari tomonidan chet ellik investorlarning huquqlarini kamsitadigan normativ hujjatlar qabul qilingan, shuningdek, chet ellik investorlarning xo'jalik faoliyatiga g'ayriqonuniy aralashishga yo'l qo'yilgan taqdirda bularning oqibatida etkazilgan zarar sud orqali mazkur organlar tomonidan qorlanadi.

Mamlakatimizda chet ellik investorning O'zbekistonda olgan daromadlarini qaytadan investitsiya sifatida kiritish bo'yicha hech qanday cheklovlar yo'q – chet ellik investorning daromadi, uning xohishiga ko'ra, har qanday shaklda ishlatilishi mumkin.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va chet el investitsiyalarini jalb qilishning kengayib borish darajasiga qarab, investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, bevosita chet el investitsiyalarini yangi loyihalarga, shuningdek, xususiy tadbirkorlik subyektlarining katta qismini investitsiya faoliyatiga jalb qilishni ham nazarda tutadi. Bunda chet el investitsiyalari oqimini rag'batlantirish, shu bilan birga, milliy iqtisodiyot subyektlarining bu faoliyatda ishtirok etishini taqdirlash muhim o'rinda tutadi.

### **11.3. Korxonaning ishlab chiqarish bazasini rivojlantirishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish**

Bugungi kunda 2009 – 2014 yillarda amalga oshirish ko‘zda tutilgan investitsion loyihalar dasturini to‘liq amalga oshirish uchun barcha moliyaviy manbalar hisobidan jami 42,5 mlrd. dollar miqdorida mablag‘ ajratilishi ko‘zda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasi hukumati nomidan O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi faoliyati doirasida xorijiy investor o‘rtacida investitsiya shartnomalarini tuzish va ishlab chikishda qatnashish muhim vazifalardan biri bo‘lib, ushbu jarayon O‘zbekiston Respublikasi investitsiya dasturining amalga oshirilishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil uchun Investitsiya dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 29-dekabrda RK-1455-con qarori bilan tasdiqlangan bo‘lib, unga ko‘ra investitsiya dasturining aniq manzilli qismiga muvofiq farmasevtika, tekstil, kimyo, neft va gaz sohalarida yangi yuqori texnologik ishlab chiqarishlarni yaratishga qaratilgan yirik va strategik jihatdan muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Sarhisob qilinayotgan yilda tashqi iqtisodiy aloqalar investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan mazkur loyihalarning o‘z vaqtida bajarilishi yuzasidan doimiy davlat monitoringi olib borilgan. Natijada, 2021 yil yakunlariga ko‘ra investitsiya dasturi aniq manzilli qismiga kirgan 150 ta loyiha bo‘yicha xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilishning prognoz ko‘rsatkichlarini bajarilish darajasi o‘tgan yil ko‘rsatkichlariga nisbatan 117,9% o‘shishni ta‘minlagan holda yil prognoziga nisbatan 120,5% ni tashkil qildi. 2021-yilda o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi energetika sohasida qiymati qariyb 2 mlrd 700mln doll dan iborat bo‘lgan 150 ta loyiha amalga oshirildi, qurilish sanoatiga (70%) kommunikatsiya va axborotlashtirish sohaci transport infratuzilmasini rivojlantirish

sohaci 477 million dollar kapital qo‘yilmalar yo‘naltirildi. Bu davr mobaynida investitsiya dasturining yirik va o‘ta muhim loyihalarini amalga oshirilishi hisobiga O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga dunyoning 30 dan ortiq mamlakati, jumladan, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Malayziya kabilardan xoriy investitsiyalar jalb etildi. 2021-yilda umumiy hisobda 780 million dollardan ortiq bo‘lgan 33 ta o‘ta muhim va strategik muhim loyihalarning amalga oshirilishi nihoyasiga yetdi.

Xususan, (1) Xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik doirasida Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Xitoy Xalq Respublikasi imtiyozli kreditlari hisobiga amalga oshirilgan yirik ijtimoiy muhim loyihalarning bajarilishi yakunlandi. Natijada, 15 ta butlovchi elekt rovozlari xarid qilindi, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarining aholi yashaydigan qishloq hududlaridagi suv chiqarish uskunalarning quvvati 12,9 ming kub, metr ga oshirildi, Qoraqalrog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatlarining aholi yashash joylari suv bilan ta‘minlandi, umumiy qiymati 39,5 mln.doll. ga teng zamonaviy meditsina acbob-uskunalari xarid qilindi. (2) Yirik sanoat obyektlari ishga tushirildi: -Koreyaning “KOMCKO” va “Interneshnl” kompaniyalari ishtirokida Yangiyo‘l qog‘oz-sellyuloza fabrikaci negizida paxta sellyulozaci ishlab chiqarishni tashkillashtirish;

–“MChJ “Acia Trade qo‘shma korxonasi”- Britaniyaning «Beatpikc Management Ltd» va «Tranc Trading Systemc L.R.» kompaniyalari ishtirokida bir marotaba ishlatiladigan meditsina ashyolarini ishlab chiqarish zavodini tashkil etish.”

– “MChJ «Xim-Teks-Treyd» kompaniyasi bilan hamkorlikda «BULUT TEXITILE» qo‘shma korxonasi negizida yigiruv sanoatini tashkillashtirish”.

– «Indorama Corporation Pte Ltd» (Singapur) kompaniyaci bilan hamkorlikda Qo‘qon tekstil fabrikasi negizida yigiruv sanoatini tashkillashtirish;

– «AKAFOM» (Kipr) kompaniyasining to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalari hisobiga «OREINT TECHNOLOG» (Nukus sh.) qo‘shma korxonasi negizida charm qayta ishlashni tashkillashtirish;

– «ShIGUO» (Xitoy) xorijiy korxonasi sarmoyasi ishtirokida «Yangi Vega» qo‘shma korxonasida Poyabzal fabrikasini zamonaviylashtirish asosida yirik va strategik muhim loyihalar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, 2021-yilda xududiy investitsiya dasturi loyihalarini amalga oshirish jarayoni bo‘yicha 2021 yil yanvar-mart oylari oralig‘idagi davr mobaynida xududiy investitsiya dasturi doirasida barcha manbalar bo‘yicha umumiy qiymati 110,1 % asosiy kapitalga investitsiyalar (AQSH dollari ekvivalentida 114,3) ushish suratiga erishildi. Shu asnoda 2,8 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi. Xududiy investitsiya dasturi doirasida to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar yengil sanoat, qurilish materiallarini ishlab chiqarish, xizmatlar sohasi, oziq-ovqat sanoati, charm kayta ishlash va poyabzal ishlab chiqarish, kimyo sanoati, metallni kayta ishlash, farmasevtika, elektrtexnika, parrandachilik, meva sabzavot mahsulotlarini saqlash uchun muzlatgichlar tashkil etish, qurilish, avtomobil detallarini ishlab chiqarish, kog‘oz ishlab chiqarish, mebel sanoati kabi iqtisodiyotning turli sohalariga jalb etildi. Xududiy investitsiya dasturi doiracida to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar dunyoning 30 ta mamlakatidan jalb etilgan bo‘lib, ularning asosiy qismi Xitoy, Buyuk Britaniya, AQSH, Turkiya, Rossiya, Janubiy Koreya, Cingapur, BAA, Shveysariya, Shotlandiya, Gollandiya kabi mamlakatlarga to‘g‘ri keldi.

Hisobot davri mobaynida yig‘irilgan ip (“Delta tek” qo‘shma korxonasi, Andijon viloyati), trikotaj (“Prime Textile” xorijiy korxonasi va “Accord Textile” qo‘shma korxonasi, Toshkent viloyati), gilam va gilam buyumlari (“Sam Parda Feyza Antep” qo‘shma korxonasi, Samapqand viloyati) ayollar va erkaklar Poyabzali (“Acian Trade Link” xorijiy korxonasi, Cirdaryo viloyati va “Rubber

Truct and eva producs” qo‘shma korxonasi , Andijon viloyati), attorlik mollari (“Aromask international” qo‘shma korxonasi Toshkent shahri), yuvish vostalari (“Tolga Tekin” xorijiy korxonasi , Toshkent shahri) kabi mahsulotlarning ishlab chiqarilishi tashkil etildi va modernizatsiya qilindi. Hududiy investitsiya dasturi doiracida xorijiy mablag‘lar ishtirokida 72 ta korxonalar qayta tuzildi, shu jumladan, avvallari birorta ham qo‘shma va xorijiy korxonalar ro‘yxatga olinmagan Qorovulbozor, Nurota, Yangibozor tumanlarida “Inter Machinerie servis”, “Zafar Granite Mining”, “Yangibozor Texno Cervic” kabi 3 ta korxonalar tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan manfaatdor vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda ishlab chiqilgan, quyidagilarni o‘z ichiga oluvchi O‘zbekiston Respublikasining 2020 — 2022-yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturida:

850,5 trln so‘m investitsiyalar, shu jumladan 35,5 mlrd AQSh dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalar 2020 — 2022-yillarda kapital qo‘yilmalarni shu yillarda investitsiyalar va kreditlarni o‘zlashtirish hamda jalb qilishning prognoz parametrlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

## 2-jadval

### 2020 — 2022-yillarda kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish manbaalari <sup>1314</sup>

t/r	Moliyalashtirish manbaalari	2020 yil	Prognoz 2022 yil
1.	Kapital qo‘yilmalar	284,418	332,893
2.	Markazlashtirilgan investitsiyalar	50,817	58,234
3.	Markazlashmagan investitsiyalar	233,601	274,659

<sup>13</sup> <https://flex.uz/docs/F4689644>


<sup>14</sup> O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi ma’lumotlari.

206 ta yangi ishlab chiqarish quvvatlari va 31 mingdan ziyod ish o‘rinlari yaratilishini nazarda tutuvchi 2020-yilda yirik ishlab chiqarish obyektlari va quvvatlarini ishga tushirish manzilli dasturi 2-ilovaga muvofiq. Jumladan, 2020-yilda investitsiya va kreditlarni o‘zlashtirish, davlat kafolati ostida xorijiy kreditlar jalb qilgan holda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar jalb qilgan holda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari, loyihaoldi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash talab etiladigan investitsiya loyihalari va ishlab chiqiladigan istiqbolli investitsiya loyihalari ro‘yxati bo‘yicha ishlar olib borildi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-2022-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturi bo‘yicha birgina 2022- yilning yanvar-mart oylarida O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 50,1 trln. so‘m o‘zlashtirildi. Dollar ekvivalentida 4,6 mlrd. AQSH doll. o‘zlashtirilgan bo‘lib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 126,3 % ni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning 61,1 % i yoki 30,6 trln. so‘mi jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 38,9 % yoki 19,5 trln. so‘m moliyalashtirildi. Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2021- yilning mos davridagi ulushiga nisbatan 5,1 % punktga kamayib, 6,9 % ni yoki 3,5 trln. so‘mni tashkil etdi. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 46,6 trln. so‘m yoki jami investitsiyalarning 93,1 % investitsiyalari o‘zlashtirilib, 2021- yilning mos davridagi ko‘rsatkichga nisbatan 5,1 % punktga ko‘paydi.





**3-rasm. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar<sup>15</sup>**

2021 yilda tashqi iqtisodiy aloqalar investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan mazkur loyihalarning o'z vaqtida bajarilishi yuzasidan doimiy davlat monitoringi olib borilgan. Natijada, 2021-yil yakunlariga ko'ra investitsiya dasturi aniq manzilli qismiga kirgan 150 ta loyiha bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilishning prognoz ko'rsatgichlarini bajarilish darajaci utgan yil ko'rsatkichlariga nisbatan ijobiy ta'minlagan holda yil prognoziga nisbatan 100% ni tashkil qildi.

«O'zinfoinvest» agentligi 3 ta yo'nalish bo'yicha xorijiy investitsiyalarni jalb etadi.

1) to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar:

- davlat investitsiya dasturi yig'ma ro'yxati loyihalari;
- hududiy investitsiya dasturi loyihalari;
- davlat kafolati ostida imtiyozli kredit mablag'larini jalb etish yig'ma ro'yxati;

<sup>15</sup> <https://ffstat.uz/fuz>

- grant mablag‘lari.

2) *korxonalarining aksiyalar paketini ictiqbolli xorijiy investorlarga taklif etish;*

3) *kimoshdi savdolariga mulkiy majmua sifatida qo‘yilgan korxonalarni istiqbolli xorijiy investorlarga taklif etish.* Shuning bilan birga «O‘zinfoinvest» agentligi mahalliy tadbirkorlik subyektlariga xorijiy investorlarni topish, ularni O‘zbekistonga taklif qilib muzokaralar tashkil etishga ko‘maklashish, investorlarga Respublika investitsion salohiyati, shuningdek soliq va qonunchilikdagi boshqa imtiyozlar to‘g‘ricida ma’lumot beradi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar va mamlakatning iqtisodiy faoliyati ko‘p jihatdan amalga oshirilayotgan investitsiyalar hajmi va shakli bilan belgilanadi. «Investitsiya» termini lotincha «invest» so‘zidan olingan bo‘lib, «qo‘yish», «mablag‘ni safarbar etish» ma’nosini anglatadi. Ammo kengroq ma’noda investitsiya – bu ko‘paytirib, kaytarib olish maqsadlarida kapitalni biror bir ishga kiritishni bildiradi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda mamlakat va uning mintaqalarida yaratilgan investitsion jozibadorlik va nisbiy afzalliklar muhim o‘rin tutadi. Aynan ushbu omillarga investorlar tomonidan alohida e’tibor beriladi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va chet el investitsiyalarini jalb qilishning kengayib borish darajasiga qarab, investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, bevosita chet el investitsiyalarini yangi loyihalarga, shuningdek, xususiy tadbirkorlik subyektlarining katta qismini investitsiya faoliyatiga jalb qilishni ham nazarda tutadi. Bunda chet el investitsiyalari oqimini rag‘batlantirish, shu bilan birga, milliy iqtisodiyot subyektlarining bu faoliyatda ishtirok etishini taqdirlash muhim o‘rinda tutadi.

«O‘zinfoinvest» agentligi mahalliy tadbirkorlik subyektlariga xorijiy investorlarni topish, ularni O‘zbekistonga taklif qilib muzokaralar tashkil etishga ko‘maklashish, investorlarga Respublika investitsion salohiyati, shuningdek soliq va qonunchilikdagi boshqa imtiyozlar to‘g‘ricida ma’lumot beradi.

## Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Investitsiyalar iqtisodiy mohiyatini ochib bering.
2. Investitsiyalarni asosiy turlarini aytib bering.
3. Investitsiya faoliyati tushunchasini ochib bering.
4. Investitsiya resurslariga nimalar kiradi?
5. Annuitet investitsiyalar deganda nimani tushunasiz?
6. Bank krediti va investitsiyalar o'rtasidagi farq nimalardan iborat?
  - 7.»O'zinfoinvest» agentligi qaysi yo'nalishlar bo'yicha xorijiy investitsiyalarni jalb etadi?

### Test topshiriqlari:

**1. Korxonalar investitsiyalashni rejalashtiraetgan summalar. YaIMda bunday investitsiyalar jamg'armaga teng bo'lib, tovar zaxiralari darajasi stabil bo'lganda bu:**

- A) chet el investitsiyalari;
- V) ipoteka investitsiyalari;
- S) rejaviy investitsiyalar;
- D) investitsiyalar.

**2. Aksioner kapitalga tug'ri investitsiyalar, kompaniya aksioner kapitali ulushini yoki aksiya paketini sotib olish bu:**

- A) aksioner kapitalga investitsiyalash;
- V) kapital qo'yilmalar;
- S) intellektual investitsiyalar;
- D)investitsiyalar.

**3. Ishlatilish muddati bir yilgacha bo'lgan kapital qo'yilmalar bu:**

- A) o'rta muddatli investitsiyalar;
- V) qisqa muddatli investitsiyalar;
- S) uzoq muddatli investitsiyalar;

D) investitsiyalar.

**4. Iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar bu:**

A) tug'ri investitsiyalar;

V) egri investitsiyalar;

S) investitsiyalar;

D) aksiyalar.

**5. Investitsiyalangan vositalarni yoki aktivlarni naqd pulga tezlik bilan o'tkazish imkoniyati bu:**

A) likvidlik;

V) royalti;

S) xedjirlash;

D) aylanma.

**6. Tayyor mahsulotni ishlab chiqarishdan boshlab, litsenziat tomonidan ma'lum vaqt oralig'ida litsenziarga, litsenzion kelishuv amalga oshishi davomida, litsenzion to'lovni amalga oshirish bu:**

A)royalti;

V)likvidlik;

S)xedjirlash;

D)aylanma.

**7. Bir butun bo'lib boshqariladigan xar xil turdagi va muddatdagi qimmatli qog'ozlar majmuasi bu:**

A) qimmatli qog'ozlar portfeli;

V) investitsiya portfeli;

S) investitsiyalash;

D) aksiya.

**8. Investorga muntazam ravishda belgilangan muddatlarda muayyan daromad keltiruvchi investitsiyalar bu:**

- A) annuitet;
- V)spred;
- S)diskont;
- D)aylanma.

**9. Taklifning minimal narxi va talabning maksimal narxi o'rtasidagi farq bu:**

- A) annuitet;
- V) spred;
- S) diskont;
- D) aylanma.

## **XII BOB. KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA TIJORAT SIRI**

### **12.1. Korxonada xavfsizligini ta'minlashning maqsadi, vazifalari va tamoyillari**

Xavfsizlik bu murakkab va serqirra kategoriyadir. U asosan va ko'pincha ishlab chiqarishda foydalanilayotgan vositalarning xavfsizligi nuqtai nazaridan baholanadi va ko'rib chiqiladi. Shu sababli hozirgacha biz texnika xavfsizligi, piyoda xavfsizligi, oziq-ovqat xavfsizligi yoki zararsizligi kabi tushunchalarni uchratsakda, korxonada xavfsizligiga hali duch kelganimiz yo'q.

Mahsulotlarning zamonaviy namunalari, ishlab chiqarish texnologiyasi, investitsiya rejalari va boshqalar sanoat ayg'oqchiligining diqqat markazida turib, korxonada va mamlakat uchun ma'lum bir xavf tug'diradi. Shu sababli xavfsizlik va tijorat sirlari muammolari hozirgi bozor va raqobatchilik sharoitlarida iqtisodiyot fanining, jumladan, zamonaviy korxonalar iqtisodiyotining muhim bo'limlaridan biri hisoblanadi.

Korxonada xavfsizligini ta'minlashning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- korxonada va uning barcha bo'linmalari, mehnat jamoasining davlat tuzilmasi, xorijiy hamkorlar va raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda qonuniy huquqlarini himoya qilish;
  - korxonada mulkini saqlash, undan oqilona va unumli foydalanish;
  - ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirish;
  - tashkiliy va ishlab chiqarish barqarorligiga erishish, butlovchi qismlar yetkazib beruvchilarga yordamchi va hamkorlarga bir tomonlama qaram bo'lishga yo'l qo'ymaslik;
  - barcha tuzilmaviy bo'g'inlardagi xodimlar orasida mehnat intizomini mustahkamlash;
  - mehnat unumdorligini oshirish uchun moddiy va ma'naviy

manfaatdorligini ta'minlash;

- ishlab chiqarishda fan-texnika yutuqlaridan foydalanish, samarali axborot bazasini rivojlantirish;

- korxonada obro'sini oshirish.

Ko'rsatilgan maqsadlardan kelib chiqqan holda korxonada xavfsizligini ta'minlash vazifalari belgilanib, ular korxonaning ichki tartib-qoidalari va ish tartibida hamda maxsus ishlab chiqilgan chora-tadbirlarda o'z aksini topishi mumkin. Bular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Korxonada ichida hamda tashqi tashkilotlar - hukumat idoralari, boshqaruv tuzilmasidagi qoidabuzarlik omillari, vakolatni oshirish hollari va hokazolarni aniqlash.

2. Korxonaning barqaror ishlashiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xavf-xatar hamda bozor konyunkturasidagi noqulay o'zgarishlarni aniqlash va zarur choralarini qo'llash.

3. Bo'lajak hamkorlarni o'rganish, ularning moliyaviy ahvolini tahlil qilish va baholash.

4. Iqtisodiy ayg'oqchilikka qarshi chora-tadbirlarni tayyorlash.

5. Korxonada sirlaridan xabardor bo'lgan malakali xodimlarni boshqa korxonalariga jalb qilishning oldini olish.

6. Nosog'lom raqobatchilikni yengish.

7. Korxonada hududi va moddiy resurslarini himoya qilish.

8. Tijorat sirlarini muhofaza qilishni tashkil qilish.

9. Mehnat jamoasi a'zolari orasidagi salbiy fikrlarni aniqlash.

10. Favqulodda hodisalarning oldini olish va xavfsizlikning boshqa choralarini.

Ma'lumki, ko'rsatilgan maqsad va vazifalar o'z-o'zidan avtomatik ravishda hal qilinmaydi. Buning uchun, avvalo, o'z ishini yaxshi bilishdan tashqari mohir va yuqori malakaga ega bo'lgan hamda o'zlari ishlayotgan korxonada uchun "jon kuydiruvchi" kadrlar zarur. Ularsiz muvaffaqiyatga deyarli erishib bo'lmaydi.

**Xavfsizlik tamoyillari** – xavfsizlikni ta'minlash taktika va strategiyasiga bo'lgan asosiy talablar xavfsizlikning maqsad va vazifalarini hal qilishning to'g'ri yo'llarini tanlashdir. Ular qatoriga

quyidagilarni kiritish mumkin:

- qonuniylik tamoyillari;
- mustaqillik va mas'uliyat;
- iqtisodiy maqsadga muvofiqlik va foydalilik;
- maqsadli-dasturiy rejalashtirish;
- o'zaro aloqalar va muvofiqlashtirish;
- mehnatni ilmiy tashkil qilish.
- oshkoralik va zaruriy maxfiylikning uyg'unligi
- ixtisoslashuv va yuqori kasbiy malaka.

## **12.2. Korxonada xavfsizligini ta'minlashni tashkil qilish va boshqarish**

Xavfsizlik hodisalarning oldini olish va ogohlantirish chorasi sifatida, har bir alohida holatdagi aniq harakat bo'lib, korxonada xarakter, uning joylashuvi, ahamiyati va hokazolarga bog'liq bo'ladi. Mazkur jarayonda xavfsizlik tizimining o'zini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Uning rahbari xavfsizlik konsepsiyasini ishlab chiqarishning muayyan sharoitlariga nisbatan ishlab chiqishda shaxsan ishtirok etishi zarur.

Xavfsizlik konsepsiyasi *birinchidan*, korxonaning maqsad va vazifalariga zid kelmasligi; *ikkinchidan*, korxonada xavfsizligiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tashqi muhit ta'sirini inobatga olishi zarur. Bu ta'sirni quyidagi chizma ko'rinishida aks ettirish mumkin

Shu bilan bir vaqtda, korxonada o'z faoliyatining muhim yo'nalishlari xavfsizligini ta'minlash uchun muayyan chora-tadbirlarni amalga oshirishi kerak va buning uchun avvalo, mos keluvchi qo'riqlash tartibini yaratish lozim. Mamlakatimiz va xorij amaliyoti tajribasi bunda quyidagi faoliyat turlarini ajratib ko'rsatadi:

1. Bino va inshootlar, aloqa tarmog'i qurilma va uskunalarni qo'riqlash tartibini ta'minlash.



2. Tezkor xavfsizlik – maxfiy axborotlarga bo‘lgan vakolatni boshqarish, kelib-ketuvchilar, transport va yuk tashishni nazorat qilish, qoidabuzarlik holatlarini tekshirish, axborot xavfsizligini ta’minlash.

3. Xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha ma’muriy faoliyat – personalni tayyorlash va o‘qitish, inspeksiya, taftish va nazorat, muammoli vaziyatlarning oldini olish, istiqbolli chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

4. Moddiy boyliklarni himoya qilish va tabiiy ofatlar bilan kurash – yong‘inlarning oldini olish, yong‘in xavfsizligi va ogohlantirish qurilmalari holatini kuzatib borish va hokazolar.

Korxonalar rahbarlari mehnat jamoalarini doimiy ravishda xavfsizlikni ta’minlash natijalari to‘g‘risida xabardor etishlari lozim. Faqat zarur hollardagina xavfsizlik chora-tadbirlari maxfiy bo‘lishi mumkin. Xavfsizlik chora-tadbirlarining maxfiyligi korxonalarini zaruriy qoidalarni qo‘llash va ularga amal qilishini nazorat qilishni maxsus tashkil etishni ko‘zda tutadi.

Hozirgi jamiyatning axborotlashtirish va elektronlashtirish sharoitlarida korxonalarining xavfsizligini ta’minlash uchun doimiy ravishda faoliyat ko‘rsatuvchi, tijorat faoliyatining xavfsizligini ta’minlashning barcha shakl va usullarini qamrab oluvchi tizim amal qilishi lozim. Shu sababli xavfsizlik xizmati marketing va menedjment xizmati, valyuta, kredit va huquqiy bo‘limlar kabi iqtisodiy bo‘linmalar bilan chambarchas bog‘liqlikda ishlab, iqtisodiy xavfsizlikka ko‘proq yondashgan holda ularning foliyatini to‘ldirishi zarur.

### **12.3. Korxonaning xavfsizlik xizmati, uning tuzilishi va vazifalari.**

Xavfsizlik xizmati korxonaning tuzilmaviy birligi bo‘lib, xavfsizlik tartibini ishlab chiqish, o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, unga rioya qilinishini nazorat qilishni amalga oshiradi. U o‘z faoliyatida quyidagilarga asoslanishi lozim:

- qo‘riqlash tartibini tashkil etish bo‘yicha qoidalar;
- rahbar, mutaxassis va texnik xodimlar uchun maxfiy ma’lumotlar bilan ishlash bo‘yicha lavozim yo‘riqnomasi;

- ma'lumotlarni texnik-muhandislik jihatidan himoya qilishni tashkil etish bo'yicha lavozim yo'riqnomasi;

- xorijiy vakolatxonalar va vakillar bilan ishlash bo'yicha lavozim yo'riqnomasi.

Korxonada xavfsizlik xizmati tarkibida axborot-tahlil bo'linmalari, xavfsizlikni ta'minlash yo'nalishlari bo'yicha tashkiliy bo'g'inlar hamda muayyan vazifalarni bajarish uchun vaqtinchalik tuzilmalar yaratilishi mumkin.

Korxonada rahbariyati yoki aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi qaroriga ko'ra, muayyan maqsadlar va yuzaga keluvchi sharoitlarda xavfsizlikni ta'minlashning murakkab vazifalarini hal qilish uchun korxonaning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda vaqtinchalik tuzilmalar yaratilishi mumkin.

Belgilangan vazifalarni bajarish uchun korxonaning xavfsizlik xizmati quyidagilarni amalga oshiradi:

- ma'muriy-taqsimlash vazifasi, xavfsizlik tartibini o'rnatish va ta'minlash, mas'ul shaxslarning korxonada xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha huquq va majburiyatlarini belgilash, shuningdek, korxonaning mazkur faoliyat turi sohasidagi vakolat vazifalarini amalga oshirishga oid qarorlar tayyorlash yo'li bilan amalga oshiriladi;

- xo'jalik-taqsimlash vazifasi, xavfsizlik xizmatining korxonada xavfsizligini ta'minlashda zarur bo'lgan resurslarni belgilash, korxonada mulki va intellektual boyliklarini saqlash va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlash chora-tadbirlarini tayyorlash va amalga oshirishda ishtirok etishi yo'li bilan amalga oshiriladi;

- hisob-nazorat vazifasi, tijorat-moliyaviy faoliyatning eng muhim yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish va korxonaning moliyaviy barqarorligiga tahdid soluvchi xavf-xatarning oldini o'z vaqtida olish, ularning manbalarini baholash, xavfli holatlarni nazorat qilishni yo'lga qo'yish, korxonada xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi salbiy omillarni hisobga olish, shuningdek, korxonaning hayotiy ehtiyojlariga tahdid soluvchi g'irrom raqiblar, ishonchsiz hamkorlar, shaxslar va tashkilotlar haqida

ma'lumotlar yig'ish yordamida amalga oshiriladi;

- ijtimoiy-kadrlar vazifasi, xavfsizlik xizmatining kadrlarni joylashtirish, mehnat jamoalaridagi salbiy fikrlar, ijtimoiy ziddiyatlarning yuzaga kelishi sabablari va sharoitlarini aniqlash, janjallarning oldini olish, xodimlarga yo'riqnoma berish, ularda belgilangan xavfsizlik me'yorlariga rioya qilish uchun javobgarlik tuyg'usini shakllantirishdagi ishtiroki orqali amalga oshiriladi;

- tashkiliy-boshqaruv vazifasi, korxonada xavfsizligini ta'minlash jarayonini boshqarishning doimiy tashkiliy tuzilmasini yaratish, qo'llab-quvvatlash va o'z vaqtida qayta tashkil etishga boshqaruv ta'sirini ko'rsatish, faoliyatning alohida yo'nalishlari bo'yicha moslashuvchan vaqtinchalik tuzilmalar, alohida bo'g'inlar o'rtasida belgilangan dasturiy maqsadlarga erishish uchun o'zaro aloqalar va muvofiqlashtirishni tashkil etish yordamida amalga oshiriladi;

- rejali-ishlab chiqarish vazifasi, korxonada xavfsizligini ta'minlash bo'yicha alohida maqsadli rejalar va dasturlar majmuini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish, xavfsizlik tartibini o'rnatish va qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlarni tayyorlash va bajarish yordamida amalga oshiriladi;

- tashkiliy-texnik vazifa, korxonada xavfsizlik tartibini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash, maxsus texnikalar hamda yangi, progressiv texnologiyalar, maxfiy tartib va boshqa maxsus faoliyatlarni o'zlashtirish yordamida amalga oshiriladi;

- ilmiy-uslubiy vazifa, korxonada xavfsizligini ta'minlashning ilg'or tajribalarini to'plash va tarqatish, xodimlarni o'qitishni tashkil etish, korxonada oldida yuzaga keluvchi korxonada xavfsizligini ta'minlashga oid muammolarni hal qilishning ilmiy jihatdan ishlab chiqish va uning bu sohadagi faoliyatini uslubiy ko'rsatmalar bilan ta'minlash yordamida amalga oshiriladi;

- axborot-tahlil vazifasi, xavfsizlikka oid ma'lumotlarni maqsadli ravishda yig'ish, to'plash va ular bilan ishlash, buning uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni analitik tahlil qilishning texnik va uslubiy

vositalarini yaratish va ulardan foydalanish, korxonaning manfaatdor bo‘linmalari va alohida shaxslarni xavfsizlik xizmatida mavjud bo‘lgan ma‘lumotlar bilan ta‘minlash yordamida amalga oshiriladi.

Yuqorida keltirilgan vazifalar korxonada xavfsizlik xizmatining zarur tashkiliy tuzilmasini shakllantirishga imkon beradi.

Korxonada xavfsizlik xizmati Nizomida uning maqsad va vazifalari, huquq va majburiyatlari, nazorat-taftish faoliyati belgilab beriladi. Xavfsizlik xizmati o‘z faoliyatini korxonada xavfsizligini yuqori darajada ta‘minlash va qo‘llab-quvvatlash asosida olib borib, quyidagilarni qamrab oladi:

- maxfiy tartibdagi faoliyatni tashkil etish;
- axborot xavfsizligini ta‘minlash;
- muhandislik-texnik muhofaza;
- mehnat jamoalaridagi salbiy yo‘nalishlarning oldini olishga oid faoliyat.

#### **12.4. Korxonaning tijorat sirlari**

*Korxonaning tijorat sirlari* ishlab chiqarish, texnologik ma‘lumotlar, boshqaruv, moliya va shu kabilar bilan bog‘liq bo‘lib, ularni oshkor qilish korxonada manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan ma‘lumotlardir. Korxonada “tijorat sirlari” toifasining qonunchilikda belgilab berilgan tavsifnomasi shunday.

Mavjud nuqtai nazarlarga ko‘ra, korxonaning tijorat sirlari umumiy holda o‘z ichiga quyidagi ma‘lumotlarni qamrab oladi:

- korxonaning savdo aloqalari haqida;
- kapital hajmi va tuzilmasi, investitsiya rejalari haqida;
- ta‘minotchi va iste‘molchilar, tuzilgan shartnomalar haqida;
- ishlab chiqarish hajmi, aylanma mablag‘lar va foyda hajmi haqida;
- bahoni shakllantirish siyosati va tovarlar bahosining shakllanishi haqida;
- bank opresiyalar haqida va hokazolar.

Ko‘pincha “tijorat sirlari” tushunchasidan tashqari korxonaning “ishlab chiqarish sirlari” tushunchasi ham qo‘llaniladi. U ishlab chiqarish usullari, texnologiyalar, texnik kashfiyotlar, tadqiqot ishlari, mehnatni tashkil qilish, aloqa tarmog‘i va shu kabilar haqidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Bugungi bozor munosabatlari, ayniqsa raqobatchilik muhiti sharoitlarida korxonalar tijorat va ishlab chiqarish sirlarining oshkor qilinishi uning ahvoriga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar iste‘molchilarini yo‘qotishga olib kelishi mumkin. Mutaxassislarining fikriga ko‘ra, tijorat sirlariga mansub ma‘lumotlarning to‘rtidan bir qismi yo‘qotilishi ham raqiblar uchun katta imkoniyat yaratadi hamda bir necha oy ichida ma‘lumotlar chetga chiqib ketishiga yo‘l qo‘ygan firmalarning yarmi bankrotga uchrashiga olib keladi. Shu sababli hozirgi paytda tijorat sirlarining huquqiy maqomi va toifasini aniq belgilash, ularni oshkor qilish uchun javobgarlik mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, tijorat sirlarini muhofaza qilish mexanizmi, korxonaning moliyaviy va texnik imkoniyatlari bilan aloqada bo‘lganda, shuningdek ma‘lumotlarni himoya qilishning ishonchli tizimi mavjud bo‘lgandagina to‘liq kuch bilan ishlaydi. Bundan tashqari quyidagilarni to‘g‘ri tashkil qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi:

- tayyor mahsulot (ayniqsa tajriba namunalari) va materallarining ba‘zi turlarini hisobga olish va qo‘riqlash;
- tadbirkorlik sirlari mavjud bo‘lgan hujjatlar bilan ishlash tartibi (ularni hisobga olish, saqlash, yo‘q qilish qoidalari va boshqalar);
- hujjatlarni ko‘paytirish va ulardan nusxa olish vositalarini nazorat qilish;
- aloqa vositalari va hisoblash texnikasida tijorat ma‘lumotlarini himoya qilish;
- korxonalar hududi va uning asosiy bino va inshootlarini qo‘riqlash;
- mazkur korxonaga begona shaxslar tashrif buyurishini nazorat

qilish.

Yuqorida sanab oʻtilgan barcha vazifalarni samarali bajarish boshqaruv apparatida tijorat sirlarini muhofaza qilish bilan shugʻullanuvchi maxsus xizmatlarni yaratishni koʻzda tutadi. Xorij mamlakatarida mazkur faoliyat bilan firmalarning maxsus boʻlinmalari shugʻullanadi. Ular raqobatchilar toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni izlash va toʻplash bilan ham shugʻullanadi. Shu bilan bir vaqtning oʻzida ular savdo hamkorlarining tijorat sirlarini birgalikda himoya qilish imkoniyatini ham rad qilmaydilar. Masalan, baʼzi firmalar faoliyatida tadbirkorlik aloqalari davomida hamkorlarga berilgan maʼlumotlarni birgalikda himoya qilish boʻyicha maxsus shartnomalar tuzish tartibi koʻzda tutilgan.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarning (masalan, AQSHning) davlat idoralarida maxsus vositachilik xizmatlari mavjud boʻlib, u mijozlarni ularni qiziqtirayotgan korxonalar va tashkilotlar haqidagi maʼlumotlar bilan taʼminlaydi. Mamlakatimizda korxonalar davlatga soliqqa tortish va iqtisodiy maʼlumotlarni yigʻish va ular bilan ishlash tizimi uchun zarur boʻlgan maʼlumotlarni taqdim etishi qonun hujjatlarida belgilab qoʻyilgan. Shuningdek, korxonalar oʻz faoliyatlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni, jumladan, yillik balansni nashr qiladilar. Shu bilan bir paytda korxonalar tijorat sirlariga oid maʼlumotlarni bermaslik huquqiga ega. Tijorat sirlari davlat boshqaruv va nazorat idoralari xodimlari orqali chetga chiqib ketishining oldini olish maqsadida korxonalar rahbari ularning vakolatlarini bilishi hamda ular talab qilgan istalgan maʼlumotni emas, balki faqat xizmat vakolatiga doir maʼlumotlarni taqdim etishi zarur. Birinchi oʻrinda bu statistika xizmati, monopoliyaga qarshi kurash qoʻmitasi, militsiya, moliya, soliq, sanitariya, yongʻinga qarshi kurash va boshqa xizmat vakillariga tegishli. Korxonalar rahbari shuningdek, davlat idoralari xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlari ustidan arz qilish tartibi, ular tufayli korxonaga yetkazilgan moddiy va maʼnaviy zararni qoplash mexanizmini bilishi va unga amal qilishi zarur.

Ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, iqtisodiy va boshqa xizmatlar

mutaxassislari o'zi ishlayotgan korxonaning tijorat sirlariga oid ma'lumotlar chetga chiqib ketishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan va real yo'qotishlarni to'g'ri va aniq (qiymat shaklida) baholashni o'rganib olishlari zarur.

Korxonalarining maxfiylik shartlariga rioya qilmaslik natijasida yuzaga keluvchi yo'qotishlari umumiy ko'rinishda quyidagilarga olib keladi:

- ilmiy tadqiqotlarga litsenziya sotish imkoniyatlari pasayadi, fan-texnika taraqqiyoti sohasida erishilgan ustunliklar yo'qotiladi, ilmiy-tadqiqot bo'linmalarining yo'nalishni o'zgartirishlari uchun xarajatlari o'sadi;
- ishlab chiqarish faoliyatida zarur bo'lga xomashyo, texnologiya va hokazolarni sotib olishda qiyinchiliklar yuzaga keladi (yoki raqobatchilar tomonidan sun'iy ravishda yaratiladi);
- korxonaning tadbirkorlikdagi sheriklar bilan hamkorligi cheklanadi, foydali shartnomlarni imzolash imkoniyatlari kamayadi, shartnoma majburiyatlarini bajarishda muammolar vujudga keladi;
- korxonaning yangi bozor strategiyasini yaratish, marketing tadqiqotlari tuzilmasini o'zgartirish va hokazolarga sarflanuvchi xarajatlari o'sadi;
- tijorat sirlarini oshkor qilganlarga nisbatan iqtisodiy jazo choralari qo'llash xavfi kuchayadi.

Barcha yo'qotishlarning umumiy miqori qiymatini aniq hisoblash juda murakkab va ko'p mehnat talab qiluvchi jarayon bo'lib, ba'zida ishonchi ma'lumotlar yo'qligi sababli ularni hisoblashning imkoni ham bo'lmaydi. Shu sababli ko'p hollarda korxonalarining ma'lumotlarni himoya qilishga rioya etmaslik bilan bog'liq bo'lgan yo'qotishlarini yiriklashtirilgan ekspert baholash kifoya qiladi.

Yuqorida keltirilgan yo'qotishlarning o'rnini qoplash ko'pincha korxonalardan qo'shimcha xarajatlarni talab qilib, ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatchilik kurashida erishish mumkin bo'lgan muvaffaqiyatlar imkoniyatini pasaytiradi. Xuddi shuning uchun ham

hozirgi paytda tijorat sirlarini muhofaza qilishga katta e'tibor qaratilmoqda.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Korxonada xavfsizligini ta'minlashning asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
2. Ko'rsatilgan maqsadlardan kelib chiqqan holda korxonada xavfsizligini ta'minlash vazifalari sanab bering.
3. Korxonaning ichki tartib-qoidalarini va ish tartibida hamda maxsus ishlab chiqilgan chora-tadbirlari nimalarda o'z aksini topadi?
4. Xavfsizlik tamoyillarini sanab bering.
5. Korxonada xavfsizligini ta'minlashni tashkil qilish va boshqarish deganda nimani tushunasiz?
6. Korxonaning xavfsizlik xizmati, uning tuzilishi va vazifalarini ayting.
7. Xavfsizlik xizmati korxonaning tuzilmaviy birligi bo'lib, u o'z faoliyatida nimalarga asoslanishi lozim?
8. Xavfsizlik xizmati o'z faoliyatini korxonada xavfsizligini yuqori darajada ta'minlash va qo'llab-quvvatlashi nimalarda o'z aksini topadi?
9. Korxonaning tijorat sirlari deganda nimani tushunasiz?
10. Korxonaning tijorat sirlari umumiy holda o'z ichiga qanday ma'lumotlarni qamrab oladi?

### **Test topshiriqlari:**

**1. Quyidagi ta'riflardan qaysi biri "Iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasini to'laroq tavsiflab beradi?**

- A) iqtisodiy xavfsizlik – bu turli beqarorlikni, tanglikni keltirib chiqaruvchi ichki va tashqi tahdidlar ta'siridan himoya qiluvchi ichki imkoniyatlar yig'indisidir;
- B) iqtisodiy xavfsizlik – bu iqtisodiyotning ijtimoiy ehtiyojlarni samarali qondirishga qodirligidir;
- C) iqtisodiy xavfsizlik – bu shaxs, jamiyat va davlatning mavjudligi va ularning talab-ehtiyojlarining qondirilishidir;



D) iqtisodiy xavfsizlik – bu milliy iqtisodiyot mustaqilligining, uning barqarorligi, mustahkamligi, doimo yangilanishga va takomillashib borishga qodirligini ta'minlovchi shart-sharoit va omillar yig'indisidir.

**2. Iqtisodiy xavfsizlik chegarasi saqlanishi uchun investitsiyalar hajmi YaIMga nisbatan necha foizni tashkil etishi kerak?**

- A) 25 foizni;
- B) 15 foizni;
- C) 10 foizni;
- D) 30 foizni.

**3. 1974-yilda bo'lib o'tgan Oziq-ovqat masalalari bo'yicha Butun Jahon sammitida qanday hujjat taqdim etilgan?**

- A) oziq-ovqat xavfsizligi konsepsiyasi;
- B) harakat dasturi;
- C) sammit rezolyutsiyasi;
- D) ishchi guruh hisoboti.

**4. YaIM qanday narxlarda hisoblanadi?**

- A) bozor narxlarida;
- B) ishlab chiqarish narxlarida;
- C) eksport narxlarida;
- D) jahon bozoridagi o'rtacha narxlarda.

**5. Pashsh narxlari indeksi bu ?**

- A) hisobot davrida sotilgan tovarlar bazasiga nisbatan hisobot davridagi narxlarning o'zgarishini tavsiflaydi;
- B) oldingi yillarda sotilgan tovarlar bazasiga nisbatan hisobot davridagi narxlarning o'zgarishini tavsiflaydi;
- C) hisobot davrida sotilgan tovarlar bazasiga nisbatan hisobot davridagi narxlarning o'zgarishini tavsiflaydi;
- D) narx-navo barqarorligini ta'minlaydigan iqtisodiy jarayonlarni o'lchovchi holatni o'zgarishini tavsiflaydi.

**6. Mamlakatning tashqi qarzi necha foizdan oshib ketsa, xavfsizlik chegarasi buziladi?**

- A) nisbatan 25 foizdan oshsa;
- B) YaIMga nisbatan 15 foizdan oshsa;
- C) YaIMga nisbatan 10 foizdan oshsa;
- D) 10% dan oshmasligi kerak.

**7. Iqtisodiy va ijtimoiy omillar deganda nimani tushunasiz?**

- A) talab va taklif omillar;
- B) moddiy, ma'naviy, iqtisodiy omillar;
- C) moddiy va tashkiliy xarakterdagi omillar;
- D) tashkiliy xarakterdagi omillar.

## ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

1. **Firma**-foydani topish maqsadida ko‘zlangan korxonalar, kompaniya, biron bir xo‘jalik tashkiloti, xodimlar soni, mulk shakllari, huquqiy holati va boshqalarga ko‘ra xilma-xil firmalar bor. Firmalarda band bo‘lgan xodimlar soni 2-3 kishidan 20-30 ming kishidan iborat bo‘lishi mumkin, firmalar barcha mulk turdagi negizida davlat, kooperativ jamoa tashkilotlari va mahalliy shaxslari, shuningdek, aralash mulk negizida faoliyat ko‘rsatadi. Hozirgi iqtisodiy hayotda firmalarning asosiy qismi nisbatan kichik va mayda. Yirik firmalar nisbatan mustahkam ishlab chiqarish, texnologik va xomashyobazasiga ega bo‘lib, xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etadi, o‘rtacha firmalar kooperatsiyalangan faol ishtirok etadi, o‘rtacha firmalar kooperatsiyalangan hamda ixtisoslashgan qismlar va detallar ishlab chiqarish sohasida faoliyat kursatadi. Mayda firmalar asosan, tovarlar ishlab chiqarish va aholiga xizmat kursatish bilan shugullanadi.

2. **Foyda** - sotilgan mahsulot (ko‘rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan tannarxi ayrimasi, qo‘shimcha mahsulotning pul shakli. Foyda daromadning bir qismi. Foydaning muvozanat, hisob-kitob va qoldiq shakllari mavjud. Mahsulot tannarxini pasaytirish, jadallshtirish asosida ishlab chiqarish hajmini oshirish foyda o‘shining asosiy omillari hisoblanadi.

3. **Rentabellik** - tarmoq yoki korxonaning foyda olib ishlashi. Foyda olish darajasini ko‘rsatadi. Foiz hisobida ifodalanadi. Ishlab chiqarish rentabelligi ma‘lum davr 9 oy, chorak, yilda qo‘lga kiritilgan foyda midorining shu vaqtida foydalanilgan yillik asosiy ishlab chiqarish fondlari va aylanma vositalari qiymati yig‘indisiga yoki mahsulotni ishlab chiqarish, sotish xarajatlarining tannarxi nisbati sifatida hisoblanadi. Mahsulot rentabelligi ayrim mahsulot turining daromaddorligi, foydaning aks ettiradi va mahsulot sotishdan olingan foydaning uning to‘la tannarxiga nisbati bilan hisoblanadi.

4. **Bankrotlik (sinish)** - fuqaro, firma korxonalar yoki bankning mablag‘ yetishmasligidan o‘z majburiyatlari bo‘yicha qarzlarni

to'lashga qurbi yetmasligi. Bankrotlikka uchrashning sabablari tovar ishlab chiqarishda qiymat qonunning amal qilishi, raqobat va inflyatsiya bilan belgilanadi. Korxonaning bankrot deb e'lon qilinishi unga nisbatan qator saralash tadbirlarni amalga oshirishni, unga har tomonlama yordam ko'rsatishni ko'zda tutadi. Bozor sharoitida davlat tomonidan bankrot korxonalar o'z ahvollarini yaxshilab olishlari uchun ko'mak tarzida bir qator tadbirlar ko'riladi. Bankrot deb e'lon qilingan korxonalar asosan shu korxonalar jamoa a'zolariga ijaraga berilishi yoki boshqa korxonalarga sotilishi, ular bilan birlashib ketishi mumkin.

**5. Tadbirkorlik** - pul topish maqsadida va mas'uliyatni zimмага olgan holda biron iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish; tashabbuskorona antibyurokratik xo'jalik faoliyat uslubi; muttasil yangi imkoniyatlar qidirish, mahoratni ishga solib, qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun turli manbalardan resurslarni jalb etish va undan foydalanishga asoslanadi. Tadbirkorlikni iqtisodiy mas'ul hisoblanadi, ish joyida isrofgarchilikka, noomilkkorlikka, uquvsizlikka, o'g'irlikka yo'l qo'yilmaydi. Jumhuriyatimizda mayda va o'rta savdo, umumiy ovqatlanish va aholiga xizmat ko'rsatish korxonalarining xususiy lash-tirishi munosabati bilan xususiy tadbirkorlik ancha rivojlanadi.

**6. Talab** - to'lovga qobil ehtiyoj; bozorga chiqqan va kerakli miqdordagi pul bilan ta'minlangan ehtiyojni ifoda etadi. Talab ehtiyojdan kelib chikadi, xaridga ajratilgan pul shaklida ifodalanadi.

**7. Taklif** - ishlab chiqaruvchilar bozorga sotishga tayorlagan (chiqargan) muayyan narxlarga ega tovarlar va xizmatlar midori.

**8. Inflyatsiya** - muomalada xujalik oboroti ehtiyojlaridan ortik darajada qog'oz pullar miqdori ko'payib ketishi, pul massasining tovarlar massasidan ustinligi natijasida tovar bilan ta'minlangan pullarning paydo bulishi. Ishlab chiqarish xarajatlari-tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishga qilinadigan barcha sarflardir.

**9. Ichki xarajatlar**- korxonaning o'ziga tegishli bo'lgan resurslardan qilingan xarajatlar.

10.**Tashqi xarajatlar** - tashqaridan jalb qilingan resurslarga to'lovlarni amalga oshirishga ketgan xarajatlar

11.**Doimiy xarajat**- ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etmaydigan, u o'zgarganda ham midorini o'zgartirmaydigan xarajatlar.

12.**O'zgaruvchi xarajat**-ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sir etadigan xarajatlar.

13.**O'rtacha xarajatlar** - mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlar.

14.**Qo'shimcha xarajatlar** - mahsulotning navbatdagi qo'shimcha birligini ishlab chiqarishga qilinadigan xarajatlar.

15.**To'g'ri xarajatlar**- mahsulot tannarxiga ustama bo'lib, narxda aks etadigan xarajatlar.

16.**Egri xarajatlar** - mahsulot tannarxga ustama bo'lib, narxda aks etadigan xarajatlar.

17.**Iqtisodiy yoki sof foyda** - yalpi pul tushumidan barcha xarajatlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismi.

18. **Foyda massasi**- foyda massasining ishlab chiqarish xarajatlariga bo'lgan nisbatining foizdagi ifodasi.

## FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

### Asosiy adabiyotlar

1. Mc Connell, Brue. Economics. 19<sup>th</sup> edition. Mcgraw-hill/Irwin, USA, 2018.
2. N. Gregory Mankiw. Principles of Economics, 7<sup>th</sup> edition. Amazon, USA 2016.
3. И.Хотамов, Ш. Мустафакулов, И.Исаков, А. Абдувалиев. Корхона иқтисодиёти ва инновацияларни бошқариш. Ўқув қўлланма. Toshkent: Iqtisodiyot. 2019.
4. R.S. Muratov, I.A. Djalalova, S.Sh. Oripov. Korxonalar iqtisodiyoti. Darslik. – T.: «Fan va texnologiya», 2014, – 424 bet.
5. Махмудов Э.Х. Экономика промышленных предприятий. Учебное пособие – Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2015, – 256 б.
6. А.Ортиқов. «Саноат иқтисодиёти» (дарслик). –Т.: ТДИУ. 2004.
7. Э. Махмудов. «Корхона иқтисодиёти» (ўқув қўлланма) –Т.: ТДИУ. 2004. 208-бет.

### Qo‘shimch adabiyotlar

3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 8-9-жилдлар.- Т.: Давлат илмий нашриёти. 2002-2005.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 18.05.2020 й. ПФ-5996-сон «Коронавирус пандемияси даврида аҳоли ва тадбиркорлик субъектларини қўллаб-қувватлаш бўйича навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида»ги Фармони// Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)), 2020 йил 19 май
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 05.05.2020 й. ПФ-5989-сон «Тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини қўллаб-

қувватлашга доир кечиктириб бўлмайдиган чора-тадбирлар тўғрисида»ги Фармони// Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz),2020 йил 6 май

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 26.03.2020 й. ПФ-5975-сон «Иқтисодиётни ривожлантириш ва камбағалликни қисқартиришга оид давлат сиёсатини тубдан янгилаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони// Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz),2020 йил 27 март

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 мартдаги Ф-5975-сонли «Иқтисодиётни ривожлантириш ва камбағалликни қисқартиришга оид давлат сиёсатини тубдан янгилаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони

9. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // [https:// president.uz/ uz/lists/view/3324](https://president.uz/uz/lists/view/3324)

10. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: : “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.

11. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – 48 б

12. Б.А.Абдукаримов ва бошқалар, “Корхона иқтисодиёти”.: дарслик – 2-қайта ишланган ва тўлдирилган нашри. – Т.: “Фан”, 2012 – 371-бет.

13. Ўлмасов А, Шарифхужаев М. Иқтисодиёт назарияси (дарслик).Т. «Мехнат», 1995.

14. Шишкин. А.Ф. Экономическая теория. Учебная пособия для вузов. 2 -е изд: В 2 кн. М: «Владос», 1996. Гл. 21.

15. Борисов Е.Ф. Экономическая теория. Учебник. -М.: Юрист, 1997. Гл.

16. Сажина М.А., Чибриков Г.Г. Экономическая теория. Учебник для вузов.- М.; «Издательская группа НОРМА-ИНФРА\* м, 1998.Гл. 5.»

17. K.Yuldoshev, K.Muftaydinov. Iqtisodiy ta'limotlar tarixidan. T.: 2000.

18. Bazeler U., Savob Z., Xaynrix Y.Kox V «Osnovi ekonomicheskoy teorii: printsipi, problemi, politika» uchebник. Sankt - Peterburg «Piter» 2004 yil.

19. B.Xojiyev «Kichik va urta tadbirkorlikning ahamiyati»

20. M.Ismoilov, N.SHaydullayev «Ekologik muammo» Jamiyat va boshkaruv (ilmiy-siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-tarixiy jurnal) 2004 y. №4

Промышленность Республики Узбекистан 2001-2004 гг.  
Статистические сборники.

[www.gov.uz](http://www.gov.uz). - Hukumat sayti.

[www.press-service.uz](http://www.press-service.uz). - Prezident sayti.

[www.tsue.uz](http://www.tsue.uz) - Universitet sayti



## MUNDARIJA

KIRISH.....	
I BOB. KORXONA IQTISODIYOTI KURSINING MAZMUNI VA VAZIFALARI.....	8
1.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasining iqtisodiy ahamiyati.....	8
1.4. “Harakatlar strategiyasidan–Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyilining mazmuni, mohiyati va fanni o‘rganishdagi ahamiyatli tomonlari.....	12
II BOB. KORXONA – MUSTAQIL XO‘JALIK FAOLIYATINI YURITUVCHI BOZOR SUBYEKTI.....	22
2.1. Milliy iqtisodiyot rivojlanishida korxonaning o‘rni va roli...	22
2.2. Korxonaning belgilari, funksiyalari va vazifalari.....	25
2.3. Korxonalarni tasniflash.....	28
2.4. Korxonada tuzilmasi va uni belgilovchi omillar.....	43
III BOB. KORXONANI TASHKIL QILISH VA UNING FAOLIYATINI TO‘XTATISH.....	51
3.1. Korxonani tashkil qilish tamoyillari.....	51
3.2. Ta’sis hujjatlari.....	53
3.3. Korxonalarining davlat tomonidan ro‘yxatga olinishi.....	55
3.4. Korxonani tugatish va qayta tashkil qilish.....	60
IV BOB. KORXONANI BOSHQARISH.....	63
4.1. Boshqaruv obyektiv zaruriyat va maqsadga yo‘naltirilgan jarayon sifatida.....	63
4.2. Boshqarishning asosiy tamoyillari va usullari.....	68
4.3. Boshqaruvning zamonaviy tuzilishi.....	82
4.4. Boshqarishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari.....	88
V BOB. KORXONA FAOLIYATINI REJALASHTIRISH VA BASHORAT QILISH.....	95
5.1. Rejalashtirish va prognozlashning mohiyati, ahamiyati va vazifalari.....	95
5.2. Rejalashtirish tamoyillari va usullari.....	105
5.3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalar tizimi.....	111

5.4. Ishlab chiqarish rejasini tuzib chiqish va tasdiqlashni tashkil etish.....	115
5.5. Rejalashtirishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari.....	121
<b>VI BOB. SANOAT ISHLAB CHIQRISHNING IQTISODIY VA IJTIMOIIY SAMARADORLIGI .....</b>	<b>128</b>
6.1. Samaradorlik sanoat ishlab chiqarishining «ko‘zgusi» sifatida. Bozor munosabatlari sharoitida samaradorlikning o‘rni va ahamiyati	128
6.2. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, mezonlari va ko‘rsatkichlari. Xarajatlarning umumiy va qiyosiy samaradorligi.....	130
<b>VII BOB. KORXONALARNING ASOSIY FONDLARI VA ISHLAB CHIQRISH QUVVATI.....</b>	<b>141</b>
7.1. Asosiy fondlarning mohiyati va ularning korxonada faoliyatidagi o‘rni.....	141
7.2. Korxonalarda asosiy fondlarni eskirishi, ularni baholash va ta‘mirlash.....	145
7.3. Asosiy fondlardan foydalanishni yaxshilash yo‘llari va ko‘rsatkichlari.....	152
7.4. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati.....	156
<b>VIII BOB. KORXONANING AYLANMA MABLAG‘LARI.....</b>	<b>165</b>
8.1. Aylanma fondlarning mohiyati va ahamiyati.....	165
8.2. Moddiy resurslardan samarali foydalanish masalalari.....	166
8.3. Aylanma mablag‘lar va ularning aylanishini tezlashtirish.....	168
<b>IX BOB. KORXONADA MEHNAT RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH, MEHNATNI TASHKIL ETISH VA HAQ TO‘LASH .....</b>	<b>177</b>
9.1. Kadrlar siyosati va uning sanoat taraqqiyotidagi roli.....	177
9.2. Kadrlar, ularning tarkibi va strukturasi.....	180
9.3. Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish.....	183
9.4. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.....	184
9.5. Mehnat va unga haq to‘lash.....	186
<b>X BOB. ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI, FOYDA VA RENTABELLIK.....</b>	<b>202</b>
10.1. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va uning tarkibi.....	202
10.2. Ishlab chiqarish xarajatlariga ta‘sir etuvchi omillar.....	207

10.3. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning asosiy yo‘nalishlari va iqtisodiy samaradorlik.....	210
10.4. Foydaning mazmuni. Foyda me‘yori va massasi.....	215
10.5. Zarar ko‘rish va bankrotlik.....	217
10.6. Foydani taqsimlanishi va ishlatilishi.....	218
XI BOB. KORXONANING INVESTITSION FAOLIYATI.....	224
11.1. Investitsion jarayon va investitsiyalar tasnifi.....	224
11.2. Korxonaning investitsion siyosati.....	231
11.3. Korxonaning ishlab chiqarish bazasini rivojlantirishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.....	235
XII BOB. KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA TIJORAT SIRI.....	245
12.1. Korxonada xavfsizligini ta‘minlashning maqsadi, vazifalari va tamoyillari.....	245
12.2. Korxonada xavfsizligini ta‘minlashni tashkil qilish va boshqarish	247
12.4. Korxonaning tijorat sirlari.....	251
ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR.....	258
FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR .....	261

**RO‘ZIYEVA DILOBAR ISOMIDDINOVA**

## **KORXONA IQTISODIYOTI**

Toshkent – «INNOVATSION RIVOJLANISH  
NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2022

Muharrir:	N. Abdullayeva
Texnik muharrir:	A. Moydinov
Musavvir:	A. Shushunov
Musahhih:	L. Ibragimov
Kompyuterda sahifalovchi:	M. Zoyirova

E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +99899920-90-35  
№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.

Bosishga ruxsat etildi 02.08.2022.

Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasini.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i: 17,0. Nashriyot bosma tabog‘i 16,75.

Tiraji: 50. Buyurtma №85

«INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI»  
bosmaxonasida chop etildi.  
100174, Toshkent sh, Olmazor tumani,  
Universitet ko‘chasi, 7-uy.

